3. Tashqi va ichki qarzlar hajmi YaIM ga nisbatan 60 foizdan oshib ketganligini hisobga olib, bu borada keskin choralarni amalga oshirish lozim. Qarz miqdorining YaIM ga nisbatan 60 foizdan oshmasligi bo‘yicha xalqaro me‘yor mening nazarimda tashqi savdo va to‘lov balansi ijobiy bo‘lgan, budjet defitsiti belgilangan me‘yor darajasidan oshmagan, moliyaviy barqarorlikka erishgan mamlakatlar uchun mos keladi. 5-6 yillardan buyon tashqi savdo va to‘lov balansi salbiy bo‘lgan, budjet defitsiti va qarzi yildan-yilga oshib borayotgan O‘zbekiston uchun bu boradagi me‘yor darajalari bir muncha past bo‘lishi kerak. Shuning uchun milliy tahlikali me‘yor, chegaralar tizimini ichlab chiqish lozim.

4. Korrupsiyaga qarshi kurashni qat‘iylashtirish, mamlakatda soliq to‘lashdan bosh tortgan va bo‘yin tovlagan barcha subyektlarni aniqlash metodikasini takomillashtirib, jazo choralari kuchaytirish. Bu borada zararlarni undirish maqsadida hatto mol-mulkini musodara qilish lozim.

Korrupsiyaga yo‘l qo‘gan davlat va xususiy sektor mulozimlarini jazolash choralari kuchaytirish maqsadida ular oladigan imtiyozlardan mahrum qilish bo‘yicha bir qancha xorij mamlakatlarida mavjud bo‘lgan tajribalarni qo‘llash va buning uchun huquqiy-me‘yoriy hujjatlarni ishlab chiqish, mavjudlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, mamlakatda qulay biznes muhitini, barcha turdagi tadbirkorlik sub‘ektlari uchun teng raqobatlashish muhitini bosqichma-bosqich yaratish strategiyasini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Matbuot va so‘z erkinligini ta‘minlash orqali jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqbul bo‘ladi.

5. Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish uchun oliy va o‘rta maxsus ta‘lim muassalarida Moliyaviy savodxonlik fanini o‘qitish. Umum ta‘lim muassasalarida yo‘qori sinf o‘quvchilari uchun oila ,budjet va uni yuritish bo‘yicha fakultativ darslar tashkil etish. Ommaviy

axborot vositalarida moliyaviy savodxonlik bo'yicha turli ko'rsatuvlar hamda ommabop eshittirishlarni muntazam olib borish maqsadga muvoviqdir.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

- 1.Абулкосимов Ҳ.П., Абулкосимов М.Ҳ. Иқтисодий хавфсизлик: назария ва амалиёт. Ўқув қўлланма.- Т.:Ноширлик ёғдуси, 2019.-620 бет.
- 2.Бурханов А.У. Молиявий хавфсизлик.Ўқув қўлланма.Иқтисодиёт. 2019, 164 б.
- 3.Бурханов А.У. Мамлакат молиявий хавфсизлигининг моҳияти ва уни таъминлашнинг айрим долзарб масалалари//”Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журнали. 4-5-сон (август-сентябрь) 2018й.
- 4.Isayev A. D. O‘zbekistonda monetizatsiya darajasi va uni makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta’siri//Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot//2024-yil, yanvar. No 1-son.-258-265-бетлар.
- 5.Mamatov A.A., Abulqosimov H.P., Mamatov S.A., Saidgazieva S.S, Iqtisodiy xavfsizlik. Darslik.- Toshkent. O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2022.-732bet
- 6.Райзберг Б.А., Лозовский Л.Ш., Стародубцева Е.Б. Современный экономический словарь. – М.:2006. –с.422.
- 7.Tagay A.A., Syazdyakova K. Sh, Turalina S. M., Velesco S. E. Status and development trajectories consumer and mortgage lending in the republic of Kazakhstan //Статистика, учет и аудит, 3(94)2024. стр. 114-127DOI: <https://doi.org/10.51579/1563-2415.2024.-3.09FinanceSRSTI06.73.75UDC336.77:330.567.22>
- 8.Экономическая безопасность России. Учебник / под ред. В.К. Сенчагова. 5-е изд. - М.: БИНОМ, 2015. –с.269
- 9.O‘zbekiston byudjeti uchun og‘ir kelgan 2023-yil: hududlar daromad va xarajatlari qancha bo‘ldi?
- 10.O‘zbekistonning davlat qarzi qariyb 35 mlrd dollarga yetdi// <https://www.gazeta.uz/oz/2024/05/30/gov-deb/#:~>.
- 11.2023 yilda O‘zbekistonning oltin-valuta zahiralari 1,2 mlrd dollarga kamaydi //https://kun.uz/news/2024/01/08/2023-yilda-ozbekistonning-oltin-valuta-zahiralari-12-mlrd-dollariga-kamaydi?

UDK: 631.115.1

**QISHLOQ XO‘JALIGIDA YER RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH
MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI**

**ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕХАНИЗМОВ ЭФФЕКТИВНОГО
ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЗЕМЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ**

**WAYS TO IMPROVE MECHANISMS FOR THE EFFECTIVE USE OF LAND
RESOURCES IN AGRICULTURE**

Ochilova Nargiza Akramovna

QarMII “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrası dotsenti, i.f.f.d. (PhD)

Amirqulov Olimjon Adham o‘g‘li

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligida yer resurslaridan samarali foydalanish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalar, O‘zbekiston sharoitida qo‘llash yo‘nalishlari yer resurslaridan samarali foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: qishloq xo‘jaligi, yer resurslari, mexanizm, samaradorlik, fermer xo‘jaliklari, dehqon xo‘jaliklari, ekin maydonlari.

В статье представлен передовой зарубежный опыт по эффективному использованию земельных ресурсов в сельском хозяйстве, направления его применения в условиях Узбекистана, научно обоснованные предложения и рекомендации по совершенствованию механизмов эффективного использования земельных ресурсов.

Ключевые слова: сельское хозяйство, земельные ресурсы, механизм, эффективность, фермы, крестьянские хозяйства, пашня.

The article presents advanced foreign experience in the efficient use of land resources in agriculture, directions for its application in the conditions of Uzbekistan, scientifically based proposals and recommendations for improving the mechanisms for the effective use of land resources.

Key words: agriculture, land resources, mechanism, efficiency, farming, peasant farms, arable land.

Qishloq xo‘jaligida yer va undan maqsadli foydalanish borasida xorijiy mamlakatlarda o‘tkazilgan islohotlar yerga nisbatan mulkchilik shaklining o‘zgartirilishi, davlat monopol huquqining kamayishi, undan foydalanuvchilar doirasining kengaytirilishi katta iqtisodiy samara berishiga olib kelgan.

Jumladan, qishloq xo‘jaligiga katta e‘tibor beriladigan davlatlardan biri Ruminiyada, hanuzgacha 1991-yilda qabul qilingan “Yer to‘g‘risida”gi Qonun amal qiladi. Unga ko‘ra, qishloq joylarida istiqomat qiluvchi har bir oilaga 10 gektardan 100 gektargacha, har bir kishi uchun esa, 0,5 gektardan kam bo‘lmagan miqdorda yerga egalik qilish huquqi beriladi. Ushbu qonun kuchga kirgan kundan boshlab, dehqonlarning tomorqa yerlari ularning xususiy yerlariga aylanib kelmoqda.

Demak, bu shaklda yer olgan shaxslar 8 yil muddat davomida yer solig‘i to‘lashdan ozod qilinadi. Shu narsani alohida ta’kidlash lozimki, Ruminiya qonunchiligida belgilanganidek, barcha yer egalari qishloq xo‘jaligi yerlaridan maqsadli va oqilona foydalanish majburiyati yuklangan.

Chexiya va Slovakiya mamlakatlari qishloq xo‘jaligida yer islohotlari bosqichma-bosqich, tadriijiy tarzda amalga oshirildi. Bu davlatlarda ham 1991-yilda qabul qilingan “Yer to‘g‘risida”gi qonunda yer bilan bog‘liq munosabatlar belgilab qo‘yilgan [1]. Ushbu qonunda belgilanganidek, yerdan va boshqa qishloq xo‘jaligi mulklaridan foydalanuvchi barcha mulkdorlar ijarachi maqomi bilan e‘tirof etiladi. Ushbu mamlakatlarda dehqon xo‘jaliklarining ulushi katta bo‘lib, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda yetakchilik qilib kelmoqda.

Italiya qishloq xo‘jaligida yerdan foydalanishning joriy tizimi XIX asrning 50-yillaridan boshlab o‘tkazilgan yer islohoti bilan shakllandi. Mazkur islohotni amalga oshirishdan asosiy maqsad shuki, yirik mulkdorlarning yerga nisbatan bo‘lgan monopoliyasidan voz kechib, ularga tegishli mavjud yerlarni davlat ixtiyoriga qaytarib olish natijasida dehqon xo‘jaliklariga qayta taqsimlashdan iborat edi. Bu davlatda faoliyat yurituvchi dehqon xo‘jaliklari yerga bevosita o‘zi ishlov beruvchi qishloq xo‘jaligi xodimi sifatida namoyon bo‘ladi.

Ruminiyada yer munosabatlarini isloh qilish “Bolgariyadagi islohotlarga hamohang tarzda ro‘y berdi. 1991-yilgi “Yer fondi to‘grisida”gi Qonun har bir qishloq oilasiga 10 gektargacha, biroq barchasini qo‘shib hisoblaganda, bir oilaga 100 gektardan oshmagan miqdorda yer uchastkasini tekin olish huquqini belgilab berdi. Tomorqa uchastkalari o‘z-o‘zidan dehqonlarning xususiy mulkiga aylandi. Ruminiyaning yer uchastkalarini xususiy mulkchiligiga olgan barcha fuqarolari yer solig‘idan 8 yilga ozod etildi. Barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlar Ruminiya qonunchiligiga muvofiq, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan faqatgina maqsadli foydalanishlari lozim” [2]. Ruminiya agrar qonunchiligi yerdan foydalanishning yangi shakllari davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishini ko‘zda tutadi. Bunday qo‘llab-quvvatlash imtiyozli kreditlash, moddiy-texnik ta’minlash, soliqqa tortish bo‘yicha amalga oshiriladi.

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘i rivojlangan Avstraliya davlatida hozirgacha XIX asrda qabul qilingan qonunga ko‘ra, yerni erkin tanlash tamoyili amal qilib kelmoqda. Qonun kuchga kirgan dastlabki yillarda ushbu tamoyil har bir Avstraliya fuqarosi yerning hosildorligini hisobga olgan holda, 200 gektardan 800 gektargacha yerga egalik qilishi mumkinligi nazarda tutilgan. Hozirga paytda esa, talabgorlarga beriladigan yer uchastkasi miqdori birmuncha kamaygan. Ayni shu

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 7-son 2024 yil

mamlakat qishloq xo‘jaligida yer uchastkalari sotish bilan bir qatorda yerni ijaraga berish tizimi ham keng tarqalgan [3].

“Kanada aholisining 10 foizi (3 milliondan ortiq kishi) past darajada daromad oladi hamda har o‘ninchi 6 yoshgacha bolasi bor oilalar yetarli darajada oziq-ovqat bilan ta‘minlanmagan. Oilalar umumiy sonining 8 foizga yaqini, ya‘ni 800 mingta oila oziq-ovqat xavfsizligi darajasidan past darajada yashaydi. Aholining 2/3 qismi vazn bo‘yicha muammolarga ega” [4] bo‘lganligi sababli, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida yetishtirilgan tabiiy mahsulotlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Qishloq xo‘jaligiga tegishli yer maydoni 70 mln. gektarni tashkil etadi va iqtisodiy faol aholining 15 foizi qishloq xo‘jaligida band bo‘lib, yalpi ichki mahsulotning 9 foizi agrar sohada yetishtiriladi. Kanadada dehqonchilik mahsulotlari yetishtiruvchilar kichik fermerlar deb atalib, ular asosan don va don mahsulotlari, kartoshka va meva ishlab chiqarishda yetakchilik qiladi. Ushbu mamlakatda kichik fermerlar (dehqonlar) faoliyatini kengaytirishdan asosiy maqsad, aholi orasida tadbirkorlikni rivojlantirishdan iborat [5].

Hindiston dehqon xo‘jaliklarida eng ko‘p guruch va bug‘doy yetishtirish keng yo‘lga qo‘yilgan. Bu davlat chet davlatlarga guruch eksport qilish bo‘yicha dunyoda yetakchi o‘rinni egallagan. Bug‘doy yetishtirish bo‘yicha Hindiston dunyoda AQShdan keyingi ikkinchi o‘rinda turuvchi yirik eksportchi mamlakat hisoblanadi. Ammo, Hindistonda aholi orasida qashshoqlik, bolalarning to‘yib ovqatlanmaslik muammosi, aksariyat fuqarolarning hattoki arzon oziq-ovqat sotib olishga ham imkoni yo‘qligi dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida yetishtirilgan mahsulotlarning noto‘g‘ri taqsimlanishi natijasida ro‘y bergan. Mamlakat aholisining asosiy qismi vegetarian bo‘lganligi sababli, Hindistonda chorvachilik yetarli darajada rivojlanmagan. Bu mamlakatda dehqonchilik mahsulotlari yetishtirish bilan shug‘ullanuvchilar mayda fermerlar deb atalib, ular faoliyatini takomillashtirishdan asosiy maqsad, aholi orasida bandlik darajasini oshirishdan iborat.

Iste‘mol bozorini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlovchilar dehqonlar hisoblanganligi bois, dehqonlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida qishloq xo‘jaligida kredit sxemasi ishlab chiqilgan. Dunyoda ishlab chiqariladigan meva mahsulotlarining 10 foizi ushbu davlat hissasiga to‘g‘ri keladi [6]. Xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish shuni ko‘rsatmoqdaki, ko‘plab mamlakatlarda “shaxsiy yordamchi xo‘jaligi” tuchunchasi mavjud bo‘lib, xo‘jalik faoliyatini tartibga solishga qaratilgan maxsus yaxlit qonunlar qabul qilingan.

Ahamiyatli jihati, mazkur qonunlarda shaxsiy yordamchi xo‘jalikda mahsulotlar yetishtirish va ularni realizatsiya qilish tadbirkorlik faoliyati hisoblanmaydi.

1-jadval

2022-yilda ayrim xorijiy davlatlarning qishloq xo‘jaligida kichik xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ulushi [7]

AQSH da mayda fermer xo‘jaliklarining ulushi, %					
Ko‘rsatkichlar	Bug‘doy	Qand lavlagi	Mevalar	Sabzavotlar	Kartoshka
Dehqon xo‘jaligi	1,3	77	98	83	29
Boshqa xo‘jaliklar	98,8	25	2	20	72
Germaniyada mayda fermer xo‘jaliklarining ulushi, %					
Dehqon xo‘jaligi	2	35	86	92	
Boshqa xo‘jaliklar	98	65	12	10	
Rossiyada mayda krestyan (fermer) xo‘jaliklarining ulushi, %					
Kichik xo‘jaligi	-	60	98	95	40
Boshqa xo‘jaliklar	100	40	2	5	60
Yaponiyada kichik tomorqa xo‘jaliklarining ulushi, %					
Dehqon xo‘jaligi	40,2	-	90,2	82	49
Boshqa xo‘jaliklar	59,8	-	9,8	18	51

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, AQShda bug'doyning 1,2 foizi, qand lavlagining 77 foizi, mevaning 98 foizi, sabzavotning 83 foizi va kartoshkaning 29 foiz qismi aynan ushbu xo'jaliklar hissasiga to'g'ri keladi. Germaniyada asosan meva va sabzavotlarning ulushi yuqori bo'lib, 86 va 92 foizni tashkil etadi. Meva va sabzavot yetishtirish darajasi Rossiya va Yaponiyada yuqori ko'rsatkichga ega. Rossiya va Yaponiyada ham yerdan samarali foydalanishda asosan meva mahsulotlarining ulushu yuqori, ya'ni 98 va 90,2 foizni tashkil etganini ko'rish mumkin. Tadqiqot jarayonida Rossiya Federatsiyasida qishloq xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarishning xo'jalik yuritish shakllari bo'yicha taqsimlanishi tahlil qilindi. Rossiya Federatsiyasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari quyidagi shakllar bo'yicha faoliyat yuritadi: qishloq xo'jaligi korxonalari, krestyan (fermer) xo'jaliklari, aholi xo'jaliklari.

Xulosa qilib aytish mumkinki, AQSH tajribasi hisoblangan klasterlash tizimini qishloq xo'jaligida yerdan samarali foydalanish jarayonida qo'llash lozim. Chunki, bizning tabiiy iqlim sharoit va yaratilgan imkoniyatlar keng. Qolaversa, AQShda aholi orasida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida, mamlakat aholisining kam ta'minlangan qatlami, bolalar va pensionerlarni birlamchi ehtiyojlarini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy dasturlardan kelib chiqib, mamlakatimizda oqilona ratsional ovqatlanish va sog'lom hayot tarzi dasturlarini yaratish va takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Yaponiyaning «Mamlakatni oziq-ovqat bilan ta'minlash siyosati» deb nomlangan hukumat hujjati, AQShning «Oziq-ovqat xavfsizligi to'g'risida»gi qonuni va ularni amalga oshirish tajribasidan O'zbekiston Respublikasining «Oziq-ovqat xavfsizligi to'g'risida»gi qonunini ishlab chiqishda tajribalarni o'rganish maqsadida foydalanish ijobiy samara beradi, deb hisoblaymiz.

Tadqiqot davomida o'rganilgan Xitoy Xalq Respublikasining tajribasiga asosan, asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish sur'atlarini o'stirishni rag'batlantirish, oziq-ovqat mahsulotlariga sifat standartlarini joriy qilish, qishloq xo'jaligi asosiy ekin turlarini mintaqalar bo'yicha mos holda joylashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xolmo'minov J.T. Xorijiy mamlakatlarda tabiiy resurslar huquqi: qiyosiy tahlil va qonunchilikni takomillashtirish // Monografiya. Toshkent 2012 48-bet. 224 bet.
2. Kuchkinov K.A. Yerdan foydalanishga oid shartnomalarni huquqiy tartibga solish: Yurid. fan. dis. ... – Toshkent: 2012. – 17 b.
3. Продовольственная и сельскохозяйственная организация ООН (FAO): официальный сайт. Режим доступа: <http://www.fao.org> (дата обращение: 28.10.2018). <https://uz.delachieve.com/qishloq-xojaligi-kanada/>.
4. Yoriyev, F., & Muminov, N. (2016). Hindiston qishloq xo'jaligini rivojlanishining o'ziga xos jihatlari. <https://doi.org/10.13140/RG.2.2.21358.77120>. Iqtisodiy barqarorlikka erishishda modernizatsiyalash va iqtisodiy mutanosibliklarni ta'minlash muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2016-yil, 27-aprel. 142-145 betlar.
5. Food and Agriculture Organization Corporate Statistical Database Корпоративная статистическая база данных Продовольственной и сельскохозяйственной организации Объединенных Наций - https://dev.abcdef.wiki/wiki/Food_and_Agriculture_Organization_Corporate_Statistical_Database

**DEHQON XO‘JALIKLARI VA TOMORQA YERLARIDA MAHSULOT YETISHTIRISH
SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA TOMORQA XIZMATLARINI
TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI**

**ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ЗЕМЕЛЬНОЙ СЛУЖБЫ В ПОВЫШЕНИИ
ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОИЗВОДСТВА В ДЕХКАНСКИХ ХОЗЯЙСТВАХ И НА
ПРИУСАДЕБНЫХ УЧАСТКАХ**

**WAYS TO IMPROVE LAND SERVICE IN INCREASING PRODUCTION EFFICIENCY
ON FARMINGS AND ON HOUSEHOLD PLOTS**

Ochilova Nargiza Akramovna

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

“Innovatsion iqtisodiyot” kafedrası dotsenti, i.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yerlarida mahsulot yetishtirish samaradorligini oshirish bilan bog‘liq masalalar, huquqiy asoslari, ular faoliyatida tomorqa xizmatlarini takomillashtirish yo‘llari, Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan “Tomorqa xizmati” MCHJdan foydalanish holati, yangi tashkil etilayotgan “Tomorqa xizmatlari klasteri” vazifalari va faoliyat ko‘rsatish modeli aks ettirilgan hamda samaradorlikni oshirish bilan bog‘liq ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: dehqon xo‘jaliklari, tomorqa yerlari, “Tomorqa xizmati”, klaster, samaradorlik, “In-vitro” texnologiyasi.

В данной статье рассматриваются вопросы, связанные с повышением эффективности сельскохозяйственного производства и сельскохозяйственных угодий, их правовая основа, пути совершенствования услуг по недвижимости в их деятельности, состояние функционирования ООО «Томорка Сервис», действующего в Кашкадарьинской области. Отражены задачи и модель деятельности «сервисного кластера Томорка», представлены научно обоснованные предложения и рекомендации, связанные с повышением эффективности.

Ключевые слова: дехканское хозяйство, приусадебные земли, «Томорка сервис», кластер, эффективность, технология «In-vitro».

This article discusses issues related to increasing the efficiency of agricultural production and agricultural land, their legal basis, ways to improve real estate services in their activities, the state of use of Tomorka Service LLC, operating in the Kashkadarya region, the newly created Tomorka Service. The objectives and model of activity of the “Tomorka service cluster” are reflected, scientifically based proposals and recommendations related to increasing efficiency are presented.

Keywords: farming, household lands, “Tomorka service”, cluster, efficiency, “In-vitro” technology.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-apreldagi “Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi hamda 2020-yil 30-iyundagi “Aholi tomorqalaridan foydalanish samaradorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari asosida O‘zbekiston Respublikasi hududlarida 2021- yilda jami 651 ta [1] “Tomorqa xizmati” MCHJlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. “Tomorqa xizmati”ning vazifalari dehqon xo‘jaliklari va aholining tomorqa yerlaridan samarali foydalanishni tashkil etish, yerga o‘z vaqtida ishlov berish, ekin ekishga ko‘maklashish, serhosil

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 7-son 2024 yil

ko‘chatlar hamda mahalliy va mineral o‘g‘itlar yetkazib berish, ixcham issiqxonalar qurib berish, yetishtirilayotgan mahsulotlarni qabul qilib qayta ishlash, ichki bozorlarga yetkazib berish hamda eksport qilish kabilardan iborat.

2023-yilda Qashqadaryo viloyatida 139 ta “Tomorqa xizmati” MCHJlari faoliyati yo‘lga qo‘yilib, ular tomonidan 75 mingdan ortiq aholi xonadonlariga xizmatlar ko‘rsatilib kelinmoqda (1-jadval). 52 ta “Tomorqa xizmati” MCHJlar reyestriga kiritilib, shulardan 3 tasiga aholi tomorqalariga kompleks xizmat ko‘rsatishi uchun 2,1 milliard so‘m imtiyozli kredit ajratilgan. Olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, viloyatda tashkil etilgan aksariyat “Tomorqa xizmati” MCHJ dehqon xo‘jaliklari va aholi tomorqa yer egalariiga yetarli darajada xizmat ko‘rsatmay kelmoqda. Buni tadqiqot davomida olingan so‘rovnoma natijalaridan ham ko‘rish mumkin. Shu sababli DX va ATE ga sifatli xizmat ko‘rsatish va ushbu xo‘jaliklarga xizmat ko‘rsatuvchi “Tomorqa xizmatlari klasteri”ni tashkil etish maqsadga muvofiq.

1-jadval

Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan “Tomorqa xizmati” MCHJdan foydalanish holati tahlili (2023-yil) [2]

№	Tumanlar	DX va ATYE soni	“Tomorqa xizmati” MCHJ lar soni	Bitta “Tomorqa xizmati” MCHJ ga to‘g‘ri keladigan DX va ATYE
1	G‘uzor	38696	12	3225
2	Dehqonobod	27001	2	13501
3	Qamashi	45865	2	22933
4	Qarshi	53805	10	5381
5	Koson	54140	10	5414
6	Kitob	54455	2	27228
7	Mirishkor	20230	27	749
8	Muborak	14286	12	1191
9	Nishon	27229	20	1361
10	Kasbi	36277	6	6046
11	Chiroqchi	43186	4	10797
12	Shahrisabz	49045	19	2581
13	Yakkabog‘	52561	3	17520
14	Ko‘kdala	33264	4	8316
15	Shahrisabz sh	25848	6	4308
	Jami	611459	139	4399

Mazkur klasterlarni tashkil etish DX va ATEga resurslar va ma‘lumotlardan foydalanish imkoniyatini oshirish, yirik korxonalarga qaramlikni kamaytirish, innovatsiyalar va texnologik rivojlanishni rag‘batlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va qishloq joylarda daromadlarni oshirishga yordam beradi. Bu esa o‘z navbatida aholining shaharlarga migrasiyasini kamaytirishi va mamlakatda iqtisodiy faoliyatning bir tekis taqsimlanishiga yordam berishi mumkin.


“Tomorqa xizmatlari klasteri” – bu DX va ATE hamda qishloq xo‘jaligiga oid xizmatlar ko‘rsatuvchi turli tashkilotlar o‘rtasidagi hamkorlik shaklidir. Klaster doirasida korxonalar DX va ATEga foydali bo‘lishi mumkin bo‘lgan bir qator xizmatlarni ko‘rsatish uchun kuchlarini birlashtiradi. “Tomorqa xizmatlari klasteri” mexanizatsiyalash, urug‘lik va o‘g‘itlar yetkazib berish, sug‘orish va o‘simliklarni himoya qilish xizmatlari, texnik ko‘mak va konsalting, transport va logistika, kadrlar tayyorlash va rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotish va reklama qilish va boshqalar kabi keng ko‘lamli faoliyat turlarini o‘z ichiga oladi. Klasterlarni tuzishdan asosiy maqsad DX va ATE faoliyati samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash va ishlab chiqarish tannarxini kamaytirishdan iborat. Klaster doirasida xo‘jalik

yurituvchi subyektlar tajriba, resurslar, texnologiyalar va axborot almashadi, shuningdek, umumiy maqsad – ishlab chiqarish sharoitlarini yaxshilash va qishloq xo‘jaligi korxonalari uchun sifatli xizmatlar ko‘rsatish yo‘lida hamkorlik qiladi. “Tomorqa xizmatlari klasteri” ma’lum bir mamlakat yoki mintaqadagi qishloq xo‘jaligi sohasining ehtiyojlari va xususiyatlariga qarab mahalliydan mintaqaviy yoki milliy miqyosda turli darajalarda tashkil etilishi mumkin.

“Tomorqa xizmatlari klasteri” tuzilmasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash va xizmatlar ko‘rsatishga qaratilgan turli elementlarni o‘z ichiga oladi. Dehqon va tomorqa yer egalari xizmat ko‘rsatish klasterini yaratish va rivojlantirish davlat, tadbirkorlik hamjamiyatlari, ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari tomonidan muvofiqlashtirilgan harakatlarni talab qiladi.

Shu bilan birga shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, klasterning tuzilishi moslashuvchan bo‘lishi va har bir hududning o‘ziga xos xususiyatlari hamda ishlab chiqarish faoliyatining ixtisoslashuvini hisobga oladi (1-rasm).

“Tomorqa xizmati klasterining” faoliyat ko‘rsatish modelini ishlab chiqdik, bu jarayonda ichki va tashqi muhit hisobga olindi. Ichki muhitda tashkil etiladigan qo‘shimcha xizmatlarga elektron savdo-xarid platformasi, moddiy-texnik ta’minot va ta’minlash xizmati, mahsulotlarni yig‘ib olish va tarqatish bo‘yicha mobil xizmatlar kirsa, tashqi muhit bilan integratsiyani yo‘lga qo‘yish maqsadida ilmiy-innovatsion xizmat ko‘rsatish muassasalari, marketing va reklama xizmatlari, moliyaviy-investitsion struktura va ta’lim tuzilmalari bilan aloqalar yo‘lga qo‘yiladi.



1-rasm. “Tomorqa xizmati klasterining” faoliyat ko‘rsatish modeli [3]

Boshqaruv va muvofiqlashtiruvchi markaz sifatida O‘zbekiston Respublikasi fermer, dehqon va tomorqa yer egalari Kengashi hamda uning hududiy bo‘limlari faoliyat olib boradi.

Dehqon xo‘jaliklari va aholining tomorqa yer maydonlarida yetishtirilgan mahsulotlarning sifati va hosildorligini oshirish maqsadida quyidagi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni amalga

oshirish lozim, deb hisoblaymiz:

- dehqon va tomorqa yer egalarining yerga bo‘lgan munosabatini yanada mas’uliyatli tarzda o‘zgartirish kerak. Bunday muammolarni kelib chiqishining asosiy yechimi sifatida fyuchers shartnomasi asosida tomorqa xo‘jaliklari va dehqonlarga mahsulot yetkazib berish bo‘yicha uzluksiz tizim yaratishdir;

- mamlakat ichki oziq-ovqat bozorini yilning barcha mavsumida ham dehqonchilik mahsulotlari bilan doimiy ta‘minlash maqsadida, zahira yaratish, shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi dehqon xo‘jaliklari va tomorqa egalari ehtiyojini ta‘minlash bo‘yicha xom-ashyo yetkazib berish tizimini takomillashtirish zarur. Bunga „Tomorqa xizmati“ faoliyatini ommalashtirish orqali erishish mumkin;

- qishloq xo‘jaligi mavsumiy xarakterga ega ekanligi sababli, barcha toifadagi xo‘jaliklarda mahsulotlar bir vaqtda yetishtiriladi. Tabiiyki, xaridor topishda, iste‘mol bozoriga taklif qilishda to‘siqlar, raqobat yuzaga keladi. Natijada, narxning keskin tushib ketishi, xarajat va daromad o‘rtasidagi farq kamayib ketishi kuzatiladi. Buning uchun marketing bilan bog‘liq tizim xaritasini hududlar kesimida ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir;

- raqamli iqtisodiyot sharoitida qishloq xo‘jaligini elektron shaklda rivojlantirish imkoniyatlarini hisobga olib, “Smart qishloq xo‘jaligi”-Smart agriculture va innovatsion-raqamli agrotekhnologiyalar kompleks tizimini keng joriy etish. Masalan, dehqonchilik va chorvachilik tizimini yanada rivojlantirishda online-platforma va mobil ilovalar yaratish, ularning amaliy ijrosini tahlil qilgan holda, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash manbalarini yaratish. Natijada, dehqon va tomorqa yer egalari samaradorlikka erishish uchun kerakli ilmiy va amaliy bilimlar, innovatsion texnologiyalar haqida tegishli ma‘lumotlarga ega bo‘ladilar;

- “Tomorqa xizmati” negizida noyob va iqtisodiy samaradorligi yuqori ekin navlarini ko‘paytirish maqsadida, qulay sharoitga ega issiqxonalar, kichik intensiv bog‘lar tashkil etish va dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga o‘z vaqtida yetkazib berish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Aholi tomorqalaridan foydalanish samaradorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. 2020-yil 30-iyun
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining 2018 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-3454-son qarori, 2017 yil 29 dekabr. // lex.uz/docs/3480384
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Meva-sabzavotchilik sohasida qishloq xo‘jaligi kooperatsiyasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4239-son qarori, 2019 yil 14 mart. // lex.uz/ru/docs/4242004
4. Berkinov B.B., Akhmedov U.Q. Households’ development and family income growth prospects.(p. 144) - Tashkent: Science and Technology, 2013; <https://tsue.scienceweb.uz/index.php/archive/article/view/389>
5. Ergashev R.X. "Development of a fruit and vegetable cluster-cooperation". International Journal of Economics and Innovative Technologies 11.1 (2023): p-252-255.
6. Xamraeva S.N., Ochilova N.A. Analysis of factors to increase the efficiency of the use of peasant farms and the land of the field. E3S Web of Conferences 392, 01048 (2023) <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202339201048> RSE-II-2023
7. Xamrayeva S.N., Mustafayev SH.SH. Dehqonchilik tarmog‘ini innovatsion rivojlantirish istiqbollari. Monografiyaa Qarshi 2022 yil «Intelлект» nashriyoti 50-bet. 75 bet.

**МЕТОДИКА ТИПОЛОГИИ АГРАРНО-ПРОМЫШЛЕННЫХ ТЕРРИТОРИИ ПО
КРИТЕРИЮ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ**

**INVESTITSIYA JALBATLILIK MEZONI BO‘YICHA QISHLOQ-SANOAT
HUDUDLARINI TIPOLOGIYASI METODOLOGIYASI.**

**METHODOLOGY OF TYPOLOGY OF AGRICULTURAL-INDUSTRIAL TERRITORIES
BY THE CRITERION OF INVESTMENT ATTRACTIVENESS**

Сабырбайев Дастан Каримбаевич

Докторант Каракалпакского государственного университета

Аннотация

В статье рассматривается методика типологии аграрно-промышленных территории и выделены факторы, влияющие на инвестиционную привлекательность, этапы расчета интегрального показателя, и группировка по этому показателю.

Ключевые слова: инвестиционная привлекательность, интегральный показатель, кластер, кластерный анализ.

Maqolada agrar-sanoat hududlari tipologiyasi metodologiyasi muhokama qilinib, investitsion jozibadorlikka ta'sir etuvchi omillar, integral ko'rsatkichni hisoblash bosqichlari va ushbu ko'rsatkich bo'yicha guruhlash ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: investitsion jozibadorlik, integral ko'rsatkich, klaster, klaster tahlili.

The article examines the methodology of typology of agro-industrial territories and identifies factors influencing investment attractiveness, stages of calculating the integral indicator, and grouping by this indicator.

Key words: investment attractiveness, integral indicator, cluster, cluster analysis.

За последние годы привлечение инвестиций в регион является важным фактором роста производства, а эффективное использование инвестиционного потенциала влечет за собой развитие предпринимательства, занятости населения и способствует социально-экономическому развитию региона.

В целях эффективного использования имеющихся природных сырьевых ресурсов Республики Каракалпакстан, финансирования и реализации инвестиционных проектов в промышленности, сельском хозяйстве, поддержки предпринимательства и сферы услуг, обеспечения занятости и повышения уровня жизни населения, проживающего на территории, реализуются многочисленные меры.

В принятом Постановлении Президента Республики Узбекистан от 09 февраля 2024 года «О дополнительных мерах по комплексному социально-экономическому развитию и обеспечению занятости населения Республики Каракалпакстан» отмечено что, в целях ускоренного развития сфер промышленности, сельского хозяйства, улучшения социальной и производственной инфраструктур, поддержки сферы предпринимательства и услуг путем эффективного использования имеющихся природных ресурсов Республики Каракалпакстан, а также обеспечения на этой основе занятости и повышения уровня жизни населения утвердить целевые показатели обеспечения занятости населения на постоянных, сезонных и временных работах в Республике Каракалпакстан в 2024 году, в том числе: целевые показатели привлечения в бизнес населения в Республике Каракалпакстан; перечень пустующих земельных площадей, выставляемых на аукционные торги для размещения проектов в специальных промышленных (свободных экономических), малых промышленных,

молодежных и предпринимательских промышленных зонах в Республике Каракалпакстан в 2024-2025 годах; выделение в 2024 году на объекты инфраструктуры малых промышленных зон, молодежных, предпринимательских и промышленных зон 5 млрд сумов за счет средств Фонда развития предпринимательской инфраструктуры при Совете Министров Республики Каракалпакстан; присвоение предприятиям, реализующим в пределах территориальных границ Республики Каракалпакстан инвестиционные проекты по созданию основанных на инновационных высоких технологиях, экспортоориентированных и импортозамещающих производств, статус участника свободной экономической зоны «Нукус»; выделение Фондом государственной поддержки сельского хозяйства льготных кредитных средств на выращивание кормовых культур для животноводческой отрасли за счет депозитных средств; обеспечить повышение урожайности сельскохозяйственных культур на 5 — 10 процентов путем организации лазерной планировки, при этом установить, что сельскохозяйственным предприятиям, осуществляющим деятельность в Республике Каракалпакстан, за счет Государственного бюджета предоставляются субсидии на покрытие части расходов до 100 процентов на горюче-смазочные материалы, использованные на каждый гектар площади, на которой произведена лазерная планировка, для выращивания сельскохозяйственных культур, но не превышающей 1 млн сумов общего объема расходов и др. [1]

Всесторонняя поддержка предпринимательской деятельности в сельскохозяйственном секторе региона, предоставляемые налоговые льготы и льготные кредиты, предоставляемые в целях финансирования инвестиционной деятельности субъектов предпринимательства, создают основу для создания благоприятной бизнес-среды для субъектов предпринимательства, работающих в отрасли.

В 2023 году объем произведенной сельскохозяйственной продукции составил 15 212,1 млрд сум, темпы роста производства продукции составляют 103,2% (табл. 1).

Таблица 1

Сельскохозяйственная продукция в разрезе районов РК
(в текущих ценах, млрд сум)

Годы	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Республики Каракалпакстан	3 929,8	4 801,3	6 562,9	8 208,1	9 751,6	11 511,8	13 348,2	15 212,1
Темпы роста %	108,3	103,1	100,6	107,0	102,3	104,2	103,7	103,2
Нукус (город)	18,0	27,5	47,5	55,4	57,7	66,0	75,7	86,6
Районы:								
Амударья	617,3	807,5	1 241,2	1 483,4	1 801,6	2 135,2	2 434,0	2 848,4
Беруни	472,5	611,0	868,5	1 085,3	1 327,3	1 535,2	1 707,4	2 044,4
Бозатов					161,1	192,8	219,7	296,4
Караузяк	156,1	193,5	251,3	320,3	360,1	427,5	494,8	530,4
Кегейли	219,8	275,2	366,3	441,3	382,9	425,2	484,2	539,6
Кунград	226,1	278,3	324,7	426,1	511,0	607,3	699,2	787,8
Канлыкюль	152,5	175,7	226,1	307,7	374,4	487,2	719,4	833,7
Муйнак	38,9	48,1	66,3	89,9	115,0	123,8	145,2	150,9
Нукус	305,4	219,8	246,9	328,4	350,8	343,2	433,8	473,0
Тахиатош	87,0	108,3	142,0	188,6	237,3	288,9	328,5	369,2
Тахтакулир	139,5	180,1	229,0	290,1	328,5	389,8	460,1	531,6
Турткуль	446,7	562,1	739,6	913,3	1 086,9	1 299,2	1 462,0	1 600,0
Жоджейли	207,9	254,4	354,1	427,4	473,1	573,6	733,8	766,6
Чимбай	280,7	373,7	474,1	600,4	700,8	827,4	918,1	1 035,8
Шуманай	134,6	180,3	255,2	314,4	371,5	463,4	548,8	653,2
Эшликапа	426,8	505,8	730,1	936,1	1 111,6	1 326,2	1 483,6	1 664,4

(Источник: <https://qrstat.uz/uz/rasmiy-statistika/agriculture-2>)

Надо отметить, что из них более 50% от общего объема произведенной продукции приходится в основном на южные районы (рис.1).




Рис.1. Сельскохозяйственная продукция в разделе районов

В изучении уровня развития отрасли, территории, региона главной задачей является получение однородных типов, отражающих развитие изучаемых субъектов по единому закону, т.е. корректные результаты статического анализа могут быть получены при условии однородности изучаемой совокупности объектов. Для реализации этой задачи т.е. выделение однородных групп существует множество статистических методов. В опубликованных работах по типологии районов, субъектов предлагается разные методики.

В качестве признакового пространства были выбраны 14 показателей, характеризующих аграрно-промышленные субъекты (районы) и условия их функционирования, наибольшим образом влияющих, по нашему мнению, на их инвестиционную привлекательность. Все показатели являются статистическими, что, с одной стороны позволяет получать данные из открытых статистических источников, а с другой – нивелировать возможный субъективизм экспертных оценок.

Переменные признакового пространства включают в себя: основные средства сельскохозяйственного производства, экономические показатели сельского хозяйства, показатели растениеводства, демографические показатели и показатели социальной инфраструктуры и т.д. которые помогают учесть иерархичность агроэкономических систем, а также взаимодействие многих факторов. Кроме того, работа с количественными статистическими показателями упрощает использование таких методов, как метод кластерного анализа. Часть используемых показателей является абсолютными, а часть – относительными, что, во-первых, не противоречит процедурам кластерного анализа, а во-вторых – не позволяет завышать инвестиционную привлекательность, обладающих малыми ресурсами, но высокими показателями эффективности их использования или же наоборот.

К показателям, используемым в классификационной модели и характеризующим наличие, формирование и использование основных средств, характеризующих уровень развития аграрного сектора, демографическую ситуацию, социальную инфраструктуру относят следующие, - т.е. основные факторы, влияющие на инвестиционную привлекательность субъекта (в среднем за 2019-2023 гг.):

- X₁- валовой региональный продукт на 1 чел., млн сум;
- X₂- объем инвестиций, млрд сум;
- X₃- объем основных фондов на 100 га сельхозугодий, млн сум;
- X₄- экономически активная часть населения, тыс. чел.;
- X₅- площадь сельхозугодий, тыс. га;
- X₆- бонитировка почв, балл;

- X₇- строительство жилья на 1 чел., млн сум;
- X₈- транспортные услуги на 1 чел., млн сум;
- X₉- IT услуги на 1 чел., млн сум;
- X₁₀- бытовые услуги на 1 чел., млн сум;
- X₁₁- платные услуги населению на 1 чел., млн.сум;
- X₁₂- объем торговли на 1 чел., млн сум;
- X₁₃- объем средств на образование и здравоохранение на 1 чел., млн сум;
- X₁₄- расстояние от районного центра от административного центра региона, км.

Основной принцип методики состоит в том, чтобы отказаться от расчета какого-либо интегрального показателя или выделения групп субъектов с априорно заданными границами; вместо этого предлагается выделить кластеры наиболее похожих субъектов и описать их с позиций инвестиционной привлекательности на основе усредненных показателей по группам.

Любому из кластерных алгоритмов требуются оценки расстояний между объектами, однако зачастую это затрудняется наличием различных типов шкал у переменных: например, значения факторов, используемых в данном исследовании, измеряются тысячами тонн, миллионами рублей, процентами, пунктами индекса и т.д. Поэтому значения факторов стандартизированы таким образом, что среднее значение каждой стандартизированной переменной стало равным нулю, а стандартное отклонение-единице.

Ввиду этого каждая из переменных связана с уровнем инвестиционной привлекательности положительной зависимостью, возможна стандартизация переменных при помощи ранжирования от 0 до 1 на основании минимальных и максимальных значений:

В качестве меры расстояния должно быть выбрано так называемое «манхэттенское расстояние», позволяющее сократить влияние на результаты кластеризации отдельных больших разностей между значениями переменных, рассчитываемое как сумма абсолютных значений разностей показателей изучаемых объектов:

Для решения задач выделения однородных групп кроме выше изученного существует множество статистических методов, для оценки их развития предлагается большое число статистических показателей и при анализе используются многомерные методы статистики.

На первом этапе исследования т.е. при сборе статистических данных, необходимо определить элементы, которые присутствуют на исследуемом уровне и произвести подборку исходных статистических данных, расчет относительных величин.

Следующим этапом является расчет интегрального показателя инвестиционной привлекательности на основе ранжирования субъектов по каждому из базовых показателей (14 факторов), последующего преобразования полученных рангов в ранжированные балльные оценки и итоговое суммирование последних по совокупности вышеуказанных показателей.

Заключительным этапом является группировка субъектов по уровню интегрального показателя инвестиционной привлекательности района и по этому показателю классифицируем субъектов на три группы-высокий, средний, низкий уровень инвестиционной привлекательности.

Список использованной литературы:

1. Постановление Президента Республики Узбекистан от 09.02.2024 г., № ПП-66.
2. Алматова Д. Минтақаларда тадбиркорлик фаолиятини ривожлантиришга инвестицияларни жалб этишни такомиллаштириш. Иқтисодиёт фан. Док (DSc) дисс. ... Автореферат. Тошкен 2018. Б.77;
3. Байхонов.Б Ўзбекистон иқтисодиётида инвестицияларни тармоқлараро тақсимлашнинг эконометрик моделлаштириш услубиятини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фан. Док (DSc) дисс. Автореф. –Тошкент 2019. -Б.73.
4. Гуськов Н.С., Гущериев С.С, Зенякин В.Е, Крюков В.В., Шершунов В.А. Инвестиции. Формы и методы их привлечения. / М.: Алгоритм.

**ISHLAB CHIQUARISH INFRATUZILMASINI MINTAQALARDA RIVOJLANTIRISH
ISTIQBOLLARI**

**ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В
РЕГИОНАХ**

**PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF INDUSTRIAL INFRASTRUCTURE IN
THE REGIONS**

Isakov Azim Yusubjanovich,
NamMTI, “Iqtisodiyot” kafedrasida katta o‘qituvchisi, PhD

Annotatsiya

Maqolada mintaqada ishlab chiqarish infratuzilmasi haqida, mintaqada ishlab chiqarish infratuzilmasining rivojlanish darajasi va milliy iqtisodiyotning barqaror o‘rnatilishiga ta‘sir tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: mintaqaviy ishlab chiqarish infratuzilmasi, mintaqaviy ishlab chiqarish infratuzilmasining o‘ziga xos xususiyatlari, mintaqaning infratuzilma sig‘imi.

В статье анализируется производственная инфраструктура региона, уровень развития производственной инфраструктуры региона и ее влияние на устойчивый рост национальной экономики.

Ключевые слова: региональная производственная инфраструктура, особенности региональной производственной инфраструктуры, инфраструктурная емкость региона.

The article analyzes the production infrastructure of the region, the level of development of the production infrastructure of the region and its impact on the sustainable growth of the national economy.

Key words: regional production infrastructure, features of regional production infrastructure, infrastructure capacity of the region.

Mamlakatda mavjud har bir mintaqada o‘zining tabiiy-demografik salohiyati, iqtisodiyotining tarmoqlar tarkibi va rivojlanganlik darajasi, tashqi iqtisodiy aloqalardagi ishtirokiga binoan bir-biridan farq qiladi. Mintaqalarni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanganligi yuqorida keltirilgan sharoit va omillardan tashqari bozor iqtisodiyotining rivojlanishi va joylashishini ta‘minlab turuvchi omillar bilan ham aloqadordir. Shular qatoriga avvalambor innovatsiya, investitsiya va samarali boshqaruv omillari ham kiradi.

Mintaqada infratuzilmasi mamlakatning mintaqada (hududi)da moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishning samarali faoliyat yuritishi, barcha turdagi tovar va resurslarning erkin harakatlanishi va mintaqada aholisining farovon yashashi uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratishni ta‘minlab beradigan tuzilma va faoliyat turlari majmuasidir. Shuningdek, mintaqada infratuzilma elementlari yig‘indisi ushbu hududning rivojlanish darajasini ham aks ettiradi.

Mintaqalarda ishlab chiqarish infratuzilmasining asosiy xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

1. Xizmat ko‘rsatishdagi ahamiyati. Infratuzilmani tashkil etuvchi tarmoqlar yangi moddiy boyliklarni yaratmaydi. Infratuzilmani yaratishga ketgan xarajatlar xizmat ko‘rsatayotgan ishlab chiqaruvchi tarmoqlarning mahsulotlari hisobidan qoplanadi (sanoat, qishloq xo‘jaligi va h.k.).

2. Obyektlarni joylashtirish zichligining notekisligi. Mintaqada infratuzilmasi butun hudud bo‘yicha tekis taqsimlanishi mumkin emas. Shu bilan birga, infratuzilma ob‘yektlarini joylashtirish darajasi bo‘yicha ko‘proq va kamroq rivojlangan mintaqalar o‘rtasidagi tafovut umumiy iqtisodiy rivojlanish bo‘yicha ko‘rsatkichi singari unchalik kuchli emas.

3. Mintaqaning infratuzilma sig‘imi. Mintaqa infratuzilmasi muhim darajada hududning iqtisodiy salohiyatini va uning xo‘jalik sig‘imini (qo‘shimcha xarajatlarni amalga oshirmasdan yangi korxona va tarmoqlarni qabul qilish qobiliyati) belgilaydi.

4. Miqdor jihatdan baholashning muhimligi. Infratuzilma obyektlarining ko‘pgina qismi miqdor jihatdan baholanadi (quvvati, uzunligi, qiymati, o‘tkazish qobiliyati, hajmi, kuchlanishi va h.k.).

5. Rivojlanishning kompleksligi. Mintaqa infratuzilmasi hududlardagi alohida tarmoqlarga emas, balki asosan xo‘jalik komplekslariga butunicha xizmat ko‘rsatadi, shuning uchun uni rivojlantirishda kompleks yondashuv tarmoqli yondashuvga nisbatan ko‘proq samarali hisoblanadi.

6. Inersiyaga asoslanganligi. Mintaqa infratuzilmasida obyektlar uzoq muddatni ko‘zlab ishlatiladi, shuning uchun uni rivojlantirish asosan mavjud obyektlarni to‘liq saqlagan holda ularda yangi elementlarni barpo etish bilan bog‘liqdir. Bunday inersiyaga asoslanganligi qulay hisoblanadi, chunki infratuzilmani tubdan rekonstruksiya qilish juda katta xarajatlarni amalga oshirishga olib keladi. Shuning uchun mintaqa infratuzilmasining mavjud tizimlari istiqbolli infratuzilma tizimlarini rivojlantirish uchun asos bo‘lib hisoblanadi [2].

Mintaqa rivojlanishini davlat tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri tartibga solish respublika byudjeti, dotatsiya va subvensiyalar hisobiga maqsadli dasturlar va yirik investitsiya loyihalari orqali amalga oshiriladi.

O‘zbekistonda qabul qilingan dasturlarni bajarish va mintaqalarning rivojlanishini tartibga solish mexanizmini takomillashtirish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- mintaqalarni rivojlantirish bo‘yicha respublika hamda mintaqaviy dasturlarni tanlash va ularni amalga oshirishni asoslash, navbatga qo‘yish tizimini shakllantirish;

- respublika va mintaqaviy dasturlarni amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish, buning uchun mahalliy hokimliklar va tegishli vazirliklarning mas’uliyatini oshirish;

- iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturlarining mintaqaviy jihatlarini kuchaytirish;

- tarmoq dasturlarining mintaqaviy jihatlarini monitoringini tashkil etish;

- mintaqalar va tarmoq imkoniyatlari, zahiralarini chuqur o‘rganish va hisobga olish asosida prognoz ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish va tasdiqlash;

- dasturlarni amalga oshirish ustidan qat’iy nazoratni kuchaytirish, nazorat tizimini yaratish.

Mintaqaniy rivojlanishni davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish uchun ma’muriy qarorlar qabul qilish bilangina cheklanib qolmasdan, shu bilan birga, iqtisodiy rag‘batlantirish xarakteriga ega bo‘lgan dastak va usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Hududlarda ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish, uni modernizatsiya qilish va yangilash chora-tadbirlarini amalga oshirishning muhim sharti va manbai sifatida faol investitsiya siyosatini amalga oshirishdir.

Mamlakat hududlariga investitsiyalarni mutanosib ravishda joylashtirish milliy iqtisodiyotimizning barqaror rivojlanishining asosi hisoblanadi. Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo‘lsa, o‘z iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o‘zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi”[1].

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda xorijiy investitsiya loyihalarini amalga oshirishning ahamiyati katta hisoblanadi. Buning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- birinchidan, xorijiy investitsiyalar ko‘magida korxonalarga zamonaviy texnika va texnologiyalar joriy qilinib, eksportga mo‘ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanadi;

- ikkinchidan, import o‘rni bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish, buning uchun xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotning yetakchi sohalariga yo‘naltirish orqali aholining turmush darajasini oshirish imkoni yaratiladi;

- uchinchidan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini jadallashtirish o‘ziga borayotgan aholini ish joylari bilan ta’minlash imkoniyatlarini oshiradi;

– to‘rtinchidan, korxonalarning eskirgan ishlab chiqarish quvvatlari, moddiy-texnik bazasi yangilanadi va ular texnik jihatdan qayta qurollanadi;

– beshinchidan, tabiiy resurslarni qayta ishlaydigan korxonalar barpo etiladi[3].

Investitsiya faoliyatini tartibga solishda va investitsiyalardan samarali foydalanishda eng muhim bo‘lgan masalalardan biri – bu chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarni hududlar bo‘yicha optimal darajada bir tekis joylashtirish va xorijiy investorlarni hududlarga yanada ko‘proq jalb qilishdir.

Milliy iqtisodiyotimizga jalb qilinayotgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmini hududlar bo‘yicha yildan-yilga ortib borayotganini quyidagi jadvaldan ko‘rish mumkin.

1-jadval

Mintaqaviy investitsiya loyihalari doirasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlarni o‘zlashtirish [4].

Hududlar	2022 yil (mln. AQSH dollari)	2023 yil (mln. AQSH dollari)	2022 yilga nisbatan farqi (mln. AQSH dollari)
Andijon viloyati	428,5	800,2	371,7
Buxoro viloyati	317,1	569,8	252,7
Farg‘ona viloyati	719,9	974,9	255,0
Jizzax viloyati	399,2	680,5	281,3
Xorazm viloyati	190,2	390,7	200,5
Namangan viloyati	379,0	705,9	326,9
Navoiy viloyati	246,2	475,0	228,8
Qashqadaryo viloyati	226,6	345,8	119,2
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	40,5	109,1	68,6
Samarqand viloyati	514,2	612,4	98,2
Sirdaryo viloyati	285,0	516,7	231,7
Surxondaryo viloyati	250,2	460,1	209,9
Toshkent viloyati	482,4	912,0	429,6
Toshkent shahri	1238,5	1591,1	352,6
Respublika bo‘yicha jami:	5717,5	9144,2	3426,7

O‘zbekistonda milliy iqtisodiyotning tarkibiy o‘zgarishida hududlarning roli sezilarli darajada oshib bormoqda. Hududlarning iqtisodiy salohiyati va raqobatbardoshligini oshirishga yo‘naltirilgan maqsadli hududiy dasturlar amalga oshirilib kelinmoqda. Buning natijasida yalpi hududiy mahsulotning o‘sib borayotganligini ko‘rish mumkin.

Ushbu ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, YaIMni shakllantirishda YaHMning ulushi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm, Jizzax va Sirdaryo viloyatlari eng past darajadadir. Bu hol mazkur hududlarning katta-kichikligi, ulardagi YaHM hajmi hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasining boshqa hududlardagiga qaraganda birmuncha orqada qolayotganligi bilan izohlanadi. Ammo, bu ko‘rsatkich ular o‘rtasidagi farqlarni to‘liq ifodalay olmaydi. O‘zbekistonda hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi farqlanish darajasini YaHM, sanoat va boshqa tarmoqlarda aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmining o‘rtacha respublika darajasiga nisbatan hisoblangan indeks bo‘yicha tahlil qilish mumkin (2-jadval).

- 1-для поступления в высшие образовательные учреждения как таковых преград не существовало, кроме сдачи вступительных экзаменов,
- 2- понятия контрактной системы не было, учёба было бесплатная,
- 3- студенты после прохождения сессии получали стипендии, что позволяло им поддерживать нормальный жизненный уровень,
- 4-ещё одним важным фактором является, то что при приёме на работу, дипломы всех высших учебных заведений имели равную силу.

Хотелось бы отметить, что массовость высшего образования связана с целым рядом рисков, в основном это связано с качеством предоставляемого образования. Это конечно же неизбежный фактор, причинами чего чего могут послужить:

- 1-увеличивающиеся академические различия между студентами,

2-учебные заведения оснащены устаревшим оборудованием,

3-недостаточной квалификацией преподавательского состава,

4-нестрогий отбор студентов, слабая подготовка абитуриентов,

5-недостаточная мотивация студентов и снижение уровня требований к ним,

6-увеличение нагрузки преподавателей за счёт увеличения количества студентов в потоках и в группах.

В современном мире, задача высших образовательных учреждений заключается в создании условий для личного и профессионального развития студентов.

Одним из главных требований времени, является, то что, помимо преподавателей результаты обучения оценивает работодатель, предлагая молодому специалисту работу или отказывая в ней. В целях усиления качества знаний у студентов и усиления конкурентоспособности выпускников на рынке труда, необходимо:

1-взаимодействие высшего образовательного учреждения и рынка труда,

2-совместная организация учебной программы, учитывающей требования рынка труда.

В данное время есть проблема несоответствия учебной программы, что отражается на качестве образования, профессиональным задачам, которые предстоит выполнять будущему специалисту.

Целью современного высшего образование является быстрое и качественное предоставление востребованного образования на рынок труда.

Популяризация высшего образования и его массовость изменили образование во всем мире. Непрерывно возрастающий интерес к образованию существенно отразился и на массовости получения высшего образования в Индии, Китае и странах Центральной и Южной Африки.

На данном этапе развития педагогические исследования направляются на улучшение качества образования. Соответствующие исследования осуществляются в сфере информатизации и поиска оптимального цифрового метода решения данной проблемы с помощью перехода к массовой форме дистанционного вузовского образования.

В данной статье рассмотрены преимущества и недостатки информатизации высшего образования. К преимуществам относятся:

1-уменьшение бумажной работы у преподавателей,

2-доступность огромного количества электронной научной литературы и необходимой информации,

3-получение образования независимо от места жительства студентов,

4-улучшение и упрощение сотрудничества образовательных и научно исследовательских институтов.

К недостаткам информатизации высшего образования относятся:

1-педагог рискует утратить унификацию материала,

2-огромное количество информации, в цифровом формате способно привести к перегрузке обучающихся, что в свою очередь снижает качество образования,

3- необходимость студентам устанавливать новые компьютерные программы для изучения учебного материала,

4-очень большой риск привыкания студентов к разного рода игровым программам,

5-массовая доступность цифровой информации уменьшает нагрузку на человеческий мозг.

Проблема массовости высшего образование приводит, как правило, к существенной разнице качества предлагаемого образования в различных ВООУ. Увеличение количества ВООУ и их филиалов, а также изменение контингента студентов (здесь подразумевается не только выпускники школ, но и кто хочет иметь второе образование или те кто хочет учиться дистанционно, или на заочном обучении) не позволяет поддерживать высокие стандарты качества образования во всех учреждениях одинаково, так как это зависит не только от предлагаемого качества вузовского образования, но и от уровня знаний самих абитуриентов.

В последствии, мы видим результаты конкурентной борьбы среди образовательных учреждений. В результате возможности для получения качественного высшего образования сохраняются лишь в определённом сегменте ведущих ВОУ, которые отбирают наиболее способных студентов и имеют более широкие возможности для предоставления качественного образования.

Хотелось бы отметить существенную роль государства в формировании учебного процесса в ВОУ, это касается составления учебной программы, наличия направлений и предоставления квот, уровня контракта и т.д. В свою очередь государство выступает ответственным за проведение политики в области высшего образования для домохозяйств, работодателей и исследовательского сообщества.

Главная задача государства в сфере контроля и постоянного проведения реформ в высшем образовании связана с оценкой экономической отдачи от высшего образования. Государственные органы в рамках постоянного мониторинга пытаются выяснить, насколько односторонней является отдача от высшего образования, или, другими словами, существуют ли различия в экономической отдаче от качества получаемого высшего образования. Основными показателями качества высшего образования являются получение высокой заработной платы выпускниками в результате овладения знаниями и получения профессии, где одним из факторов являться «качество» ВОУ и его бренд. В ВОУ с более качественным образованием для студентов создаются лучшие условия, что отражается большей отдачей от образования. Таким образом, одним из результатов окончания элитного вуза является больший объём знаний, который может принести большую экономическую отдачу. Качество ВОУ может быть измерено через характеристики качества приема студентов, исходя из того, что более сильные абитуриенты выбирают обучение в более качественном учебном заведении. Качество приема может быть измерено при поступлении (нижний предел тестовых баллов, конкурс на бюджетные места и т.д.).

Качество высшего образовательного учреждения может быть также измерено после окончания ВОУ (предположительная заработная плата, занятость и перспективы профессионального карьерного роста выпускников). Деятельность высшего образовательного учреждения является значимой и представляет интерес для различных экономических субъектов – от преподавателей до домашних хозяйств. Интересы у разных субъектов неоднородны и зачастую противоречат друг другу. Высшие образовательные учреждения стремятся к изменениям, предъявляя все более высокие требования. Все это связано, с действием разнообразных факторов: глобализацией, либерализацией образовательного рынка, возникновением новых технологий, изменением политических институтов, расширению доступа к образовательным услугам. Высшим образовательным учреждениям для успешного функционирования необходимо отвечать на новые вызовы и предугадывать их.

Список используемой литературы:

1. Монография. Таълим хизматлари бозорида иқтисодий муносабатларни такомиллаштириш. Р.М.Усманова, А.Қодиров, А.М.Турсунов, 2015.
2. Абулқосимов Х.П. Шаклланаётган бозор иқтисодиётида инсон омили ва уни фаоллаштириш - Т., ТМИ, 2006. -187 б.
3. Бабаян С.А., Зуев В.М. Кадры в условиях рынка - М.: Экономика, 1992. -160 с.
4. Becker G. Human Capital. N.Y.: 1964 - 43 p.
5. Бартенев С. Экономические теории и школы–М.: Бек,1999. -352 с.
6. Теория и практика интегративных исследований в гуманитаристике / [Р. М. Ковалева и др.; редкол.: Р. М. Ковалева (гл. ред.) и др.]; БГУ. Минск: БГУ, 2021. 295 с.
7. Макарова М. В. Управленческий консалтинг в сфере образования: учеб. пособие для учреждений высшего образования / М. В. Макарова. М.: Юрайт, 2021. 79 с.: ил.
8. Рощина Я.М., Филиппова Т.Н. Преподаватели на рынке образовательных услуг. Информационный бюллетень.М.: ГУ-ВШЭ. -2006

**МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТНИ ДИВЕРСИФИКАЦИЯЛАШДА ТАШҚИ ИҚТИСОДИЙ
ФАОЛИЯТНИНГ ЎРНИ**

**РОЛЬ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ
В ДИВЕРСИФИКАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ**

**THE ROLE OF FOREIGN ECONOMIC ACTIVITY IN DIVERSIFYING THE NATIONAL
ECONOMY**

Рахматова Наргизахон Аъзамхоновна

ЎзМУ, “Макроиктисодиёт” кафедраси катта ўкитувчиси, PhD

Аннотация

Ушбу мақола миллий иқтисодиётни таркибида таркибий ўзгаришларни амалга ошириш натижасида ташқи иқтисодий фаолиятни ривожланиш мавзусини ўз ичига олади. Мақолада Ўзбекистоннинг бошқа давлатлар билан иқтисодий алоқаларининг асосий жиҳатлари ва тенденциялари, Ўзбекистон ташқи савдосининг йўналишлари ва афзалликлари таҳлил қилинган. Бундан ташқари, тўқимачилик, пахтачилик, автомобилсозлик ва бошқа соҳаларнинг асосий экспорт ва импорт маҳсулотлари қамраб олинган. Шунингдек, муаллиф ташқи савдо алоқаларини такомиллаштириш ва мамлакат иқтисодий ўсишини рағбатлантириш бўйича муҳокама қилинадиган асосий масалаларни ҳам ажратиб кўрсатган.

Калит сўзлар: ташқи иқтисодий фаолият, экспорт, импорт, савдо, инвестиция, инновацион технологиялар, иқтисодий ривожланиш, ташқи бозорлар, давлат сиёсати, экспорт товарлари.

Данная статья рассматривает значимость структурных сдвигов в национальной экономике Узбекистана, повлиявших на развитие внешней торговли и внешнеэкономической деятельности в целом. В статье анализируются основные аспекты и тенденции экономических связей Узбекистана с другими странами, направления и преимущества внешней торговли Узбекистана. Кроме того, рассматриваются ключевые продукты экспорта и импорта различных отраслей, такие как текстильная, хлопковая, автомобильная промышленность и другие. Авторами также выделены ключевые проблемы к обсуждению по улучшению внешнеторговых отношений и стимулированию экономического роста страны.

Ключевые слова: внешнеэкономическая деятельность, экспорт, импорт, торговля, инвестиции, инновационные технологии, экономическое развитие, внешние рынки, государственная политика, экспортные товары.

This article examines the significance of structural shifts in the national economy of Uzbekistan that have affected the development of foreign trade, and foreign economic activity in general. The article analyzes the main aspects and trends of economic relations of Uzbekistan with other countries and advantages of its foreign trade. In addition, key export and import products of various industries such as textiles, cotton, automobiles and others are mentioned. The authors also highlight key issues on improving foreign trade relations and stimulating the country's economic growth.

Keywords: foreign economic activity, export, import, trade, investment, innovative technologies, economic development, foreign markets, public policy, export goods.

Иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш шароитида иқтисодиёт таркибини такомиллаштиришда уни модернизациялашга қаратилган ислохотларни амалга ошириш устувор аҳамият касб этади. Мамлакатимиз Президенти Ш.М.Мирзиёев томонидан Янги

Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясига мувофиқ, ўрта муддатли истикболда миллий иқтисодиётни модернизациялаш бўйича қатор устувор вазифалар белгилаб берилган бўлиб, унга кўра, «2022-2026 йилларда иқтисодиёт тармоклари кесимида ишлаб чиқаришни модернизация ва реконструкция қилиш натижасида энергия ресурсларини тежашни назарда тутувчи техник чора-тадбирлар дастурини ишлаб чиқиш, йирик ишлаб чиқариш корхоналарида қувватларни модернизация ва реконструкция қилиш орқали энергияни тежаш ва самарадорликни ошириш бўйича Техник сиёсатни ишлаб чиқиш ҳамда унинг кўрсаткичларини йиллик бизнес-планларга киритган ҳолда тегишли бошқарув органларида тасдиқлаш амалиётини жорий этиш» [1] каби қатор ислохотлар амалга оширилиши назарда тутилган. Ўзбекистонда ислохотларнинг янги босқичида «...барқарор иқтисодий ўсиш орқали аҳоли фаровонлигини таъминлаш ...» 2030 йилга қадар иқтисодиёт ҳажмини 2 баробар ошириш ва «ўрта юқори даромадли давлатлар» қаторига кириш», «2030 йилга қадар ялпи ички маҳсулот ҳажмини 160 миллиард долларга ва аҳоли жон бошига даромадларни 4200 долларга етказиш, саноатда ишлаб чиқариладиган технологик маҳсулотлар улушини 25 фоиздан 32 фоизга етказиш» [2] масалаларига алоҳида эътибор қаратилмоқда. Миллий иқтисодиётда таркибий сиёсат борасида қатор ижобий натижаларга эришилганига қарамадан айрим тармоқ ва соҳалар ўртасида турли хил даражадаги номутаносибликлар сақланиб қолмоқда.

Иқтисодиётда жадал таркибий ўзгаришларни амалга ошириш, миллий иқтисодиётни диверсификациялаш масаласи илмий-амалий аҳамиятга эга бўлган долзарб илмий муаммолардан ҳисобланади.

Миллий иқтисодиётдаги институционал таркибий тузилиш мамлакат иқтисодиётининг тармоқ таркибини (саноат, қишлоқ хўжалиги, транспорт, хизматлар, алоқа ва ҳ.к.) англатиб, тармоқларнинг мамлакатдаги иқтисодий ўсиш кўрсаткичларига қўшган ҳиссасаларини аниқлаш имконини беради.


Миллий иқтисодиёт таркибига таъсир кўрсатувчи инновацион омиллар жаҳон иқтисодиётининг глобаллашув босқичида устувор аҳамият касб этиб, барқарор иқтисодий ўсишга эришишнинг муҳим шарти ҳисобланади. Мазкур омиллар мамлакат миллий иқтисодиётининг техник ва технологик хусусиятларини ўзида акс эттирувчи омиллар ҳисобланади. Бугунги кунда илмий-техник тараққиёт юқори бўлган ривожланган мамлакатлар миллий иқтисодиёти таркибини таҳлил этиладиган бўлса, айнан инновацион фаоллик даражаси юқори бўлган тармоқлар бошқа соҳаларга нисбатан устувор аҳамиятга эга эканлигини кузатишимиз мумкин бўлади. Жумладан, бундай тенденциялар бозор иқтисодиёти шаклланаётган ва ривожланаётган мамлакатлар амалиёти учун ҳам хос ҳисобланади.

Миллий иқтисодиёт таркибига глобаллашув жараёнлари билан боғлиқ бўлган омиллар таъсир этади. Жаҳон хўжалигида маҳсулот ишлаб чиқаришнинг байналминаллашуви сабабли глобал қўшилган қиймат занжирида мамлакатларнинг у ёки бу даражада иштироки натижасида миллий иқтисодиёт таркиби шаклланишига таъсир этади.

Миллий иқтисодиёт таркибини такомиллаштиришнинг методологик асослари ва амалга ошириш йўналишларига бағишланган илмий тадқиқотлар узоқ хорижлик Б.Аллен, С.Х.Берри, Ҳ.Л.Краненбург, Н.Минцберг, Р.А. Питтс [3] каби олимларнинг илмий ишларида тадқиқ этилган. Яқин хориж мамлакатларида миллий иқтисодиёт таркибини диверсификациялашда тараққий этган мамлакатларнинг бой тажрибасини қиёсий таҳлил этиш ва улардан бозор муносабатлари шаклланаётган мамлакатлар амалиётида самарали фойдаланиш имкониятлари Р.А.Абрамов, Р.Аренд, А.Ю.Акимцев, А.Мейер ва бошқаларнинг илмий тадқиқотларида амалга оширилган, диверсификацион жараёнларни самарадорлигини оширишга бағишланган илмий тадқиқотлар А.О.Гребенькова, А.А.Кофанов, Е.А.Прищенко, В.А.Солдаткинлар [4] томонидан таҳлил қилинган.

Ўзбекистонлик олимлар С.А.Абдуллаев, А.В.Вахабов, Т.Жўраев, У.А.Мадрахимов, А.А.Маманазаров, Қ.Қ.Мамбетжанов, Г.Н.Махмудова, Н.Г.Мўминов, Т.У.Нуримбетов, Г.Х.Разикова, Н.Тўхлиев [5] ва бошқа иқтисодчи олимлар томонидан миллий иқтисодиёт таркиби ўзгаришларининг назарий ва амалий жиҳатлари тадқиқ этилган. Шу билан биргаликда, иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш босқичида Ўзбекистон иқтисодиёти

таркиби, унинг белгиловчи омиллари, хусусиятлари ва самарадорлигини оширишнинг назарий жиҳатларини тадқиқ этишга бағишланган назарий-амалий масалалари комплекс тарзда, тизимли, мустақил тадқиқот объекти сифатида таҳлил этилмаган. Муаммонинг долзарблиги, иқтисодий адабиётда етарлича ўрганилмаганлиги, қутилаётган илмий натижаларни илмий-амалий аҳамиятга эгаллиги ушбу мавзунини тадқиқот объекти сифатида танлашга асос бўлди. Ушбу мақолада тизимли таҳлил, мантикийлик, индукция ва дедукция, анализ ва синтез, қиёсий ва селектив танлаб тадқиқ қилиш каби умумий иқтисодий усуллар қўлланилган. Амалга оширилган тадқиқотлар натижалари кўрсатишича, миллий иқтисодиёт таркибини модернизациялаш ва таркибий ўзгаришларни амалга оширишга қаратилган иқтисодий ислохотларнинг натижасида мамлакатимиз ташқи иқтисодий фаолияти, жумладан, унинг таркибида чуқур таркибий ўзгаришлар рўй беради. Жумладан, давлат томонидан маҳаллий ишлаб чиқарувчилар томонидан ишлаб чиқариш жараёнларини моддий-техник базасини такомиллаштириш, ишлаб чиқарилаётган товар ва хизматларнинг номенклатурасини кенгайтиришга қаратилган мақсадли чора-тадбирларнинг изчил амалга оширилиши бугунги кунда ўз самарасини бермоқда. Ялпи ички маҳсулот таркибида тармоқларнинг ялпи қўшилган қийматининг улуши 2000-2022 йилларда 87,5 фоиздан 93,2 фоизга ортгани ҳолда маҳсулотга соф солиқларнинг улуши 12,5 фоиздан 6,8 фоизга қисқарганлигини кўрсатмоқда. Ушбу ҳолат иқтисодиётда солиқ юкининг пасайиб бораётганлигини англатади. Таҳлиллар, ялпи ички маҳсулот, иқтисодиётга сарфланаётган инвестициялар ва бандликнинг тармоқ таркибида муайян номуносивбликлар мавжудлигини кўрсатмоқда. Жумладан, 2010-2022 йилларда ялпи ички маҳсулот таркибида қишлоқ хўжалиги, ўрмон ва балиқ хўжалигининг улуши 30,6 фоиздан 25,2 фоизга қадар қисқаргани ҳолда, саноат (қурилишни қўшган ҳолда) ҳиссасига 24,1 фоиздан 33,4 фоизга қадар ошган. Иқтисодиётга сарфланаётган инвестицияларнинг катта қисми қазиб чиқариш саноатига йўналтирилгани ҳолда, меҳнатда банд аҳолининг қарийиб ¼ қисми банд бўлган қишлоқ хўжалиги ҳиссасига эса инвестицияларнинг бор-йўғи 7,4 фоизи тўғри келмоқда [6]. 2000-2022 йилларда мамлакатимиз ташқи иқтисодий айланмасида экспорт ҳажми қарийиб 4,6 марта ортиб, 15,1 млрд. долл.ни ташкил этган бўлса, импорт ҳажми эса 2,9 млрд. долл.дан 21,2 млрд.долл.га етди. Таҳлил этилаётган даврда мамлакатнинг ташқи савдо айланмаси ҳажми 2020 йилда 2000 йилга нисбатан 5,9 марта ортиб, 36,3 млрд. долл.га тенг бўлди. 2000-2010 йилларда мамлакатимизда ташқи савдо айланмаси сальдоси 0,4 млрд. долл.дан 4,2 млрд. долл.га етган бўлса, 2010 йилдан кейинги даврда мамлакатимиз иқтисодиёти тармоқларини модернизациялашга қаратилган дастурларга устуворлик қаратилиши сабабли ишлаб чиқариш жараёнларини техник-технологик жиҳатдан қуроллантириш мақсадида, асбоб-ускуналарни импорти ҳажми ортди. Натижада 2020 йилга келиб ташқи савдо айланмасининг сальдо кўрсаткичи -6,1 млрд. долл.га, 2022 йилга келиб эса -11,4 млрд.долл. камайдди (1-расмга қаранг).



1-расм. Ўзбекистоннинг ташқи савдо айланмаси ҳажми (млрд. долл.да) [7]

2000-2020 йилларда миллий иқтисодиёт тармоқ таркибини модернизациялашга қаратилган ислохотларнинг амалга оширилиши натижасида мамлакатимиз экспорти таркибида ҳам ашё маҳсулотлари экспорти сезиларли даражада қисқарди. Жумладан, таҳлил этилаётган даврда экспорт таркибида пахта толасининг улуши 27,5 фоиздан 1,0 фоизга, энергия манбалари ва нефт маҳсулотлари 10,3 фоиздан 4,4 фоизга қисқариб, юқори қўшилган қийматга эга бўлган тайёр маҳсулотлар экспорти ҳажми ошди. Импорт таркибида эса миллий иқтисодиёт тармоқларини модернизациялашга устуворлик кучайганлиги сабабли юқори технологик ишлаб чиқариш асбоб ускуналарини импорт қилиш ҳажми 2000 йилдаги 35,4 фоиздан 2020 йилга келиб 42,1 фоизга етганлигини кўришимиз мумкин. Экспорт таркибидаги сезиларли ўзгаришларга импорт товарларининг ўрнини босадиган маҳсулотлар ишлаб чиқариш ва саноат ишлаб чиқаришини модернизациялаш натижасида эришилган (1-жадвалга қarang).

1-жадвал

Ўзбекистоннинг ташқи савдо товар таркиби (жамига нисбатан фоизда) [8]

	Экспорт таркиби				Импорт таркиби			
	2000 й.	2010 й.	2020 й.	2022 й.	2000 й.	2010 й.	2020 й.	2022 й.
<u>Пахта толаси</u>	27,5	12,1	1,0	1,0	—	—	—	—
<u>Ўрик-овқат маҳсулотлари</u>	5,4	9,7	9,5	9,0	12,3	10,5	10,2	11,5
<u>Қимё маҳсулотлари ва ундан тайёрланган буюмлар</u>	2,9	5,1	5,8	6,7	13,6	13,8	13,6	13,8
<u>Энергия манбалари ва нефт маҳсулотлари</u>	10,3	22,8	4,4	6,3	3,8	7,1	5,2	5,8
<u>Қора ва рангли металллар</u>	6,6	6,9	8,2	8,6	8,6	8,1	8,3	11,0
<u>Машина ва асбоб ускуналар</u>	3,4	5,5	3,1	5,1	35,4	44,0	42,1	31,4
<u>Хизматлар</u>	13,7	10,2	13,2	20,5	8,5	5,3	5,7	8,2
<u>Бошқалар</u>	30,2	27,7	54,8	42,6	17,8	11,2	12,7	13,1

Шунингдек, хорижий мамлакатлар билан ўзаро иқтисодий алоқаларни мустаҳкамлаш, мамлакатларни ижтимоий-иқтисодий, савдо-саноат алоқаларини ривожлантириш борасида катта ишлар амалга оширилди. Жумладан, бугунги кунда Ўзбекистон жаҳоннинг 204 га яқин мамлакатлари билан савдо алоқаларини амалга ошириб келмоқда. Ташқи савдо айланмасининг нисбатан салмоқли ҳиссаси Россия Федерацияси (18,6 фоиз), Хитой Халқ Республикаси (17,8фоиз), Қозоғистон (9,2 фоиз), Туркия (6,4 фоиз), Корея Республикаси (4,7 фоиз), Қирғизистон Республикаси (2,5фоиз) ва Германия (2,3 фоиз) каби мамлакатлар улушига тўғри келади. Ўзбекистоннинг ташқи иқтисодий фаолият бўйича 20 та йирик ҳамкор мамлакатлари таркибида учтасида фаол ташқи савдо балансига эришилган. Хусусан, Афғонистон (741,3 млн. долл.), Қирғизистон (618,1 млн. долл.) Тожикистон (365,5 млн. долл.) шулар жумласидандир. Қолган 17 та мамлакатлар билан пассив ташқи савдо баланси сақланиб қолмоқда. [9]

Амалга оширилган тадқиқотларимиз натижалари кўрсатишича, бугунги кунда мамлакатимиз ташқи иқтисодий фаолиятини ривожланишида ва миллий иқтисодиёт таркибини диверсификациялашда қуйидагиларга эътиборни қаратиш мақсадга мувофиқ:

–миллий иқтисодиёт тармоқларини модернизациялаш дастурларини чуқурлаштириш орқали, корхоналардаги маънавий ва жисмоний эскирган ишлаб чиқариш воситаларини замонавий техникалар билан таъминлаш;

–ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш, товар ва хизматларнинг сифатини такомиллаштириш ва номенклатурасини кенгайтиришда илм-фан ютуқларини амалиётга татбиқ этилишини таъминлаш;

–маҳсулотларни қайта ишлаш, товар ва хизматларни ишлаб чиқариш жараёнларини энергия тежовчи, экологик жиҳатдан хавфсиз бўлган муқобил техника ва технологиялар билан

таъминлаш билан бир қаторда, муқобил энергия воситаларидан фойдаланиш асосида ишлаб чиқариш харажатларини қисқартиришга эришиш;

–мамлакат иқтисодиётида кичик ва ўрта корхоналар иқтисодий ривожланишнинг драйверига айланганлигини инобатга олган ҳолда, уларни инновацион ривожланиш йўлига ўтказиш. Бунда илмий тадқиқот институтлари, технопарклар томонидан амалга оширилаётган илмий тадқиқот тажриба-конструкторлик ишланмаларидан (ИТТКИ) кичик ва ўрта корхоналар фаолиятини ташкил этиш, ҳамда маҳсулотларни ишлаб чиқариш жараёнларида фойдаланиш ва ҳ.к.

Миллий иқтисодиёт тармоқларини диверсификациялаш самарадорлигини оширишнинг истиқболли усули ихтисослашувни кучайтириш ҳисобланади. Бунда меҳнат тақсимотини амалга оширишда айрим турдаги маҳсулотларни ишлаб чиқариш, мамлакатда маълум саноат тармоғи маҳсулотларини ишлаб чиқаришга устуворлик қаратилиб, ушбу соҳа бўйича меҳнат тақсимотини оптималлаштириш чора-тадбирлари ишлаб чиқилиши лозим.

Натижада халқаро бозорларда миллий ишлаб чиқарувчиларнинг рақобатбардошлиги ортиб, маҳаллий брендлар ривожланишига эришилади. Асосий эътибор ихтисослашув амалга оширилган тармоқ бўйича маҳсулот ишлаб чиқариш бўйича мустақилликнинг яратилиши, ишлаб чиқарилаётган маҳсулот сифатини ошириш ва юқори даражадаги қўшилган қийматни яратишга қаратиш лозим. Миллий иқтисодиёт тармоқларини диверсификациялашда интеграциялашув жараёнларига устуворликнинг қаратилиши иқтисодиёт тармоқлари, жумладан, турли соҳаларда хўжалик фаолияти юритувчи иқтисодий субъектлар ўртасида ўзаро иқтисодий муносабатларнинг тизимли равишда ривожланишига олиб келади.

Миллий иқтисодиёт тармоқ таркибини диверсификациялашни республика ҳудудида аввал ишлаб чиқарилмаган, маҳаллий корхоналар томонидан ўзлаштирилладиган маҳсулотларни давлат органлари ва устав капиталида давлат улуши 50 фоиздан ортиқ бўлган корхоналар томонидан ўрта муддатли шартнома тузиш орқали қафолатли харид қилиш тизими жорий этиш таклифи Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 24 январдаги ПҚ-99 сонли «Республикада ишлаб чиқаришни ривожлантириш ва саноат кооперациясини кенгайтиришнинг самарали тизимини яратиш чора-тадбирлари тўғрисида» Қарорида ўз тасдиғини топган. [10] Ушбу таклифнинг амалиётга жорий қилиниши натижасида миллий иқтисодиёт тармоқ таркибини диверсификациялаш орқали ички бозорда нархлар кескин ошиб кетишининг ва сунъий танқислик вужудга келишининг олди олинади. Жаҳон амалиётида миллий иқтисодиёт тармоқларини диверсификациялашда кенг қўлланиладиган усуллардан яна бири бу хўжалик юритувчи субъектлар фаолиятини кооперациялаш ҳисобланади. Бунда кооперация жараёни иштирокчиларининг узоқ муддатли истиқболдаги ривожланиш стратегияларидаги иқтисодий манфаатлари ўзаро боғлиқликда бўлиб, умумий мақсадларга эришиш учун биргаликдаги ҳаракати вужудга келади. Натижада ишлаб чиқарилаётган товар ва хизматларнинг ҳажми, уларнинг номенклатураси ортади ва ташқи бозорларга чиқиш имкониятлари кенгайиб боради. Иқтисодий ислохотларни чуқурлашуви шароитида миллий иқтисодиёт тармоқларини диверсификациялаш жараёнларининг самарадорлигини оширишда қуйидагиларга эътиборни қаратиш мақсадга мувофиқ:

–миллий иқтисодиёт тармоқларини диверсификациялаш жараёнларини амалга оширишнинг услубий асосларини такомиллаштириш;

–амалиётга татбиқ этилаётган диверсификацион лойиҳалар самарадорлигини баҳолаш мақсадида мутасадди ташкилотлар томонидан тегишли маълумотлар базасини шакллантириш орқали, диверсификация дастурлари бўйича миллий стандартларни ишлаб чиқиш;

–миллий иқтисодиёт тармоқларини диверсификациялашда илм-фан ютуқларидан амалиётда фойдаланиш жараёнларини рағбатлантириш;

–диверсификация жараёнларини баҳолашнинг сифат ва миқдор кўрсаткичлари бўйича мамлакат тармоқлари ва минтақалари кесимида рейтинг тизимини ишлаб чиқиш;

–хўжалик юритувчи субъектлар ўртасида интеграциялашув ва кооперациялашув жараёнларини кучайтириш ҳисобига диверсификация дастурларини ривожлантириш;

–стратегик аҳамият касб этувчи тармоқларда давлат ва хусусий шериклик асосидаги диверсификация дастурларини амалга оширилишига устуворлик қаратиш;

–диверсификация дастурларининг мамлакатнинг узоқ йиллик стратегик ривожланиш мақсадларидан келиб чиққан ҳолда ишлаб чиқиш ва амалга ошириш зарур.

Юқорида билдирилган фикрларни инобатга олган ҳолда, миллий иқтисодиёт тармоқларини диверсификациялаш орқали узоқ муддатли даврда мамлакатнинг ижтимоий-иқтисодий жihatдан барқарор ривожланиши учун тегишли шарт-шароитларни яратиш мумкин бўлади. Ўзбекистонда миллий иқтисодиёт тармоқларини диверсификациялаш йўналишларининг илмий-амалий асосларини тадқиқ этиш асосида қуйидаги илмий хулосалар олинди, уларни такомиллаштиришга қаратилган илмий таклиф ва амалий тавсиялар ишлаб чиқилди:

1. Мустақиллик йилларида мамлакатимиз иқтисодиёт таркибини диверсификациялашда ишлаб чиқарилаётган истеъмол маҳсулотлари номенклатурасини кўпайтиришга устуворлик қаратилди ва иқтисодиёт тармоқларида яратилаётган қўшилган қиймат ҳажми барқарор ўсиш тенденциясига эга бўлди.

2. Кейинги йилларда мамлакатимизда ишлаб чиқариш жараёнларини интеграцион ва кооперацион усулда диверсификациялаш моделини амалиётга татбиқ этиш орқали амалга оширилиши кўзланган мақсадга эришишда юқори иқтисодий самарадорликни таъминлаш имкони яратилади. Бу эса иқтисодий муносабатларни либераллаштириш ва мамлакат иқтисодиётини модернизациялаш шароитида муҳим аҳамият касб этади.

3. Фикримизча, миллий иқтисодиёт тармоқ таркибини диверсификациялашни республика ҳудудида аввал ишлаб чиқарилмаган, маҳаллий корхоналар томонидан ўзлаштирилаётган маҳсулотларни давлат органлари ва устав капиталида давлат улуши 50 фоиздан ортиқ бўлган корхоналар томонидан ўрта муддатли шартнома тузиш орқали кафолатли харид қилиш тизимини жорий этиш лозим.

4. Миллий иқтисодиёт тармоқларини диверсификациялашда илм-фан ютуқларидан амалиётда фойдаланиш жараёнларини рағбатлантириш, диверсификация жараёнларини баҳолашнинг сифат ва миқдор кўрсаткичлари бўйича мамлакат тармоқлари ва минтақалари кесимида рейтинг тизимини ишлаб чиқиш;

5. Стратегик аҳамиятга эга бўлган тармоқларда давлат ва хусусий шериклик асосидаги диверсификация дастурларини амалга оширилишига устуворлик қаратиш, диверсификация дастурларининг мамлакатнинг узоқ йиллик стратегик ривожланиш мақсадларидан келиб чиққан ҳолда ишлаб чиқиш ва амалга ошириш зарур.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сонли Фармони. 28.01.2022 й., URL: <https://lex.uz/docs/5841063>
2. 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 24.01.2022 йилдаги ПҚ-99-сон, URL: <https://lex.uz/docs/5836411>
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги, Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолати, Ташқи иқтисодий фаолият, 216 бет.
5. Booz, Allen, Hamilton, Booz Allen, Hamilton. Diversification. A Survey of European Chief Executives / New York: Booz, Allen and Hamilton[Текст], 1985. – P. 378;
6. Berry C.H. Corporate Growth and Diversification / Journal of Law and Economics.[Текст] Vol. 14, № 2. October, 1971, P 371–383;
7. Pitts, Hopkins, 1982 Pitts R. A., Hopkins, H. D. Firm diversity: conceptualization and measurement. / Academy of Management Review. –№7[Текст], 1982, pp. 620 – 629;
8. Mintsberg N., Global S- Diversification and Diversification / California Management Review Fall[Текст]. - 1994. - Vol. 3- P. 8 – 27;

9. Абрамов Р.А. Теоретические подходы к диверсификации экономических систем // Экономический анализ: теория и практика. 2009. № 28 (157). С. 37-42;
10. Аренд Р. Как поддерживать экономический рост в ресурсно-зависимой экономике? // Вопросы экономики. 2006. № 7.,с24-28.;
11. Акимцев А. Ю. Управление диверсификацией промышленного производства : автореф, дис. ...канд. экон. наук. Саратов, 2001. 26с.;
12. Мейер А., Михайлов В., Пруцков А., Тяжов А. Диверсификация промышленного производства: от теории к практике. Кострома-Потсдам : Костромскойгос. технол. ун-т, 2007. 135 с;
13. Прищенко Е.А. Влияние различных типов диверсификации на стратегию развития и конкурентные преимущества компании [Текст]/Мир экономики и управления. 2007. Т. 7. № 2.с53-61;
14. Кофанов А.А. Диверсификация региональной экономики как доминирующая стратегия структурного развития в условиях глобализации экономических отношений: автореф. дис. ... д-ра экон. наук – Краснодар, 2011. – 33 с.;
15. Гребенькова О.А. Диверсификация в агропромышленных формированиях: автореф. дис. ...канд. экон. наук – Москва, 2007. – 24 с.;
16. Абдуллаев С.А. Миллий маҳсулот ҳажми, таркиби ва ҳаракат шакллари ўртасидаги ўзаро боғлиқликнинг назарий-услугий асосларини такомиллаштириш // Иқт. фан. док. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореф. – Т.: ТМИ. 2018 – 67 б.;
17. Вахабов А.В., Разикова Г.Х. «Модернизация экономики» Ўқув қўлланма.- Т.»ИQTISOD-MOLIYA» 2014-200 б., Вахабов А.В.Иқтисодиётда таркибий ўзгаришларни амалга ошириш ва барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашнинг методологик жиҳатлари// Ўзбекистон иқтисодиёти институциянал ривожлантириш: ютуқлар, муаммолар,ечимлар. Илмий-амалий анжуман материаллари.-Т.:ТДИУ,2016.8-20б.,
18. Жўраев Т. Иқтисодиёт назарияси. Ўқув қўлланма.–Т.: Молия. 2018.–624 б.;
19. Мадрахимов У.А. Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида барқарор ўсиш сифатини ошириш. // Иқт. фан. док. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореф.– Т.: ТДИУ. 2017 – 69 б.;
20. Маманазаров А.А. Миллий бойлик таркибий қисмларини диверсификациялашнинг назарий асослари. // Иқт. фан. б-ча фалсафа док. (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореф. – Т.: ЎзМУ. 2022 – 56 б.;
21. Мамбетжанов Қ.Қ. Миллий ҳисоблар тизимида ЯИМни ҳисоблаш усулларининг назарий асосларини такомиллаштириш.// Иқт. фан. док. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореф. – Т.:ЎзМУ. 2019 – 18 б.;
22. Махмудова Г.Н Иқтисодиётни модернизациялашнинг моделларининг назарий асосларини такомиллаштириш.// Иқт. фан. док. (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореф. – Т.: 2018 – 34 б. ;
23. Муминов Н.Г. Бозор муносабатлари шаклланиши даврида Ўзбекистон иқтисодиётидаги таркибий ўзгаришлар.// Иқт. фан. ном. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореф.–Т.:2001–19 б.;
24. Нурибетов Т.У. Қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришини диверсификациялаш йўналишлари (Қорақалпоғистон Республикаси мисолида). // Иқт. фан. б-ча фалсафа док. (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореф.–Т.2019–53б.;
25. Разикова Г.Х.Экономический механизм реализации промышленной политики в условиях модернизации экономики. .// Иқт. фан. ном. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореф. – Т.:2011– 18.;
26. Тўхлиев Н. Тараққиётнинг ўзбек модели. Монография.–Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» давлат илмий нашриёти. 2012. – 180 б.;
27. <https://stat.uz/uz/>, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги статистика агентлигининг расмий маълумотлари.

**SINGAPUR MODEL: INSON KAPITALIGA INVESTITSİYALAR IQTISODIY
O‘SHNING ASOSI SIFATIDA**

**СИНГАПУРСКАЯ МОДЕЛЬ: ИНВЕСТИЦИИ В ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ КАК
ОСНОВА ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА**

**SINGAPORE MODEL: HUMAN CAPITAL INVESTMENT AS THE FOUNDATION OF
ECONOMIC GROWTH**

Mirxamidova Zahinabonu Mirxamid qizi
Guliston davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya

Ushbu tadqiqot Singapur misolida innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda inson kapitalining rolini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Miqdoriy va sifat metodlaridan foydalangan holda ta’lim, ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar hamda yuqori malakali ishchi kuchini rivojlantirishga investitsiyalar o‘rtasidagi munosabatlar o‘rganilgan. Olingan natijalar Singapur modelining samaradorligini va uni boshqa mamlakatlarda qo‘llash imkoniyatlarini baholash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy o‘shish, inson kapitali, investitsiyalar, ta’lim, sog‘liqni saqlash, innovatsiyalar, davlat siyosati, rivojlanish modeli

Данное исследование посвящено анализу роли человеческого капитала в формировании инновационной экономики на примере Сингапура. Используя количественные и качественные методы, автор исследует взаимосвязи между инвестициями в образование, научными исследованиями и разработками, а также формированием высококвалифицированной рабочей силы. В работе проводится сравнительный анализ сингапурской модели с другими экономиками, позволяющий выявить уникальные особенности и факторы успеха. Полученные результаты позволяют оценить эффективность сингапурской модели и ее потенциал для применения в других странах.

Ключевые слова: экономический рост, человеческий капитал, инвестиции, образование, здравоохранение, инновации, государственная политика, модель развития

This study analyzes the role of human capital in shaping an innovation-driven economy, using Singapore as a case study. Employing quantitative and qualitative methods, the author examines the interrelationships between investments in education, research and development, and the formation of a highly skilled workforce. A comparative analysis of the Singaporean model with other economies is conducted to identify unique characteristics and success factors. The findings assess the effectiveness of the Singaporean model and its potential for application in other countries.

Keywords: economic growth, human capital, investment, education, healthcare, innovation, government policy, development model

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi bilan inson kapitali iqtisodiy o‘shishning asosiy omili sifatida tobora e’tirof etilmoqda. Singapur o‘zining ta’sirchan rivojlanish sur’atlari bilan inson salohiyatiga maqsadli sarmoya kiritish orqali muvaffaqiyatli iqtisodiy o‘zgarishlarning yorqin namunasidir. Ushbu tadqiqot Singapur hukumati siyosati innovatsion ekotizimni shakllantirishga va texnologik taraqqiyotni rag‘batlantirishga qanday yordam bergani o‘rganilgan. Ta’lim, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga sarmoya kiritish hamda yuqori malakali kadrlar tayyorlash o‘rtasidagi munosabatlarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Odamlarning bilim va malakalari iqtisodiyotning muhim resursi, degan g‘oya 18-asrda paydo bo‘lgan. Adam Smit, David Rikardo va Tomas Maltus kabi klassik iqtisodchilar ta’lim va iste’dodni

rivojlantirish xalq farovonligining o‘shishiga hissa qo‘shishini o‘z davrida aytib o‘tishgan. Uilyam Petti milliy boylikni oshirish uchun ta’limga sarmoya kiritish muhimligini ta’kidlagan.

Biroq, birinchi sanoat inqilobi davrida, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash hukmron bo‘lgan davrda, insonni ishlab chiqarishning asosiy omili sifatidagi g‘oya orqa fonga o‘tdi. Ishchi noyob bilim va ko‘nikmalar egasi sifatida emas, balki ko‘proq mashinaning bir qismi sifatida qaraldi.

Inson kapitaliga qiziqish XXI asrda qayta tiklandi. Teodor Shults, Gari Bekker va Jeyms Minser kabi iqtisodchilar bu kontseptsianing ilmiy asoslarini ishlab chiqdilar va uning iqtisodiy o‘shish bilan yaqin aloqadorligini ko‘rsatdilar.

“Inson kapitali” atamasi ilk bor nobel mukofoti sovrindori iqtisodchi Teodor Shults (1902-1998) asarida paydo bo‘lgan bo‘lib, uning ta’kidlashicha, kambag‘allarning farovonligini oshirish texnologiya, harakat yoki foydalanilgan yerga emas, balki bilimga bog‘liq. 1979 yilda T.Shults ta’rifni taklif qildi: “Insonning barcha qobiliyatlari tug‘ma yoki orttirilgan bo‘ladi. Har bir inson tug‘ma qobiliyatlarini belgilaydigan individual genlar to‘plami bilan tug‘iladi. Tegishli investitsiyalar evaziga mustahkamlanishi mumkin bo‘lgan inson tomonidan qo‘lga kiritilgan qimmatli fazilatlar inson kapitali deb ataladi” [2].

G.Bekkerning fikricha, “Korxonadagi inson kapitali insoniy malakalarning yig‘indisidir”[1]. M.M. Kritskiy inson kapitalini “iste’mol va ishlab chiqarish shakllarini o‘zlashtirgan inson hayotiy faoliyatining o‘ziga xos shakli” deb ta’riflagan. I. Ben-Poret “Inson kapitali ijtimoiy o‘lchov birliklarida mehnat resurslarini ishlab chiqarish funksiyalarini bajaradigan maxsus fondidir” deb hisoblagan. S.M Kuzmichev ta’kidlaganidek. “Inson kapitali barqaror rivojlanishni ta’minlashga, shuningdek, dunyoning yetakchi davlatlari orasida raqobatbardoshlikni saqlashga qodir bo‘lgan davlatning asosiy boyligidir”.

1960-yillarning boshlarida. T.Shults, G.Bekker kabi iqtisodchilar inson kapitalining muhim nazariy kategoriyasini kiritib, yangi tadqiqot sohasini yaratdilar. Bekker o‘ziga xos inson kapitali va umumiy inson kapitali o‘rtasidagi farqni ko‘rsatdi. Birinchisi, faqat xodimlar ishlaydigan kompaniya ichida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarga tegishli bo‘lsa, ikkinchisi kompaniyadan tashqarida keng qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ko‘nikmalarga tegishli[4]. Shultsning resurslar nazariyasi va Barnining strategiya nazariyasiga ko‘ra, inson kapitalining o‘ziga xosligi uni tashkilotlar uchun qimmatli va kamyob qiladi va shuning uchun kam inson kapitali kompaniyalar uchun raqobatdosh ustunlik manbai hisoblanadi[3].

Keyingi yillarda inson kapitali sohasidagi tadqiqotlar faollashdi. Bu yuqori texnologiyali ishlab chiqarishga o‘tish to‘rtinchi sanoat inqilobi bilan bog‘liq bo‘lib, bu yerda malakali kadrlar asosiy rol o‘ynaydi. Iqtisodchilar tobora yangi texnologiyalardan samarali foydalana oladigan sifatli ishchi kuchini yaratishga e’tibor qaratmoqda.

Inson kapitali vaqt va resurslarni sezilarli darajada investitsiyalashni talab qiluvchi kapitalning alohida turi sifatida qaraladi. Biroq bu sarmoyalar ishlab chiqarish samaradorligi va aholi turmush darajasining oshishi hisobiga o‘z samarasini beradi.

Singapurning iqtisodiy rivojlanishida inson kapitalining rolini chuqur tahlil qilish uchun tadqiqotda ham nazariy, ham empirik usullar qo‘llanildi. Tadqiqotning nazariy qismida inson kapitali va iqtisodiy o‘shish o‘rtasidagi bog‘liqlik haqidagi mavjud bilimlarni umumlashtirish uchun ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish usullari qo‘llanildi. Qiyosiy tahlil Singapur modelining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berdi. Tizimli tahlil inson kapitalining turli tarkibiy qismlari o‘rtasidagi munosabatlarni va ularning butun iqtisodiyotga ta’sirini o‘rganish uchun ishlatilgan. Tahlil va sintez usullari olingan ma’lumotlarni umumlashtirish va xulosalarni shakllantirish imkonini berdi.

Intellektual sanoat 4.0 davrida sanoat modernizatsiyasi inson kapitali va ishlab chiqarish texnologiyasining sinergik o‘shishi bo‘lib, inson kapitali va texnologiya o‘rnini bosuvchi emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi munosabatlarni namoyish etadi. Inson kapitaliga investitsiyalar va uni rivojlantirish yangi texnologiyalarni yaratishga va mavjudlarini modernizatsiya qilishga yordam beradi, bu esa, o‘z navbatida, inson kapitali salohiyatini rag‘batlantiradi. Shunday qilib, o‘zaro ta’sir, o‘rganish va moslashish orqali inson kapitali va texnologiya doimiy ravishda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishi va iqtisodiy o‘shishga hissa qo‘shishi mumkin.

Sanoat 4.0 ning o‘ziga xos xususiyati nafaqat uning murakkabligi, tezkorligi va keng qamrovliligida, balki u turli fan sohalari yutuqlarini sintez qilishda hamdir. Ushbu sintez, raqamli transformatsiya bilan birga, To‘rtinchi sanoat inqilobining markazidadir.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning har birida inson kapitali milliy boylikning yarmidan ko‘prog‘ini, dunyoning rivojlangan mamlakatlarida esa 70-80 foizdan ortig‘ini tashkil qiladi.


Dunyo mamlakatlari ikki guruhga bo‘linadi:

1. yuqori sifatli institutlar va yuqori sifatli inson kapitaliga ega mamlakatlar
2. sifatli institutlar va sifatli inson kapitaliga ega mamlakatlar.

Singapur yuqori sifatli institutlar va yuqori sifatli inson kapitaliga ega mamlakatlardan biri hisoblanadi. Singapur iqtisodiy yutuqlari asosan inson kapitaliga, boshqaruv ko‘nikmalariga va nomoddiy aktivlarga investitsiyalar bilan bog‘liq. Mamlakatda kadrlar malakasini oshirishga alohida e‘tibor qaratildi, bu esa jahon iqtisodiyotining o‘ziga borayotgan talablariga muvaffaqiyatli moslashish imkonini berdi. Nobel mukofoti sovrindori Gari Bekker fikriga ko‘ra, inson kapitali zamonaviy dunyoda iqtisodiy o‘zgarishning asosiy omili ekanligini ta‘kidlash mumkin.

Singapur tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ilm-fan va texnologiya sohasidagi maqsadli davlat siyosati ajoyib natijalarga olib kelishi mumkin. Nisbatan qisqa vaqt ichida Singapur dunyoning yetakchi innovatsion iqtisodiyotlaridan biriga aylandi. Bunga uch bosqichli strategiyani izchil amalga oshirish yordam berdi. Dastlabki bosqichda 1965-1980 yillarda xorijiy texnologiyalarni jalb qilish va inson kapitalini rivojlantirish ustuvor vazifa bo‘ldi. 1981 yildan 2010 yilgacha asosiy e‘tibor o‘z tadqiqot va ishlanmalarini rag‘batlantirish, innovatsion tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va jahon bozorida raqobatbardosh mavqeni mustahkamlashga qaratildi. 2010 yildan beri Singapur xalqaro hamkorlikni chuqurlashtirish, davlat innovatsion sektorini rivojlantirish va biznes uchun qulay muhit yaratishni o‘z ichiga olgan keng qamrovli yondashuvga o‘tdi.

Singapur ta‘lim tizimi tarixiy, madaniy va institutsional omillar bilan shakllangan noyob modeldir. Markazlashtirilmagan va xilma-xil bo‘lgan ko‘plab G‘arbiy Evropa tizimlaridan farqli o‘laroq, Singapur modeli barcha talabalar uchun yuqori sifatli ta‘limni ta‘minlash uchun yuqori darajada markazlashtirilgan. Biroq, tizim jamiyat va iqtisodiyotning o‘zgaruvchan ehtiyojlariga yuqori moslashuvchanlikni namoyish etadi.



Rasm 2 – Singapur davlatining ta‘limga xarajatlar grafigi 1990 yildan 2022 yilgacha

Manba: [7] statistik ma‘lumotlar asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

Taqdim etilgan grafikda (rasm 2) Singapurda 1990 yildan 2021 yilgacha bo‘lgan davrda ta‘lim xarajatlari dinamikasi aks ettirilgan. Ushbu ma‘lumotlarning tahlili asosiy tendensiyalarni va ularning mamlakat inson kapitalini rivojlantirish bilan bog‘liqligini aniqlash imkonini beradi.

1990-yillarda umumiy ta‘lim xarajatlari va operatsion xarajatlarning barqaror o‘sishi kuzatildi. Bu shuni ko‘rsatadiki, 1990-yillarning boshida ta‘lim Singapurda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ushbu ko‘rsatkichlardan mablag‘larning katta qismi asosiy ta‘limni


rivojlantirishga ajratilgan bo‘lib, bu inson kapitalini yanada rivojlantirish uchun poydevor yaratishga qaratilgan deb xulosa qilsak bo‘ladi.

2000-yillar ta‘lim xarajatlarining o‘shish sur‘ati tezlashdi. Bu mamlakatning jahon iqtisodiyotida raqobatbardoshligi uchun ta‘limning ahamiyatini anglashning kuchayishi bilan bog‘liq bo‘lgan. Ushbu davrda xarajatlarni diversifikatsiya jarayoni amalga oshirilgan degan xulosaga kelamiz va moliyalashtirishning kasbiy ta‘lim va ilmiy tadqiqotlar kabi yangi yo‘nalishlari paydo bo‘lgan. Bu Singapurning innovatsion iqtisodiyot uchun yuqori malakali ishchilarni yetishtirishga intilishidan dalolat beradi.

2010-yillar ta‘lim xarajatlarining o‘shishi barqarorlashgan. 2010-yildan boshlab xarajatlarning o‘shish sur‘atlari biroz pasaygan, ammo umumiy tendensiya ijobiylikicha qolmoqda. Bu ta‘lim tizimini rivojlantirishda ma‘lum darajada to‘yinganlikka erishilganligidan dalolat beradi. Va bu o‘z navbatida ta‘lim sifatini faqat miqdoriy o‘shishga emas, balki sifatiga ko‘proq e‘tibor qaratilgan deb xulosa qilishimiz mumkin. Bu innovatsion o‘qitish usullariga xarajatlarning oshishi, malakali o‘qituvchilarni jalb etish va ta‘lim infratuzilmasini rivojlantirishda namoyon bo‘lmoqda.

Singapur ta‘lim tizimi juda moslashuvchan bo‘lib, o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, jamoada ishlash va yangi texnologiyalarga moslashish kabi ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu ko‘nikmalar 4-sanoat inqilobida muvaffaqiyat kalitidir.

Singapur ta‘lim tizimi uchta darajada tuzilgan: boshlang‘ich (olti yoshdan o‘n ikki yoshgacha), o‘rta (o‘n ikki yoshdan o‘n yetti yoshgacha) va yuqori (o‘n yetti yoshdan). Boshlang‘ich ta‘lim to‘rt yillik umumiy va ikki yillik maxsus fanlarni o‘z ichiga oladi. Olti yil davom etadigan boshlang‘ich ta‘lim asosiy fanlarni va milliy tillardan birini (xitoy, malay yoki tamil) o‘rganishni o‘z ichiga oladi. O‘rta ta‘lim turli xil ta‘lim trayektoriyalarini taklif etadi, bu o‘quvchilarga o‘z qiziqishlari va qobiliyatlariga muvofiq o‘quv profilini tanlash imkonini beradi. Oliy ta‘lim bakalavriat va magistratura yo‘nalishlarining keng doirasini taklif qiluvchi nufuzli universitetlar tomonidan taqdim etiladi.



Rasm 3 – Davlat tomonidan har bitta o‘quvchiga ketadigan xarajatlarning 1990 yildan 2022 yilgacha ortishi, dollarda

Manba: [7] statistik ma‘lumotlar asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

Yuqorida keltirilgan grafikka ko‘ra ma‘lum bir davrda (1990-2022) ta‘limning turli darajalariga (boshlang‘ich, o‘rta, kollejlar, oliy NITEC (texnik ta‘lim instituti tomonidan ishlab chiqilgan) kurslari, davlat tomonidan moliyalashtirilgan bakalavr va daraja olish kurslari) bir talabaga to‘g‘ri keladigan investitsiyalar dinamikasi haqida ma‘lumot berilgan. Tahlil qilinayotgan davr mobaynida

ta’limning barcha darajalariga investitsiyalarni ko‘paytirishning barqaror tendensiyasi kuzatilmoqda. Bu esa ta’lim-tarbiyaning ahamiyati va jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni to‘g‘risida xabardorlik kuchayib borayotganidan dalolat beradi.

Ta’limning turli darajalariga investitsiyalarning o‘sish sur’ati bir xil emas. Oliy NITEC (texnik ta’lim instituti tomonidan ishlab chiqilgan) kurslari, davlat tomonidan moliyalashtirilagan bakalavr va daraja olish kurslari kabi ba’zi sohalar boshqalarga qaraganda yuqori o‘sish sur’atlariga ega. Bu hukumat siyosati ustuvorliklari va iqtisodiy sharoitlarga qarab o‘zgarishlar bilan bog‘liqdir.

Boshlang‘ich ta’limga investitsiyalar barqaror o‘sib bormoqda, bu hukumatning barcha fuqarolarni asosiy ta’lim bilan ta’minlashdagi ustuvorligini aks ettiradi.

Singapurdagi o‘rta maktab o‘quvchilarga o‘zlariga mos keladigan ta’lim yo‘lini tanlash imkonini beruvchi tabaqalashtirilgan ta’lim yondashuvini taklif etadi. Boshlang‘ich maktab oxirida PSLE (4 yillik boshlang‘ich maktabdan keyin yakuniy imtihon) natijalariga asosanib, bitiruvchilar o‘rta ta’limning bir nechta yo‘nalishlaridan birini tanlashlari mumkin. 2023 yilgacha uchta asosiy yo‘nalish mavjud edi: "Ekspress", "Oddiy (akademik)" va "Oddiy (texnik)". 2024 yildan boshlab o‘quvchilarni alohida fanlar bo‘yicha ko‘rsatkichlariga qarab G1, G2 va G3 guruhlariga bo‘lishdan iborat bo‘lgan yangi Subject-Based Banding tizimi joriy etildi.

Singapurda o‘rta ta’lim to‘rt yoki besh yil davom etadi. Natijalari A1 (eng yaxshi) dan F9 (eng yomoni)gacha bo‘lgan shkala bo‘yicha baholanadigan yillik O-darajali imtihonlar bitiruvchilarning keyingi ta’lim yo‘lini belgilashda muhim rol o‘ynaydi. O-darajali imtihonlarda yuqori natijalar nufuzli universitetlar uchun eshiklarni ochadi.

O‘rta ta’limga investitsiyalar ham ortishi, ammo o‘sish sur’ati iqtisodiy sharoit va demografik o‘zgarishlarga qarab farq qilishi mumkin. O‘rta martaba mutaxassislariga talab ortib borayotganligi sababli kollejlarga investitsiyalar boshlang‘ich va o‘rta ta’limga qaraganda yuqori o‘sish sur’atlariga ega (Rasm-3).

Singapur oliy ta’lim tizimi ta’lim va ilmiy faoliyatning yuqori darajadagi integratsiyasi bilan ajralib turadi. Mamlakatning Singapur Milliy universiteti va Nanyang texnologiya universiteti kabi yirik universitetlari nafaqat sifatli oliy ta’lim, balki yetakchi ilmiy markazlar hamdir. Bu universitetlarda minglab olimlar va aspirantlar jahon miqyosidagi tadqiqotlarni olib boradilar. 2022 yilda QS World University Rankings ma’lumotlariga ko‘ra, Singapur Milliy universiteti va Nanyang texnologiya universiteti dunyoning eng yaxshi 20 taligiga va Times Higher Education (THE) ma’lumotlariga ko‘ra dunyoning eng yaxshi 10 taligiga kirdi.

Singapur ta’lim tizimi meritokratiya tamoyiliga chuqur asoslangan. Davlat boshqaruvi va ijtimoiy ong asosini tashkil etuvchi bu tamoyil shaxsning ijtimoiy mavqei va imkoniyatlari faqat uning qobiliyati va yutuqlari bilan belgilanadi. Ta’lim sohasida meritokratiya iqtidorli talabalarni aniqlash va ularni rahbarlik lavozimlariga tayyorlashga qaratilgan o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholashning qat’iy tizimida namoyon bo‘ladi. Bunday yondashuv, garchi u yuqori malakali kadrlar shakllanishiga yordam bersa-da, ijtimoiy tabaqalanishning kuchayishi va elita guruhlarning paydo bo‘lishi haqida tashvish uyg‘otadi.

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik va o‘rta biznesning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish, barqaror iqtisodiy o‘shish hamda asosiy makroiqtisodiy muammolarni bartaraf etish, iqtisodiyot tarmoqlari taraqqiyotini ta‘minlashdagi ahamiyatini tadqiq qilish bo‘yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalari xulosalariga tayangan holda, shuningdek kichik biznesning ustunliklari hamda kamchiliklarini hisobga olgan holda uning iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashdagi roliga turlicha qarashlar shakllangan. Bugungi iqtisodiyotda kichik biznes subyektlari muhim innovatorlar hamda ko‘pchilik sanoat tarmoqlarining texnologik liderlari hisoblanadi[5]. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik salohiyatidan to‘liq va samarali foydalanish, xususan, kasanachilikni, eng avvalo korxonalar bilan kooperatsiyalashuv asosida mehnat shartnomalari bo‘yicha kasanachilikni, xalq hunarmandchiligini, shuningdek, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, ishchi kuchi bozoridagi talab va taklif muvozanatini ta‘minlash hamda aholi daromadlarini oshirish borasida qo‘shimcha imkoniyatlarni ishga soladi [6]. Kichik biznes bozor iqtisodiyotining muhim elementi bo‘lib, iqtisodiy o‘shish, YAIMni tarkibi va sifatiga ta‘sir qiluvchi asosiy unsurlardan biri hisoblanadi [7]. Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, mamlakatimizda kichik biznesni rivojlantirish, tarmoqlari barqaror rivojini ta‘minlash, rentabelligini oshirish kabilarga xizmat qiladi. Buning natijasida mahsulot ishlab chiqarish jarayonlariga yangi xizmat turlari paydo bo‘ladi va aholini ish bilan ta‘minlash imkoniyati oshadi. Shuningdek, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega bo‘lgan mahsulotlar yetishtirish asosida xorijiy mamlakatlar bozorlarida yuqori darajada raqobatbardoshligini oshirish ta‘minlanadi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi PF-60 sonli farmoni
2. OECD, 2017 Entrepreneurship at a Glance 2017, OECD Publishing, Paris, forthcoming.
3. Murat Bayraktar. Neşe Algan, The Importance of SMEs On World Economies. International conference on eurasian economies 2019.

4. OECD, 2017. Entrepreneurship at a Glance 2017, OECD Publishing, Paris, forthcoming; Yoshino, N. and F. Taghizadeh-Hesary.
- 5 Kelly Edmiston. The role of Small and Large Business in Economic Development. Federal Reserve Bank of Kansas City, Economic review, second quarter 2007 (www.KansasCityFed.org)
6. Гафуров У.В. Кичик бизнесни давлат томонидан тартибга солишнинг иқтисодий механизмларини такомиллаштириш. (08.00.08 – Тадбиркорлик ва кичик бизнес иқтисодиёти, 08.00.01 – Иқтисодиёт назарияси (иқтисодиёт фанлари)). Иқтисод фанлари доктори. дисс. Т., 258 б.
7. Tatyana Vlasjuk. Development of small business in the sphere of rural tourism by the example of the Kirov region, “Institutions in Transition – Challenges for New Modes of Governance” IAMO Forum 2010, 16-18 June 2010 | Halle (Saale), Germany

УДК:338.001.36

ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНИШНИНГ КЛАСТЕР УСУЛИ

КЛАСТЕРНЫЙ МЕТОД ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ

CLUSTER METHOD OF INNOVATIVE DEVELOPMENT

Абдуллаева Р.Г. ЎзМУ Иқтисодиёт назарияси кафедраси, доцент

Аннотация

Чекланган ресурслар шароитида инсониятнинг чексиз эҳтиёжларини қондириш ривожланишнинг янгида янги усуллари амалиётда қўллашга тақозо қилади. Кластер усули инновацион ривожланиш усули бўлиб, корхоналар, минтақалар ва бутун мамлакатнинг рақобатбардошлигини оширишга олиб келади.

Калит сўзлар: кластер, кластер тизими, кластер стратегияси, барқарор кластерлар, инновацион ривожланиш, рақобатбардошлик.

Удовлетворение неограниченных потребностей человечества в условиях ограниченности ресурсов требует применения на практике новых методов развития. Кластерный метод – это инновационный метод развития, который приводит к повышению конкурентоспособности предприятий, регионов и всей страны.

Ключевые слова: кластер, кластерная система, кластерная стратегия, устойчивые кластеры, инновационное развитие, конкурентоспособность.

Meeting the unlimited needs of mankind in the conditions of limited resources requires the application of new methods of development in practice. The cluster method is an innovative development method that leads to an increase in the competitiveness of enterprises, regions and the entire country.


Keywords: cluster, cluster system, cluster strategy, sustainable clusters, innovative development, competitiveness.

Глобаллашув тобора кучайиб бораётган бугунги кунда ҳар бир мамлакат олдида турган асосий вазифалардан бири – бу миллий иқтисодиётнинг рақобатбардошлигини оширишдан иборат. Бунинг учун чекланган ресурсларни оқилона тақсимлаб, иқтисодий ўсишни таъминлаш мақсадида кўпчилик мамлакатлар инновацион ривожланиш усулларида фойдаланмоқдалар. Ана шундай муайян минтақа ёки тармоқнинг шунингдек бутун мамлакатнинг миллий рақобатбардошлигини оширишга олиб келувчи инновацион ривожланиш усули – кластер усули ҳисобланади. Ривожланган мамлакатлар кластер усулидан

узоқ йиллардан бери фойдаланиб келмоқдалар. Кластер инглизча “cluster” сўздан олинган бўлиб, у турли хил ташкилотлар ёки одамларнинг гуруҳи, бирлашмаси деган маънони англатади. Содда қилиб айтиладиган бўлса кластер бу – тўпланиб биргаликда ишни амалга оширишдир. Кластер тўғрисидаги дастлабки маълумотларни А.Смитнинг “Халқлар бойлигининг табиати ва сабаблари тўғрисида тадқиқот” асарида учратиш мумкин. Бу асарида А.Смит ихтисослашув меҳнат тақсимооти сингари ишлаб чиқариш ўсишини таъминловчи асосий омиллардан бири эканлигини таъкидлайди [1. - 647 с.].

Д.Рикардонинг нисбий устунлик назариясида ҳам кластер усулининг асослари мавжуд. Шунингдек, А.Маршалл “Иқтисодиёт принциплари” номли асарида “саноат районлари” терминини қўллайди [2.]. А.Маршалл саноат районлари деганда бир-бирига яқин ўхшаш саноат корхоналарининг ҳудудий жойлашувини назарда тутди. А.Маршалл корхоналарнинг географик концентрацияси ижобий ҳолатларни юзага келтиришини таъкидлайди.

А.Маршаллнинг иқтисодий агломерация тўғрисидаги таълимоти М.Портернинг кластер концепцияси яратилишига асос бўлди. Умуман олганда, кластер атамасини иқтисодиёт назариясига биринчи бўлиб америкалик иқтисодчи Майкл Портер киритган бўлиб, у ўзининг миллий рақобат устунликлари китобида иқтисодий ривожланишга “кластерли ёндашув” таълимотини таклиф этди.



1-расм. Корхоналарнинг иқтисодий агломерация орқали барқарорликка эришиши.

М.Портер ўзидан олдинги россиялик олимлар А.Горкин ва Л.Смирнягина [3], швециялик иқтисодчилар К.Фредрикссон ва Л.Линдмарк [4], шунингдек америкалик олим С.Чамански ва Бразилиялик олим Л.деАблас [5] ва бошқаларнинг назарий ва эмпирик материалларини бир тизимга келтирди ва қуйидагича таъриф берди: «Кластер – бу бир-бири билан рақобатлашувчи, лекин шу билан бирга бутун кластернинг рақобатбардошлигини таъминлаш мақсадида ўзаро ҳамкорликда фаолият юритувчи, географик жиҳатдан концентрациялашган ташкилотларнинг ўзаро боғланган гуруҳлари, улар фаолиятига ихтисослашган хизмат кўрсатиш ташкилотлари, жиҳозлар етказиб берувчи ташкилотлар, уларга ҳамроҳ тармоқ ташкилотлари, шунингдек, уларнинг фаолияти билан боғлиқ турли соҳа ташкилотлари (илмий-тадқиқот институтлари, ОЎЮлари, стандартлаштириш бўйича агентликлар, савдо уюшмалари ва ҳ.к.) ва бошқа бир қатор ташкилотлар гуруҳидир».

Муаллиф	Кластерга берилган таърифлар
M. Porter	Кластер - умумий ва бир-бирини тўлдирувчи томонлар билан боғланган, маълум бир соҳада ўзаро алоқадор компаниялар ва институтларнинг географик жиҳатдан яқин гуруҳи.
Elsner	Кластер-функционал жиҳатдан вертикал ва горизонтал боғланган фирмалар гуруҳи.
Schmitz	Кластер - бир тармоққа мансуб корхоналар гуруҳи ва бир-бирига яқин ҳаракат қилади
В.С. Фатеев	Кластерлар асосий ишлаб чиқарувчилар, ихтисослаштирилган мол етказиб берувчилар ва истеъмолчилар тармоқларининг ҳудудий концентрацияси асосида яратилган саноат корхоналари, илмий марказлар, молия институтлари, давлат ҳокимияти органлари, жамоат ташкилотлари мажмуасидир. [6. – С. 43.]
Россия Федерацияси Савдо-саноат палатаси	Иқтисодиётда кластер деганда ҳудудий жиҳатдан яқин бўлган ҳамда функционал жиҳатдан бир-бири билан ўзаро боғлиқ бўлган турли хил субъектлар, яъни ташкилотлар, ишлаб чиқариш ҳамда хизмат кўрсатиш корхоналари, илмий-тадқиқот ва таълим масканларининг бирлашмаси тушунилади
Буюк Британия Савдо ва саноат департаменти	Кластерлар бозор ва нобозор алоқалари билан боғланган ҳамкорлик қилувчи, рақобатдош ва бир-бири билан боғлиқ бўлган ташкилотлар ва компанияларнинг тўпланган жойлари сифатида белгиланади[7]
Европа Комиссиясининг тегишли бўлинмаси Enterprise Directorate-General	Кластер бу мустақил корхоналар ва улар билан боғлиқ ташкилотлар гуруҳи бўлиб, улар: 1. Рақобатлашади ва ҳамкорлик қилади; 2. Географик жиҳатдан бир ёки бир нечта минтақаларда тўпланади; 3. Фаолиятнинг муайян соҳаларига ихтисослашган ва умумий кўникмалар ва технологиялар билан боғланган бўлади; 4. Анъанавий ёки билимга асосланган бўлади; 5. Институционал (бошқарувчи органга эга) бўлиши ҳам мумкин, бўлмаслиги ҳам мумкин. [8]

2-расм. Кластерга берилган таърифлар.

Берилган таърифларга асосланиб, кластерларни шаклланиши ва амал қилишининг қуйидаги тамойилларини алоҳида ажратиб кўрсатиш мумкин:

- 1) хўжалик юритиш бирликларининг ҳудудий концентрацияси;
- 2) «қўшилган қиймат яратиш занжири»да қатнашиш асосида кластер аъзоларининг чуқур технологик кооперацияси;
- 3) кооперация ва рақобатнинг уйғунлиги;
- 4) инновацион жараёнларнинг ҳослиги;
- 5) давлат ва хусусий бизнеснинг ҳамкорлиги.

Халқаро бозорда бир ёки бир гуруҳ ташкилотлар рақобатбардошликка эришгач, ҳудуд доирасида ўзларига географик жиҳатдан яқин жойлашган хом-ашё етказиб берувчи ташкилотлар, рақобатчи ташкилотлар ва бир қатор бошқа ҳамкор ташкилотларнинг иқтисодий фаолияти ва ҳолатига таъсир эта бошлайдилар. Шу билан биргаликда, уларнинг ютуқлари мазкур ташкилотлар рақобатбардошлигининг ошишига ижобий таъсир этади. Бунинг оқибатида «кластер», яъни бир-бири билан узвий боғланган ҳамда рақобатбардошлигини ўсишига ўзаро кўмаклашувчи ташкилотлар уюшмаси вужудга келади.

Кластер, биринчи навбатда, ҳудудий яқинлик ва функционал боғлиқлик муносабатлари билан боғлиқ бўлган корхоналар, асбоб-ускуналар, бутловчи қисмларни етказиб берувчилар, ихтисослаштирилган ишлаб чиқариш ва сервис хизматларини кўрсатиш, илмий ва таълим ташкилотлари бирлашмасидир. Баъзи ҳолларда кластерда унинг иштирокчилари ўртасидаги келишув асосида қисман мулкнинг қўшилиш белгилари бўлиши мумкин.

Кластерлар ташкил этилиши юзасидан қуйидагича таснифланади:

Тасниф белгиси	Кластернинг моҳияти
Фаолият йўналишлари бўйича	1.Маҳсулот ишлаб чиқарувчи саноат кластерлари 2.Хизматлар етказиб берувчи кластерлар
Маҳсулот тури бўйича	1.Анъанавий маҳсулот ва хизматлар ишлаб чиқарувчи кластерлар 2.Эҳтиёжларни қондиришда мутлақо янги йўналишларни яратишга интилувчи инновацион ёки интеллектуал кластерлар
Кичик корхоналардан ташкил топган компаниялар таркибида билимларнинг тўпланиши	1.Етакчи илмий-тадқиқот марказларида яратилаётган инновацияларга йўналтирилган технологик кластерлар 2.Анъанавий фаолиятга асосланган тарихан шаклланган саноат кластерлари
Тармоқ турлари бўйича	1.Қазиб олувчи ва қайта ишловчи кластерлар 2.Саноат ишлаб чиқариши ва ташишга асосланган кластерлар 3.Хизматлар, шу жумладан, молиявий хизматлар кўрсатишга ихтисослашган кластерлар 4.Сервис ва юқори технологиялар соҳасида фаолият кўрсатувчи кичик ва ўрта корхоналардан ташкил топган Маршалл кластерлари 5.Ҳал қилувчи роль асосий ҳудуддан ташқарида жойлашган бир филиалга тегишли бўлган йўлдош кластерлар 6.Давлат манфаатлари учун фаолият олиб боровчи давлат корхоналари кластери
Кластер ичидаги алоқалар таркибидаги фарқлар бўйича	1.Самарадорликни оптималлаштириш натижасида шаклланган кластерлар 2.Бозорларга боғлиқлиги натижасида шаклланган кластерлар 3.Ишлаб чиқариш жараёнларининг ажралиши натижасида шаклланган кластерлар 4.Умумий технологиялар ва “маҳсулот чизиги”га асосланган кластерлар 5.Тизим алоқаларига асосланган кластерлар 6.Маҳсулот сотиш назоратига асосланган кластерлар 7.Компанияларнинг ўзига хос хусусиятларига асосланган кластерлар
Ишлаб чиқариш кўлами бўйича	1.Кичик кластерлар – экспортдан даромади 5 млн АҚШ долларигача, 5 тагача корхонадан иборат, иш билан бандлар сони 100 тагача 2.Ўртача кластерлар – экспортдан даромади 5-50 млн АҚШ долларигача, 5-10 тагача корхонадан иборат, иш билан бандлар сони 101-1000 тагача 3.Йирик кластерлар – экспортдан даромади 50 млн АҚШ долларидадан ортиқ, 15 тадан ортиқ корхонадан иборат, бандлар сони 1000 тадан ортиқ
Кластернинг шаклланиш асослари бўйича	1.Ўз-ўзидан шаклланган кластерлар – минтақадаги корхоналарнинг ишончли алоқалари ва бизнеснинг ихтисослашуви натижаси 2.Сунъий кластерлар – корхоналар ва маҳаллий давлат бошқарув органлари ташкилотчилигида шаклланган кластерлар
Иш ўринлари миқдори бўйича	1.Барқарор кластерлар – йил давомида иш ўринлари сони сезиларли ўзгармайди 2.Ривожланаётган кластерлар – иш ўринлари миқдори ортиб боради 3.Қисқариб бораётган кластерлар – иш ўринлари миқдори қисқариб боради

3-расм. Кластерларнинг умумий белгилари бўйича таснифи [9. -С. 67-69]

Шу билан бирга, кластер, энг аввало, ўз аъзоларининг молиявий ресурслар, янги технологиялар, маркетинг стратегиялари ва янги бозорлардан фойдаланиши ҳисобига синергик самарага эришиши мумкин. Шу сабабли, ҳатто рақобатдош корхоналарнинг инновацион кластерга бирлашиши ҳам улар учун фойдали бўлади. Кластернинг ўзига хос хусусияти мақсадли тадбиркорлик фаолияти бўлиб, унга киритилган элементларнинг ҳар бири якуний маҳсулот учун қиймат занжирини яратишда иштирок этади. Шунингдек, кластерлар инвестицияларни жалб қилиш учун шарт-шароит яратади, чунки уларни шакллантириш учун зарур бўлган ташаббус, интеграция, ахборот ва манфаатдорлик потенциал инвесторларга тақдим этилиши мумкин.

Иқтисодий ривожлантиришда кластерлардан фойдаланиш – ривожлантиришнинг кластерли ёндашуви дейилади. Кластерли ёндашув – бу маҳаллий саноатнинг ихтисослашуви, ҳудудий иқтисодий агломерация ва минтақавий ривожланиш, шунингдек, стратегик ва венчур бошқарув қоидаларини ўз ичига олган бир қанча йўналишларнинг синтези ҳисобланади. Кластер ёндашуви, биринчи навбатда, алоҳида минтақа ёки тармоқ ва умуман давлатнинг рақобатбардошлигини ошириш имконини берадиган янги бошқарув технологиясидир [10,– С. 23-31].

Кластер модели жаҳон амалиётида иқтисодий гуруҳни, минтақани, бутун мамлакатни рақобатбардошлилигини кўтариш инструменти сифатида кенг қўлланилади. Кластер моделини асосий белгилари:

- ташқи бозордаги улушини ошириш имкониятига эгаллиги;
- жойлашган ҳудудда қулай шароитлар (ҳомашё, малакали персонал, инфраструктура, ўқув марказлар, илмий муассасалар ва бошқалар)ни мавжудлиги;
- давлат томонидан кучли қўллаш эвазига катнашувчиларнинг гуруҳда самарали иштирок этиш имкониятларини кенглиги ва бошқалар.

Модель	Моделнинг хусусиятлари
1.Италия модели.	У рақобатбардошликни ошириш учун турли уюшмаларга бирлашган кўплаб кичик фирмалар билан ажралиб туради. Ушбу модел юқори даражадаги табақаланиш ва талабнинг ўзгаришига эга паст технологик даражадаги маҳсулотлар учун қўлланилади.
2. Япон модели	У занжирнинг турли босқичларида кўплаб етказиб берувчиларни бирлаштирган йирик ишлаб чиқаришга эга етакчи фирма атрофида шаклланади. Технологик жиҳатдан мураккаб маҳсулотларни ишлаб чиқариш учун қўлланилади. Маҳсулотни ишлаб чиқиш юқори доимий харажатларни талаб қилади, бу фақат катта ҳажмдаги сотувлар билан қопланиши мумкин.
3. Финляндия модели	Кучли илмий-тадқиқот ва ишланмалар сектори, ривожланган таълим тизими ва бизнеснинг байналминаллашуви билан қўллаб-қувватланадиган юқори даражадаги инновациялар билан тавсифланади. Кўпинча табиий ресурсларнинг нисбий танқислиги ва экспортга йўналтирилган кичик мамлакатлар учун қўлланилади.
4.Шимолий Америка модели	Корхоналар ўртасидаги аниқ рақобат билан ажралиб туради, агар ишлаб чиқариш жараёни яқин алоқаларни ўрнатишни назарда тутмаса қўлланилади.Кластердаги етказиб берувчилар ўртасидаги рақобат туфайли, шунингдек, бош корхонада оммавий ишлаб чиқариш туфайли якуний маҳсулот таннархининг паст бўлишига эришилади.
5. Ҳиндистон-Хитой модели.	Давлат асосий рол ўйнайди. Асосий эътибор хорижий сармояларни жалб этиш, замонавий технологияларни олиб кириш ва жаҳон бозорларига чиқишни таъминлашга қаратилади.
6.Осиё модели	Миллий ишлаб чиқарувчиларни кенгайтириш ва маҳаллий товарларни ташқи бозорга чиқаришда давлатнинг фаол ёрдами, ички бозорларни ташқи рақобатдан ҳимоя қилишга асосланади.
7.Совет модели	Bozor munosabatlari va raqobat minimal darajada bo'lib, ishlab chiqarish yirik firmalarda jamlanadi. Aholi zichligi past va zaif rivojlangan hududlarda xomashyo sanoatida qo'llanilgan.

4-расм. Хорижий мамлакатларда кластерларни ташкил этиш моделлари[5;6;]

Кластер услубини қўллаш, айниқса бир-бири билан боғлиқ бўлган корхоналар мавжуд ҳудудлар учун катта аҳамиятга эга. Кластерлар ҳудудларнинг иқтисодий мустақиллигини мустаҳкамлашда катта роль ўйнайди. Ушбу ёндашув иқтисодий жиҳатдан устувор тармоқлар ва лойиҳаларни аниқлаш имконини беради. Ҳудудлар иқтисодиётининг ривожланишида кластерли ёндашувнинг асосий афзалликларидан бири – иқтисодий омилларнинг ролини кучайтириш ва маъмурий омилларнинг ролини камайитиришдан иборат. Ҳудудий маъмуриятларнинг роли фақат дастлабки босқичда юқоридир. Масалан, янги кластерларни ташкиллаштиришда, айнан шу ҳудуд манфаатларини ҳисобга олган ҳолда, истиқболли кластерларни танлашда ҳудуд маъмуриятининг роли юқори бўлади. Кейинчалик эса, ҳудудий маъмуриятларнинг роли камайиб боради ва бозор иқтисодиёти қонунлари ва омиллари олдинги ўринга чиқади. Ҳудуд ҳокимиятларининг роли энг муҳим ва истиқболли кластерларни қўллаб-қувватлаш ва тартибга солишдан иборат бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Международные экономические отношения: Учебник / Под ред. И.П. Фаминского. — М.: Юрист, 2001. — 847 с.].
2. Bergman, E.M. and Feser, E.J.(1999) “Industrial and Regional Clusters: Concepts and Comparative Applications”, Regional Research Institute, WVU.
3. Gorkin A.P., Smirnyagin L.V. A Structural Approach to Industrial Systems in Different Social and Economic Environments // Spatial Analysis. Industry and the Industrial Environment. Progress in Research and Applications. Vol. 1. Industrial systems / ed. by F.E.I. Hamilton and Linge G.J.R.Christer. – N.Y., Brisbane, Toronto, 1979.
4. Fredriksson, C. and Lindmark, L. (1978), ‘From Firms to Systems of Firms - A Study of Interregional Dependence in a Dynamic Society’, in Hamilton, F.E.I. and Linge, G.J.R. (eds), Spatial Analysis, Industry and the Industrial Environment, vol. 1 -Industrial Systems, John Wiley & Sons, London.
5. Czamanski S., de Albas L. (1979). Identification of Industrial Clusters and complexes: a comparison of methods and findings, Urban Studies 16, pp 61-80.
6. Фатеев, В.С. Кластеры, кластерный подход и его использование как инструмента регулирования развития национальной и региональной экономики / В.С. Фатеев // Веснік Гродзенскага дзяржаўнага ўніверсітэта імя Янкі Купалы. Сер. 5. Эканоміка. Сацыялогія. Біялогія. – 2012. – № 2 (131). – С. 43.)
7. Business Clusters in the UK – A First Assessment. – London: Department of Trade and Industry, 2001[Electronic resource] – Mode of access: <http://web-achive.nationalarchives.gov.uk/+http://www.dti.gov.uk/regional/clusters/clustersassessment/page17380.html>
8. Business Clusters in the UK – A First Assessment. – London: Department of Trade and Industry, 2001[Electronic resource] – Mode of access: <http://web-achive.nationalarchives.gov.uk/+http://www.dti.gov.uk/regional/clusters/clustersassessment/page17380.html>
9. Захаренко И.К. Анализ инновационных кластеров// Российское предпринимательство. - 2014, №22 (268). -С. 67-69.
10. Исланкина Е. А. Кластерный подход в экономике: концептуальные основы, история и современность // Научная дискуссия: Вопросы экономики и управления. № 2 (23): сборник статей по материалам XXIII международной заочной научно-практической конференции. — М., Международный центр науки и образования, 2014. — С. 23-31. (https://www.hse.ru/data/.../CV_Исланкина_рус.pdf)
11. Bergman, E.M. and Feser, E.J.(1999) “Industrial and Regional Clusters: Concepts and Comparative Applications”, Regional Research Institute, WVU.
12. Porter, M.E. The Competitive Advantage of Nations / M.E. Porter. – N.Y.: Free Press, 1990. – 855 p.
13. Business Clusters in the UK – A First Assessment. – London: Department of Trade and Industry, 2001[Electronic resource] – Mode of access: <http://web-achive.nationalarchives.gov.uk/+http://www.dti.gov.uk/regional/clusters/clustersassessment/page17380.html>

**TURISTIK KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGI MOHIYATI VA
BOSHQARISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**СУЩНОСТЬ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ТУРИСТСКИХ ПРЕДПРИЯТИЙ И
СПЕЦИФИКА УПРАВЛЕНИЯ**

**THE ESSENCE OF THE COMPETITIVENESS OF TOURIST ENTERPRISES AND THE
PECULIARITIES OF MANAGEMENT**

Teshabayeva O.N. katta o‘qituvchi, i.f.f.d.PhD, FarDU

Annotatsiya

Ushbu maqolada turizm sohasida raqobatning muhimligi va uning bozor munosabatlarida o‘ynaydigan roli yoritiladi. Qaror qabul qilish omillari orasida raqobatning ta’siri 50-70% gacha bo‘lib, bu sohaning rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Raqobat, bozordagi subyektlarning bir-biri bilan o‘zaro ta’siri va kurashi orqali innovatsiyalarni rivojlantirish va iste’molchilar manfaatiga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: turizm, raqobat, xizmatlar, turizm bozori, turistik mahsulot, daromad, biznes, menejment, qiymat, investitsiya

В данной статье освещена важность конкуренции в сфере туризма и ее роль в рыночных отношениях. Среди факторов - принятия решений, влияющих на конкуренцию колеблется в пределах 50-70%, что имеет решающее значение для развития отрасли. Конкуренция служит интересам развития инноваций и потребителей посредством взаимодействия и борьбы субъектов рынка друг с другом.

Ключевые слова: туризм, конкуренция, услуги, туристический рынок, туристский продукт, доход, бизнес, управление, ценность, инвестиции

This article highlights the importance of competition in the tourism sector and its role in market relations. Among the decision-making factors, the impact of competition ranges from 50-70%, which is crucial for the development of the industry. Competition serves the interests of innovation and consumer development through the interaction and struggle of market participants with each other.

Keywords: tourism, competition, services, tourism market, Tourist Product, income, business, management, value, investment

Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va ularning tarkibiy tuzilmalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy vazifasi sifatida xizmatlar hajmini oshirish, transport tarmoqlarining yangilanishi, mehmondo‘stlik sohasidagi sifat va xizmatlar darajasining oshirilishi, texnika vositalarining yangilanishi va barqaror o‘sish tamoyillarini hisobga olgan holda qo‘shimcha qiymat yaratish maqsadida turizm xizmatlari bozori iqtisodiyotni to‘g‘ridan-to‘g‘ri rag‘batlantirish orqali mamlakatning milliy iqtisodiyotini yanada rivojlantirish vositasi sifatida yordam beradi.

Turizm sohasining respublika iqtisodiyotiga bevosita ta’siri barcha darajadagi budjetlarning daromad qismida, YalMning shakllanishida, turizm sohasida ish o‘rinlarining ko‘payishida aks etadi, o‘z navbatida, qashshoqlikni bartaraf etish va bandlikni oshirish uchun muhim sharoitlarni yaratadi. Bunday ta’sirga bilvosita turizm bilan bog‘liq faoliyat sohalarini rag‘batlantirish orqali erishiladi. Turistlarning sayohat davomida qilgan barcha xarajatlari xizmat ko‘rsatish vaqtida xizmatlar ko‘rsatuvchi subyektlarning daromadlari hisoblanadi.

Bu ommalashtirishlar, turistik xarajatlar miqdori va diversifikatsiyasi yuqori bo‘lganda, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va aholining darajasi uchun ko‘pgina foyda olib keladi. Bu

esa multiplikativ ta'sirga olib keladi, ya'ni bir vaqtning o'zida bir nechta sohalar rivojlanishi yoki yangi imkoniyatlar ochilishi orqali daromad va faollikni ko'paytiradi.

Jahon tovar bozorlarida raqobatning kuchayishi va xalqaro iqtisodiy jarayonlarning noaniqligi, davlat darajasida xizmatlar hajmini oshirish va barqaror o'sish tamoyillarini hisobga olgan holda qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida milliy iqtisodiyot tarkibini sezilarli darajada o'zgartirish muhimligini anglash iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarini boshqarish jarayonlarini takomillashtirishni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasi turizm sohasining o'zida yuqori potentsialga ega va bu sohani rivojlantirishning muhim omillari mavjud. Mamlakatning qimmatli madaniy va tarixiy resurslari, uning jahon iqtisodiyotida eng daromadli tarmoqlardan biri bo'lib, turizm sohasining rivojlanishiga imkon beradi bular quyidagilardir:

1. Tarixiy va madaniy qadriyatlarning boy o'lchamda mavjudligi: Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlar dunyo tarixidagi eng jozibador ahamiyatli joylar hisoblanadi.

2. Mehmondo'stlik sohasining rivojlanishi: O'zbekiston turizm sohasida keng va innovatsion yondashuvlar olib borayotgan mamlakatlar orasida. Mehmondo'stlik sohasi, yangi mehmonxonalar, transport tarmoqlari va turizm ko'rsatkichlari orqali rivojlantirilmoqda.

3. Davlatning turizm sohasini qo'llab-quvvatlashga bo'ladigan qadamlar: O'zbekiston Havo Yo'llari va boshqa transport tarmoqlari, madaniy-tarixiy obyektlar, madaniy meroslar va turizmga qiziqishni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar yuritilmoqda.

4. Investitsiyalar va xalqaro hamkorlik. Mamlakat turizm sohasini rivojlantirishda chet tillarda o'quv dasturlari taqdim etish, turistlarga ko'rsatish xizmatlarini rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha xalqaro hamkorliklarni qo'llab-quvvatlaydi.

Bu omillar O'zbekiston Respublikasi turizm sohasini rivojlantirish uchun muhimdir. Ushbu yo'l oldida davlatning turizmga qaratilgan strategiyalari va ko'rsatkichlarni oshirish, shuningdek, turizm sohasiga innovatsion yondashuvlar kiritish katta ahamiyatga ega.

Tashqi sharoitlarning (F) turistik xizmatlarni boshqarish jarayonlariga ta'siri asosan raqobat omili (K) bilan belgilanadi. Buning sababi shundaki, turizm sohasidagi menejment birinchi navbatda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda raqobat muhitining ta'sirini hisobga oladi (Z), bu ushbu bog'liqlikni ifodalovchi $Z=F(K)$ formulasi bilan tasdiqlangan.

Boshqaruv qarorlarini qabul qilish bir necha omillar bilan belgilanadi (tovar yoki xizmat narxi, mavsumiylik, taklif paketi, transport turlari, mehmonxona xizmatlari darajasi va boshqalar), ammo raqobatning ta'siri 50 dan 70 foizgacha bo'ladi. Raqobatning keng tarqalganligi uning ko'plab ta'riflarining ilmiy va amaliy aylanishda mavjudligiga sababdir. Turizm industriyasi uchun quyidagi ta'rif eng to'g'ri mazmunni o'zida aks ettiradi: bu "moddiy va ma'naviy ne'matlarni yaratish, sotish va iste'mol qilish jarayonida bozor tizimi subyektlarining o'zaro ta'siri, o'zaro bog'liqligi va kurashi, aloqalarining iqtisodiy jarayoni".

Ushbu ta'rif nafaqat raqobat bilan cheklanib qolmasdan, o'zaro ta'sir va munosabatlarni hisobga olgan holda turizm bozori faoliyatining barcha jihatlarini qamrab oladi. Bu shuni anglatadiki, turizm sohasidagi kompaniyalar ushbu sohadagi boshqa firmalar bilan o'zaro munosabatlarga e'tibor qaratib, o'zlarining ish strategiyalarini ishlab chiqadilar. Bundan tashqari, sayyohlik sanoatining rivojlanishi kompaniyalarning o'z mijozlarining ehtiyojlariga, shu jumladan moddiy va ma'naviy jihatlariga e'tibor qaratishiga bog'liq.

Raqobat bozor iqtisodiyotining muhim sharti va hodisasi sifatida raqobatdoshlar o'rtasida ustunliklarga erishish uchun innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy etish uchun rag'bat bo'lib xizmat qiladi. Bu turizm bozorining har bir subyektning kundalik faoliyatida o'zining raqobatdosh ustunliklarini izlash va saqlab qolish zarurligini anglatadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, raqobat, umumiy qabul qilingan hodisa sifatida, odatda iste'molchilarning keng doirasi manfaatlariga xizmat qiladi va shuning uchun sanoat rivojlanishi uchun foydali omil sifatida qaraladi. Iqtisodiy nazariyaga ko'ra, u sub'ektiv yordam vositasi sifatida ham tan olingan. Ushbu omil bu sohadagi raqobatning tartibga soluvchi ta'sirini oshiradi.


Bundan kelib chiqib, ta'rifni quyidagicha shakllantirish maqsadga muvofiq degan qarorga keldik: raqobat "bozor munosabatlarini tartibga soluvchi, ilmiy-texnika taraqqiyoti va ijtimoiy ishlab

chiqarish samaradorligini rag‘batlantiruvchi” hisoblanadi. Bu o‘rinda so‘nggi jumla juda muhim, sababi yalpi ichki mahsulot o‘shida turizm industriyasining ahamiyati juda katta va u doimiy ravishda oshib boradi.

Ko‘plab iqtisodiy muammolarni hal etishda turizm xizmatlari bozoridagi raqobat muhiti xususiyatlari chuqur o‘rganish va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ushbu bozordagi raqobatbardoshligiga ta‘sirini tahlil qilish talab etiladi.

I.V.Sergeevning tadqiqotlarida “korxonaning raqobatbardoshligi” tuchunchasini moliyaviy, ishlab chiqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanish qobiliyati tufayli korxonaning raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish qobiliyati sifatida tuchuniladi, bu esa korxonaning raqobatbardoshligini umumiy iqtisodiy salohiyat elementlaridan foydalanish samaradorligi bilan bog‘lash zarurligini anglatadi.

N.K.Moiseyeva esa o‘z tadqiqotlarida “ishlab chiqaruvchi (korxona, sanoat) raqobatbardoshligini raqobatchi ishlab chiqaruvchidan ma‘lum bir ijtimoiy ehtiyojni o‘z tovarlari yoki xizmatlari bilan qondirish darajasi va ishlab chiqarish faoliyati samaradorligi nuqtai nazaridan ma‘lum bir ishlab chiqaruvchining rivojlanish jarayonidagi farqlarni aks ettiruvchi nisbiy xususiyat sifatida” belgilaydi.



1-rasm. Iqtisodiy obyektlarning raqobatdosh ustunliklari va o‘zaro bog‘liqligi

G.L.Azoyev raqobatbardoshlik raqobat ustunliklarining mavjudligini aniqlaydigan natija va raqobatdoshliksiz mumkin emas, deb hisoblaydi. U nafaqat raqobatbardoshlikni raqobat ustunliklari bilan bog‘laydi, balki ular qo‘llaniladigan obyektga qarab ularning turlarini ham belgilaydi (1-rasm).

Turistik korxonaning raqobatbardoshligi deganda, ayniqsa, iste‘molchilar uchun muhim bo‘lgan qator xususiyatlar bo‘yicha ma‘lum bir tomonlarning ustun turish qobiliyati tuchuniladi. Bundan kelib chiqadiki, mezonlar korxonaning raqobatbardoshligi uchun iste‘molchilar tomonidan alohida ta‘kidlangan xususiyatlar mavjud bo‘lib, ularni iste‘molchilar tajribasi yoki marketing tadqiqotlari yordamida aniqlash mumkin.

Turistik korxonalar faoliyatida raqobatbardoshlik xatolarning aksariyati raqobat hodisasining o‘zi murakkab ekanligidan kelib chiqadi.

Turistik korxonaning raqobatbardoshligi korxonaning bir qator asosiy xususiyatlariga asoslanadi (2-rasm).



2-rasm. Korxonaning raqobatbardoshligini belgilaydigan asosiy xususiyatlar

Korxona holatining ayrim xususiyatlari asosida uning raqobatbardoshligini baholash va uni yaxshilashga aloqador bo'lgan yondashuvlarni tahlil qilish natijasida korxonalarning raqobatbardoshligini ta'minlashning asosiy qoidalarini shakllantirish mumkin:

1. Mahsulot yoki xizmatlarning raqobatbardoshligini ta'minlamasdan turib, korxonaning raqobatbardoshligiga erishib bo'lmaydi.
2. Sayyohlik kompaniyasining raqobatbardoshligi uning maqsadlari va rejalashtirish darajasiga qarab turli ko'rsatkichlar va mezonlarni namoyish etadi.
3. Korxonaning raqobatbardoshligining asosiy ko'rsatkichi iste'molchilar uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan xususiyatlarni o'z ichiga olgan murakkab ko'rsatkichdir.
4. Korxonaning raqobatbardoshligi qisqa muddatda aniqlanadigan umumiy moliyaviy-iqtisodiy holat bilan belgilanadi.
5. Korxonaning raqobatbardoshligi uzoq muddatda aniqlanadigan biznes qiymatining o'sishi bilan baholanadigan investitsion jozibadorlik bilan tavsiflanadi.

Raqobat ishlab chiqaruvchilarni bozorda o'z o'rnini egallashi uchun mo'ljallangan tovarlar va xizmatlarni doimiy ravishda rivojlantirishga undaydi. Sotish uchun taklif etilayotgan mahsulotlar assortimentining kengayishi mutlaqo yangi tovarlar va xizmatlarni yaratish orqali ham, alohida mahsulotni farqlash orqali ham sodir bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, korxonaning raqobatbardoshligi bevosita uning mahsulotlari yoki xizmatlarining raqobatbardoshligiga bog'liq. Sayyohlik kompaniyalari o'z raqobatbardoshligini belgilashda turli mezonlar va ko'rsatkichlardan foydalanadi, ularning moliyaviy-iqtisodiy holati qisqa muddatda aniqlanadi, uzoq muddatda esa investitsion jozibadorlik orqali baholanadi. Raqobat

korxonalarni doimiy rivojlanishga undaydi, bu yangi mahsulotlar va xizmatlarni yaratish yoki mavjud mahsulotlarni farqlash orqali amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Nasriddinova, T. O. (2024). Prospects for the growth of tourism in Uzbekistan and the use of organizational and economic methods in the management of tourist complexes. *International journal of artificial intelligence*, 4(07), 98-103.
2. Nasridinova, T. O. (2024). Methods of Assessing the Competitiveness of Entrepreneurial Activity in Tourism Enterprises. *Gospodarka i Innowacje*, 46, 590-594.
3. Насридиновна, Т. О. (2024). Пути формирования методов продажи туристических услуг при развитии туризма в Узбекистане. *International journal of scientific researchers (IJSR) Indexing*, 4(1), 139-145.
4. Nasridinova, T. O. (2023). Factors affecting the management of competitiveness in tourism enterprises. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 10(10), 159-163.

UDK: 69:330.122

**INVESTITION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYALASHTIRISH
MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМА ФИНАНСИРОВАНИЯ В РАЗВИТИИ
ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

**IMPROVING THE FINANCING MECHANISM IN THE DEVELOPMENT OF
INVESTMENT ACTIVITIES**

To‘xtasinova Dildora dotsent (PhD), FarDU

Annotatsiya

Mazkur maqolada kraudfandingning respublika raqamli iqtisodiyoti rivojlanishidagi o‘rni yoritiladi. Kraudfanding moliyaviy resurslarni keng ko‘lamda jalb qilish imkonini beradi va raqamli iqtisodiyot loyihalarini qo‘llab-quvvatlaydi. Davlat boshqaruvi bu sohada muhim rol o‘ynab, kraudfandingni tartibga soluvchi qonunchilik asoslarini ta’minlaydi.

Kalit so‘zlar: kraudfanding, resurs, raqamli iqtisodiyot, foyda, investitsiya, loyiha, biznes, Startaplar, moliyalash.

В данной статье освещается роль краудфандинга в развитии цифровой экономики республики. Краудфандинг позволяет широко привлекать финансовые ресурсы и поддерживает проекты цифровой экономики. Государственное управление играет важную роль в этой области, обеспечивая законодательную основу, регулирующую краудфандинг.

Ключевые слова: краудфандинг, ресурс, цифровая экономика, прибыль, инвестиции, проект, бизнес, стартапы, финансирование.

This article will cover the role of crowdfunding in the development of the digital economy of the Republic. Crowdfunding allows for a wide range of financial resources and supports digital economy projects. Public administration plays an important role in this area, providing the legislative framework governing crowdfunding.

Keywords: crowdfunding, resource, digital economy, profit, investment, project, business, startups, financing.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan ilk yillardan boshlab, ilm fanni rivojlantirish masalalariga e'tibor qaratildi. Oxirgi yillarda kraudfanding kabi moliyalash usullari faol ommalashib bormoqda. U har xil turdagi loyihalarni amalga oshirish uchun keng ko'lamli moliyaviy resurslarni jalb qilish mexanizmini o'zida mujassamlashtiradi. Odatda mazkur mexanizm kompaniyalar o'zlarining startaplari haqida ma'lumotlarni joylashtiradigan internet maydonchalarda amalga oshiriladi. Investor sifatida chiqadigan xususiy shaxslar loyihalar bilan tanishib, investitsion qarorlar qabul qiladilar. Kraudfanding moliya bozori tuzilmalarining ishtirokisiz zaruriy pul mablag'larini jalb qilish imkonini beradi, bu mazkur tartiblarni birmuncha soddalashtiradi. Hozirgi vaqtda kraudfandingning uch modeli mavjud. mablag' in'om qilish yoki xayriya, Kikstarter modeli va Kraudinvesting modeli.

1. Mablag' in'om qilish yoki xayriya investorlarga mukofotning mavjudmasligini ko'zda tutadi va investorlarning moddiy manfaatlarisiz yordam berish tamoyili asosida amalga oshiriladi. Odatda mazkur turdan ijtimoiy ahamiyatli loyihalarda foydalaniladi.

2. Kikstarter modeli investorga nomoliyaviy mukofotlashni ko'zda tutib, investitsiyalar o'rniga kiritiladigan mablag'lar tarkibi tovar yoki xizmatlarni mujassamlashtiradi, ular investorlarning mablag'lari hisobiga yaratiladi, loyiha investorlari ishtiroki haqida eslatadi va nomoddiy mukofotlashning boshqa shakllaridan foydalanadi.

3. Kraudfanding moliyaviy mukofotlash mavjudligini ko'zda tutib, uni investor startapga o'z moliyaviy yordamini ayirboshlashdan oladi. Kraudinvesting kraudfandingning keng tarqalgan modeli hisoblanadi va uch shaklda amalga oshirilishi mumkin. royalti, xalq kreditlashi va aksionerlik kraudfandingi.

Royalti modelida nomoliyaviy mukofotlashdagi kabi investor daromadlar yoki foydadan ulushini oladi. Model ommaviy hisoblanib, unda moliyaviy motivlashtirishdagi kabi loyihani amalga oshirishda investorning bevosita ishtiroki hisobiga maksimal samaradorlikka erishish imkoni yaratiladi.

Aksionerlik kraudfandingi - kraudinvestingni yana bir shakli bo'lib, unda investor mulkda ulush, korxona aksiyalarini hamda dividendlar va mulkdorlar yig'ilishida qaror qabul qilishda ovoz berish imkoniyatini mukofot sifatida oladi. Mazkur shakl ziddiyatli hisoblanadi va mamlakatda amal qilib turgan qonunchilikka mos emasligi sababli ko'p davlatlarda taqiqlangan. Aksionerlik kraudinvesting qonunchilikda belgilangan tartibda aksionerlik jamiyati sifatida startapni ro'yxatdan o'tkazishni ko'zda tutadi.

Kraudfanding cheklanmagan doirada investitsiyalarni jalb qilish bilan bog'liq ekan, kraudfanding sub'ektlariga talablarni qonunan belgilab qo'yish zarur. Bunday talablarni o'rnatishni hukumat organlari me'yoriy hujjatlari darajasida amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'lib, quyidagi talablarni o'rnatish zarur bo'ladi:

1) kraudplatformalarga nisbatan (ochiqlik, xatarlarni baholash tizimiga, rahbarlar malakasiga, uskunalariga dasturiy-texnik talablar va h.k.);

2) investorlarga nisbatan (malakali va malakasiz investorlarni chegaralash, investitsiyalar cheklangan hajmlarini belgilash va h.k.);

3) kraudfanding doirasida investitsiyalar jalb qiladigan shaxslarga nisbatan (axborot yoritish, investitsiyalarning cheklangan hajmlari va h.k.).

Kraudfandingning asosiy ishtirokchilariga talablar o'rnatishda kraudfanding doirasida investitsiyalarni jalb qilish hajmlariga cheklovlar o'rnatish bunday ishtirokchilar himoyasini ta'minlash mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Bunday cheklovlarni investorlarga nisbatan ham (ayniqsa, bu jismoniy shaxslarning shaxsiy huquqlarini himoyalash uchun muhim), moliyani jalb qiladigan shaxslarga nisbatan ham belgilash maqsadga muvofiq. Biroq bunday chegaralash kraudfanding bozorini rivojlantirishni ancha cheklashi, sustlashtirishi mumkin. Shu sababli rivojlanish cheklovlari va imkoniyatlari o'rtasida muvozanatni saqlash maqsadga muvofiq.

Raqamli iqtisodiyot loyihalarini moliyalashtirish mexanizmi sifatida kraudfandingni rivojlantirish uchun bundan tashqari, loyihalarni moliyalashtirishning an'anaviy shakllarinigina (zayomlar berish, aksiya, obligatsiyalar va kompaniya kapitalida ulushga ega bo'lish) emas, raqamli

iqtisodiyotga xos bo‘lgan, taqsimlangan reestr texnologiyasini qo‘llashga asoslangan zamonaviy shakllarini ham ko‘zda tutish muhim.

Kraudfanding munosabatlarining hozirgi rivojlanish bosqichiga xos bo‘lgan, taqsimlangan ma’lumotlar bazasida investorlar nomiga yoziladigan ma’lum mulkiy huquqlarni belgilaydigan, investitsiya loyihasi tokenlariga ega bo‘lish yangi shaklidan foydalanish taklif qilinmoqda. Kraudfanding doirasida moliyalashtirishning yangi shakllari kraudplatformalar sinishi holatida ham tokenlar tomonidan ko‘zda tutilgan huquqlarni bajarish imkoniyatini ta’minlagan holda mavjud nomarkazlashgan platformalar bilan bog‘lanishlari zarurdir. Kraudfandingni tartibga solish xalqaro tajribasini hisobga olib, kraudplatformadan foydalanish orqali joylashtiriladigan emission qimmatli qog‘ozlarga investitsiyalash imkoniyatini ko‘zda tutish hamda kraudplatformalarga qimmatli qog‘ozlar bozorining mohir ishtirokchisiga aylanish imkoniyatini berish maqsadga muvofiq. Bu kraudplatformalar negizida emissiya mexanizmlarini soddalashtirish hamda qimmatli qog‘ozlar mohir ishtirokchilari sektorini rivojlantirishga yordam beradi.

Shunday qilib, hozirgi vaqtda kraudfandingni rivojlantirish – respublikada raqamli iqtisodiyotni shakllantirishning zaruriy shartlaridan biridir. O‘z afzalliklari tufayli raqamli iqtisodiyot loyihalarini moliyalashtirish uchun katta hajmdagi moliyaviy resurslarni jalb qilish imkoniyatini beradi. Bunda kraudfandingni rivojlantirish uchun zaruriy qonunchilik institutsional sharoitlarini ta’minlaydigan davlat boshqaruvchilik rolini o‘ynaydi. Kraudfandingni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy vazifasi – bu sohani rivojlantirish va ular ustidan nazorat o‘rnatish o‘rtasida muvozanatni ta’minlaydigan tartibga solish shaklini o‘rnatish yo‘li bilan davlatning eng kam aralashuvidan iboratdir.

Startaplar ham bank kreditlashidan foydalanishlari mumkin, biroq xatar darajasi yuqoriligi tufayli startaplarga bank kreditini olish muammolidir. Shu sababli bunday loyihalarni amalga oshirishda lizing operatsiyalari ko‘proq tarqalgan bo‘lib, lizing predmeti mulkchilik huquqida lizing beruvchiga tegishli bo‘lish hisobiga xatarni kamaytirish imkonini beradi va odatda har xil turdagi sug‘urta holatlaridan himoyalangan bo‘ladi. Ekspertlarning fikricha, jahon amaliyotida bank kreditidan kamdan-kam hollarda foydalaniladi.


Agar startap o‘z loyihasini amalga oshirish uchun etarli mablag‘ga ega, ammo rivojlanish yoki bozordagi ta’sirini kengaytirish uchun katta hajmdagi moliyaviy resurslar talab qilinayotgan bo‘lsa, u holda bevosita bozorga chiqqandan keyin kompaniya qo‘shimcha mablag‘larni jalb qilish uchun aksionerlashtirish dastagidan foydalanishi mumkin. Aksionerlashtirish – bu qimmatli qog‘ozlar bozorida o‘z aksiyalarini sotish yo‘li bilan cheklanmagan kishilar doirasidan mablag‘larni jalb qilish jarayonidir.

Shunday qilib, hozirgi dunyoda startaplarni moliyalashtirishning ko‘plab ko‘rinishlari mavjud. Modellar tuzilgan kompaniya amal qilish sharoitlaridan kelib chiqib, turlicha samaradorlik darajasiga ega: bozor muhiti, iqtisodiy va siyosiy vaziyat, kompaniya faoliyat ko‘rsatayotgan tarmoq va boshqalar. Kompaniya egalari bu sharoitlarni puxta o‘rganib, aniqlagan holda modellardan birini tanlab olishlari kerak.

Innovatsion loyihalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan investitsiyalar bozori yangi moliyalash modellarini joriy etishga tortiladi. Agar loyiha startap ko‘rinishida amalga oshirilsa, u holda boshlang‘ich bosqichda u odatda xatarli bo‘ladi, bu esa uning umuman, amalga oshirilishi muvaffaqiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Agar loyiha mavjud korxona doirasida amalga oshirilsa, u muvaffaqiyatsizlikka uchragan vaziyatda, birinchidan, korxonaning o‘zi zarar ko‘radi, ikkinchidan, mazkur holat tufayli ko‘plab istiqbolli loyihalar yuqori xatarlilik oqibatida amalga oshirilmay qoladi.

Taklif qilinayotgan model texnologik spin-off korxonalar shaklida innovatsion loyihalarni moliyalashtirishni ko‘zda tutadi. Spin-off korxona, deganda qandaydir innovatsion loyihani amalga oshirish maqsadida investor-kompaniyaning moddiy va nomoddiy resurslaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lgan amaldagi bosh korxona negizida tuzilgan tashkilot tuchuniladi. Spin-off kompaniya bosh kompaniya tomonidan yagona maqsad – ilmiy-tadqiqot faoliyati ob’ektini bozorga joriy etish maqsadida ishlanmalar yoki texnologiyalarga asoslanadi. Bunda loyihalar korxonaning asosiy faoliyati bilan to‘qnashishi hamda qaysidir boshqa sohaga kirishi mumkin. Moliyalash bunday modelni amalga oshirish quyidagi bosqichlarni ko‘zda tutadi (1-rasm):

Spin-off kompaniya faoliyatini tashkil qilishning bosqichli modeli



Amalda bunday model quyidagicha namoyon bo‘ladi: korxona uni qiziqitiruvchi innovatsion loyihalarni tanlab oladi, loyihalarni amalga oshirish uchun kompaniyaning xodimlari sifatida ham, chetdan kelgan shaxslar sifatida ham xodimlar jalb qiladi. Keyinroq investor-korxona spin-off korxonaga loyihani amalga oshirish uchun zaruriy resurslarni taqdim qiladi va muddatini o‘rnatadi. Shundan so‘ng erishilgan natijalar va kelajakda rejalashtirilgan harakatlar va istiqbollar, mablag‘lar sarflanishi haqida to‘liq hisobot taqdim qilinishi zarur. Bu hisobot natijasida loyihani davom ettirish yoki yopish, tugatish haqida qaror qabul qilinadi. Investor-korxona spin-off korxonani xususiy resurslar hisobiga nafaqat moliyalashtiradi, balki mazkur vaziyatda innovatsion loyihani amalga oshirishda xatarlarni ajratgan holda, bir tomondan, moliyalashtirishga qarz manbalarini jalb qilishda topshiruvchi sifatida, boshqa tomondan, moliyalash qarz manbalarini innovatsion korxona uchun qulaylashtirgan holda chiqishi mumkin.

Investor-korxona uchun bunday model quyidagi afzalliklarga ega:

1. Bir qancha innovatsion loyihalarni bir vaqtda amalga oshirish yo‘li bilan faoliyatni diversifikatsiyalash imkoniyati;
2. Innovatsion tendensiyalar va innovatsion jarayonlarning tashkilot uchun qabul qilinuvchanligini oshirish;
3. Loyihani amalga oshirish ustidan nazorat qilish imkoniyati - bu loyihani amalga oshirishda xatarlarni pasaytiradi va shu bilan bir vaqtda investorning ishonchini oshiradi;
4. Innovatsiya loyahasiga mablag‘larni bosqichma-bosqich qo‘yish;
5. Innovatsion loyihani amalga oshirish xatarini bo‘lishib olish imkoniyati.

Spin-off korxona uchun moliyalashtirish mazkur modelining afzalligi quyidagilardan iborat:

1. Investor-korxona (masalan, boshlang‘ich bosqichlarda buxgalteriya, yuridik bo‘lim, kadrlar bo‘limi, ma‘muriy binolar va inshootlardan foydalanish mumkin) mavjud resurslaridan foydalanish;
2. Mavjud boshqaruv tajribasi va shaxsiy aloqalardan (investorkorxona bilan maslahatchi yoki rahbariyatni tayinlashda foydalanish imkoniyati);
3. Innovatsion mahsulot yoki xizmatni sotish uchun marketing bo‘limi ishi va aniqlanadigan brendidan foydalanish;
4. Klassik manbalarga qaraganda soddalashtirilgan mablag‘ olish chizmasi;
5. Mavjud aylanayotgan resurslar hisobiga loyihani tez amalga oshirish.

Innovatsion spin-off korxona samaradorligini baholashda quyidagi omillarni hisobga olish lozim: loyihani amalga oshirishga qo‘yilgan investor-korxona xususiy mablag‘lari miqdorini, jalb qilingan mablag‘lar miqdorini, innovatsion loyihani amalga oshirish natijasida korxona tomonidan olinadigan pul oqimini.

Taklif qilinayotgan innovatsion faoliyatni moliyalashtirish modelida samaradorlikni baholash, ya‘ni amalda innovatsion spin-off korxona faoliyatini yo‘lga qo‘yishni hisobga olgan holda erishilgan korxona natijalari taqqoslanadi hamda innovatsiyalarni joriy qilmagan holda joriy faoliyatni amalga oshirishda nazariy jihatdan mumkin bo‘lgan “with-without” tamoyilidan mantiqan foydalaniladi.

Spin-off korxona faoliyatini yo‘lga qo‘yish samaradorligini baholash uchun o‘z resurs sarflarini va investor-korxona tomonidan zimmasiga olingan majburiyatlarni hisobga oladigan innovatsion korxonani yo‘lga qo‘yishga moliyaviy xarajatlar chiqarib tashlanadigan investor-korxona faoliyati va xususiy resurs xarajatlari va investor-korxonadan real pul oqimlarining spin-off korxona daromadlari va xarajatlarini hisobga olmaydigan investor-korxonaning nazariy jihatdan mumkin bo‘lgan pul oqimlariga nisbatini o‘zida mujassamlashtiradigan koeffitsientni hisoblash mumkin. Agar hosil qilingan nisbat birdan katta bo‘lsa, u holda innovatsion loyihani amalga oshirishdan ijobiy samara haqida gapirish mumkin. Agar natija birdan kichik bo‘lsa, u holda loyihaning samaradorligi unga qo‘yilgan mablag‘larni oqlamaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jahongirov I.J. Milliy iqtisodiyotni innovatsion – investitsion rivojlantirish asosida barqaror iqtisodiy o‘rni ta‘minlash. T-2019y. -35b.
2. Teshabaeva, O. N. (2023). Analysis of industrial policy and investment processes in the production and enterprises of innovative products in the economy of Uzbekistan. Modern Scientific Research International Scientific Journal, 1(3), 48-58.
3. Teshabaeva, O., & Karimova, M. (2023). O‘zbekiston iqtisodiyotini investitsiyalash jarayonlari, uning rivojlanish tendensiyalari va xususiyatlari. Евразийский журнал академических исследований, 3(5 Part 4), 93-100.

UDK:658.01:338.45

**TURIZM SOHASIDA XIZMAT KO‘RSATISHNING INFRATUZILMA BILAN
BOG‘LIQLIGI VA O‘ZBEKISTONDA XORIJ TAJRIBASINI JORIY ETISH:
STRATEGIYA VA TAKTIKALARI**

**ИНФРАСТРУКТУРНОЕ СОЕДИНЕНИЕ УСЛУГ В СФЕРЕ ТУРИЗМА И
ВНЕДРЕНИЕ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА В УЗБЕКИСТАНЕ: СТРАТЕГИЯ И
ТАКТИКА**

**INFRASTRUCTURE CONNECTION OF SERVICES IN THE FIELD OF TOURISM AND
INTRODUCTION OF FOREIGN EXPERIENCE IN UZBEKISTAN: STRATEGIES AND
TACTICS**

Yulchiyev Asiljon Ortiqali o‘g‘li
Iqtisodiyot va servis kafedrasida katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada turizm sohasida xizmat ko‘rsatishning infratuzilma bilan bog‘liqligi, shuningdek, O‘zbekistonda xorijiy tajribalarni joriy etishning ahamiyati tahlil qilinadi. Xizmat ko‘rsatish sifati va infratuzilmaning rivojlanishi turizmni rivojlantirishning asosiy omillari sifatida keltiriladi. Transport, mehmonxona, madaniy va ekologik turizm infratuzilmasini takomillashtirish xorijiy davlatlarning tajribasi asosida muhokama qilinadi. Shuningdek, O‘zbekiston turizmini xalqaro darajaga ko‘tarish uchun ta‘lim, investitsiya, marketing va xalqaro hamkorlikka asoslangan strategiya va taktikalar tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: turizm, xizmat ko‘rsatish sifati, infratuzilma, xorijiy tajriba, O‘zbekiston turizmi, strategiya, transport tizimi, mehmonxona xizmatlari.

В данной статье анализируется связь оказания услуг в сфере туризма с инфраструктурой, а также важность внедрения зарубежного опыта в Узбекистане. В качестве основных факторов развития туризма приводятся качество обслуживания и развитие инфраструктуры.

Обсуждается совершенствование инфраструктуры транспортного, гостиничного, культурного и экологического туризма на основе опыта зарубежных стран.

Также для продвижения туризма Узбекистана на международный уровень рекомендуются стратегии и тактики, основанные на образовании, инвестициях, маркетинге и международном сотрудничестве.

Ключевые слова: туризм, качество обслуживания, инфраструктура, зарубежный опыт, туризм Узбекистана, стратегия, транспортная система, гостиничные услуги, цена, иммиграционное законодательство

This article analyzes the relationship of services in the tourism sector with infrastructure, as well as the importance of introducing foreign experiences in Uzbekistan. The quality of Service and the development of infrastructure are cited as key factors in the development of Tourism. The improvement of transport, hotel, cultural and environmental tourism infrastructure will be discussed on the basis of the experience of foreign countries. Strategies and tactics based on education, investment, marketing and international cooperation are also recommended to raise Uzbekistan's tourism to an international level.

Keywords: tourism, quality of service, infrastructure, foreign experience, Tourism of Uzbekistan, strategy, transport system, hotel services, Price, immigration laws

Turizm sohasida sifatli xizmat ko'rsatish, iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri sifatida, mamlakatning jahon bozoridagi raqobatbardoshligini belgilaydi. Xizmat ko'rsatish sifati esa ko'p jihatdan infratuzilma rivoji bilan chambarchas bog'liq. O'zbekistonda turizm infratuzilmasini xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish zarurati, ayniqsa mamlakatning xalqaro turizm bozorida o'z o'rnini mustahkamlashga intilayotgani fonida yanada dolzarb bo'lib bormoqda.

Turizm sohasining muvaffaqiyatli rivojlanishi bir qator omillarga bog'liq. Bu omillarning ichida mamlakatning iqtisodiy holati, qonunchilik tizimi, siyosiy barqarorlik, demografik o'zgarishlar va sayohat xavfsizligi muhim rol o'ynaydi. Ular nafaqat turistlarni jalb qilishda, balki milliy turizm infratuzilmasi va xizmatlarini yuqori darajada saqlashda ham hal qiluvchi ahamiyatga ega (1-rasm).

1. Iqtisodiy vaziyatning ahamiyati. Iqtisodiy barqarorlik va rivojlanish turizm sohasini kengaytirishda asosiy omillardan biridir. Iqtisodiy jihatdan mustahkam davlatlarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish uchun ko'proq investitsiya kiritiladi, natijada mehmonxona, dam olish maskanlari, transport va xizmat ko'rsatish tarmoqlari takomillashadi.

Turizmning rivojlanishi ko'p jihatdan mamlakatning umumiy iqtisodiy holatiga bog'liq. Quyidagi iqtisodiy omillar turizm sektoriga bevosita ta'sir ko'rsatadi:

Mamlakat iqtisodiy barqarorligi: Iqtisodiy o'sish va barqarorlik turistlar uchun xavfsizlik va ishonchlilik hissinini yaratadi. Mamlakatda iqtisodiy inqiroz yoki inflyatsiya holatlari turistik oqimni pasaytirishi mumkin, chunki sayyohlar xavfsiz va barqaror iqtisodiy muhitni afzal ko'radilar.

Mahalliy narx darajasi: Mamlakat ichidagi narxlar va xizmatlar turistlarning sayohat qilish qarorlariga ta'sir qiladi. Mahalliy narxlar baland bo'lsa, sayyohlar arzonroq mamlakatlarga yo'l olishlari mumkin. Shuning uchun sayyohlik xizmatlarining sifatli, lekin raqobatbardosh narxlarda bo'lishi iqtisodiy rivojlanish uchun muhim.

Iqtisodiy siyosatlar va sarmoyalar: Hukumatning iqtisodiy siyosati, soliqlar va subsidiyalar turizm sektoriga sarmoyalar oqimini rag'batlantiradi. Turizmga doir soliq imtiyozlari, xususiylar sektorga qo'llab-quvvatlash, davlat tomonidan turizm infratuzilmasiga sarmoya qilish kabi tadbirlar bu sohani rivojlantiradi.

Turistlarning kelib-ketishi: Boy davlatlardan kelayotgan turistlar ko'proq xarajat qilishadi, bu esa turistik xizmatlarga bo'lgan talabni oshiradi. Bunda milliy iqtisodiyotning rivojlanish darajasi sayohat uchun zarur infratuzilmaning holatini belgilaydi.

Narx-navo va turistlarning qiziqishi: Iqtisodiy holat mamlakatda yashash va xizmatlar narxiga ham ta'sir qiladi. O'rtacha va past daromadli sayohatchilar arzonroq davlatlarni tanlaydi, shuning uchun turistlar oqimini jalb qilish uchun iqtisodiy narx-barqarorlik muhimdir.

2. Qonunchilikning roli. Mamlakatning qonunchilik tizimi turizmning tartibga solinishi va rivojlanishiga katta ta’sir ko’rsatadi. Turizm bilan bog’liq qonunlar va me’yoriy hujjatlar sektorni nazorat qilish, sayyohlar huquqlarini himoya qilish va turistik biznesni qo’llab-quvvatlashda muhim rol o’ynaydi.

Viza tartibi va immigratsiya qonunlari: Osonlashtirilgan viza rejimi turistlarni jalb qilishda katta yordam beradi. Qattiq immigratsiya qonunlari esa turistlarning oqimini kamaytirishi mumkin.

Turizmni rag’batlantiruvchi qonunlar: Soliq imtiyozlari, kreditlar va subsidiyalor orqali davlat tomonidan turizmga qaratilgan yordam qonunchilik darajasida amalga oshiriladi. Bu kichik va o’rta tadbirkorlikni rivojlantirishga turtki bo’ladi.


Turistlar huquqlarini himoya qilish: Sayyohlarning huquqiy himoyasi va turistlar bilan bog’liq hodisalarda davlatning reaksiyasi turizm sohasida ijobiy imidj yaratadi.

3. Siyosiy barqarorlikning ahamiyati.

Siyosiy barqarorlik turizmning eng muhim asosiy shartlaridan biridir. Siyosiy vaziyat notinch bo’lgan mamlakatlarga turistlar kirmaydi yoki kam miqdorda tashrif buyuradi, chunki sayohatchilar o’z xavfsizligini yuqori darajada qadrlaydilar.

Mamlakatning ijobiy imidji: Siyosiy barqarorlik xalqaro miqyosda davlat imidjini yaxshilaydi, bu esa ko’proq turistlarni jalb qiladi. Xalqaro hamjamiyatda ishonchli bo’lgan davlatlar sayyohlikka doimiy ravishda qiziqish uyg’otadi.

Siyosiy nizolar va mojarolar: Uzoq davom etgan nizolar va siyosiy mojarolar turistlarni qo’rqitadi. Misol uchun, harbiy konfliktlar va davlat ichidagi beqarorliklar turistlar oqimini sezilarli darajada kamaytiradi.



1-Rasm Turizm sohasida xizmat ko’rsatishni rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillar

4. Demografik o’zgarishlarning ta’siri.

Demografik omillar turizmni shakllantiruvchi muhim jihatlardan biridir. Aholi soni, yoshi, daromad darajasi va yashash joylari o’zgarishi turizmga ta’sir qilishi mumkin.

Aholi soni va tarkibi: Mamlakatdagi demografik o‘zgarishlar sayohatchilar oqimiga ta’sir qiladi. Masalan, aholisi yosh bo‘lgan davlatlarda sarguzasht turizmi va sport bilan bog‘liq dam olish turlariga talab yuqori bo‘lishi mumkin.

Aholining iqtisodiy holati: Daromad darajasining o‘zgarishi sayohatga bo‘lgan imkoniyatlarni belgilaydi. Yuqori daromadli mamlakatlarda sayohat qiluvchi turistlar ko‘proq bo‘ladi va ular sifatli xizmatlarni talab qiladi.

5. Sayohat xavfsizligining ahamiyati.

Turistlar sayohat xavfsizligiga katta e’tibor qaratadilar. Sayyohlar ko‘p hollarda xavfsiz bo‘lmagan joylarga borishdan tiyiladi. Turizmni rivojlantirish uchun davlatlar o‘z hududlarida xavfsizlikni ta’minlashi kerak.

Jinoyat darajasi: Turistlarning xavfsizligini ta’minlash mamlakat imidji uchun muhim. Jinoyatchilik darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlarga turistlar kam tashrif buyuradi.

Sog‘liqni saqlash tizimi va favqulodda vaziyatlar: Turizmda xavfsizlik faqat jismoniy xavflardan iborat emas, balki sog‘liqni saqlash xizmatlari va favqulodda vaziyatlarda yordam ko‘rsatish qobiliyati ham turistlar uchun muhim. Pandemiya yoki tabiiy ofatlar xavfi ham sayohatga bo‘lgan talabni kamaytiradi.

II. O‘zbekistonda xorijiy tajribalarni joriy etish zarurati

O‘zbekiston o‘zining boy tarixiy va madaniy merosi bilan ko‘plab xorijiy sayyohlarni jalb qilish imkoniyatiga ega. Shunday bo‘lsa-da, turizm sohasidagi infratuzilma va xizmat ko‘rsatish sifati xalqaro talablar darajasiga ko‘tarilishi uchun xorijiy tajribalarni o‘rganish va moslashtirish zarur. Quyida ayrim strategik yo‘nalishlar ko‘rib chiqiladi:

Transport va logistika sohasida xorijiy tajribani joriy etish. Yevropa va Osiyo davlatlarining samarali transport tizimlari, masalan, Shveysariya yoki Yaponiyada temir yo‘l va shaharlararo transportning yuqori darajasi O‘zbekistonda ham tatbiq qilinishi mumkin. Bu mamlakat bo‘ylab sayohat qilishni qulaylashtiradi.

Mehmonxona va turar joy xizmatlari. Xalqaro standartlarga javob beruvchi mehmonxona zanjirlarini mamlakatga jalb qilish, mahalliy mehmonxonalar xizmatini xorijiy brendlar andozalari asosida takomillashtirish zarur. Masalan, Turkiyaning Antalya shahridagi "all-inclusive" tizimi O‘zbekistonda mehmonxona sohasida xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishga yordam berishi mumkin.

Turistik ob’ektlarni rivojlantirish. Xorijiy tajriba, masalan, Italiya va Gretsiya singari mamlakatlarda tarixiy obidalarni saqlab qolish va ularni turizmga jalb qilish bo‘yicha tajriba O‘zbekistonda Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlarni rivojlantirishda qo‘llanilishi mumkin.

Ekologik turizmni rivojlantirish. O‘zbekistonda ekologik toza hududlar ko‘p bo‘lib, bu maskanlarni xorijiy turistlar uchun jalb qilish maqsadida ekologik turizm infratuzilmasini yaratish kerak. Bunda Skandinaviya davlatlarining ekologik tozalik va tabiiy resurslarni saqlash bo‘yicha tajribasi foydalanishga yaroqli.

III. Strategiya va taktikalar

O‘zbekistonda xorijiy tajribalarni joriy qilish bo‘yicha quyidagi strategiya va taktikalar amalga oshirilishi mumkin:

Strategik hamkorlik va investitsiyalar. Xorijiy davlatlar bilan transport, mehmonxona, dam olish maskanlari va ekologik turizm sohasida strategik hamkorlikni rivojlantirish uchun davlat dasturlari joriy etilishi lozim. Xalqaro investitsiyalarni jalb qilish orqali infratuzilmani modernizatsiya qilish maqsadga muvofiqdir.

Ta’lim va malaka oshirish dasturlari. Turizm sohasida xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish uchun malakali kadrlar tayyorlash zarur. Xorijiy mamlakatlar bilan ta’lim sohasida hamkorlikni rivojlantirish, xalqaro darajadagi treninglar va master-klasslar tashkil etish lozim.

Marketing strategiyasi. O‘zbekiston turizmini xorijiy bozorlarda faol targ‘ib qilish uchun zamonaviy marketing usullaridan foydalanish kerak. Internet orqali mamlakatning turistik salohiyatini keng yoritish va xalqaro ko‘rgazma va forumlarda ishtirok etish samara beradi.

Xalqaro tajribani mahalliyashtirish. Har bir xorijiy tajriba to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirib olinishi o‘rniga, O‘zbekistonning madaniy, tarixiy va ijtimoiy xususiyatlariga moslashtirilishi lozim. Bu mahalliy turizm sohasida milliy o‘ziga xoslikni saqlab qolishga yordam beradi.

O‘zbekistonning turizm sohasida xizmat ko‘rsatish va infratuzilmani takomillashtirish mamlakatning global turizm bozorida o‘rnini mustahkamlashga xizmat qiladi. Xorijiy tajribalarni joriy etish va zamonaviy strategiyalarni amalga oshirish orqali sifatli turistik xizmat ko‘rsatishni ta‘minlash va infratuzilmani rivojlantirish mamlakatni xalqaro darajada jozibador qiladi. Bu esa iqtisodiy o‘rinishga, yangi ish o‘rinlari yaratishga va aholining turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yulchiyev, A. (2023). Turizm sohasida xizmatlar sifatining mohiyati va uni baholash uslubiyotining nazariy jihatlar. Science and innovation in the education system, 2(8), 64-69.
2. Yulchiyev, A. (2023). Turizm sohasida xizmatlar sifatini boshqarish jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlari. Solution of social problems in management and economy, 2(8), 32- 38.
3. Nasriddinova, T. O. (2024). Prospects for the growth of tourism in Uzbekistan and the use of organizational and economic methods in the management of tourist complexes. International journal of artificial intelligence, 4(07), 98-103.

UDK:338.462

XIZMAT KO‘RSATISH SOHASI RIVOJLANISHINING JAHON TENDENSIYALARI

GLOBAL TRENDS OF THE DEVELOPMENT OF THE SERVICE FIELD

ГЛОБАЛЬНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ

Mirsodiqov Abdulla Tursinalievich

Farg‘ona davlat universiteti “Iqtisodiyot va servis” kafedrasida dotsenti PhD

Annotatsiya

Ushbu maqolada respublikamizda modernizatsiya qilish sharoitida mamlakat aholisiga xizmat ko‘rsatish, ularning turmush darajasini yaxshilash va bandlik muammosini hal etish hozirgi kunda eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Turli xizmatlar ko‘rsatish orqali, birinchidan, aholining xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlari qondirilsa, ikkinchidan, ish bilan band bo‘lmagan mehnat resurslarini ish bilan ta‘minlash muammosi hal etiladi, uchinchidan mamlakat aholisining turmush darajasi yaxshilanishi hamda aholi daromadlarining ko‘payishiga olib keladi.

Kalit so‘zlar: xizmat ko‘rsatish soxalari, xorijiy investitsiyalar, xizmat bozori, raqamli xizmat, ehtiyojlar, tarmoqlar iqtisodi, qurilish sohasi

В данной статье в условиях модернизации в нашей республике рассматриваются вопросы оказания услуг населению страны, повышения уровня его жизни, решения проблемы занятости, что является одной из наиболее актуальных проблем на сегодняшний день. За счет предоставления различных услуг, во-первых, удовлетворяются потребности населения в услугах, во-вторых, решается проблема занятости незанятых трудовых ресурсов, в-третьих - это приводит к улучшению уровня жизни населения страны, увеличению доходов населения.

Ключевые слова: сфера услуг, иностранные инвестиции, рынок услуг, цифровой сервис, внешние эффекты, сетевая экономика, строительная индустрия

In this article, in the conditions of modernization in our republic, providing services to the country’s population, improving their living standards, and solving the employment problem is one of the most urgent problems today. By providing various services, firstly, the population’s needs for services are met, secondly, the problem of employment of unemployed labor resources is solved, and

thirdly, it leads to an improvement in the living standards of the country’s population and an increase in the population’s income.

Key words: service industries, foreign investments, service market, digital service, externalities, network economy, construction industry

Xizmatlarga ko‘p tomonlama javob berish zamonaviy innovatsion jarayonlar bilan ta’minlangan. Kompyuterlashtirish, axborot texnologiyalari va yangi aloqa vositalariga asoslangan holda bozorlarda bir qator yangi xizmatlar paydo bo‘ldi va tezda bozorlarda shakllandi, ularning an’anaviy turlari tubdan yangilandi va xizmatlarning sifat ko‘rsatkichlari ko‘tarildi.

Ko‘plab xizmatlarni masofadan uzoqlashtirishda texnik to‘siqlarni bartaraf etish orqali yangi texnologiyalarga jahon bozori kengroq ochilib bormoqda.

Iqtisodiy dinamika ko‘rsatkichlarida bu omillarning ta’siri iqtisodiy jarayonning asosiy ishchilaridan xizmatlarga bo‘lgan talabini kengaytirishda namoyon bo‘ldi. Agar o‘tmishda xizmatlarning o‘sishi, asosan, iste’mol talabi bilan aniqlangan bo‘lsa, ekspertlarning fikricha, hozirgi vaqtda rivojlangan mamlakatlardagi xizmatlarning o‘shishining 50-80 foizi ishlab chiqarish tarafidan talabni ta’minlaydi [1].

Aholi daromadlari ko‘payishi yoki o‘sishi xizmatlar sohasining rivojlanish parametrlari va tarkibini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi va shuning uchun ham yaxshi rivojlangan xizmatlar sohasi – rivojlangan jamiyatning atributidir.

Zamonaviy jamiyat iste’mol talabini shaxsiylashtirib borishi bilan ajralib turadi. Turli xil xizmatlarga bo‘lgan talab, xizmatlar doirasini kengaytirish tendentsiyasini belgilaydi. Yalpi ichki mahsulot tarkibidagi xizmatlar daromadlarining ulushini oshirish tendentsiyasi XX asrning 60-70-yillarida ba’zi mamlakatlarda aniqlandi. Ayrim mamlakatlarda xizmatlarning rivojlanish darajasi juda katta farq qiladi. Ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha (YaIMdagi ulushi) va so‘nggi 30 yil ichida o‘shish sur‘atlarini differentsiyalash barcha mamlakatlarni beshta guruhga ajratish imkonini beradi (1-jadval).

1-jadval

YaIMda xizmatlar ulushiga muvofiq mamlakatlarning guruhlanishi (%) [2]

№	Ulush	Mamlakatlar
1.	<u>Yuqori</u> – 75 %	Iqtisodiy tuzilishida ustunlikka ega mamlakatlar- Amerika Qo‘shma Shtatlari, Daniya, Germaniya, Belgiya, Frantsiya, Niderlandiya, Lyuksemburg, Buyuk Britaniya, Kipr, Malta, Monako, Avstraliya, Kanada va hokazo
2.	Yuqori – 70 %	Xizmatlarni ishlab chiqish iqtisodiyot rivojlanishining asosiy yo‘nalishi hisoblangan mamlakatlar – <u>Avstriya</u> , <u>Finlyandiya</u> , <u>Italiya</u> , <u>Ispaniya</u> , <u>Norvegiya</u> , <u>Shvetsiya</u> va hokazo
3.	Yuqori – 60 %	Turizm sohalarida iqtisodiyot tuzilmalarida ustunlikka ega mamlakatlar- Gretsiya, Iordaniya, Yamayka, Kosta-Rika, Kolumbiya, Marokko, Chili, Tunis va hokazo
4.	Kamroq – 50 %	Ushbu ko‘rsatkichda o‘shishga ega mamlakatlar – Meksika, Eron, Burundi, Gana, Botswana, Mali va hokazo
5.	Kamroq – 20 %	Ushbu ko‘rsatkichda kam darajaga ega mamlakatlar – Angola, Zambiya, Nepal, Boliviya va hokazo

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 7-son 2024 yil

Umuman, zamonaviy iqtisodiy makonda turli xil faoliyatlar xizmatlar sohasi bilan bog‘liqligini aytish mumkin. Shu bilan birga, nafaqat xizmat ko‘rsatish korxona va tashkilotlari, balki ko‘pgina sanoat korxonalari ham axborot bilan ta‘minlash, transport xizmatlari ko‘rsatish, mahsulotni kafolatlash va sotishdan keyingi xizmatlar ko‘rsatish bilan ajralib turuvchi tendensiyalar mavjud.

Bu barqaror va tezlik bilan harakatlanuvchi chegaralarga ega bo‘lgan, murakkab tuzilishdagi yirik iqtisodiy soha bo‘lgan xizmat ko‘rsatish sohasini chuqurroq aniqlash va tahlil qilish zaruratiga olib keladi [3].

Xizmat ko‘rsatish sohasida ish bilan band bo‘lganlar ulushi Amerika Qo‘shma Shtatlarida (78 foizni), Lyuksemburgda (77 foizni), Gollandiyada (77 foizni), Avstraliyada (75 foizni), Buyuk Britaniyada (75 foizni), Kanadada (75 foizni), Norvegiyada (74 foizni), Belgiyada (73 foizni) va Daniyada (73 foizni) tashkil etmoqda [4].

2023 yilda Iordaniyada xizmatlarning ulushi 66,3 foizni, Yamaykada 71,1 foizni, Paragvayda 62,6 foizni va Tunisda 61,2 foizni tashkil etdi. Bugungi kunda xalqaro xizmatlar almashuvi asosan rivojlangan davlatlar o‘rtasida amalga oshirilmoqda va bu yuqori darajadagi kontsentratsiyasi bilan ifodalansada, XXI asrning birinchi o‘n yilligida ayrim rivojlangan mamlakatlarning xalqaro savdosida xizmatlarning ulushini qisqarish tendensiyasi kuzatildi (2-jadval).

Jumladan, xizmatlarning xalqaro savdodagi ulushi rivojlanayotgan va tranzit iqtisodiyotga tegishli mamlakatlarda pasayayotgan bo‘lsa, rivojlangan mamlakatlar, BRISS va G20 guruhiga kiruvchi mamlakatlarda bu ko‘rsatkich o‘sib borayotganligi ko‘rinadi.

2-jadval

**Mamlakat guruhlarida jahon xizmatlar savdosi bo‘yicha
qiyosiy tahlil [5]**

Mamlakatlar guruhi	Eksport				Import			
	Qiymati (mlrd. AQSh doll.)		Jahon hajmida gi ulush, foizda	Yillik o‘shish sur‘ati, foizda	Qiymat (mlrd. AQSh doll.)		Jahon hajmidagi ulushi, foizda	Yillik o‘shish sur‘ati, foizda
	2018	2023	2023	2023	2018	2023	2018	2023
Jahon iqtisodiyoti	4406	4879	100,0	0,4	4281	4797	100,0	0,8
Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti:	1242	1436	29,4	-1,1	1525	1818	37,9	-0,6
Afrika	98	96	2,0	-5,6	171	144	3,0	-10,1
Amerika	154	171	3,5	0,7	210	203	4,2	-4,0
Osiyo va Okeaniya	989	1169	24,0	-1,0	1,144	1471	30,7	1,0
Tranzit iqtisodiyotlar	116	107	2,2	-0,9	143	126	2,6	-11,0
Rivojlangan mamlakatlar	3048	3337	68,4	1,0	2613	2853	59,5	2,3
BRICS (Braziliya, Rossiya, Hindiston, Xitoy va Janubiy Afrika)	452	469	9,6	-1,2	560	740	15,4	0,8
G20 (yigirmalik guruhi)	2455	2675	54,8	-0,4	2435	2718	56,7	0,5

Jahon iqtisodiyotida, xizmatlar sohasi qonuniy savdo obyektidir. Xizmat ko‘rsatishdan tashqari, tashqi iqtisodiy aloqalar turi sifatida xizmat ko‘rsatish sohasi «nomoddiy» import va eksport deb nomlanadi. Shu bilan birga jahon bozorida xizmatlar savdosi mustaqil tovar sifatida faoliyat yuritishi va sanoat ishlab chiqarishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

YuNKTAD ma‘lumotlariga ko‘ra, 2023 yilda dunyoda tijorat xizmatlari eksporti hajmi 4,879 mlrd AQSh dollarini, importi esa 4,797 mlrd AQSh dollarini, 2016 yilda esa 1,242 va 4,241 mlrd AQSh dollarini tashkil etdi. Dunyo bozorida xizmatlar savdosi sohasida shubhasiz etakchi o‘rinni

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 7-son 2024 yil

egallagan Amerika Qo‘shma Shtatlari bo‘lib, ularning jahon eksporti va savdo xizmatlari importidagi ulushi 2023 yilda mos ravishda 15,42 foizni va 10,49 foizni tashkil etgan (3-jadval).

3-jadval

Mamlakatlar guruhlarini bo‘yicha eksport va import xizmatlari tarkibining tahlili (2023 y.) [6]

Mamlakatlar nomi	Qiymati (mlrd.doll. SShA)		Jahon hajmidagi ulush, foizda		Yillik o‘shish sur‘atlari, foizda	
	Eksport	Import	Eksport	Import	Eksport	Import
Braziliya	33	64	0,68	1,33	-1,4	-9,8
Meksika	24	32	0,49	0,67	5,3	-0,4
Argentina	13	20	0,26	0,41	-8,9	10,3
Amerikadagi jami rivojlangan mamlakatlar bo‘yicha	171	203	3,51	423	0,7	-4,0
Xitoy	208	453	4,27	9,44	-40,2	3,9
Hindiston	162	134	3,32	2,79	3,6	8,2
Singapur	150	156	3,07	3,24	0,7	0,7
Koreya Respublikasi	93	110	1,90	2,30	-5,0	-2,0
Jami rivojlangan mamlakatlar bo‘yicha Osiyo	1169	1471	-1,0	30,65	-1,0	1,0
Rossiya Federatsiyasi	51	74	1,04	1,55	-2,3	-16,1
Ukraina	12	11	0,25	0,23	-0,4	4,6
Qozog‘iston	6	11	0,13	0,23	-2,4	-4,6
Serbiya	6	5	0,13	0,10	7,3	2,7
Jami tranzit iqtisodiyotlar bo‘yicha	107	126	2,19	2,64	-0,9	-11,0
Qo‘shma Shtatlar	752	503	15,42	10,49	0,2	2,9
Buyuk Britaniya	327	199	6,71	4,14	-5,0	-5,6
Germaniya	273	312	5,59	6,51	3,1	4,3
Frantsiya	237	236	4,85	4,91	-2,0	1,7
Jami rivojlangan mamlakatlar bo‘yicha	3337	2853	68,38	59,48	1,0	2,3

Qo‘shma Shtatlardan keyin jahon eksporti va savdo xizmatlarining ulushi Buyuk Britaniyada – (6,71 foizi va 4,14 foizi), Germaniya (5,59 foizi va 6,51 foizi), Frantsiyada (4,85 foizi va 4,91 foizi), Xitoy – (mos ravishda 4.27 foizi va 9.44 foizi) davlatlari hisobiga to‘g‘ri keladi. Xizmatlar turli xil moddiy mahsulotlardan sezilarli darajada farq qiladi, bu ularning jahon bozorida tovar sifatida o‘z harakatiga ta‘sir ko‘rsatishi mumkin emas.

Zamonaviy jahon bozorining asosiy xususiyatlari:

- bozor jarayonlarining yuqori dinamikligi (globalashuv sharoitida integratsion jarayonlarning o‘shishi);
- xizmatlarga talabning yuqori segmentatsiyasi (axborot texnologiyalari, moliyaviy xizmatlar va h.k.);
- kapital aylanishining yuqori tezligi (AT-kompaniyalari rivojlanishi, elektron tijorat va boshqalar);
- xizmatlar bozoriga kirish uchun narxsiz to‘siqlarning muhim ahamiyati (ayniqsa rivojlangan mamlakatlarda);

Ushbu mamlakatlarning xizmat ko‘rsatish sohasining yuqori o‘sish sur‘atlari uy-joy, ta‘lim, tibbiyot, sayyohlik, moliyaviy va kredit, telekommunikatsiya va boshqa xizmatlar kabi eng ko‘p turdagi xizmat ko‘rsatish faoliyatining rivojlanishiga bog‘liq.

O‘zbekistonda sayyohlikni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlarni qabul qilish va mamlakatda turistik resurslarning xilma-xilligi mamlakatimiz va uning mintaqalari xalqaro miqyosda raqobatbardosh sanoat sifatida turizmni rivojlantirish uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Fikrimizcha, xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish jahon bozorida xalqaro raqobatbardoshlikni oshirishga imkon beradi, shuningdek, O‘zbekistonni rivojlanishning yangi darajasiga ko‘tarishga yordam beradi, bu esa iqtisodiyotning innovatsion yo‘nalishidagi tarmoqlarini jadal tarkibiy o‘zgartishlari bilan tavsiflanadi.

O‘zbekiston iqtisodiyoti jahon iqtisodiy hamjamiyatining bir qismidir, shuning uchun xalqaro bozorda davom etayotgan integratsiyalashuv jarayoni xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlardan nafaqat milliy, balki jahon miqyosida xizmatlar ko‘rsatishni talab qiladi (ya‘ni global jahon xizmatlar bozoriga kirish). Bunday sharoitda iqtisodiyotning ushbu sohasidagi mavjud vaziyatning kamchiliklarini aniqlashga yordam beradigan rivojlanish tendensiyalarining holatini aniqlash va uni takomillashtirish imkoniyatlarini taklif qilish uchun xizmatlar bozorini o‘rganish muhimdir. Fikrimizcha, ichki va tashqi axborotni to‘plash va tahlil qilishdan ajratib turuvchi marketing tadqiqotining asosiy xususiyati – ma‘lum bir muammoni yoki marketing qarorlari majmuasini hal etishga yo‘naltirilgan. Shu bilan birga marketing strategiyasi doirasida bozorlarni ichki, tashqi va mintaqaviy xizmat ko‘rsatish bozorlarini ajratib turuvchi hududiy asosda tasniflashni taklif qilamiz.

Shunday qilib, milliy iqtisodiyotda xizmat ko‘rsatish sohasining dinamikasi asosiy tendensiyalarini hisobga olgan holda ularni shakllantirish va amalga oshirishning asosiy sharti, asosiy makroiqtisodiy va ijtimoiy ko‘rsatkichlar dinamikasida aks ettirilayotgan mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uchun zarur bo‘lganligini ta‘kidlash lozim.

Yuqoridagi nazariy va amaliy tadqiqotlarni amalga oshirish asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. O‘zbekiston Respublikasi hududlarida mavjud xizmat ko‘rsatish faoliyatining miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlari dinamik qatorlarini tahlil qilish asosida quyidagilar aniqlandi va baholandi:

- xizmat ko‘rsatish faoliyati tahlil qilingan yillar davomida barqaror o‘sib bormoqda va haqiqatda mavjud bo‘lgan xizmatlar taklifi real talabni to‘liq qondira olmayapti;

- xizmatlar hajmining 2010-2019 yillardagi dinamik qatoriga asoslangan holda ko‘rsatkichlarning o‘zgarish qonuniyatlari aniqlandi hamda aniqlangan qonuniyatlarni asosida ko‘rsatkichlarning 2023 yilgacha o‘zgarish darajasi prognoz qilindi.

2. O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni liberallashtirish hamda makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash sharoitida xizmatlar sohasi qisqa davr ichida tez sur‘atlar bilan rivojlantirish uchun etarli salohiyatga ega sohalaridan ekanligi aniqlandi. O‘zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasidan kelib chiqib, mamlakatimiz hududida mavjud bo‘lgan xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatini rivojlantirish jarayoni amalga oshirilmoqda.

3. Xorijiy va milliy tadqiqotchilarning ilmiy tadqiqotlari asosida xizmat ko‘rsatish atamalariga aniqlik kiritilib, xizmat ko‘rsatish xususiyatlari tasniflandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017—2021 yillarda shaharlar va qishloqlarda avtotransport xizmatlarini yanada rivojlantirish to‘g‘risida»gi 2017 yil 10 yanvardagi PQ-2724-sonli qarori
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasi faoliyatini yanada rivojlantirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2017 yil 16 oktyabrdagi PQ-3326-son qarori
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. “Xalq so‘zi” gazetasi. 2018 yil. 28 dekabr.
4. Mirzaev J.Q., Pardaev M.Q. Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti. O‘quv qo‘llanma. T.: “Iqtisodiyot-moliya”, 2014. 131-b.

**MAMLAKATIMIZDA INNOVATSION KLASTERLARNI RIVOJLANTIRISHNING
USTUVOR YO‘NALISHLARI**

**ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННЫХ КЛАСТЕРОВ
В СТРАНЕ**

**PRIORITY DIRECTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF INNOVATION CLUSTERS IN
THE COUNTRY**

Olimova N.X. FDU, i.f.n., prof.,

Annotatsiya

Zamonaviy iqtisodiyotda klasterli yondashuv hududlar iqtisodiyotini rivojlantirish va tashkilotlarning raqobatbardoshlik hamda innovatsion faollik darajasini oshirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi, iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarning bu boradagi tajribasi haqiqatan ham iqtisodiyotni innovatsion jihatdan rivojlantirishda klasterlashtirish amaliyotining o‘rni muhim ekanligidan dalolat beradi. Shundan kelib chiqqan holda, mazkur maqolada mamlakatimizda innovatsion klasterlarni rivojlantirish masalalari o‘rganilgan, ular faoliyatini takomillashtirishdagi ustuvor yo‘nalishlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiyot, innovatsiya, klasterlar, korxonalar, davlat-xususiy sherikchiligi, strategiya, firmalar, rag‘batlantirish, omillar, kichik biznes.

В современной экономике кластерный подход является одним из эффективных средств развития экономики регионов и повышения уровня конкурентоспособности и инновационной активности организаций, Опыт экономически развитых стран в этом вопросе действительно свидетельствует о важной роли практики кластеризации в инновационном развитии экономики. Исходя из этого, в данной статье были рассмотрены вопросы развития инновационных кластеров в нашей стране, проанализированы приоритетные направления совершенствования их деятельности.

Ключевые слова: экономика, инновации, кластеры, предприятия, государственно-частное партнерство, стратегия, фирмы, стимулы, факторы, малый бизнес.

In the modern economy, the cluster approach is one of the effective means of developing the economy of regions and increasing the level of competitiveness and innovative activity of organizations, the experience of economically developed countries in this matter really testifies to the importance of the role of clustering practice in the innovative development of the economy. Based on this, this article considered the issues of the development of innovation clusters in our country, analyzed the priority areas for improving their activities.

Keywords: economics, innovation, clusters, enterprises, public-private partnerships, strategy, firms, incentives, factors, small business.

Har qanday mamlakatda klasterlarning yaratilishi kichik biznes va yirik korxonalarning innovatsion rivojlanishi uchun kuchli turtki beradi. Shu nuqtai-nazardan, hozirgi murakkab sharoitda respublika ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirish uchun “...klasterlar faoliyatini har tomonlama rivojlantirish kerak” [1]. Sanoatni klasterlashtirishda innovatsion yondashuvni amaliyotga joriy qilish, ya’ni, innovatsion klasterlarni tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Innovatsion klasterlar rivojlanishi mavjud sanoat kompaniyalariga ilmiy-tadqiqot natijalarini intensiv ravishda joriy qilish, yirik korxonalar tomonidan qo‘shilgan qiymat zanjiriga kirish uchun yangi kichik va o‘rta korxonalar davlat-xususiy sherikchiligi asosida tashkil etish hisobiga amalga oshiriladi [4]. Aksariyat olimlar ta’kidlashicha, barcha klasterlar u yoki bu darajada innovatsion rivojlanishga, innovatsion jarayonni u yoki bu

darajada tezlashtirishga hissa qo‘shadi va hatto ularning ba‘zilari mazkur vazifani bajarishga ixtisoslashganligi bilan ham ajralib turadi. Aynan ushbu g‘oya innovatsion klasterlar konsepsiyasining asosini tashkil qiladi. Innovatsion klasterlar innovatsiyalarga moyil bo‘lib, bu firmalarning o‘z faoliyatlarini tashkil etish va rivojlantirish, mahsulot ishlab chiqarish va ularni sotish jarayonida namoyon bo‘ladi. Ular iqtisodiy subyektlarning innovatsiyalarni qabul qilishga moyilligini oshirish, biznesni oqilona tashkil qilish, mahsuldorlikni oshirish kabi afzalliklarini rivojlantirishga yordam beradi [7]. BMTning “Kompaniyalarning innovatsion samaradorligini oshirish: siyosiy imkoniyatlar va amaliy vositalar” hisobotida qayd etilishicha, innovatsion klaster innovatsiyalarni yaratishga hissa qo‘shadigan tashkilotlardan iborat ta‘minotchi va iste‘molchilar hamda ta‘lim muassasalari o‘rtasidagi yaqin aloqalar tizimidan tashkil topgan tuzilmani ifoda etadi [14]. Amalda, klasterlarni yaratishdan kutilayotgan iqtisodiy samara quyidagilar bilan izohlanadi [10]:

– chegara hududlarda joylashgan klaster subyektlarining yalpi salohiyatidan yanada samarali foydalanishga imkon beruvchi, savdo-ishlab chiqarish kooperatsiyasi;

– ishlarning bir qismini aniq faoliyatga ixtisoslashgan hamkorlarga o‘tkazish yo‘li bilan ishlab chiqarish bazasini modernizatsiyalash xarajatlarini kamaytirish;

– uzoq muddatli hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish asosida ishlab chiqarishni xom ashyo, materiallar bilan ta‘minlash jarayonlari samaradorligini oshirish;

– mehnat taqsimoti, ixtisoslashuv, ixtisoslashgan tashkilotlarni jalb qilish orqali ayrim boshqaruv funktsiyalarining samaradorligini oshirish;

– investitsion-moliyaviy kooperatsiyaning ishonchliligini oshirish.

Umuman olganda, innovatsion-sanoat klasterlarining rivojlanishi muayyan bir ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishga imkon beradi. Bular:

- barcha klaster ishtirokchilarining moliyaviy imkoniyatlarini birlashtirish, tashqaridan investitsiyalarni jalb qilish, grantlar shaklida moliyalashtiriladigan loyihalar tanlovlarida birgalikda ishtirok etish, kredit resurslarini olish kafolatlarini ta‘minlash uchun moliyaviy imkoniyatlarni birlashtirish orqali moliyaviy resurslarni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirish;

- tarmoqning innovatsion salohiyatini oshirish;

- fan va ta‘limning klaster tashkilotlari va hokimiyat idoralari bilan o‘zaro hamkorligini yo‘lga qo‘yish orqali tadqiqot natijalarini hududiy sanoat siyosatiga joriy etish jarayonlarini tezlashtirish;

- sinergiya samarasi va sifat, logistika, axborot texnologiyalari borasidagi yondashuvlarni bir xillashtirish hisobiga xarajatlarni kamaytirish va fan sig‘imli mahsulotlar sifatini yaxshilash;

- ta‘minotchilar bilan ishlash samaradorligini oshirish;

- yangi tashkilotlarni rag‘batlantirish;

- yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar eksportini ko‘paytirish, import o‘rmini bosishni kengaytirish;

- mahalliy hokimiyat va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish darajasida klaster ishtirokchilarining o‘z manfaatlarini yanada samaraliroq himoya qila olishlariga erishish;

- hududda bandlik darajasini oshirish;

- klaster ishtirokchilari o‘rtasida mutlaqo yangicha tartibdagi odob-axloq, ishonch va hamkorlikka asoslangan munosabatlarning paydo bo‘lishi, yangicha fikrlash tarzini shakllanishi;

- klaster tarkibiga kiruvchi korxona va tashkilotlarning samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish;


- hududning raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiy ravnaqini ta‘minlash.

Innovatsion klasterlarning boshqa iqtisodiy birlashmalardan farqi shundaki, klaster tarkibiga kiruvchi kompaniyalar o‘zlarining yuridik maqomini saqlagan holda, to‘lig‘icha bir-birlari bilan qo‘shilmaydilar, ular shunchaki, klasterni tashkil etuvchi va undan tashqarida joylashgan boshqa korxonalar bilan birgalikda yaqindan hamkorlik qilishga imkon beruvchi o‘zaro ta‘sir mexanizmini yaratadilar [2; 12]. Amaliyot ko‘rsatishicha, o‘z manfaatlari yo‘lida yuqori malakali kadrlar tayyorlashni yo‘lga qo‘ygan, ilmiy-tadqiqot natijalaridan foydalangan holda, raqobat ustunliklari asosida yuqori ulushga ega bo‘lgan innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishga erishgan, ilmiy markaz va universitetlarning jarayonlarda faol ishtirokini ta‘minlay olgan klasterlar katta natijalarni qo‘lga kiritadilar. Bunda innovatsion klasterning kamida ikki asosiy ta‘rifini ajratib ko‘rsatishimiz mumkin [2;

12]:

1. Klasterga berilgan birinchi ta’rifga ko‘ra, u ilmiy bilim va biznes g‘oyalarni yaratish, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash markazlari, shu bilan bir qatorda, uzoq muddatli raqobatbardosh ustunliklarga ega mahsulotlar ishlab chiqarish asosida tashkil etilgan yoki avvaldan mavjud shunday markazlar atrofida shakllangan tuzilmani ifoda etadi. Ushbu holatda, mazkur klasterning istiqbolli va o‘ziga xos bo‘layotgan bozorlarda faoliyat ko‘rsatishi va yangi savdo bozorlarini shakllantirishi o‘ziga xos shart hisoblanadi.

2. Ikkinchi ta’rifga ko‘ra, innovatsion klaster hududiy innovatsion tizimning quyi tizimi sifatida baholanadi, u yirik korxonalar, kichik va o‘rta biznes subyektlari, infratuzilma, ilmiy-tadqiqot muassasalari kabi unsurlardan tashkil topgan va o‘ziga xos ichki tuzilmaga ega bo‘lgan tuzilma sifatida talqin qilinadi. Klasterning qarab chiqilayotgan unsurlari o‘rta-sidagi o‘zaro bog‘liqlik tizimidagi boshqa oqimlarga nisbatan intensivlik darajasi bir muncha yuqori bo‘lgan moliyaviy, axborot, moddiy va inson oqimlarida o‘z aksini topadi.



1-rasm. Innovatsion klaster tuzilmasi [2; 12]

Bugungi kunda, taraqqiy etgan mamlakatlarning innovatsiyalar borasidagi davlat siyosatida o‘ziga xos yangicha jihatlar shakllandi va ushbu jihatlar eng avvalo, quyidagilarda namoyon bo‘ladi [3; 5; 15]:

– innovatsion siyosatning asosiy mazmuni barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlarning innovatsion faoliyatini ixtisoslashtirilgan bilim tarmoqlarini yaratishga qaratilgan klaster strategiyalarini shakllantirish orqali faollashtirish hisoblanadi;

– hududlararo innovatsion hamkorlikning tabiati ham o‘zgarib bormoqda. Xususan, klaster strategiyalarini amalga oshirish va hududiy-innovatsion tarmoqlarni shakllantirish transmilliy o‘zaro aloqalarni rivojlantirish va hududlararo tarmoq tuzilmalarini shakllantirishga imkon berdi.

Davlat-xususiy sherikchiligi asosidagi innovatsion-klaster ishtirokchilari va tuzilmasi quyidagilar bo‘lishi mumkin:

- klaster ishtirokchilari xodimlarini o‘qitish yoki qo‘shimcha ta’lim berish bilan shug‘ullanuvchi bitta OTM yoki ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasi;

- sanoat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi eng kamida 10 ta subyekt (bunda ulardan kamida bittasi bozorda sotishga mo‘ljallangan tayyor mahsulot ishlab chiqarishi lozim);

- 2 ta texnologik infratuzilma obyekti;

- innovatsion klaster rivojlanishiga tashkiliy yordam beruvchi va monitoringni amalga oshiruvchi bitta notijorat tashkiloti;

- innovatsion klaster ishtirokchilariga moliyaviy ko‘maklashuvchi bitta moliyaviy tashkilot.

Shunday qilib, davlat-xususiy sherikchiligi asosidagi innovatsion klasterni quyidagi guruh ishtirokchilari tashkil etadi:

- bazaviy subyektlar - yirik, o‘rta va kichik korxonalar;

- innovatsion-tadqiqot va ta’lim bloki (OTM va boshqa ta’lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot olib boruvchi korxonalar, ishlanmalarni tijoratlashtirish va texnologiyalarni transferlash markazlari, injiniring korxonalar va h.k.)

- mahalliy boshqaruv organlari va innovatsiyalarni rivojlantirish institutlari;
- aralash xizmatlar ko‘rsatuvchi korxonalar bloki (moliyaviy tashkilotlar, konsalting kompaniyalari va h.k.)

Innovatsion klasterga birlashtirilgan ilmiy-texnik tadbirkorlik tizimining subyektlarini ko‘rib chiqish borasidagi bunday yondashuv innovatsiyalar hayot siklining barcha bosqichlarida resurslarni amaldagi mavjud mahsulotlardan farqli, yangi xususiyatlarga ega bo‘lgan foydali natijalarga aylantirish jarayonidagi faoliyatni aks ettiruvchi, innovatsion munosabatlar subyektlarining funksiyalarini aniqlashtirishga imkon beradi (1-jadval).

1-jadval

Ilmiy-texnik tadbirkorlik tizimida innovatsion munosabat subyektlarining funksiyalari [11]

Ilmiy-texnik tadbirkorlik tizimida innovatsion munosabat sub'yektlari	Innovatsion munosabat sub'yekti funksiyalari
Davlat	- ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni boshqarish; - ilmiy-texnik taraqqiyot boshqarilari asosida ilmiy-texnik va innovatsion faoliyatning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab olish; - ilmiy-texnik tadbirkorlik tizimida innovatsion faoliyatning tashkiliy, iqtisodiy, moliyaviy, me‘voriy-huquqiy ta‘minotini yo‘lga qo‘yish; - innovatsion guruhlar samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun zarur sharoit va mexanizmlarini yaratish; - innovatsion infratuzilma sub'yektlarini rivojlantirish; - ilmiy-texnik tadbirkorlik tizimida innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish.
Ilmiy-texnikaviy tadbirkorlik (kichik, o‘rta va yirik biznes korxonalari)	- innovatsion texnologiyalar va mahsulotlarga talab (ehtivoj)ni shakllantirish; - innovatsion klaster sub'yektlari tomonidan amalga oshirilgan fundamental va amaliy ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlarimlari natijalari (innovatsion texnologiyalar va mahsulotlar)ni tijoratlashtirish (joriy etish)
Innovatsion infratuzilma sub'yektlari	- ilmiy-texnik tadbirkorlik tizimida innovatsion faoliyatning rivojlanishiga ko‘maklashish;
Ilmiy-texnik parklar	- texnopark rezidentlari bo‘lgan ilmiy-texnik tadbirkorlarga innovatsiyalarni izlab topish (ishlab chiqish), ularni amalda joriy etish va tijoratlashtirish borasida tegishli shart-sharoitlarni yaratib berish; - ko‘char va ko‘chmas mulkni, shu jumladan turli funk-sional maqsadlardagi binolarni ijaraga berish va hokazo;
Texnologiyalar transferi markazlari	- innovatsiyalarni yaratish sohasidan ulardan amalda foydalanish sohasiga o‘tkazilishini ta‘minlash;
Venchur fondlari	- innovatsiyalarni yaratish va ularni joriy etish sohasida investitsion faoliyatni amalga oshirish, shuningdek, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish;
Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim muassasalari	- ilmiy-texnik tadbirkorlarning innovatsion texnologiyalar va mahsulotlarga bo‘lgan ehtiyojlarini hisobga olgan holda fundamental va amaliy ilmiy-tadqiqotlar o‘tkazish; - istiqbolda ilmiy-texnik tadbirkorlarning kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish borasida muta-xassislar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish;
Akademik va tarmoq institutlari	- ilmiy-texnik tadbirkorlarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda tegishli fan sohasi va sanoat yo‘nalishi bo‘yicha fundamental va amaliy ilmiy-tadqiqotlar o‘tkazish; - ilmiy-texnik taraqqiyotning tubdan yangi yo‘l va yo‘nalishlarini aniqlashtirish;
Korxonalarning konstruktorlik byurolari va ilmiy-texnik laboratoriyalari	- ilmiy-texnik tadbirkorlarning innovatsion texnologiyalar va mahsulotlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan fan sohasi va sohaga bog‘liqligiga muvofiq, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari bilan shug‘ullanish; - yangi texnologiyalar va mahsulotlarni yaratish, mavjud texnologiya va mahsulotlarni modernizatsiya qilish; - innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni ta‘minlovchi konstruktorlik va shunga o‘xshash boshqa huviatlarni ishlab chiqish;
Ixtirochi va ratsionalizatorlar	- mavjud kashfiyotlar asosida texnik yangiliklarni yaratish, mavjud qurilmalarni takomillashtirish yoki yangi foydali qurilmalarni yaratish maqsadida ularni birlashtirish.

Respublikada innovatsion klasterlarning samarali faoliyat yuritishi uchun innovatsiyalar rivojlanishiga qulay shart-sharoitlar yaratish, ularni davlat tomonidan har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, biznes va davlatning faol hamkorligini ta‘minlash, milliy innovatsion infratuzilmani

yaratish orqali klaster siyosatini amalga oshirish lozim. Buning uchun, bizning fikrimizcha, quyidagi chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofiq:

- yuqori texnologiyali tayyor mahsulotlar va xizmatlar eksportini ta'minlash;
- kichik va o'rta korxonalar sonining ko'payishini rag'batlantirish;
- iqtisodiyotning innovatsion sohasi jadal rivojlanishini ta'minlash;
- iqtisodiyot ehtiyojlari uchun kadrlar tayorlash tizimining samaradorligini oshirish;
- milliy va chet el investitsiyalari hajmining oshishini ta'minlash;
- klasterga asoslangan hududlar rivojlanishini rag'batlantirish.

Ilmiy-texnik tadbirkorlikni innovatsion faoliyat subyektlarini o'z ichiga olgan tizim sifatida ko'rib chiqish strategik boshqaruvni amalga oshirish jarayonida hokimiyat organlari, innovatsion infratuzilma subyektlari, yirik kompaniyalar, o'rta va kichik biznes subyektlari, ilmiy va ta'lim muassasalarining o'rta va uzoq muddatli muvofiqlashtirilgan qarashlarini rivojlantirishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. // Халқ сўзи. 2018 йил 29 декабрь.
2. Гонтарь Н.В. Бизнес и государство в развитии трансграничной кластеризации. / Н. Гонтарь. // Проблемы теории и практики управления. – 2019. – № 1. – С. 55–61.;
3. Жаркова Н.Н. Инвестиционная политика в области научно-технической инновационной деятельности предприятий текстильного и швейного производства: моногр. / Н.Н. Жаркова. – М.: ИНФРА-М, 2016. – 732 с.;
4. Костюченко Е.А. Теоретические и методические основы кластеризации нефтехимического комплекса Витебской области: монография. / Е.А. Костюченко, В.Л. Ключня. – Новополоцк: Полоц. гос. ун-т, 2019. – С.3.
5. Кулаков Ю.Н. Инновационная политика. Учебник. – М.: Юрайт, 2016. – 504с.
7. Марков Л.С. Кластеры: формализация взаимосвязей в неформализованных производственных структурах / Л.С. Марков, М.А. Ягольницер. – Новосибирск: ИЭОП СО РАН, 2006. – С.43.
8. Олимова, Н. Х. (2021). Анализ развития и факторов конкурентоспособности промышленных предприятий региона. *Cognitio rerum*, (7), 32-35.
9. Олимова, Н. Х., & Джурабаев, У. Б. (2020). Мамлакатимизда инновацион фаолиятнинг ривожланиши ва реал сектор корхоналарининг технологик инновацияларга бўлган талабини белгилловчи омиллар тахлили. In *Минтақа иқтисодиётини инвестициялашнинг молиявий-ҳуқуқий ва инновацион жиҳатлари* (pp. 445-449).
10. Панышин Б.Н. Электронная торговля как фактор кластеризации приграничного сотрудничества малых и средних предприятий. / Б.Н.Панышин. // Роль образовательных и исследовательских организаций в приграничном сотрудничестве: материалы междунар. семинара, Минск, 29 мая 2008 г. – Минск: Тесей, 2008. – С. 127.
11. Самадқулов М.И. Миллий иқтисодиётнинг инновацион салоҳиятидан самарали фойдаланиш йўллари. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. Тошкент – 2023.
12. Тарасенко В.В. Территориальные кластеры. Семь инструментов управления. / В.В.Тарасенко. – М.: Альпина Паблишер, 2016. – 202 с.
13. Эргашев, А. Х., & Хайдаров, А. А. (2020). Анализ состояния организации инновационной деятельности предприятий промышленных отраслей страны. In *Минтақа иқтисодиётини инвестициялашнинг молиявий-ҳуқуқий ва инновацион жиҳатлари* (pp. 278-285).
14. Enhancing the Innovative Performance of Firms: Policy Options and Practical Instruments [Electronic resource]. – United Nations: New York and Geneva, 2009. – Mode of access: <http://www.unece.org/fileadmin/DAM/ceci/publications/icp2.pdf>. – Date of access: 16.12.2011. P.105.
15. 4th International Conference on Technology Policy and Innovation. Curitiba, Brazil, Aug. 28–31, 2000.

**OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALAR FAOLIYATINI
STRATEGIK BOSHQARISHNING IQTIQBOLLARI**

**ПРЕИМУЩЕСТВА СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ
ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ**

**ACTIVITY OF FOOD INDUSTRY ENTERPRISES
STRATEGIC MANAGEMENT INTELLIGENCE**

Turg‘unov Muxriddin Mo‘ydinjon o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti “Iqtisodiyot va servis” kafedrası o‘qituvchisi(PhD)

Annotatsiya

Mamlakatimizda barcha sanoat tarmoqlari singari oziq-ovqat sanoati faoliyatini yanada rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ushbu jarayonda oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini strategik boshqarishni tadbiq etish hamda uni rivojlantirish, shuningdek, strategik boshqaruvga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish, oziq-ovqat sanoati tarmoqlarini modernizatsiya qilish va oziq-ovqat ishlab chiqaruvchi korxonalarni qo‘llab-quvvatlash muhim sanaladi. Ushbu maqolada oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini strategik boshqaruv tizimlaridan foydalanish hamda uning dolzabrligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: strategiya, strategik boshqarish, boshqarish mexanizmi, oziq-ovqat sanoati, zamonaviy boshqaruv, oziq-ovqat importi, oziq-ovqat mahsulotlari eksporti.

В нашей стране, как и во всех отраслях, особое внимание уделяется дальнейшему развитию деятельности пищевой промышленности. Важным в этом процессе является внедрение и развитие стратегического управления деятельностью предприятий пищевой промышленности, а также изучение факторов, влияющих на стратегическое управление, модернизацию отраслей пищевой промышленности и поддержку предприятий пищевой промышленности. В данной статье освещается использование систем стратегического управления деятельностью предприятий пищевой промышленности, а также ее актуальность.

Ключевые слова: стратегия, стратегический менеджмент, механизм управления, пищевая промышленность, современное управление, импорт продуктов питания, экспорт продуктов питания.

In our country, special attention is paid to the further development of the activities of the food industry, like all industries. In this process, it is important to implement strategic management of the activities of food industry enterprises and develop it, as well as to study the factors affecting strategic management, modernize food industries and support food production enterprises. This article covers the activities of enterprises of the food industry using strategic management systems, as well as its relevance.

Keywords: strategy, strategic management, management mechanism, food industry, modern management, food imports, food exports.

Mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta’minlash maqsadida barcha sanoat tarmoqlari faoliyatini rivojlantirib borish muhim omil sanaladi. Ushbu jarayonda oziq-ovqat sanoati faoliyatini ham rivojlantirish alohining birlamchi iste’moliga qaratilganligi bilan dolzarb hisoblanadi. Oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini strategik boshqarish orqali yuqori samaraga erishish muhim ahamiyat kasb etmoqda. So‘nggi bir necha yil ichida dunyoda ochlik va to‘yib ovqatlanmaslikni bartaraf etish yo‘lidagi taraqqiyot rivojlanishi sekinlashdi, natijada esa ko‘plab odamlar ovqatlanish uchun yetarli oziq-ovqatsiz qola boshladi.

Oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini yanada rivojlantirishda Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi “Oziq-ovqat va nooziq ovqat mahsulotlari bozorlarida taklifni oshirish va mavsumiy taqchilliklarni bartaraf etish, ichki bozorni oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘ldirish va narxlar barqarorligini ta‘minlash, 2026-yilga borib oziq-ovqat mahsulotlari hajmini 7,4 mln tonnaga, qayta ishlash darajasini sut bo‘yicha 32 foiz, go‘sht - 25 foiz, meva-sabzavot - 28 foizga yetkazish, oziq-ovqat mahsulotlari zahirasini yaratish va ichki bozorda intervensiya qilish hajmlari ko‘rsatkichlari, hududiy hokimliklarning ichki bozorda narxlar barqarorligini ta‘minlash borasidagi vazifalarini aniq belgilash, asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari narxlarini barqarorlashtirish zahiralarni shakllantirish va ulardan foydalanish qoidalarini ishlab chiqish bo‘yicha choralarni nazarda tutish” bo‘yicha alohida vazifalar belgilangan. Hozirgi kunda oziq-ovqat sanoati korxonalarida strategik boshqaruv tizimi, raqamli texnologiyalar, bozor talablariga moslashuvchan innovatsion yondashuvlarga asoslangan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini yaratish, korxonalar faoliyatini strategik boshqarish tizimini shakllantirish kabi ustuvor yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Amalga oshirilayotgan tadqiqot doirasida sanoat korxonalari faoliyatini strategik boshqarish bo‘yicha olimlarimizdan T.Abdurahmonov, N.Abdullayevning tadqiqotlarida tadqiq qilingan. Hududlarda oziq-ovqat sanoati korxonalarining moliyaviy iqtisodiy salohiyati amaliy jihatdan baholangan. Xorijiy tadqiqotchi olimlardan M.Porter, I.Ansof va boshqalar sanoat sohasini, jumladan sanoat korxonalari faoliyatini strategik boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga hamda soha faoliyatini vertikal va gorizontal klasterli yondashuv asosida rivojlantirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan [1]. Fikrimizcha, oziq-ovqat sanoati korxonalarini strategik boshqarish, oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatiga turli omillar ta‘sirini baholash va oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini strategik boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari soha faoliyatining rivojlanish davrini qisqartiradi hamda iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari ortadi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – yeyiladigan qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o‘z ichiga oladi. 2023- yilning yanvar oyi yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 16,2 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 8,0 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 4 134,5 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.

2023-yilning yanvar oyi yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,3 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 74,3 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 575,4 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.

Oziq-ovqat sanoati korxonalarini strategik boshqarish ushbu sektordagi korxonalarning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta‘minlash, bozor talablariga moslashish va samaradorligini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Oziq-ovqat sanoati global miqyosda tez o‘zgarayotgan va o‘ziga xos qiyinchiliklarga duch keladigan sektor hisoblanadi. Strategik boshqarish korxonalar uchun ushbu o‘zgarishlarga muvaffaqiyatli moslashish va rivojlanish uchun zaruriy vositadir. Quyida oziq-ovqat sanoati korxonalarini strategik boshqarishning istiqbollari haqida ba‘zi muhim jihatlar keltirilgan.

1. Innovatsion texnologiyalarni joriy qilish.

Oziq-ovqat sanoatida yangi texnologiyalarning joriy etilishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va mahsulot sifatini yaxshilashga yordam beradi. Yangi texnologiyalar, avtomatlashtirish va sun‘iy intellekt tizimlari orqali ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish korxonalarni bozorning tezkor o‘zgarishlariga moslashtirish imkonini beradi. Bu esa raqobatbardoshlikni oshiradi va xarajatlarni kamaytirishga imkon yaratadi.

2. Barqarorlik va ekologik tozalik strategiyalari.

Bugungi kunda iste‘molchilar oziq-ovqat mahsulotlari sifatiga katta e‘tibor berishadi va mahsulotlarning ekologik tozaligi muhim rol o‘ynaydi. Korxonalar barqaror rivojlanish strategiyalarini amalga oshirish orqali resurslarni tejash, chiqindilarni kamaytirish va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni qo‘llashlari kerak.

Barqarorlik strategiyalari nafaqat atrof-muhitga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi, balki korxonalarga uzoq muddatli daromadlilikni ta‘minlashga yordam beradi.

3. Bozor va mijozlar talabini tahlil qilish.

Bozor talablarini chuqur tahlil qilish va mijozlarning xohish-istaklarini tuchunish oziq-ovqat sanoati korxonalari uchun strategik boshqarishning asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Raqobat muhitini tahlil qilish, yangi bozorlarni izlash va mahsulot turini diversifikatsiya qilish orqali korxonalar o‘z salohiyatini kengaytirishi mumkin. Masalan, sog‘lom oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talab oshib borayotganini hisobga olib, sog‘lom mahsulotlar segmentiga kirish korxonalar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

4. Brendni rivojlantirish va mijozlar sodiqligi.

Korxonalar raqobatbardoshlikni oshirish uchun o‘z mahsulotlarining noyobligini ta’kidlovchi strategiyalar ishlab chiqishi kerak. Brendni rivojlantirish, reklama kampaniyalari va mijozlar bilan doimiy aloqa o‘rnatish orqali korxonalar o‘z brendlariga bo‘lgan sodiqlikni mustahkamlashlari mumkin. Bu korxonalar uzoq muddatli muvaffaqiyatga erishishlari uchun muhimdir.

5. Xalqaro bozorga chiqish va eksport imkoniyatlari.

Ko‘pgina oziq-ovqat sanoati korxonalari xalqaro bozorga chiqish orqali o‘z hajmlarini oshirish imkoniyatiga ega. Xalqaro bozorlarga kirish uchun strategik rejalashtirish va eksport bo‘yicha samarali boshqaruv tizimlarini joriy qilish kerak. Global tarmoqlarda ishtirok etish korxonalarga valyuta tushumlarini oshirish va ichki bozorga bog‘liq bo‘lib qolmaslikka imkon beradi.

6. Tarmoq va logistikani optimallashtirish.


Oziq-ovqat sanoati korxonalari uchun tarmoq va logistika tizimlarini optimallashtirish zarur. Mahsulotlar o‘z vaqtida yetkazilishi, sifatini saqlash va xarajatlarni kamaytirish uchun samarali logistika tizimi muhim hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishda korxonalar zamonaviy logistika strategiyalaridan, shu jumladan, raqamli tizimlardan foydalanishi kerak.

7. Mahsulot diversifikatsiyasi va innovatsiyalar.

Oziq-ovqat sanoatida mahsulot diversifikatsiyasi bozor talablarini qondirish va risklarni kamaytirish uchun muhim strategik usuldir. Yangi mahsulotlar yaratish, yangi retseptlar va tarkibiy qismlar bo‘yicha innovatsion tadqiqotlar olib borish orqali korxonalar o‘z raqobatbardoshligini oshirishi mumkin.

8. Xodimlar malakasini oshirish.

Korxona muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biri xodimlarning malakasidir. Oziq-ovqat sanoatida texnologiyalar va mehnat jarayonlari tez o‘zgarib borayotganligi sababli xodimlarni muntazam ravishda o‘qitish va ularning malakasini oshirish strategik boshqarishning ajralmas qismi hisoblanadi.



1-rasm. Strategik boshqaruv jarayoni

Korxonaning har tomonlama rivojlanishi strategik boshqarish tizimiga bog‘liqdir, ya’ni u ma’lum xususiyatlarni ishlab chiqish va ularga erishishni ta’minlaydi. Korxonada aniq ifodalangan strategik maqsadlar korxonaning samaradorligini oshirishning yetakchi vositasiga aylanadi hamda uzoq muddatli istiqbolda uni muvofiqlashtirish va nazorat qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, barcha bo‘g‘inlarda boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Strategik boshqaruv jarayonining mohiyati korxonaning uzoq muddatli maqsadlarini amalga oshirish uchun muhim va asosiy jarayonlarni rejalashtirish va amalga oshirish hisoblanadi. Bu jarayon korxonaning hozirgi holatini tahlil qilish, kelajakda qanday imkoniyatlar va xavflar bilan to‘qnash kelishi mumkinligini oldindan ko‘ra olishni ta‘minlaydi. Shu bilan birga, strategik boshqaruv korxonaning tashqi muhitdagi o‘zgarishlarga tez va samarali chora ko‘rishda muhim ahamiyat kasb etadi. Strategik boshqaruv jarayoni tashkilotning uzoq muddatli muvaffaqiyatini ta‘minlash uchun tizimli qadamlar bilan amalga oshiriladi. Bu jarayon quyidagi asosiy elementlarni o‘z ichiga oladi:

1. Vaziyatni tahlil qilish: Tashqi muhit (bozor, raqobatchilar, texnologiyalar) va ichki resurslar (mavjud imkoniyatlar, xodimlar va infratuzilma) chuqur tahlil qilinadi. SWOT tahlil, PEST tahlil kabi vositalardan foydalaniladi.

2. Maqsadlar belgilash: Tashkilotning uzoq muddatli maqsadlari, missiyasi va vizioniga asoslangan holda strategik yo‘nalishlar aniqlanadi. Bu qadamda konkret va o‘lchanadigan maqsadlar ishlab chiqiladi.

3. Strategiyaning ishlab chiqish: Maqsadlarga erishish uchun eng samarali yo‘llar aniqlanadi va strategik rejalar ishlab chiqiladi. Bu rejalar o‘z ichiga bozorga kirish, mahsulot diversifikatsiyasi, resurslarni boshqarish kabi masalalarni oladi.

4. Strategiyaning amalga oshirish: Belgilangan strategiyaning amalga qo‘llash uchun kerakli harakatlar, resurslar va jarayonlar tashkil etiladi. Bunda xodimlarni jalb qilish, yangi texnologiyalarni joriy qilish va tizimlarni modernizatsiya qilish muhim ahamiyatga ega.

5. Monitoring va baholash: Strategik rejalarining natijalari muntazam ravishda kuzatib boriladi. Agar natijalar kutilganidek bo‘lmasa, kerakli o‘zgartirishlar kiritiladi. Bu jarayon tashkilotning moslashuvchanligini ta‘minlaydi va muvaffaqiyatga erishishda yordam beradi.

Strategik boshqaruv jarayoni tashkilotning raqobatbardoshligini oshirish, bozordagi o‘zgarishlarga moslashish va uzoq muddatli muvaffaqiyatga erishishda kalit rol o‘ynaydi.

Mamlakatimizda oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini strategik boshqarish hamda unga ta‘sir etuvchi omillar va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish asosida quyidagi xulosalarni qilish mumkin:

Oziq-ovqat sanoati korxonalarini strategik boshqarish bo‘yicha quyidagi asosiy xulosalar chiqarish mumkin:

Oziq-ovqat sanoati korxonalari muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun innovatsiyalar va texnologiyalarni joriy qilish zarur. Bu korxonalarning samaradorligini oshiradi va raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Shuningdek, barqaror rivojlanish strategiyalari orqali ekologik mas‘uliyatni oshirish, resurslarni tejash va mijozlarning ekologik toza mahsulotlarga bo‘lgan talabini qondirish ham korxonalar uchun muhimdir. Bozor talabi va mijozlarning o‘zgaruvchan xatti-harakatlarini tahlil qilish korxonaga o‘z mahsulotlarini diversifikatsiya qilish va yangi segmentlarga kirish imkonini beradi. Mijozlarning xohish-istaklarini tushunish orqali korxonalar bozordagi o‘z pozitsiyasini mustahkamlashi va mijozlar sodiqligini oshirishi mumkin. Xalqaro bozorga chiqish va eksport imkoniyatlarini kengaytirish ham oziq-ovqat sanoati korxonalari uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lib, yangi bozorlar va valyuta tushumlarini ko‘paytiradi. Shu bilan birga, tarmoq va logistikani samarali boshqarish orqali mahsulot sifatini saqlab qolish va o‘z vaqtida yetkazib berish imkoniyati oshadi. Xodimlar malakasini oshirish, raqamli transformatsiyani joriy qilish va yangi bozor talablariga moslashish strategik boshqaruvning ajralmas qismidir. Bularning barchasi oziq-ovqat sanoati korxonalari uchun uzoq muddatli muvaffaqiyatni ta‘minlaydigan kalit omillar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ziyavitdinova N.M. Oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini iqtisodiy samaradorligini oshirish. Diss. i.f.n. Bux oz.ov YeSTI 155 b. B. – 2006.
2. Umarov I.Yu. Oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish (Andijon viloyati misolida). Diss. i.f.n. AMII 149 b. A. – 2009
3. Poluxin A.A. Organizatsionno-ekonomicheskii mexanizm modernizatsii selskogo xozyaystva Rossii/ A.A. Poluxin// Agrarnaya Rossiya. – 2012 - №5 s. 23-29

4. Turgunov, M. (2021). Issues of innovative approach and financing of innovative projects in rapid economic development. Экономика и социум, (7), 151-159.

UDK:334.027

**SANOAT KORXONALARIDA RAQAMLI MARKETING FAOLIYATINI TASHKIL
ETISH XUSUSIYATLARI**

**ОСОБЕННОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ ЦИФРОВОЙ МАРКЕТИНГОВОЙ
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ**

**CHARACTERISTICS OF ORGANIZING DIGITAL MARKETING ACTIVITIES IN
INDUSTRIAL ENTERPRISES**

Nabiyeva Nilufar Murotovna
Farg‘ona politexnika instituti dotsenti

Annotatsiya

Bugungi kunda sanoat korxonalari faoliyatida raqamli marketingni tashkil etish tendensiyasini boshdan kechirmoqda. Ushbu maqolada raqamli marketingning sanoat korxonalari faoliyatiga ta'siri va ularni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan omillar tadqiq qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sanoat korxonalarida mijozlarga yo'naltirilgan raqamli marketingdan foydalanish faoliyat raqobatbardoshligini oshiradi va yangi mijozlarni jalb qilish imkoniyatini oshiradi.

Kalit so'zlar: sanoat, marketing, raqamli marketing, raqobat, strategiya, raqamli texnologiya, samaradorlik.

Сегодня отрасль испытывает тенденцию к организации цифрового маркетинга в своей деятельности. В этой статье исследуется влияние цифрового маркетинга на деятельность промышленных предприятий и факторы, необходимые для их успешного внедрения. Результаты исследования показывают, что использование клиентоориентированного цифрового маркетинга на промышленных предприятиях повышает конкурентоспособность деятельности и увеличивает шансы на привлечение новых клиентов.

Ключевые слова: промышленность, маркетинг, цифровой маркетинг, конкуренция, стратегия, цифровые технологии, эффективность.

Today, industrial enterprises are experiencing the trend of organizing digital marketing in their activities. This article examines the impact of digital marketing on the operations of industrial enterprises and the factors necessary for their successful implementation. The results of the research show that the use of customer-oriented digital marketing in industrial enterprises increases the competitiveness of the activity and increases the possibility of attracting new customers.

Keywords: industry, Marketing, Digital Marketing, Competition, Strategy, Digital Technology, Efficiency.

Bugungi kunda raqamli texnologiya va texnologiyalarning global miqyosda kengayishi sanoat korxonalarining marketing strategiyalarini tubdan o'zgartirib yubordi. An'anaviy marketing usullaridan farqli o'laroq, raqamli marketing sanoat korxonalariga yangi mijozlar topish, ularga sifatli xizmat ko'rsatish va mahsulotlarini targ'ib qilishda katta imkoniyatlar yaratmoqda. Sanoat korxonalarida raqamli marketing faoliyatini tashkil etish bugungi kundagi iqtisodiy, texnologik va raqobat muhitida juda dolzarb bo'lib bormoqda. Raqamli texnologiyalar va internetning keng qo'llanilishi bilan, marketing faoliyati sezilarli darajadagi o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda.

Bunda raqamli marketing sanoat korxonalari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, biroq ularning o‘ziga xos ehtiyojlari va murakkabliklari marketing strategiyalarining ishlab chiqilishida jiddiy e‘tiborni talab qiladi. Sanoat korxonalari asosan B2B sektorida faoliyat yuritadi, shuning uchun ularning marketing strategiyalari B2C sohasidan keskin farq qiladi.

Usbhu tadqiqotda sanoat korxonalarining raqamli marketing faoliyatini o‘rganish uchun ikkita asosiy usul qo‘llanilgan: so‘rovnoma va kuzatuv. So‘rovnoma orqali sanoat korxonalaridagi marketing mutaxassislarining fikrlari to‘plangan. Kuzatuv orqali esa raqamli marketing platformalarida o‘tkazilgan kampaniyalar natijalari tahlil qilingan.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi haqida gap ketganda, raqamli marketingning industrial korxonalar faoliyatidagi o‘rni va unda tashkil qilish masalalari bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ayniqsa, oxirgi o‘n yilliklarda texnologik taraqqiyot va internetning keng tarqalishi raqamli marketingning tez rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Ushbu mavzuni o‘rgangan ba‘zi muhim olimlar va ularning tadqiqot yo‘nalishlari quyidagilar: Philip Kotler – u marketing sohasida eng taniqli olimlardan biri bo‘lib, raqamli marketing va uning evolyutsiyasini o‘rganishda katta hissa qo‘shgan. Uning Marketing 4.0 asari raqamli dunyoda marketingning yangi shakllarini tahlil qiladi. Dave Chaffey – raqamli marketing strategiyalari bo‘yicha yetakchi tadqiqotchilardan biri. Uning asarlari raqamli marketingning samarali tashkil etilishi, rejalashtirish va boshqaruv masalalariga bag‘ishlangan.

Statistika ma‘lumotlariga ko‘ra, B2B kompaniyalarining qariyb 89% i raqamli marketing strategiyalarini o‘z faoliyatlarida qo‘llaydi. Bu shuni ko‘rsatadiki, sanoat korxonalari raqamli vositalardan keng foydalanmoqda va raqamli marketing samarali biznes vositasiga aylanib bormoqda.

Sanoat korxonalarida raqamli marketing faoliyatini tashkil etish xususiyatlari haqida gap ketganda, u iste‘mol bozoridagi raqamli marketingdan ancha farq qiladi. Sanoat korxonalari (B2B - business-to-business) odatda katta hajmdagi xaridlar, uzoq muddatli aloqalar va yuqori qiymatdagi shartnomalar bilan shug‘ullanadi, bu esa raqamli marketingni ularning biznes modeli va mijozlar ehtiyojlariga moslashtirishni talab qiladi.

Sanoat korxonalari uchun raqamli marketing faoliyatining ba‘zi o‘ziga xos xususiyatlarini quyidagi yondashuvlar bilan asoslash mumkin:

1. Ma‘lumotga asoslangan yondashuv. Sanoat korxonalari mijozlar bilan munosabatlarni rivojlantirish uchun raqamli kanallardan foydalanishda katta miqdordagi ma‘lumotlarga tayanadi. Bunday ma‘lumotlar orqali korxonalar mijozlar ehtiyojlarini yaxshiroq tushunib, ularga shaxsiylashtirilgan marketing yechimlarini taklif qilishi mumkin. Raqamli marketing vositalari sifatida CRM (Customer Relationship Management) tizimlari va big data tahlili muhim rol o‘ynaydi.

2. Kontent marketingi va texnik bilimlar. Sanoat korxonalarining mahsulot va xizmatlari odatda murakkab va texnik xususiyatlarga ega bo‘ladi. Shu sababli, kontent marketing katta ahamiyat kasb etadi. Bloglar, texnik maqolalar, o‘quv materiallari va oq qog‘ozlar kabi tarkiblar yordamida mijozlarni mahsulot haqida batafsil bilgilash muhim. Kontent nafaqat reklama balki mijozlar uchun ma‘lumot beruvchi va ularga ta‘lim beruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Content Marketing Institute tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, B2B kompaniyalarining 93% i kontent marketingdan foydalanadi. Kontent marketing sanoat korxonalari uchun mijozlarni jalb qilish va mahsulotlarning texnik xususiyatlarini tushuntirishda muhim o‘rin tutadi.

3. Mijoz bilan uzoq muddatli aloqalar. B2B sanoat korxonalari uchun uzoq muddatli va barqaror mijoz munosabatlarini rivojlantirish muhim. Raqamli marketing strategiyalari email marketing, ijtimoiy media va boshqa raqamli platformalar orqali mijozlar bilan doimiy aloqada bo‘lish imkoniyatini beradi. Xususan, LinkedIn kabi ijtimoiy tarmoqlar sanoat korxonalari uchun juda samarali vosita hisoblanadi.

4. SEO va qidiruv tizimlarida yuqori ko‘rinish. Sanoat korxonalari mahsulot va xizmatlari bo‘yicha maxsus qidiruv tizimi optimallashtirishini (SEO) yo‘lga qo‘yishi lozim. Mijozlar asosan mahsulot yoki xizmatlarni qidiruv tizimlari orqali topishadi, shu bois tegishli kalit so‘zlardan to‘g‘ri foydalanish va mahsulot sahifalarini optimallashtirish kerak. Bu Google Ads yoki bing reklamalaridan ham foydalanishni o‘z ichiga olishi mumkin.

5. Raqamli platformalar integratsiyasi. Sanoat korxonalarida turli raqamli platformalar va vositalar integratsiyasi juda muhim. Bu ERP (Enterprise Resource Planning), CRM tizimlari va marketing avtomatizatsiya tizimlari kabi tizimlar orasida ma'lumot almashishni optimallashtirish orqali amalga oshiriladi. Bunda biznes jarayonlari raqamlashtiriladi va bu jarayonlar orqali marketing kampaniyalari samaradorligi kuzatib boriladi.

6. Mijozlar uchun moslashtirilgan takliflar. B2B sanoat marketingida har bir mijozga shaxsiy yondashuv zarur. Raqamli marketing vositalari orqali mijozlarga maxsus tayyorlangan takliflar, mahsulot demo versiyalari yoki tahlillarni taqdim etish korxonaning raqobatbardoshligini oshiradi.

7. Raqamli reklama va tarmoqlanish. Ijtimoiy media marketing sanoat korxonalari uchun juda samarali bo'lsa-da, sanoat marketingida LinkedIn, Twitter kabi platformalar keng qo'llaniladi. Shuningdek, onlayn reklamalar (Google Ads yoki bannerlar) korxona mahsulotlarini va xizmatlarini nishon bozorlarida tanishtirish uchun samarali vosita bo'lib, maqsadli auditoriyaga etib borishni osonlashtiradi.

8. Mijoz tajribasi va foydalanuvchi interfeysi. Sanoat korxonalari uchun mijozlar uchun qulay veb-sayt va foydalanuvchi interfeysi yaratish muhim. Mahsulotlar, xizmatlar haqida batafsil ma'lumot olish imkoniyatini ta'minlaydigan onlayn platformalar orqali mijozlar o'zlariga kerakli ma'lumotni osongina topishi kerak. Bu yerda foydalanuvchi tajribasi (UX) va mobil moslik katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Sanoat korxonalarida raqamli marketing faoliyatiga oid statistik ma'lumotlar raqamli marketingning samaradorligini va bu sohaning qanday rivojlanib borayotganini tasdiqlaydi. Quyida sanoat sektorida raqamli marketingning hozirgi holati haqida ba'zi statistik ma'lumotlar keltirilgan:

1. B2B kompaniyalarning raqamli marketing strategiyalaridan foydalanishi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, B2B kompaniyalarining qariyb 89% i raqamli marketing strategiyalarini o'z faoliyatlarida qo'llaydi. Bu shuni ko'rsatadiki, sanoat korxonalari raqamli vositalardan keng foydalanmoqda va raqamli marketing samarali biznes vositasiga aylanib bormoqda.

2. Sanoat korxonalarining raqamli marketing vositalariga investitsiyalari. Forrester Research tadqiqotlariga ko'ra, B2B kompaniyalarining qariyb 50% i o'z raqamli marketing budjetini sezilarli darajada oshirishni rejalashtirgan. Bu sanoat korxonalarining raqamli marketingni kengaytirish va rivojlantirishga katta e'tibor qaratayotganini ko'rsatadi.

3. Kontent marketingning ahamiyati. Content Marketing Institute tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, B2B kompaniyalarining 93% i kontent marketingdan foydalanadi. Kontent marketing sanoat korxonalari uchun mijozlarni jalb qilish va mahsulotlarning texnik xususiyatlarini tushuntirishda muhim o'rin tutadi.

4. Email marketingning sanoat korxonalarida keng qo'llanilishi. HubSpot ma'lumotlariga ko'ra, sanoat sektori kompaniyalarining 83% i email marketing kampaniyalarini samarali deb hisoblaydi. Ayniqsa, mijozlar bilan uzoq muddatli aloqalar o'rnatishda email marketing yetakchi vositalardan biri bo'lib qolmoqda.

5. SEO va qidiruv tizimlarining ahamiyati. Google ma'lumotlariga ko'ra, B2B xaridorlarining 71% i mahsulot yoki xizmatni tanlashda qidiruv tizimlaridan foydalanadi. Shu sababli, sanoat korxonalari o'z veb-saytlarini qidiruv tizimlariga moslashtirishga e'tibor qaratmoqda va SEO strategiyalariga sarmoya kiritmoqda.

6. Sanoat korxonalari tomonidan ijtimoiy media marketingdan foydalanish. LinkedIn ma'lumotlariga ko'ra, sanoat korxonalarining 97% i B2B marketing faoliyatida LinkedIn dan foydalanadi. Bu platforma B2B sektori uchun eng samarali ijtimoiy tarmoqlardan biri hisoblanadi, chunki u professional aloqalarni o'rnatish va rivojlantirish imkoniyatini beradi.

7. B2B sanoat korxonalarining mobil marketing strategiyalari. Blue Corona tahlillariga ko'ra, B2B kompaniyalarining 50% i mobil marketing strategiyalaridan foydalanmoqda. Bu sanoat korxonalari uchun ham mobil ilovalar va mobilga moslashtirilgan veb-saytlarning ahamiyati ortib borayotganidan dalolat beradi.

Ushbu statistik ma'lumotlar raqamli marketing sanoat korxonalari uchun qanday ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi va kelajakda ushbu yo'nalishda investitsiyalar va faoliyat hajmining ortib

borishini bashorat qiladi. Raqamli marketing vositalari mijozlar bilan samarali aloqa o‘rnatish va bozor talablariga moslashishda muhim omil bo‘lib qolmoqda.

Sanoat korxonalarida raqamli marketingdan foydalanish zamonaviy raqamli texnologiyalar va marketing uslublarining sanoat sektori talablariga moslashishi natijasida o‘z dolzarbligini oshirib bormoqda. Raqamli marketing sanoat korxonalari uchun mahsulot va xizmatlarni samarali reklama qilish, mijozlar bilan aloqalarni mustahkamlash hamda bozor talablariga tezroq moslashish imkonini beradi.

Ushbu jarayonda to‘g‘ri maqsadli auditoriyani belgilash, raqamli platformalarni to‘g‘ri tanlash, sifatli kontent yaratish va SEO hamda SEM kabi texnologiyalardan foydalanish muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, marketing avtomatlashtirish vositalaridan foydalanish, mijoz tajribasini yaxshilash va raqamli marketing kampaniyalarini muntazam tahlil qilib, ularni optimallashtirish orqali samaradorlikni oshirish mumkin.

Sanoat korxonalari o‘z raqamli marketing strategiyalarini to‘g‘ri yo‘naltirib, bozorda o‘z pozitsiyasini mustahkamlaydi va mijozlar bilan uzoq muddatli, barqaror aloqalarni rivojlantirishga erishadi. Innovatsiyalarni sinab ko‘rish va raqamli marketingning yangi tendensiyalariga moslashish esa korxonalarning raqobatbardoshligini ta‘minlashda hal qiluvchi omil bo‘ladi.

Xulosa. Sanoat korxonalarida raqamli marketingni samarali tashkil etish murakkab jarayon bo‘lsada, bu bizneslar uchun katta imkoniyatlarni ochadi. Maqolada taqdim etilgan tadqiqotlar natijasida raqamli marketingning to‘g‘ri rejalashtirilgan strategiyalari orqali mijozlar bilan samarali muloqot o‘rnatish va ularning talablarini aniqlash mumkinligi ko‘rsatilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Chaffey, D., & Ellis-Chadwick, F. (2019). *Digital Marketing: Strategy, Implementation and Practice* (7th ed.). Pearson Education Limited.
2. Kotler, P., Kartajaya, H., & Setiawan, I. (2017). *Marketing 4.0: Moving from Traditional to Digital*. John Wiley & Sons.
3. Charlesworth, A. (2020). *Digital Marketing: A Practical Approach* (3rd ed.). Routledge.
4. Ryan, D. (2020). *Understanding Digital Marketing: Marketing Strategies for Engaging the Digital Generation* (5th ed.). Kogan Page.
5. Leeflang, P. S. H., Verhoef, P. C., Dahlström, P., & Freundt, T. (2014). Challenges and solutions for marketing in a digital era. *European Management Journal*, 32(1), 1-12.
6. Chen, Y., Fay, S., & Wang, Q. (2011). The Role of Marketing in Social Media: How Online Consumer Reviews Evolve. *Journal of Interactive Marketing*, 25(2), 85-94.
7. Holliman, G., & Rowley, J. (2014). Business to business digital content marketing: marketers' perceptions of best practice. *Journal of Research in Interactive Marketing*, 8(4), 269-293.
8. Karjalainen, H., Mustonen, N., & Ulkuniemi, P. (2015). The role of digital channels in industrial marketing communications. *Journal of Business & Industrial Marketing*, 30(6), 703-710.

**O‘ZBEKISTONDA IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA
YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISHNING AYRIM MASALALARI**

**НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ПЕРЕХОДА К ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКЕ В РАЗВИТИИ
ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ**

**DEVELOPING THE ECONOMY IN UZBEKISTAN
SOME ISSUES OF THE TRANSITION TO A GREEN ECONOMY**

Axunova Shoxistaxon Nomonjanovna

Farg‘ona politexnika instituti “Iqtisodiyot” kafedrası dotsenti

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekistonda “yashil” iqtisodiyotga o‘tishning muhim vazifalari hamda uning samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan yanada oqilona foydalanish muhim masala sifatida qaraladi. Dunyoning turli bo‘laklarida atrof-muhit haqida qayg‘urish natijasida bir nechta barqaror rivojlanish, yashil o‘sih kabi konsepsiyalar yuzaga kelmoqda. Bu jamiyatimizning ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy jihatlarini o‘rtasidagi muvozanatni turli sohalar tomonidan turlicha talqin qilishni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘lar: yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy barqarorlik, ekologik barqarorlik, kontsepsiya, barqaror raqobatbardoshlik, resurs samaradorligi, resurs samaradorligi indeksi, resurs sarfi.

В статье рассматриваются важные задачи перехода к “зеленой” экономике в Узбекистане, а также вопросы повышения ее эффективности и более рационального использования природных ресурсов. Забота об окружающей среде в разных частях мира приводит к появлению нескольких концепций устойчивого развития, таких как зеленый рост. Она включает в себя различную интерпретацию баланса между экологическими, социальными и экономическими аспектами нашего общества, различными отраслями.

Ключевые слова: зеленая экономика, устойчивое развитие, экономическая стабильность, социальная стабильность, экологическая устойчивость, концепция, устойчивая конкурентоспособность, эффективность ресурсов, индекс эффективности ресурсов, потребление ресурсов.

The article considers the important tasks of the transition to a “green” economy in Uzbekistan as well as the improvement of its efficiency and the more rational use of natural resources as an important issue. As a result of concern about the environment in different parts of the world, several concepts such as sustainable development, green growth are emerging. It involves different interpretations of the balance between the ecological, social and economic aspects of our society by different sectors.

Keywords: green economy, sustainable development, economic stability, social stability, environmental sustainability, concept, sustainable competitiveness, resource efficiency, resource efficiency index, resource consumption.

Barqaror iqtisodiy rivojlanishning ijtimoiy va ekologik komponentlari esa avlodlar ichida va avlodlar o‘rtasida ijtimoiy tenglikni ta‘minlash kabi masalalarning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Bugungi kunda dunyo mamlakatlari bilan bir qatorda mamlakatimizda ham “yashil” iqtisodiyot asosida barqaror rivojlanishni, energiya samaradorligini ta‘minlashda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrda tasdiqlangan “2019-2030-yillarda mamlakatimizning “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” muhim dastur asosida jadal ishlar olib borilmoqda.

O‘zbekiston iqtisodiyoti hozirgi davrda yashil iqtisodiyotga o‘tish orqali barqaror rivojlanish yo‘lida muhim qadamlar tashlamoqda. Yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayoni iqtisodiyotning ekologik barqarorligini ta‘minlash bilan bir qatorda tabiiy resurslardan samarali foydalanish va atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan ishlab chiqarish turlarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

Olimlar ekologik sanoat sektoridagi istiqbolli o‘zgarishlar orqali yashil o‘sishni yashil iqtisodiyot bilan bog‘lashadi. Bunga atrof muhitni muhofaza qilishning yakuniy texnologiyasini innovatsiyalar va raqobatbardosh bozorlarga asoslangan resurslarni tejash usullariga aylantirish orqali erishish mumkin. Ular barqarorlikdan tashqariga chiqadigan turmush tarzini qayta ko‘rib chiqishga qiziqish ortib borayotganiga ishora qildilar. Yuqori darajada olimlar innovatsiyalar va raqobatbardosh bozorlarga asoslangan atrof-muhitni muhofaza qilish texnologiyasidan resurslarni tejovchi texnologiyalarga o‘tish orqali yashil o‘sish va yashil iqtisodiyotni ekologik sanoat sektori bilan bog‘laydilar.

Xaynts J., Hendricks B. fikricha Yashil o‘sish bu tabiiy resurslardan barqaror tarzda foydalanadigan iqtisodiy o‘sish shaklini tavsiflovchi kontsepsiyani anglatadi. Aslida, bu atama jahon miqyosida klassik sanoat iqtisodiy o‘sishiga muqobil kontsepsiyani taqdim etish uchun tobora ko‘proq foydalanilmoqda, bu esa taraqqiyotning haqiqiy hodisasi va ekologik xavfsizlik kontsepsiyasi bo‘lgan yashil iqtisodiyot fenomeniga olib keladi.

Yashil iqtisodiyot deganda, asosan, iqtisodiy faoliyatning ekologik zararni minimallashtirish va tabiiy resurslarni samarali boshqarish orqali insonlarning farovonligini oshirishga yo‘naltirilgan iqtisodiy model tuchuniladi. Ushbu model O‘zbekistonda energetika, qishloq xo‘jaligi, sanoat va transport sohalarida muhim o‘zgarishlarni talab qiladi.

O‘zbekiston yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha bir qator choralar ko‘rmoqda. Energetika sektorida qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, xususan quyosh va shamol energetikasi rivojlanmoqda. Qishloq xo‘jaligida suv resurslarini tejash, tomchilatib sug‘orish texnologiyalarini joriy etish orqali yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Barqaror iqtisodiyot va uning barqaror rivojlanishga ta‘sirini o‘rganish, ayniqsa, so‘nggi yillarda ko‘pchilik tadqiqotchilar uchun muhim va hayotiy mavzulardan biri hisoblanadi. Barqaror iqtisodiyot - bu asosan inson farovonligini yaxshilash va rivojlantirish, ekologik xavflarni kamaytirishga olib keladigan mexanizm. Ekologik foyda nuqtai nazaridan, u ifloslanishni kamaytirish orqali iqlimni yaxshilaydi. “Yashil iqtisodiyot” kontsepsiyasining maqsadi barqaror iqtisodiy o‘sishni ta‘minlash va investitsiyalar faolligini oshirish bilan bir qatorda atrof muhit muhofazasi va ijtimoiy integratsiya sifatini yaxshilash hisoblanadi. Mazkur maqsadga erishish uchun davlat va xususiy investitsiyalarni barqaror rivojlantirishning ekologik va ijtimoiy omillariga keng miqyosda jalb etish zarur bo‘ladi. (1-jadval)

1-jadval

“Yashil iqtisodiyot” kontsepsiyasining rivojlanish bosqichlari

Bosqichlar	Yillar	Asosiy go‘yalar
I	1950-1960	Iqtisodiyotning atrof-muhit va insonga salbiy ta‘sirini anglab yetish
II	1960-1970	Inson uchun qulay atrof-muhit va tabiiy resurslarni saqlab qolish maqsadida tejamkor (ratsional) iqtisodiyotni shakllantirish
III	1980-1990	Iqtisodiy o‘sish va sanoat rivojlanishining ekologik jihatdan moslashishi iqtisodiyot nuqtai nazaridan maqsadga muvofiqligi
IV	2000-2010	“Erkin bozor”ning biosfera resurslarini saqlab qolish va ijtimoiy adolat manfaatlarini himoya qilish, uzoq muddatli davrda iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda o‘z-o‘zini tartibga solishga qodir masligi.

Barqaror iqtisodiyotning eng muhim maqsadlaridan biri siyosat va qoidalarni isloh qilish zaruratidir. Bu barqaror iqtisodiyotga to‘sqinlik qilishi yoki yengillik yaratish imkoniyatlaridir.

Barqaror iqtisodiyotga erishish barqaror jismoniy va insoniy rivojlanishga erishish uchun aksariyat kompaniyalar tuzilmasi va strategiyalarida tub o‘zgarishlarni talab qiladi.

Tadqiqot muhim jihatlarga, jumladan, barqaror iqtisodiyot kontseptsiyasi, uning ahamiyati, maqsadlari va darajalari, eng muhim barqaror iqtisodiyotning barqaror rivojlanishga ta'sirining ko'rsatkichi sifatida barqaror iqtisodiyotga o'tish zarurati va unga erishishga to'sqinlik qiladigan eng muhim to'siqlarga oydinlik kiritadi. Tadqiqotning eng muhim maqsadi atrof-muhitni ifloslanishdan saqlagan holda barcha uchun farovonlikka erishish va iqtisodiy darajani oshirish uchun energiya va resurslarni optimal sarf qilish orqali barqaror rivojlanishda barqaror iqtisodiyotning ahamiyatini ko'rsatishdir. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo'yicha Dasturi (UNEP) barqaror iqtisodiyotni inson farovonligini yaxshilash, shu bilan birga ekologik xavflarni va ekologik resurslar tanqisligini sezilarli darajada kamaytiradigan mexanizm sifatida belgilaydi. Oddiy qilib aytganda, bu kamroq uglerod chiqindilarini ishlab chiqarishga va barcha ijtimoiy guruhlarni resurslar bilan joylashtirishga urg'u beradigan iqtisodiyot. Resurslar samaradorligi va energiya sarfini oshirish orqali ifloslanish va uglerod chiqindilarini kamaytirishga qaratilgan. Barqaror iqtisodiyot, shuningdek, davlat va xususiy investitsiyalar hisobiga amalga oshirilishi kerak bo'lgan daromadlar va ish o'rinlari o'sishiga intiladi. Ushbu investitsiyalarni maqsadli davlat xarajatlari, siyosatni isloh qilish va o'zgartirish qoidalari bilan rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash kerak. Rivojlanish yo'li tabiiy kapitalni saqlashi va yaxshilashi kerak. Darhaqiqat, uning shakllanishi zarurat paydo bo'lganda cheklanadi, chunki u jamoat manfaati manbai bo'lib, ayniqsa, xavfsizligi va turmush tarzi tabiatga bog'liq bo'lgan aholi uchun ijtimoiy masaladir [1]. Tadqiqotning eng muhim maqsadi atrof-muhitni ifloslanishdan saqlagan holda barcha uchun farovonlikka erishish va iqtisodiy darajani oshirish uchun energiya va resurslarni optimal investitsiya qilish orqali barqaror rivojlanishda yashil iqtisodiyotning ahamiyatini ko'rsatishdir. Atrof-muhit iqtisodiyoti yoki ekologik iqtisodiyotdan farqli ravishda “yashil iqtisodiyot” ko'proq amaliy xarakterga ega hisoblanadi. Umuman olganda “yashil iqtisodiyot” ustun darajada real iqtisodiy siyosat, konkret faoliyat sohalari (energetika, innovatsiya, qishloq xo'jaligi va b.)ga taalluqlidir. Ushbu farqni “yashil iqtisodiyot”ning inglizcha economics (iqtisodiy nazariya yoki environmental economics, ecological economics kabi iqtisodiy fanlar) emas, balki economy (real iqtisodiy faoliyat) so'zlari orqali ifodalanishida kuzatishimiz mumkin.

Yashil iqtisodiyotga o'tishning quyidagi asoslariga ko'ra ajratish mumkin:

- xo'jalik yuritish va atrof-muhit muhit o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik;
- iqtisodiy faoliyat tufayli uzoq istiqbolda atrof-muhitga yetkaziladigan zararni minimallashtirish, ekologik va ijtimoiy omillarni qamrab oluvchi iqtisodiy tizimlarni boshqarish usullari;

- xo'jalik yuritish faoliyati va ishlab chiqarish sohalarida yangi texnologiyalarni ishlab chiqish, ularning atrof-muhitga yetkaziladigan zararini minimallashtirishga yo'naltirish tamoyillari.

“Yashil iqtisodiyot” ni amalga oshirishda ilmiy bilish usullarini tanlash va tadqiqot strategiyasini tuzishda quyidagi tamoyillar muhim ahamiyat kasb etadi:

- resurslarning cheklanganligi sharoitida ekologik omillarning birlamchi omil ekanligi;
- yashil iqtisodiyotni amaliyotga tatbiq etish bosqichlarini turli (nazariy, g'oyaviy, siyosiy va iqtisodiy) darajalarga bo'lish zaruriyatining mavjudligi;
- Tadqiqot muhim jihatlarga, jumladan, yashil iqtisodiyot kontsepsiyasi, uning ahamiyati, maqsadlari va darajalari, eng muhim yashil ish o'rinlari, yashil iqtisodiyotning barqaror rivojlanishga ta'sirining ko'rsatkichi sifatida yashil iqtisodiyotga o'tish zarurati va unga erishishga to'sqinlik qiladigan eng muhim to'siqlarga oydinlik kiritadi.
- Tadqiqot yashil investitsiya tuchunchasi, uning ahamiyati, motivlari va unga ta'siri bilan bog'liq barqaror atrof-muhit va yashil iqtisodiyotda ekologik manfaatlarining ahamiyati.

OECDning ma'lumotlariga ko'ra mamlakatlarning iqtisodiy o'sishi bir nechta omillar yig'indisi sifatida olinadi. Ba'zi mamlakatlar mehnat kapitali va ishlab chiqarilgan kapitallar evaziga iqtisodiy o'sishni ta'minlashsa qolganlari tabiiy kapitallar sarfi unumdorligini oshirish orqali ham o'sish sur'atiga ta'sir o'tkazishlari mumkin. “Yashil” iqtisodiyotning keng tarqalgan kontsepsiyasi bu past uglerodli iqtisodiyot. Kam uglerodli rivojlanish maqsadi atmosferaga issiqxona gazlari chiqindilarini chiqarishni kamaytirishdir. Ko'pgina xorijiy olimlarning fikrlariga ko'ra, bu issiqxona gazlar chiqindilarining kamayishi global iqlim tizimining barqarorlashishiga olib keladi. Ushbu maqsadga erishishning bir yo'li energiyadan foydalanish samaradorligini oshirishdir. SO₂

emissiyasining asosiy manbai - qazib olinadigan ko‘mir, neft, gazdan foydalanishdir. Hozirda ko‘pgina mamlakatlar va xalqaro korporatsiyalar issiqxona gazlari chiqindilarini muhim manbai bo‘lgan ko‘mirdan foydalanishni kamaytirmoqda.

BMTning inson taraqqiyoti bo‘yicha global hisobotida ko‘rsatilgandek, “barqaror rivojlanish va imkoniyatlar tengligi: hamma uchun yaxshiroq kelajak” ijtimoiy adolat muammosi ko‘p jihatlarga ega: avlodlar o‘rtasidagi va avlodlar ichida, boy va kambag‘al davlatlar o‘rtasidagi tenglik, alohida mamlakatlar ichida daromadlarni taqsimlashda adolatga rioya qilish. Xususan, boy va kambag‘al davlatlar o‘rtasida o‘sib borayotgan tafovutni bartaraf etish qiyin masala. XXI asr boshida dunyo aholisining eng boy 20 %i iste‘mol xarajatlarining 86 % ini, eng kambag‘al 20 %i esa xarajatlarning 1,5 %ini tashkil qilgan. Resurs samaradorligi bo‘yicha yuqori yoki past ballning asosiy oqibatlari barqarorlik va barqaror iqtisodiy o‘rish bilan bog‘liq. Agar kelajakda xom ashyo va energiyaga global narxlar sezilarli darajada ko‘tarilsa (tendesiyalar va mavjud tadqiqotlarning aksariyati shuni ko‘rsatmoqda), quyi pog‘onadagi mamlakatlar sezilarli darajada yuqori xarajatlar va o‘rish sur‘atlarini saqlab qolish uchun samaradorlik va intensivlik ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan mamlakatlar bilan solishtirganda, qiyinchiliklarga duch kelishadi.

O‘zbekiston 2017-2021-yillarda ushbu soha loyihalariga 1,9 mlrd. AQSh dollari miqdorida investitsiya sarfladi. Umumiy quvvati 500 MVt bo‘lgan quyosh fotoelektr stansiyalarini qurishga 1,1 mlrd AQSh dollari, 8 ta GES va 13 ta kichik GESlar qurish uchun 700 mln.dollar sarflash rejalashtirilgan va amalga oshirilgan. Tadqiqotlarga ko‘ra, dunyoda 1 kvadrat metr maydon uchun energiya sarfi yiliga 120-150 kvt/soatni tashkil etadi. O‘zbekistonda xuddi shuncha hajmdagi maydon uchun 390 kvt/soat energiya sarflanadi. Iqtisodiyotning o‘rishi ta‘minlash yashil iqtisodiyotning rivojlanishiga hech qanday to‘siq qo‘ymaydi, aksincha resurslardan samarali foydalanish mo‘tadilnikni saqlaydi va davomiylikni ta‘minlaydi. Ayniqsa, tabiiy resurlardan oqilona foydalanish, uni suiste‘mol qilish orqali tabiiy boyliklarning zahirasidan noo‘rin foydalanishdan asraydi. Ba’zi mamlakatlarning tabiiy boyliklarga qaramligi yuqori darajada bo‘lib ularning iqtisodiy o‘rish ko‘rsatkichlari asosan tabiiy resurslarning sarfi bilan shakllantiriladi. Ekologik ta’siri ham juda keng resurs sarfi yuqori bo‘lgan mamlakatlarning uzoq yillar uchun barqaror o‘rishni ta‘minlashda qiyinchiliklarga duch kelishi tabiiy. Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda shamol energiyasi, suv energiyasi va quyosh energiyasiga qilingan investitsiyalar shunga olib keladiki, O‘zbekiston uchun zarur bo‘lgan elektr energiyasini ehtiyojimizdan 6 marta ko‘p ishlab chiqarish imkoniyati vujudga keladi. Tabiiy resurslar va ulardan foydalanish samaradorligi har tomonlama mamlakat iqtisodiy imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi. Lekin hisobga olinishi kerak bo‘lgan bir qancha boshqa omillar borki iqtisodiyotni doimiy rivojlanish yo‘lidan olib yuradi. Tabiiy kapitaldan foydalanish samaradorlik ko‘rsatkichlaridan eng asosiylaridan biri energiya resurslaridan samarali foydalanish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.Birlashgan N 2011 Yashil iqtisodiyot sari: Barqaror rivojlanish va qashshoqlikka barham berish yo‘llari – siyosatchilar uchun ma‘lumotnoma, Frank, pp.1-5.
- 2.Xanfar, A 2014 Atrof-muhit iqtisodiyoti "Yashil iqtisodiyot". Assiut Journal, Environmental Studies, 39, Misr, 55-57,59-betlar.
- 3.Bina O 2013 Yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish: notinch muvozanatmi? Atrof-muhit va Rejalashtirish C: Hukumat va siyosat, 31, p.1024.
- 4.Ismail S 2014 Yashil iqtisodiyotning Jazoirda 2005-2007 yillar mobaynida barqaror rivojlanishga erishishdagi hissasi, Iqtisodiyotda tadqiqotlar jurnali, 3(2):149-150.
- 5.Pollin, R.; Garret-Peltier, X.; Xaynts, J.; Hendricks, B. Green Growth: AQShning iqlim o‘zgarishini nazorat qilish va ish imkoniyatlarini kengaytirish dasturi, Amerika taraqqiyoti markazi; Massachusetts universiteti Amerika taraqqiyoti va siyosiy iqtisod tadqiqot instituti markazi: Amherst, MA, AQSh, 2014; p. 2.
- 6.Lucretia D. Ruminiya.: Yashil iqtisodiyot va yashil o‘rish — barqaror rivojlanish imkoniyatlari
- 7.OECD 2016 Web brochure: Yashillashtirish samaradorliklarni o‘lchash.
8. M.T.Bo‘taboev, E.A.Muminova “Yashil iqtisodiyot” darslik-2023.

**O‘ZBEKISTONDA XUFYONA IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISH
SAMARADORLIGI**

ЭФФЕКТИВНОСТЬ БОРЬБЫ С ТЕНЕВОЙ ЭКОНОМИКОЙ В УЗБЕКИСТАНЕ

**EFFECTIVENESS OF THE FIGHT AGAINST THE SHADOW ECONOMY IN
UZBEKISTAN**

Zaxirova Gulnora

O‘zbekiston Milliy universiteti, iqtisodiyot fakulteti katta o‘qituvchisi,

Chinorova Shahodat

O‘zbekiston Milliy universiteti iqtisodiyot fakulteti 2- kurs talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada ko‘plab mamlakatlarning rivojlanishiga to‘sqinlik qilib kelayotgan xufyona iqtisodiyotning vujudga kelish sabablari va bunga muqobil tarzda oldini olish uchun yechimlar keltirib o‘tilgan. Shuningdek, bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida ushbu sohaga qarshi olib borilayotgan islohotlar haqida so‘z borgan.

Kalit so‘zlar: xufyona iqtisodiyot, korrupsiya, kibernetik yondashuv, krimonologik yondashuv, xufyona taqsimot, xufyona ayirboshlash

В этой статье рассматриваются причины возникновения теневой экономики, которая препятствует развитию многих стран, а также предложены решения для ее предотвращения. Кроме того, обсуждаются реформы, проводимые в настоящее время в Республике Узбекистан для борьбы с этой проблемой.

Ключевые слова: теневая экономика, коррупция, кибернетический подход, криминологический подход, теневое распределение, теневой обмен.

This article discusses the reasons behind the emergence of the shadow economy that has been hindering the development of many countries, as well as solutions to counteract it. Additionally, it addresses the reforms currently being implemented in the Republic of Uzbekistan to combat this issue.

Keywords: shadow economy, corruption, cybernetic approach, Criminological approach, informal distribution, informal exchange

Ayni vaqtda butun jahondagi mamlakatlarning ham iqtisodiy, ham ijtimoiy rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan muammolardan biri bu xufyona iqtisodiyotidir. Shuningdek, bu turdagi iqtisodiyot bizning mamlakatimizga ham o‘z ta‘sirini o‘kizmasdan qolmayapti. Shunday bo‘lsayam hozirgi kunda mamlakatimiz rahbari tomonidan bu turdagi iqtisodiy faoliyatga qarshi bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘zining murojaatnomalarida korrupsiya to‘g‘risida shunday deydi: “Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a‘zolari, ta‘bir joiz bo‘lsa, “halollik vaksinasi” bilan emlanmas ekan, o‘z oldimizga qo‘ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz korrupsiyaning oqibatlari bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o‘tishimiz kerak” [1].

Rus iqtisodchi olimlari A.K. Bekryashev va A.K. Belozerovlar tomonidan xufiyona iqtisodiyotni keltirib chiqaruvchi sabablar sifatida quyidagilarni keltirib o‘tadilar:

- bozor to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning to‘liq emasligi;
- bozorning jamiyat manfaati uchun faoliyat yuritmasligi;

- bozorning tashqi salbiy omillarga qarshi samarali tura olmasligi;
- bozorning ijtimoiy tengsizlikka qarshi tura olmasligi;
- qarorlar qabul qilishda bozor to‘g‘risida ob‘ektiv ma‘lumotlarning yetishmasligi;
- siyosiy jarayonlarning mukammal emasligi;
- davlat apparati ustidan nazorat qilish imkoniyatining cheklanganligi [2].

Bundan tashqari rossiyalik tadqiqotchi olim V.A. Timchenko tomonidan xufyona iqtisodiyot borasida olib borilgan ilmiy tadqiqoti davomida xufyona iqtisodiyotning namoyon bo‘lish shakllari, uning sabab va oqibatlarini atroflicha o‘rganib chiqilgan. Jumladan, ekspert tomonidan har qanday iqtisodiyot negizida talab va taklif yotishi ma‘lum qilingan. Demak, iste‘molchilarda ma‘lum bir tovar, ish va xizmatlarga talab bor ekan, tadbirkorlik sub‘yektlari tomonidan ushbu tovar va xizmatlar taklif etiladi. Olim tomonidan xufyona iqtisodiy faoliyatni yuzaga keltiruvchi ob‘ektiv va sub‘ektiv sabablar ko‘rsatib o‘tilgan. Xususan, xufyona iqtisodiy faoliyatni yuzaga keltiruvchi birinchi sabablardan biri sifatida iste‘molchilar talablarining to‘liq qondirilmasligida ko‘riladi. Ya‘ni iste‘molchining tovar va xizmatlarga talabini to‘liq qondirilmasligi birinchidan ushbu tovar va xizmatlarga bo‘lgan talabni oshib borishiga, ushbu tovarlarda defitsitni yuzaga keltirsa, ikkinchi tarafdin mazkur tovar va xizmatlar narxining oshishi bilan birga, tovar va xizmatlarni iste‘molchilarga yetkazib berilishida tanish bilishchiliklarni yuzaga kelishi bu esa o‘z oqibatida korrupsiyani vujudga kelishiga ta‘sir etuvchi omil sifatida qaralgan. Ya‘ni shunday tovar va xizmatlar borki, ularni ishlab chiqarish, tarqatish yoki sotish jamiyatdagi ma‘lum qonunlar bilan cheklab (yoki chegaralab) qo‘yilgan. Jumladan, narkotik moddalar, qurol–yaroqlarning noqonuniy aylanishi, fohishalik kabi holatlar borki, bularga nisbatan davlat tomonidan jinoyat qonunchiligi bo‘yicha aniq jazo choralar belgilab berilgan. Shunga qaramay jamiyatda ushbu tovar va xizmatlarga talab bor ekanligi xufyona iqtisodiy faoliyatni yuzaga keltiradi. Tadqiqot metodologiyasi tadqiqotni amalga oshirish jarayonida xufyona iqtisodiyotning yuzaga kelish sabablari hamda unga ta‘sir etuvchi omillarga nisbatan olimlar hamda ekspertlarning ilmiy qarashlari qiyosiy tahlil qilindi.

Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2022-yilda jami iqtisodiy faol aholi 14,98 million kishini tashkil qilgan, undan jami 13,7 million kishi ish bilan band bo‘lib, ularning 6,5 millioni (47 foiz) rasmiy sektorda band [3]. Iqtisodiy faol aholi bu iqtisodiyotda band bo‘lganlar va ishsizlarni o‘z ichiga oladi. Bunga talabalar, bola parvarishi bilan dekret ta‘tilida o‘tirganlar va o‘z xohishiga ko‘ra ishlamaydiganlar kirmaydi. Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha jami norasmiy sektorda band bo‘lganlarning eng katta ulushi, ya‘ni 34 foizi qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida mehnat qiladi [4].

O‘zbekistonda 2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra mehnat resurslari soni 19 mln. 724 ming 900 kishiga yetdi, bu 2023-yilga nisbatan 207 ming 400 kishiga (1,1 foizga) oshgan. Mamlakatimizda 2023-yil yakuniga ko‘ra ishsizlik darajasi 6,8 foizni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2,1 foizga kamaydi [5].

Mamlakatimizda norasmiylikni aniqlashda mehnat bozorida o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Norasmiy sektor bu iqtisodiyotda soliq solinmaydigan qismi bo‘lib, hukumat tomonidan nazoratga olinmaydi va YaIM hisoblaganda uning qismi hisobga olinmaydi.

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (ITIM) tomonidan o‘tkazilgan hisob-kitoblarga ko‘ra, norasmiy sektorda ishlaydiganlar ulushi mamlakatning iqtisodiy faol aholisining taxminan 45 foizini tashkil etadi [6]. Bu holda, norasmiy sektorning ko‘rsatkichi sifatida, ish bilan ta‘minlangan aholining daromad solig‘i to‘lamagan qismi sifatida, hech qanday yozma shartnomasiz ishlayotganlarning ulushi hisobga olinadi.

Yurtimizda 2023 yilda yashirin iqtisodiyot YaIM darajasiga nisbatan 40-50% atrofida aniqlangan [7]. Xo‘sh, mamlakatimizda bu ko‘rsatkichni kamaytirish maqsadida qanday ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda?

“Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” mamalakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 30-oktyabrda Farmoni qabul qilindi. Unga ko‘ra, mamlakatimizda yashirin iqtisodiyot darajasini pasaytirish, tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun, shu jumladan tartibga solish va ma‘muriy yukni kamaytirish hisobiga teng raqobat sharoitlarini yaratish, soliq qonunchiligi talablariga rioya qilish


tartib-taomillarini avtomatlashtirish va uning tartibini soddalashtirish maqsadida bir qancha vazifalar belgilab olindi [8].

Jahon bankining ekspertlari bilan birga hamkorlikda amalga oshirilayotgan 2 xil turdagi loyihalar [9]:

- 2021-2025 yillarda yashirin iqtisodiyotni qisqartirish bo‘yicha strategiya;
- Yashirin iqtisodiyot ulushini baholash metodikasi (MIMIC modeli asosida)

Vazirlik va idoralar tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar:

- Yashirin iqtisodiyot ulushi yuqori bo‘lgan sohalar tahlili;
- Amaldagi imtiyozlar va preferensiyalarni bekor qilish;
- “Risk analysis” dasturining amaliyotga joriy etilishi;
- Yashirin iqtisodiyotni sanoat bo‘yicha tahlili va boshqalar ham yashirin va xufyona iqtisodiyotni oldini olishga qaratilgan. (1-rasmda berilgan)



1-rasm. Yashirin iqtisodiyot va naqd pul aylanish tezligi [10].

2005-2022 yillarda yashirin iqtisodiyot hajmi 31 foizdan 53 foizgacha yetgan. 2017-yilda mamlakatimizda keng ko‘lamli islohotlar doirasida pul-kredit va valyuta siyosatining erkinlashtirilishi natijasida naqd pul hamda valyuta oldi-sotdisi bilan bog‘liq muammolar bartaraf etildi. Bu o‘z navbatida iqtisodiyotda naqd pul hajmining oshishiga ta‘sir qilib, yashirin iqtisodiyot ko‘lamini rasmiy iqtisodiyotga nisbatan salkam 59 foizgacha oshishiga olib keldi. Lekin, keyingi yillarda muomaladagi bank plastik kartalar, terminallar, bankomatlar va infokiosklar sonining sezilarli darajada ko‘payishi natijasida naqd pulsiz hisob-kitoblarning rivojlanishi, shuningdek, soliq islohotlarining amalga oshirilishi yashirin iqtisodiyot hajmining 2018-yildagi 55 foizdan 2021-yilda 42 foizga pastlashiga xizmat qildi [11].

O‘zLiDeP press klubining 2023-yil 18-avgust kuni navbatdagi sessiyasida yashirin iqtisodiyotni qisqartirish, rasmiy faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash masalasida yig‘ilish bo‘lib o‘tdi, unda Prezident SH.Mirziyoyev tadbirkorlar bilan ochiq muloqotida hozirgi kunda mamlakatda xufyona iqtisodiyotning ulushi 40% atrofida ekanini ma‘lum qildi [12].

Iqtisodchi jinoyatlar, xufyona iqtisodiyot va korrupsiyaga qarshi kurashni kuchaytirish bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida: 4019 ta huquqbuzarlik aniqlanib, 1 886 ta ma‘muriy va 2114 ta jinoyat ishlari qo‘zg‘atildi.

O‘tkazilgan tadbirlar natijasida [13]:

- 557 ta yashirin sex yuritish bilan bog‘liq jinoyat ishlari qo‘zg‘atilib, 4,9 mlrd. so‘mlik noqonuniy ishlab chiqarilgan mahsulot olib qo‘yildi;
- 1884 ta sub‘ektning faoliyatiga qonuniy tus berilib, 2001 ta yangi ish o‘rni yaratildi;
- Poraxo‘rlikka qarshi kurashish borasida 445 ta jinoyatlar aniqlandi;
- 401 mlrd so‘mlik soliq va to‘lovlar qo‘shimcha hisoblanib, 146 mlrd. so‘mi undirildi.

Prezident Sh. Mirziyoyev o‘zining 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga murojaatnomasida “Yangi soliq siyosati doirasida ish haqiga soliq yuki 1,5 barobar kamaytirildi. Buning natijasida

rasmiy sektorda ishlayotganlar soni yil davomida 500 mingtaga ko‘paydi. Qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi 20 foizdan 15 foizga tushirildi. Buning hisobidan o‘tgan yili soliq to‘lovchilar ixtiyorida 2 trillion so‘m qoldi. Bir yilda tadbirkor ixtiyorida shuncha mablag‘ qolishi natijasida ularga o‘z bizneslarini rivojlantirishga imkon beradi. Islohotlarimiz natijasida o‘tgan yili 93 mingta yoki 2018-yilga nisbatan qariyb 2 barobar ko‘p yangi tadbirkorlik sub’ektlari tashkil etildi” [14] deb ta’kidladi.

2024- yil yanvar holatiga ko‘ra O‘zbekistonda yashirin iqtisodiyotdan davlat budgetiga 30 trln so‘m, yalpi ichki mahsulotga 135 trln.so‘m zarar yetkazilgan. Deyarli 11 mingta korxona hisoblarida faqat 1 kishini ishchi sifatida ko‘rsatgan. Ular orasida eng yuqori ko‘rsatkich Toshkent shahrida bo‘lib, jami 2249 ta korxona, keyingi o‘rinda esa, Toshkent viloyati bo‘lib undagi ko‘rsatkich 1087 tani tashkil qiladi. Eng kam ko‘rsatkich esa Navoiy va Sirdaryoda bo‘lib, u yerdagi korxonalar soni 386 va 367 tani tashkil qilmoqda.«Yashirin iqtisodiyot to‘g‘ri ishlayotgan tadbirkorlarga katta to‘siq bo‘lyapti»,- dedi prezident [15].

1-jadval.

“1 nafar ishchi” deb ko‘rsatilgan qurilish korxonalari [16]

1	Toshkent shahar	2249
2	Toshkent viloyati	1087
3	Qashqadaryo	849
4	Samarqand	837
5	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	765
6	Buxoro	757
7	Surxondaryo	737
8	Farg‘ona	701
9	Andijon	688
10	Xorazm	537
11	Namangan	513
12	Jizzah	454
13	Navoiy	386

Soliq tizimida ham bir qancha xuf

yona iqtisodiyot shakllarini kuzatish mumkin. Ulardan biri savdoda xarid cheklarini bermaslik bo‘lib u ham yashirin iqtisodiyot ildiz otishiga olib keladigan sabablardan biridir. Soliq qo‘mitasi tomonidan 2022-yil 1-yanvardan soliq huquqbuzarliklariga qarshi kurashgan iste‘molchilarni mukofotlash tizimi yo‘lga qo‘yildi va bu jamoatchilikda faollik uyg‘otdi. Endi sotuvchi chek bermasa, bank kartasidan pul yechishni rad etsa yoki karta orqali tovarni qimmat sotsa, iste‘molchi soliq organlariga murojaat yo‘llashi va ariza tasdig‘ini topgan taqdirda huquqbuzardan undirilgan jarimaning 20 foizini mukofot sifatida olishi mumkin.Qo‘mita hisob-kitoblariga qaraganda, 2022-yilda “Soliq-hamkor” platformasiga aholidan 142 ming 224 ta murojaat kelib tushdi. Shundan 71 ming 957 tasi tekshirildi, 67ming 885 tasi takroriy bo‘lgani yoki tekshiruv davom etayotganligi sababli qaytarildi. Eng ko‘p qilingan va tekshirilgan murojaatlar (24ming 57ta) Toshkent shahri hissasiga to‘g‘ri keladi. Yuqoridagi murojaatlardan qariyb 132ming 818 tasi chek bermaslik masalasi bilan bog‘liq. [17] Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, yashirin iqtisodiyot rivojlanishi ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘lib, ularning asosiylari davlatning o‘z funksiyalarini to‘la bajarmasligi, qonunlar ustidan nazoratning yetarli emasligi va soliq va boshqa to‘lovlarning yuqoriligi bilan izohlanadi. Ushbu holatlar tadbirkorlarni norasmiy faoliyatga o‘tkazishga undaydi, natijada iqtisodiyotning yashirin qismi o‘sib bormoqda. Mamlakat Prezidentining va hukumatning chiqarayotgan farmon va qarorlari ushbu muammolarni hal etishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, davlat xodimlarining faoliyatini ochiqalashtirish uchun tashkil etilgan "virtual qabullar" tizimi, xalq manfaatlariga xizmat qilishni ta‘minlashga qaratilgan. Bu esa davlat organlarining asosiy siyosiy maqsadlaridan biridir. Norasmiy iqtisodiyotning paydo bo‘lishiga soliq yukining yuqoriligi, tadbirkorlar uchun murakkab sharoitlar yaratadi. Mamlakat Prezidenti tomonidan amalga oshirilgan soliqlarni 16 tadan 9 taga kamaytirish qarori, rasmiy ro‘yxatdan o‘tgan tadbirkorlar sonining ortishiga olib keldi. Bu ijobiy o‘zgarish iqtisodiy rivojlanishga, ya’ni yalpi ichki mahsulotda ulushning oshishiga xizmat qiladi. Mamlakat prezidenti va hukumat tomonidan chiqarilgan Farmon va Qarorlar

yuqori ahamiyat kasb etayotgani kuzatilmoqda. Muammolarni bartaraf etishda, hayotiy faoliyat jarayonlarida raqamli iqtisodiyotni keng joriy etish orqali yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirishga erishish mumkin. Raqamli transformatsiya iqtisodiy o‘shirishni rag‘batlantiradi va samarali natijalarga erishishga yordam beradi. Umuman olganda, yashirin iqtisodiyotga qarshi kurash va uning o‘shirishini to‘xtatish uchun davlat va jamiyat tomonidan hamkorlik harakatlari muhim ahamiyatga ega. Bu borada amalga oshiriladigan chora-tadbirlar aholi farovonligini oshirishga va rasmiy iqtisodiyotning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ш. Мирзиёевнинг Олий Мажлисига мурожаатномаси. 2020 йил 24 январь.
2. Abulqosimov H.P., Muminov N.G. Xufyona iqtisodiyot: o‘quv qo‘llanma. H.P. Abulqosimov, N.G. Muminov – T.: Yangi nashr, 2020. – B.11
3. <http://iqtisodiyot.tsue.uz>
4. <https://kun.uz/news/2023/04/11/norasmey-sektorda-band-bolganlar-hisobiga-davlat-budjetiga-329-trln-som-tushmagan>
5. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/01/17/shadow-economy/>
6. <https://president.uz/uz/list/view/3927>
7. <https://review.uz/ru/y6u>
8. O‘zbekistonda yashirin iqtisodiyotning darajasi qanday? - Review.uz
9. soliq.uz/storage/files/January2022/e4e480827e443963017e4cf214610016.pdf
10. O‘zbekistonda yashirin iqtisodiyot ko‘lami: baholash natijalari va uni qisqartirish bo‘yicha takliflar | Институт макроэкономических и региональных исследований (imrs.uz)

УДК:338.45

**ИШЛАБ ЧИҚАРИШ КОРХОНАЛАРИ БОШҚАРУВИНИНГ ТАШКИЛИЙ
ХУСУСИЯТЛАРИ**

**ОСОБЕННОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ УПРАВЛЕНИЯ ПРОИЗВОДСТВЕННЫМИ
ПРЕДПРИЯТИЯМИ**

**FEATURES OF THE MANAGEMENT ORGANIZATION OF PRODUCTION
ENTERPRISES**

Хасанова Ситора Исламовна

Бухоро давлат унверситети Мустақил тадқиқотчиси

Аннотация

Мақолада ишлаб чиқариш корхоналари бошқарувини ташкил этиш хусусиятлари ва унинг моҳиятини тушунтириш борасидаги иқтисодчи олимларнинг илмий қарашлари тизимли таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: бошқарув, менежмент, корхона бошқаруви, ишлаб чиқариш, ишлаб чиқариш омиллари, бошқарув самарадорлиги, корхона бошқарувининг иқтисодий механизми.

В статье анализируются научные взгляды экономистов на особенности организации управления производственными предприятиями и объяснение его сущности.

Ключевые слова: управления, менеджмент, управление предприятием, производство, факторы производства, эффективность управления, экономический механизм управления предприятием.

The article systematically analyzes the scientific views of economists on the characteristics of the organization of the management of production enterprises and the explanation of its essence.

Keywords: administration, management, enterprise management, production, factors of production, management efficiency, economic mechanism of enterprise management

Янги Ўзбекистон шароитида ишлаб чиқариш корхоналари бошқарувининг иқтисодий механизмини такомиллаштириш асосида уларнинг ички инвестицион имкониятларини кенгайтириш, маҳсулот ишлаб чиқаришнинг миқдор ва сифат кўрсаткичларини яхшилашга қаратилган ислохотларга устуворлик қаратилиб келинмоқда. Сўнгги йилларда “мамлакатда саноат маҳсулотларини ишлаб чиқариш ҳажмини ошириш, ишлаб чиқарилаётган саноат маҳсулотлари турларини кенгайтириш орқали аҳолининг истеъмол товарларига бўлган эҳтиёжини самарали қондириш” [1] га қаратилган чора-тадбирларнинг мунтазам амалга оширилиши ишлаб чиқариш корхоналари бошқарувининг иқтисодий механизмини такомиллаштириш заруриятини уйғотмоқда.

Ишлаб чиқариш корхоналари бошқарувини ташкил этиш, унинг амал қилиш хусусиятлари, тамойиллари узоқ хорижлик Р.С. Бҳақуни, К. Брюс, А. Даниел каби олимлар томонидан тадқиқ этилган бўлса, МДҲ мамлакатлари иқтисодчи олимларидан Е.С. Гусар, С.А. Бородулина, Э.М. Коротков кабилар ушбу йўналишдаги илмий тадқиқотларни олиб боришган.

Маҳаллий иқтисодчи олимлардан сўнгги йилларда Р.С. Муратов, И.О. Улашев, Р.Р. Абдураууповлар корхоналар бошқарувини такомиллаштириш борасида илмий изланишлар амалга оширишган. Муаммонинг долзарблиги, иқтисодий адабиётда етарлича ўрганилмаганлиги, қутилаётган илмий натижаларни илмий-амалий аҳамиятга эгаллиги ушбу мавзунини тадқиқот объекти сифатида танлашга асос бўлди.

Тадқиқот жараёнида тизимли таҳлил, тарихийлик ва мантиқийлик, индукция ва дедукция, анализ ва синтез, қиёсий ва селектив танлаб тадқиқ қилиш, монографик таҳлил ва гуруҳлаш каби усуллардан фойдаланилди.

XX асрнинг биринчи ярмида ишлаб чиқариш корхоналари бошқарувига оид илмий қарашларнинг ривожланишида А. Файол, Г. Форд ва Дж.Э. Мэйо кабиларнинг қарашлари муҳим ўрин тутди. Жумладан, бугунги кунда А. Файол иқтисодчи олимлар томонидан “Классик менежмент” илмий мактаби асосчиси сифатида баҳоланади. Олим “корхона ўз олдига қўйган ҳар қандай мақсадига эришиши учун ишлаб чиқариш жараёнларини бошқариши керак бўлади” [2], деган ғояни илгари суради. А. Файол ишлаб чиқариш корхоналари бошқарувида қуйидагиларга устуворлик қаратилиши кераклигини таъкидлайди:

- корхонанинг бошқарув тамойиллари ва функциялари унинг манфаатларидан келиб чиққан ҳолда белгиланиши;

- ишлаб чиқариш корхоналари бошқарувига тегишли бўлган функцияларни турли даражалардаги менежерлар ўртасида тақсимлаш орқали маҳсулот ишлаб чиқаришни ташкил этиш, назорат қилиш ва фаол бўлган ишчиларни рағбатлантириш;

- ҳар қандай ишлаб чиқариш корхоналари бошқарувига жараёнли ёндашувни шакллантириш;

- ишлаб чиқариш корхоналари фаолиятини бошқариш жараёнида бошқарувчи эгалик қиладиган куч (power) ва унинг функционал жиҳатдан масъулиятининг мавжудлиги;

- корхона ишчиларига иш ҳақини адолатлилиқ тамойили асосида белгилаш ва тўлаш. [3]

АҚШ автомобилсозлик корхонаси асосчиси, 161 та патент муаллифи ҳисобланган Г. Форд менежмент фани ривожига ишлаб чиқариш корхоналари фаолиятини бошқаришда “конвейер ишлаб чиқариши” усулини жорий этган ҳисобланиб, мазкур усул қуйидаги таркибий компонентлардан ташкил топади:

- корхонада маҳсулот ишлаб чиқаришни оммавий усулда ташкил этиш;

- корхонада маҳсулот ишлаб чиқариш жараёнларини автоматлаштириш;

- корхонада маҳсулот ишлаб чиқаришнинг ички занжирли тузилишини шакллантириш.

[4]

Шунингдек, Дж.Э. Мэйо менежмент соҳасида бошқарув жараёнларига психологик ёндашувга асосланган ўз илмий қарашларини корхона ишчилари ва менежерлари ўртасидаги

ўзаро муносабатлар орқали исботлаган ҳолда, “яхши лидер ўзига бўйсунувчиларга эга бўлмайди инсонлар бошқарув жараёнининг асосий объекти ҳисобланади” [5] деган ғояни илгари сурган ҳолда, менежмент соҳасида “Инсон иқтисодиёти” концепциясини ишлаб чиқади. Олим ишлаб чиқариш корхоналари бошқарувида қуйидагиларга устуворлик қаратиш мақсадга мувофиқ, деб ҳисоблайди:

- ишлаб чиқариш корхонаси раҳбарлари, жумладан, турли бўғинлардаги менежерларининг ўз қўл остида ишлаётган ходимлари олдидаги ижтимоий мажбуриятларининг ўрнатилганлиги ва уни бажариши;

- менежерларнинг ўз қўл остида ишлаётган ходимлар билан суҳбатлашиши, уларга маслаҳатлар бериши;

- корхонада меҳнат муносабатларини такомиллаштиришни бошқарув бўғинида амалга оширилиши;

- корхонанинг ўз олдида қўйган мақсадларига эришишида ишчиларнинг қўшган ҳиссасидан келиб чиқиб, уларни адолатли рағбатлантириш;

- корхонанинг раҳбарлари, унинг турли бўғинларидаги менежерлари билан ишчиларнинг умумий бўлган мақсадларини шакллантириш. [6]

Юқорида келтириб ўтилган олимларнинг илмий қарашлари менежмент соҳасида нафақат ишлаб чиқариш балки турли корхоналар бошқарувини ташкил этишнинг илмий-концептуал асосларини шаклланиши ва ривожланишига хизмат кўрсатган. Ушбу олимлар менежмент соҳасида корхоналар бошқаруви концепциясининг фундаментал асосларини яратган ҳисобланишади. Таҳлилларга кўра, ишлаб чиқариш корхоналари фаолияти ривожланишининг дастлабки босқичларида инсон омилининг ишлаб чиқариш жараёнидаги иштироки юқори бўлганлиги сабабли, қатъий чоралар кўриш орқали ишчиларни маҳсулот ишлаб чиқариш жараёнидаги фаол иштирокини таъминлаш ҳисобига маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажмини оширишга устуворлик қаратилган. Корхоналарда маҳсулот ишлаб чиқариш жараёнларининг техник-технологик жиҳатдан такомиллашиб бориши натижасида ишчиларни рағбатлантириш, уларга муносиб иш ҳақи тўлаш ва инсон сифатида уларнинг ҳақ-ҳуқуқларини ҳимоя қилиш билан биргаликда, меҳнат шарт-шароитларини яхшилаш орқали маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажмини оширишга устуворлик қаратилганлиги аниқланди.

Ишлаб чиқариш корхоналари фаолиятини бошқаришнинг инновацион ёндашувга асосланган концепциялари шаклланишида Й. Шумпетер, Ф. Никсон, Б. Твисс, Б. Санто, Э. Дандон каби узоқ хорижлик иқтисодчи олимлар катта ҳисса қўшишган ҳисобланади. Корхоналар бошқарувининг инновацион йўналишига мансуб бўлган илмий қарашлар XX асрнинг 80 йилларидан бошлаб иқтисодий фанда кенг тараққала бошлаган. Ишлаб чиқариш корхоналари бошқарувини ташкил этишнинг инновацион концепцияси янги турдаги техника ва технологиялардан, жумладан, илм-фан ютуқларидан маҳсулот ишлаб чиқариш жараёнларида фойдаланиш асосида юқори иқтисодий самарадорликка эришиш имкониятини кенгайтириши билан аҳамиятли ҳисобланади.

Шу билан биргаликда, иқтисодий адабиётда ишлаб чиқариш корхоналари бошқаруви жараёнларини тадқиқ этиш асосида кўплаб иқтисодчи олимлар ушбу атаманинг моҳиятини очиб бериш мақсадида, унга турлича муаллифлик таърифларини ишлаб чиқишган. Узоқ хорижлик М.Т. Свиней, С. Зопфф, Т. Небл, А.К. Шроедер каби иқтисодчи олимлар томонидан саноат жиҳатдан тараққий этган мамлакатлар амалиётида ишлаб чиқариш корхоналари фаолиятини бошқариш жараёнларига ишлаб чиқилган муаллифлик тарифларида умумий бўлган ёндашув шаклланганлиги аниқланиб, унга кўра, бошқарув жараёни корхонанинг стратегик мақсадларига эришиш бўйича амалга ошириладиган фаолият йўналишини ўзида акс эттириши таъкидланган. Шу билан биргаликда, Яқин хорижлик иқтисодчи олимлар илмий изланишларида ҳам ишлаб чиқариш корхоналарини бошқариш иқтисодий категориясига турли муаллифлик ёндашувлари ишлаб чиқилган ҳисобланади. Жумладан, И.П. Николаева фикрича, “ишлаб чиқариш корхонаси бошқаруви иерархик тузилишга эга бўлган касбий фаолият тури ҳисобланиб, корхонанинг устувор мақсад ва вазифаларига эришишга қаратилган корхона фаолиятини ташкил этишни англатади” [7]. Шунга ўхшаш илмий қараш

Е.А. Гречишкина тадқиқотида ҳам ўз аксини топган бўлиб, унга кўра: “бозор иқтисодиёти шароитида ишлаб чиқариш корхонаси фаолиятини бошқариш стратегик мақсадга эришишни таъминлашга қаратилган фаолият ҳисобланади” [8]. Шунингдек, Э.М. Коротков, С.Г. Фалко, В.А. Агафонов, Е.С. Гусар каби яқин хорижлик иқтисодчи олимлар томонидан корхона бошқаруви иқтисодий моҳиятини тушунтиришга қаратилган муаллифлик таърифларида юқоридаги тарифлар билан ўзаро мазмунан ўхшаш бўлган ёндашувлар шаклланганлиги аниқланди. Иқтисодий адабиётда шаклланган ишлаб чиқариш корхоналари бошқарувининг илмий-концептуал асослари, жумладан, иқтисодчи олимлар томонидан ушбу иқтисодий категориянинг моҳиятини тушунтириш мақсадида ишлаб чиқилган муаллифлик тарифларини тизимли таҳлил қилиш асосида, ҳар қандай корхона бошқаруви амалиёти тизим сифатида намоён бўлиши аниқланди. Ушбу тизим амал қилиши қуйидаги йўналишларда бўлади:

- бозордаги корхона рақобатчилари ва ишлаб чиқарилаётган маҳсулот истеъмолчиларининг ҳатти-ҳаракати, жумладан, истеъмолчиларнинг мавжуд эҳтиёжлари билан уларнинг потенциал талаби ҳажмини таҳлил қилиш орқали қандай турдаги маҳсулот ишлаб чиқариш, ҳамда маҳсулот ишлаб чиқариш занжирининг айнан қайси босқичдаги истеъмол қийматини яратишни аниқлаш;

- корхонанинг мавжуд маҳсулот ишлаб чиқариш салоҳияти билан реал вазият ўртасидаги нисбатларни чуқур таҳлил қилиш асосида маҳсулот ишлаб чиқариш жараёнида йўл қўйилаётган хато ва камчиликлар ҳисобига кўрилаётган зарарни бартараф этиш орқали юқори рентабеллик даражасига эришиш

- маҳсулот ишлаб чиқариш жараёнларини техник-технологик жиҳатдан қуроллантириш, жумладан, инновацион технологиялардан фаол фойдаланиш ҳисобига ишлаб чиқарилаётган маҳсулотнинг сифат кўрсаткичларини такомиллаштириш;

- корхонанинг маҳсулот ишлаб чиқариш харажатларини оптималлаштириш, горизонтал ёки вертикал диверсификация ҳисобига юқори иқтисодий самарадорликка эришиш;

- корхонада маҳсулот ишлаб чиқариш воситалари, асбоб-ускуналари, машина ва техникаларини модернизациялаш орқали юқори рақобатбардошликка эришиш.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Давлат ва хўжалик бошқаруви ҳамда маҳаллий ижроия ҳокимияти органларининг ишлаб чиқаришни маҳаллийлаштириш ва саноат тармоқларида кооперация алоқаларини жадаллаштиришнинг янги тизимини жорий этиш бўйича масъулиятни янада ошириш тўғрисида”ги ПҚ-4426-сон қарори, 24.08.2019 й. <https://lex.uz/ru/docs/4486600>
2. Uzuegbu Ch. Henry Fayol’s 14 Principles of Management: Implications for Libraries and Information Centres. Journal of Information Science Theory and Practice. 3 (2), June, 2015. – pp. 58-72
3. Daniel A. Wren, Arthur G. Bedeian, John D. Breeze. The Foundations of Henry Fayol’s administrative theory. Management Decision 40/9. 2002. – pp. 906-918
4. Сушко А.В. Полицинская Е.В. Управление и организация производством на предприятии: Теоретический аспект: Учебное пособие. / А.В. Сушко, Е.В. Полицинская. – ЮТИ ТПУ, 2015. – 139 с.
5. Bruce K. Nyland Ch. Elton Mayo and the Deification of Human Relations. Organization Studies 32 (3), March, 2011. – pp. 383-405
6. Bhakuni R.S. Elton Mayo’s Theory of Human Relation. International Journal of Research in Commerce, IT, Engineering and Social Sciences (IJRCIESS). Vol. 4, No 7, July, 2010. – pp. 9-14
7. Николаева И.П. Экономическая теория: Учебник. – М.: Проспект, 1998. – с. 65.
8. Гречишкина Е.А., Онищук А.В. Теоретические основы менеджмента. Пинск: ПолесГУ – 2022. – 305 с.

**ИННОВАЦИОН ЙЎНАЛИШДАГИ КОРХОНА БОШҚАРУВ СТРАТЕГИЯСИ ВА УНИ
АМАЛГА ОШИРИШ МЕХАНИЗМИ**

**СТРАТЕГИЯ УПРАВЛЕНИЯ БИЗНЕСОМ В ИННОВАЦИОННОМ НАПРАВЛЕНИИ
И МЕХАНИЗМ ЕЕ РЕАЛИЗАЦИИ**

**BUSINESS MANAGEMENT STRATEGY IN THE DIRECTION OF INNOVATION AND
ITS IMPLEMENTATION MECHANISM**

Сотволдиев Алишер Дилшод ўғли
ЎзМУ, “Молия ва кредит” кафедраси ўқитувчиси

Аннотация

Мақолада инновацион йўналишдаги корхона бошқарув стратегиясини моҳияти ва аҳамияти ёритилган. Шунингдек, корхонанинг инновацион йўналишдаги бошқарув стратегиясининг даврий таркибий тузилиши таҳлил қилинган ҳамда инновацион йўналишдаги корхона бошқаруви стратегиясида маркетинг дастурининг таркибий тузилиши тавсифланган.

Калит сўзлар: инновация, корхона, корхона бошқаруви, корхона стратегияси, маркетинг

В статье раскрыта сущность и значение стратегии управления предприятием в инновационном направлении. Также проанализирована структура стратегии управления предприятием в инновационном направлении и описана структура маркетинговой программы в стратегии управления предприятием в инновационном направлении.

Ключевые слова: инновации, предприятие, управление предприятием, стратегия предприятия, маркетинг.

The article describes the essence and importance of the enterprise management strategy in the innovative direction. Also, the periodic structural structure of the management strategy of the enterprise in the innovative direction is analyzed, and the structural structure of the marketing program in the management strategy of the enterprise in the innovative direction is described.

Key words: innovation, enterprise, enterprise management, enterprise strategy, marketing

Жаҳон амалиёти таҳлили кўрсатишича, тараққий этган мамлакатларда ЯИМнинг 50 фоизидан ортиқ қисми инновациялар ҳисобига тўғри келган бир пайтда [1], мамлакатимиз иқтисодиётининг реал сектори корхоналарнинг илм-фанга эътибори сезиларли даражада катта эмас. Шунингдек, мамлакатимиз олимларининг технологик ишланмалари ва илмий тадқиқотлари натижаларини амалиётга татбиқ этишга миллий иқтисодиёт тармоқларининг қизиқишининг пастлиги муаммоси ҳам мавжуд. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёев таъкидлаб ўтганларидек, “иқтисодиёт ва ижтимоий соҳа тармоқларининг илмий муассасалар билан ўзаро ҳамкорлиги даражаси пастлиги, вазирлик ва идоралар, шунингдек, маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг инновацион ривожланиш соҳасидаги фаолияти лозим даражада мувофиқлаштирилмаётгани бу борадаги биринчи навбатдаги мақсадлар ва вазифаларга эришиш имконини бермаяпти” [2].

Хусусан, Ўзбекистон Республикасининг инновацион ривожланиш стратегияси доирасида қуйидаги устувор вазифалар белгилаб ўтилган: [3]

- Ўзбекистон Республикасининг 2030 йилга келиб Глобал инновацион индекс рейтинги бўйича жаҳоннинг 50 илғор мамлакати қаторига киришига эришиш;

- барча даражада таълим сифати ва қамровини ошириш, узлуксиз таълим тизимини ривожлантириш, кадрлар тайёрлаш тизимининг иқтисодиёт эҳтиёжларига мослашувчанлигини таъминлаш;

- илмий тадқиқотлар ва ишланмаларнинг илмий салоҳиятини мустаҳкамлаш ва самарадорлигини ошириш, илмий-тадқиқот, тажриба-конструкторлик ва технологик ишлар натижаларини кенг жорий этиш учун таълим, илм-фан ва тадбиркорликни интеграция қилишнинг таъсирчан механизмларини яратиш;


- инновациялар, илмий-тадқиқот, тажриба-конструкторлик ва технологик ишларга давлат ва хусусий маблағлар киритилишини кучайтириш, бу соҳалардаги тадбирларни молиялаштиришнинг замонавий ва самарали шакллари жорий этиш;

- бошқарувнинг замонавий усуллари ва воситаларини жорий этиш орқали давлат ҳокимияти органлари фаолиятининг самарадорлигини ошириш;

- мулкчилик ҳуқуқлари ҳимоясини таъминлаш, рақобатбардош бозорлар ташкил этиш ва бизнес юритиш учун тенг шарт-шароитлар яратиш, давлат-хусусий шериклигини ривожлантириш;


- барқарор фаолият юритадиган ижтимоий-иқтисодий инфратузилмани яратиш.

Мазкур вазиятни инобатга олган ҳолда, миллий иқтисодиёт тармоқларида ҳўжалик фаолияти юритаётган корхоналарнинг инновацион бошқарувини такомиллаштириш, жумладан, инновацион фаолият самарадорлигини оширишда уларнинг “Инновацион ривожланиш стратегияси”ни ишлаб чиқиш ва уни корхоналар фаолиятини ташкил этишда амалиётга татбиқ этиш муҳим аҳамият касб этади.



1-расм. Корхонанинг инновацион йўналишдаги бошқарув стратегиясининг даврий таркибий тузилиши

Фикримизча, мамлакатимиз иқтисодиётини ривожланишининг ҳозирги босқичида саноат корхоналарининг инновацион ривожланиш стратегиясининг даврий таркибий тузилиши 1-расмда келтирилган тартибда бўлиши лозим деб ҳисоблаймиз. Бунда аввало корхона ривожланиш стратегиясининг мақсад ва вазифаларини аниқлаш лозим бўлади. Корхонанинг инновацион ривожланиш стратегиясининг мақсади корхона инновацион фаолиятининг йўналишидан келиб чиққан ҳолда белгиланиб, белгиланган мақсадга мос равишда корхона бошқарувининг функционал жиҳатларида унинг вазифалари ўз аксини топади.



2-расм. Инновацион йўналишдаги корхона бошқаруви стратегиясида маркетинг дастурининг таркибий тузилиши

Кейинги босқичда корхонада инновацион маркетинг таҳлили амалга оширилади. Инновацион маркетинг таркибий жиҳатдан маркетинг тадқиқотлари, бенчмаркинг, корхонанинг рақобатбардошлиги кўрсаткичлари таҳлили, корхонанинг бизнес фаолияти таҳлилини амалга ошириш ва мавжуд муаммоларни аниқлаш ҳамда уларни ҳал этишга қаратилган қарорлар лойиҳасини ишлаб чиқишни ўз ичига олади (2-расм). Таклиф этилаётган бу турдаги маркетинг дастурининг таркибий тузилиши корхона инновацион ривожланиш стратегияси ва унинг инновацион бошқаруви самарадорлигини оширишга хизмат қилади.

Таклиф этилаётган корхонанинг инновацион ривожланиш стратегиясини корхона бошқарувида татбиқ этишнинг кейинги босқичида инновацион лойиҳалар ишлаб чиқилади. Инновацион лойиҳани ишлаб чиқиш жараёнида тизимли таҳлил, инновацияларни излаш ва инновацион лойиҳаларни амалга оширишнинг турли вариантларини ишлаб чиқиш лозим бўлади (3-расм). Шу ўринда таъкидлаш жоизки, ушбу босқичда инновацион лойиҳани ишлаб чиқиш комплекс ва тизимли таҳлилларга асосланган ҳолда, инновацион лойиҳалар ва уларнинг муқобил вариантлари бўйича илмий асосланган прогноз кўрсаткичларга эга бўлиши лозим бўлади.

Тизимли таҳлилни амалга ошириш	Инновацияларни излаш	Инновацион лойиҳани амалга оширишнинг муқобил вариантлари
• ички ва ташқи омиллар таҳлили • инновацион ривожланиш имкониятларини аниқлаш • инновацион салоҳиятни баҳолаш	• инновацияларга оид ахборотларни излаш • инновацион маҳсулотга бўлган талаб ва таклифни баҳолаш • инновацион маҳсулотнинг муқобил вариантларини аниқлаш	• инновацион лойиҳа бўйича прогноз кўрсаткичларни ишлаб чиқиш • инновацион лойиҳанинг ресурс таъминотини баҳолаш • инновацион лойиҳанинг самарадорлик кўрсаткичларини ишлаб чиқиш

3-расм. Саноат корхонаси бошқарувида инновацион лойиҳаларни ишлаб чиқиш босқичлари

Корхонанинг инновацион ривожланиш стратегиясининг кейинги даврий таркибий қисми бу инновацион лойиҳани амалга ошириш босқичи ҳисобланади. Бунда қуйидагиларга эътиборни қаратиш лозим бўлади:

- инновацион лойиҳанинг ресурс таъминотини баҳолаш;
- инновацион лойиҳани амалга ошириш бўйича функционал вазифаларни корхона персонали ўртасида тақсимлаш;
- инновацион лойиҳани амалга оширилиши жараёнида унинг прогноз кўрсаткичлари билан амалдаги ҳолатини қиёсий таққослаш бўйича мониторинг ўтказиш;
- инновацион лойиҳада белгиланган вазифаларни амалга ошириш муддатларини қатъий назорат қилиб бориш;
- инновацион лойиҳани амалга ошириш жараёнининг миқдор ва сифат кўрсаткичларини таҳлил қилиб бориш;
- инновацион лойиҳани амалга ошириш жараёнида вужудга келган турли муаммоларни оператив ҳал этиш ва амалга оширилган чора-тадбирлар юзасидан инновацион лойиҳага тегишли ўзгартиришлар киритиш;
- инновацион лойиҳани амалга ошириш жараёнларининг тўлиқ якунланганлиги юзасидан тегишли хулосаларни шакллантириш.

Корхонанинг инновацион ривожланиш стратегиясининг сўнгги даврий таркибий қисми бу инновацион лойиҳа натижаларини баҳолаш бўлиб, бунда қуйидагиларни амалга ошириш зарур:

- инновацион лойиҳани ишлаб чиқиш жараёнидаги прогноз кўрсаткичлар билан уни амалга оширишда эришилган натижаларни қиёсий таққослаш;
- инновацион лойиҳани ишлаб чиқиш ва уни амалга оширишда йўл қўйилган камчиликлар ва эришилган ютуқларни аниқлаш;
- корхонанинг инновацион фаолиятини ривожлантиришнинг устувор йўналишлари бўйича тегишли таклиф ва тавсияларни ишлаб чиқиш;
- корхонанинг инновацион ривожланиш стратегиясида йўл қўйилган хатоликларга тузатишлар киритиш;
- корхонанинг инновацион фаолиятида бевосита иштирок этувчи персонали ва уларнинг салоҳиятини баҳолаш;
- корхонанинг инновацион бошқарувидаги мавжуд муаммоларни аниқлаш ва уларни бартараф этиш;
- қабул қилинган қарорларнинг самарадорлиги юзасидан эксперт баҳолашни амалга ошириш;
- корхонада янги инновацион маркетинг таҳлили ва тадқиқотларини амалга оширишнинг устувор йўналишларини белгилаб бериш.

Таклиф этилаётган корхонанинг инновацион ривожланиш стратегиясининг даврий таркибий тузилиши узоқ муддатли истикболда корхонанинг барқарор инновацион ривожланишини таъминлайди. Шу билан бир қаторда, саноат корхоналари инновацион бошқарувининг узлуксиз равишда такомиллашиб бориши учун замин яратади.

Шу ўринда, саноат корхоналарининг инновацион бошқаруви самарадорлигини оширишда давлат томонидан ҳам тегишли шарт-шароитларни яратиш лозим бўлади. Ҳозирда мамлакатимизда саноат корхоналарининг инновацион бошқарувини ривожлантириш, жумладан, мамлакатимиз иқтисодиётини инновацион ривожлантириш йўлига ўтказишда қатор муаммолар мавжуд: [4]

- аҳолининг олий таълим билан қамраб олинганлик даражаси паст;
- олий таълим муассасалари ўқув режалари ва дастурларини, талабаларни қабул қилиш квотаси миқдорини белгилашда, молиявий маблағларни тақсимлашда мустақил эмас;
- илмий ва инновацион фаолиятни ривожлантириш учун масъул вазирлик ва идоралар ўртасидаги ўзаро ҳамкорлик лозим даражада эмас, илмий-тадқиқот муассасалар ва лабораториялар фаолияти лозим даражада мувофиқлаштирилмаган;
- илмий фаолият натижаларини тижоратлаштириш даражаси паст;
- инновацион менежмент соҳасида технологиялар трансферини фаол илгари суриш ва амалга оширишга қодир юқори малакали мутахассислар мавжуд эмас;

- илмий-тадқиқот ва тажриба-конструкторлик ишларига ажратилаётган бюджет маблағлари етарли эмас;

- илмий ва инновацион фаолиятни давлат томонидан молиялаштириш самарали ва шаффоф эмас, бюджетдан ташқари ва хусусий жамғармалар маблағларини жалб этишни рағбатлантириш механизмлари мавжуд эмас, қарзни молиялаштиришнинг ички манбалари етарли даражада ривожланмаган;

- интеллектуал фаолият натижаларини ҳимоя қилиш лозим даражада эмас, ушбу соҳада, айниқса давлат органлари ва ташкилотларида малакали мутахассислар мавжуд эмас;

- қайта тикланувчи ва муқобил энергия манбалари, иккиламчи ресурсларни энергетик утилизация қилиш соҳаларида инновацион технологияларни жорий этиш даражаси паст;

- мамлакатда, айниқса давлат компанияларида корпоратив муносабатлар ва корпоратив бошқарув принциплари ривожланмаган, бунда хориждаги энг намунали амалиёт инобатга олинмаяпти;

- мамлакатнинг ялпи ички маҳсулоти ҳажмида ахборот-коммуникация технологиялари секторининг улуши кам.

Юқоридаги муаммоли вазиятларни инобатга олган ҳолда кейинги йилларда мамлакатимиз иқтисодиётини инновацион ривожланиш йўлига ўтказиш, хусусан, саноат корхоналари инновацион бошқаруви самарадорлигини оширишда қуйидаги чора-тадбирларга устуворлик қаратиш мақсадга мувофиқ:

- илм-фан, ихтирочилик, ва технологиялар трансфертини ривожлантириш;

- мамлакатимизда инновацион фаолиятни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш, жумладан, субсидия ва дотациялар, имтиёзли кредитлар, солиқ имтиёзлари ажратиш механизмини такомиллаштириш;

- инновацион фаолиятни ахборот таъминотини такомиллаштириш, хусусан, инфратузилма ва ахборот коммуникация технологияларини ривожлантириш;

- мамлакат миллий инсон капиталини инвестициялаш самарадорлигини ошириш, жумладан, таълим тизимининг миқдор ва сифати кўрсаткичларини такомиллаштириш;

- маъмурий тўсиқларни камайтириш, соф рақобат муҳитини ривожлантириш ва корхоналарнинг фаолиятига давлат аралашувини камайтириш.

Фикримизча, юқорида билдирилган фикрларни инобатга олган ҳолда кейинги йилларда иқтисодий ислохотларнинг амалга оширилиши мамлакатимиз иқтисодиётининг инновацион ривожланиши йўлига ўтиши билан бир қаторда, саноат корхоналарининг инновацион бошқаруви тизимини янада ривожлантириш ва уларнинг самарадорлигини оширишга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Global Innovation Index 2021: Tracking Innovation through the Covid-19 Crisis / World Intellectual Property Organization, 2021. – p. 226. https://www.wipo.int/edocs/pubdocs/en/wipo_pub_gii_2021.pdf
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2019-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини инновацион ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5544-сонли Фармони, 21.09.2018 й. <https://lex.uz/docs/3913188>

**MARKETING TADQIQOTINING ASOSIY XUSUSIYATLARI VA BANK KREDIT
BOZORI SEGMENTATSIYASI**

**ОСНОВНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ МАРКЕТИНГОВОГО ИССЛЕДОВАНИЯ И
СЕКМЕНТАЦИИ РЫНКА БАНКОВСКОГО КРЕДИТОВАНИЯ**

**BASIC CHARACTERISTICS OF MARKETING RESEARCH AND BANK LOAN
MARKET SEGMENTATION**

Razzoqov Nozim Abdiroziqovich

Buxoro davlat universiteti buxgalteriya hisobi
va statistika kafedrası mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada marketing tadqiqotlarining asosiy xususiyatlari va bank kredit bozorining segmentatsiyasi o‘rganiladi. Marketing tadqiqoti orqali bank xizmatlari bozorida mijozlar ehtiyojlari va xulq-atvori tahlil qilinadi. Bozor segmentatsiyasi yordamida kredit mahsulotlarini maqsadli auditoriya talablari asosida taklif qilish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Maqolada, shuningdek, marketing tadqiqotlari natijasida to‘plangan ma‘lumotlarga asosanib, bozorni segmentlarga ajratish va har bir segment uchun individual yondashuvni ishlab chiqish muhimligi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: marketing tadqiqoti, bank kredit bozori, segmentatsiya, maqsadli auditoriya, kredit mahsulotlari, mijozlar xulq-atvori, bozor tahlili, strategik marketing, talab prognozi, raqobatbardoshlik.

В данной статье рассматриваются основные характеристики маркетинговых исследований и сегментации рынка банковских кредитов. С помощью маркетинговых исследований анализируются потребности клиентов и их поведение на рынке банковских услуг. Сегментация рынка позволяет предлагать кредитные продукты в соответствии с требованиями целевой аудитории. Также подчеркивается важность разработки индивидуальных подходов для каждого сегмента на основе данных, полученных в ходе маркетинговых исследований.

Ключевые слова: маркетинговые исследования, рынок банковских кредитов, сегментация, целевая аудитория, кредитные продукты, поведение клиентов, анализ рынка, стратегический маркетинг, прогноз спроса, конкурентоспособность.

This article examines the key characteristics of marketing research and the segmentation of the bank credit market. Marketing research is used to analyze customer needs and behavior in the banking services market. Market segmentation allows for tailoring credit products according to the requirements of the target audience. The importance of developing individual approaches for each segment, based on data collected through marketing research, is also highlighted in the article.

Keywords: marketing research, bank credit market, segmentation, target audience, credit products, customer behavior, market analysis, strategic marketing, demand forecasting, competitiveness.

Bugungi kunda, bank tizimini isloh qilish, banklarning resurslar bozorini barqarorlashtirish, ishonchliligini mustahkamlash, istiqbolli investitsion loyihalarni kreditlashtirishni yanada kengaytirish borasidagi sayi-harakatlar o‘z natijasini bermoqda. Tijorat banklarida jamg‘armalar bo‘yicha foiz stavkalarini yuqori darajada saqlab turish, va bank xizmatlari doirasini kengaytirish iste‘molchilarga sizilarli daromad keltirmoqda. Hozirgi paytda, tijorat banklari faoliyatiga ta’sir etuvchi iqtisodiy, siyosiy, geografik, tashkiliy va boshqa omillarni hisobga olgan holda o‘z kredit

siyosatini shakllantiradi. Kredit siyosati orqali tijorat bankining kredit bozoridagi hatti-harakatlarining ustuvor yo‘nalishlari, tamoyillari va mazmuniy maqsadlari aniqlanadi. Bankning kreditlash sohasidagi maqsadlarni tanlash bo‘yicha maqbul qarorlar qabul qilishi uchun quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega: kelgusi davr uchun bank faoliyatining umumiy maqsadlarini, xususan, rentabellik va likvidlik bo‘yicha ishlab chiqish; kredit bozorini tahlil qilish, shu jumladan markazlashtirilgan kredit resurslarining butun mamlakat yoki mintaqa bo‘yicha kredit qo‘yilmalarining umumiy hajmiga nisbati; bank resurs bazasini rivojlantirish istiqbollarining aniqligi, uning kredit portfelinining sifatini xolisona baholash, bu esa o‘z navbatida bankning kredit faoliyatini ta’minlaydi. Bankning kredit siyosatini faollashtirish va ratsionallashtirish shartlaridan biri marketing tadqiqotlari hisoblanadi.

Chunki, marketing tadqiqotlari tijorat banklari uchun asosiy axborot kanali bo‘lib xizmat qiladi va mijozlarga ko‘rsatilayotgan kredit xizmatlari sifatini oshirish va korxonalarni uzoq muddatli kreditlashda risklarni kamaytirish, shuningdek, noaniqlik darajasini pasaytirish imkonini beradi. Shu bilan birgalikda, banklarning marketing faoliyatini yanada rejalashtirish uchun kredit oluvchi mijozlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni izlash va ulardan foydalanish, shuningdek, korxonalar va kredit mutaxassislari o‘rtasidagi doimiy aloqa, ichki bozorda bankning qisqa va uzoq muddatli kreditlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beradi.

Mamlakatimizda bank marketingi va uning nazariy jihatlarini ko‘pgina olimlar, shu jumladan, B. Navro‘zzoda, A.H. Самадов, И.Б.Шарипов., O.A. Ortiqov, I.Ya. Qulliev, Sh.Dj.Ergashxodjayeva, A.A.Azlarova, M.M. Abduraxmanova, M.S. Qosimova, M.A. Yusupovlar tomonidan o‘rganilgan hamda bu mavzuga doir monografiya, darsliklar yaratilgan. Marketing tadqiqotlari va ularning asosiy yo‘nalishlari hamda muammolari chet ellik olimlar, ayniqsa, F.Kotler, K.Keller, Y.Redli, T. Nikolayeva, G.Makarova, O. Lavrushinlarning asarlarida yoritilgan.

Marketing tadqiqotlari, jismoniy shaxslar va korxonalarni bank tomonidan kreditlash imkoniyatlari bo‘yicha ma’lumotlarni tizimli ravishda to‘plash va ularni tahlil qilishni talab qiladi. Bunday izlanishlar kredit olish istagida bo‘lgan sub’yektlar bilan doimiy aloqada bo‘lish vositasi bo‘lib, ularga xizmat ko‘rsatish jarayonini baholash uchun foydalanadigan mexanizmlarni shakllantirishga yordam beradi. Marketing tadqiqotlarini o‘tkazish, zarurati tijorat banki faoliyatidagi kredit munosabatlari bo‘yicha to‘g‘ri qaror qabul qilishda menejerlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunday tadqiqotlar an’anaviy ravishda kredit bozorini o‘rganish orqali amalga oshiriladi va bozorda sodir bo‘layotgan jarayonlar, kreditga ehtiyoji bo‘lgan sub’yektlar, ularning imkoniyatlari, sharoitlari, risklari, rivojlanish tendensiyalari va boshqalar o‘rganiladi. Bunday tadqiqotlarning natijasi maqsadli bozorlarni tanlash va tijorat bankining umumiy strategiyasi va kredit siyosatini ishlab chiqishdir. Bundan tashqari, kredit bozoridagi raqobatchilarni tadqiq qilish bankning asosiy vazifasi hisoblanadi. Bunday tadqiqotlar potentsial raqobatchilar bilan hamkorlik qilish imkoniyatlarini aniqlash uchun zarur ma’lumotlarni olish uchun mo‘ljallangan. Shu bilan birga, raqobatchilarning kuchli va zaif tomonlari, ular egallagan bozor ulushi, ularning marketing vositalari va iste’molchilarning ularga bo‘lgan munosabati, tashkilotning moliyaviy holati va boshqalar tahlil qilinadi. Bunday tadqiqot natijasi tijorat bankining o‘zi uchun eng foydali bozor pozitsiyasini tanlashi va raqobatchilarga qarshi kurash strategiyasini ishlab chiqishdir.

Bozor strukturasini, ya’ni reklama, sug‘urta, moliya kompaniyalari tarmog‘ini o‘rganish bankka o‘zining kredit resurslarini bozorda ilgari surish imkonini beradi. Kredit narxlarini bo‘yicha tadqiqotlar esa moliya bozorida ma’lum turdagi kreditlar bo‘yicha narxlar darajasi va nisbatlarini aniqlashga yordam beradi. Bu yerda o‘rganish ob’ektlari raqobat natijasida kreditlar narxining o‘zgarishi, narx va talabning o‘zaro ta’siri hisoblanadi. Natijada narx, xarajatlar va foydaning eng samarali nisbati aniqlanadi.

Bank krediti taklifini rag‘batlantirish va kredit reklama tizimlarini o‘rganish, tadqiqot jarayonida yetkazib beruvchilar, vositachilar va xaridorlarning hatti-harakatlari, reklama samaradorligini aniqlash uchun xizmat qiladi. Tadqiqot natijasi banklarga tashkilotning qulay imidjini yaratish, yetkazib beruvchilar va vositachilarga ta’sir qilish, reklama va boshqa aloqalarining samaradorligini oshirish imkonini beradi. Odatda, marketing tadqiqotlarining asosiy maqsadi

bankning o‘z mahsulotlarini iste’molchilar talabi va ehtiyojlariga moslashtirish orqali muayyan bozor yoki uning segmentida raqobatbardosh o‘rinni egallash imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Marketing tadqiqotlarining maqsadi bank menejerlarini tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilishlari uchun zarur bozor ma’lumotlari bilan ta’minlashdan iborat. Bu, o‘z navbatida, marketing tadqiqotlariga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi: u buyurtma asosida tayyorlanishi kerak (qabul qilingan ma’lumotlar asosida qaror qabul qiladigan shaxsning buyurtmasiga binoan amalga oshiriladi), muayyan muammoni hal qilish uchun o‘tkazilishi va diqqat bilan rejalashtirilgan bo‘lishi kerak. Chunki, iste’molchilar yangi va takomillashgan mahsulotlarni xohlaydilar va kutadilar. O‘z navbatida raqobatchilar ham xaridorlarni shunday yangi tovarlar bilan ta’minlashga jon-jahdi bilan harakat qiladilar. Bunday zarurat bank kreditlariga bo‘lgan talabni oshiradi. Shuning uchun banklar kredit xizmatlarining yangi turlarini yaratish bo‘yicha marketing izlanishlari olib borishi shart.

Marketing tadqiqotining natijasi korxonaning potensial imkoniyatlarini va uning ma’lum bozor yoki uning segmentidagi mavqeini baholashdir.

Marketing tadqiqotlarining samaradorligi bir qator talablarga rioya qilinishiga bog‘liq:

- tadqiqotlar har tomonlama va tizimli bo‘lishi;
- ularni amalga oshirishda xolislik, aniqlik va puxtalikka asoslangan ilmiy yondashuvga rioya qilish;

- tadqiqot marketing tadqiqotlari amaliyotida halol raqobatning umume’tirof etilgan tamoyillariga muvofiq amalga oshirilishi;

- marketing tadqiqotlari puxta rejalashtirilishi va bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak.

Bundan tashqari, marketing tadqiqotlari, tadqiqot ob’yektini, ya’ni, muayyan bozorni yoki uning segmentini sinchkovlik bilan tanlashni talab qiladi. Chunki, bank mahsulotlarini rivojlantirishning o‘ziga xosligi shundaki, bank uchun o‘rtacha talablar darajasiga mo‘ljallangan xizmatlar ko‘rsatish odatda, yetarli darajada foyda keltirmaydi. Bank o‘z xizmatlarini ehtiyojlariga qaratmoqchi bo‘lgan bozorning ushbu qismini, iste’molchilar guruhlarini aniqlash va to‘g‘ri tahlil qilishga intiladi. "Segmentatsiya" deb ataladigan bozorni o‘rganishning ushbu usuli bitta bank turli xil xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojning barcha xilma-xilligini qondira olmaydi va o‘z sa’yi-harakatlarini ishlab chiqarish nuqtai nazaridan o‘zi uchun afzalroq bo‘lgan segmentlarga qaratishi kerak degan g‘oyaga asoslanadi.

Bank xizmatlari bozori ko‘rsatilayotgan xizmatlar hajmi, xizmatlar turlari bo‘yicha, ularni ko‘rsatish usuli va boshqalar bo‘yicha har xil bo‘ladi. Bank xizmatlari bozorini segmentlarga bo‘lish orqali tijorat banki o‘z mahsulotlarini sotishda muayyan muammolarni hal qiladi. Bunda banklar o‘zlarining potensial iste’molchilarining barcha ehtiyojlarini qondirishga intilmaydilar, shuning uchun har bir bank o‘z bozoriga ega bo‘lib, u ma’lum bir tijorat banki uchun ustuvor yoki eng maqbul deb belgilanishi mumkin. Bu bozor, bank xizmat ko‘rsatadigan hududda, ma’lum bir bank mahsulotini (xizmatlarini) taklif qilish bozorida, bank mahsulotlari (xizmatlari) iste’molchilarining manfaatlari mos kelganda shakllanadi. Bank bozorini segmentatsiyalash - bu bank mahsulotlari va xizmatlari sifatiga qo‘yiladigan umumiy talablar bilan birlashtirilgan va ma’lum bir marketing rag‘batlantirish to‘plamiga bir xil darajada javob beradigan xaridorlarning (iste’molchilarning) alohida guruhlariga bo‘linish jarayoni. Marketing tadqiqotlari natijasida iste’molchilarni, raqobatchilarni, bank mahsulotlarining o‘zini va bank faoliyat yuritayotgan moliya bozorini segmentatsiyalash amalga oshirilishi mumkin. Bozor segmentatsiyasi o‘rganilayotgan ob’ektni boshqalardan ajratib turadigan va shuning uchun alohida e’tiborga loyiq bo‘lgan eng muhim xususiyatlarini aniqlash, ushbu ob’ektni o‘rganishni oydinlashtirish va pirovardida marketing faoliyati samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Bozor segmentatsiyasi huquqiy, iqtisodiy, geografik, demografik, xulq-atvor va boshqa belgilarga asoslanadi. Mijozlarning huquqiy holatiga qarab bozor segmentatsiyasi korxonalar (yuridik shaxslar) va aholi (jismoniy shaxslar) uchun bozorlarni, bank xizmatlarini taqsimlashni nazarda tutadi. Jahonning ko‘pgina mamlakatlaridagi tijorat banklari amaliyotida, mijozlarga ko‘ra, bozorning quyidagi segmentlari ajratiladi: xususiy sektor; korporativ sektor; davlat sektori; kredit va moliya institutlari. Har bir korxona yoki yuridik shaxslar bozoridagi iqtisodiy vaziyatga ko‘ra esa korxona iqtisodiy iqtidori, faoliyat sohasi, xodimlar soni va boshqalar, jismoniy shaxslar bozorida -

ularning mulkiy holati hisobga olinadi. Geografik segmentatsiyada mamlakatlar, viloyatlar va ma'muriy-hududlar alohida ob'yekt sifatida qaratiladi. Bundan tashqari, iste'molchilar guruhlar, qarz oluvchilarning geografik joylashuvi, daromad darajasi, yoshi kabi toifalar ham o'rganiladi. Bunday segmentatsiya ham jismoniy, ham yuridik shaxslar uchun bozorni o'rganishda qo'llanilishi mumkin.

Bugungi kunda tijorat banklari moliya bozorida mustahkam o'ringa ega bo'lib, moliya sohasida muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Ularning marketing xizmatlari marketing strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda muhim vazifalarni bajaradi. SWOT tahlili bank faoliyati, uning raqobatbardoshligi va keyingi rivojlanish imkoniyatlariga ta'sir qiluvchi asosiy jihatlarni aniqlash imkonini berdi. Marketing tadqiqotlari tijorat banklarining kredit faoliyatini rivojlantirishda muhim manba hisoblanadi. Aynan marketing tadqiqotlari orqali bank faoliyati samaradorligi, uning raqobatdosh ustunligi va doimiy o'zgarib turadigan moliya bozorida uning barqaror rivojlanishini ta'minlash bo'yicha qabul qilinishi mumkin bo'lgan qarorlar bo'yicha keyingi tadqiqotlar uchun asosiy ma'lumotlar shakllanadi. Bank va ularning mijozlari o'rtasidagi kredit munosabatlari marketingini boshqarishning samarali axborot ta'minoti tijorat banklariga qarz oluvchi korxonalar bilan uzoq muddatli munosabatlarni saqlab qolish va ular oldidagi majburiyatlarni bajarish imkonini beradi.

Segmentatsiya quyidagilarga imkon beradi:

- mijozlar ehtiyojlari nuqtai nazaridan maqsadli bozorni aniqroq belgilash;
- ushbu bozorni rivojlantirish uchun kurashda bankning o'zining afzalliklari yoki zaif tomonlarini aniqlash;
- muvaffaqiyatli marketing dasturi uchun maqsadlarni aniqroq belgilash va imkoniyatlarni prognoz qilish.

Umumiy xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, marketing tadqiqotlari asosida bankning strategik rejalarini amalga oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti. 2022 yil, 215 b.
2. Piter S. Rouz Bankovskiy menedjment. Predostavlenie finansovix uslug: per. s angl. 2-e izd., - M.: Delo Ltd, 1998.
3. Gui Caudamine, Jean Montier. Banque et le marche financiers. Paris. Ekonomika. 1998, 502 page.
4. Baxtiyor Negmatovich Navruzoda. Osnovi rinochnoy ekonomiki. D. 1993 g. 283 str.
5. A.H. Самадов, И.Б.Шарипов. Тармоқлар ва соҳалар маркетинги. Toshkent. TDIU. 2014 yil, 326 b.
6. O.A Ortiqov, I.Va Qulliev. Bank menejmenti va marketingi. Toshkent. Tafakkur Bo'stoni, 2015. - 224 b.
7. Sh.Dj.Ergashxodjayeva, M.S. Qosimova, M.A. Yusupov. Marketing asoslari. Darslik. - T.: «IQTISODIYOT», 2019. - 304 bet.
8. A.A.Azlarova, M.M. Abduraxmanova. Bank Management and Marketing: Textbook. – T.: TSEU, 2019. -201 p.
9. K.X. Xomitov, A.A. Rahimov. Bank marketing va menejmenti. Toshkent. Ilm-ziyo. 2015 yil, 5 b.
10. Nevitt, P.K., Fabozzi F.J. Project Financing, 7th edition, Euromoney Books, 2000 (London, U.K.).
11. Шенаев В.Н, Ирниязов Б. С. Проектное кредитование. Зарубежный опыт и возможности его использования в России / М.: Изд-во АО “Консалтбанк”, 2019. 18-26 стр.
12. Rigby P., Penrose J. Project Finance Summary Debt Rating Criteria // Project & Infrastructure Finance Review 2003-2004: Criteria and Commentary, Standard & Poor's Corporation, 2003. P.153-158

**INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLİYALASHTIRISH VA KREDITLASHNING
JAHON TAJRIBALARI**

**МИРОВОЙ ОПЫТ ФИНАНСИРОВАНИЯ И КРЕДИТОВАНИЯ
ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ**

WORLD EXPERIENCES OF FINANCING AND LENDING INVESTMENT PROJECTS

Isomov B.S. Buxoro davlat universiteti
Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrası dotsenti.

Annotatsiya

Ushbu maqolada investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va kreditlashning jahon tajribalari o‘rganilgan. Asosiy e‘tibor rivojlangan mamlakatlar tajribasiga qaratilgan. Unda loyihalarni tanlash va maxsus liniyalar orqali kreditlash iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy strategik yo‘nalishlarga qaratilgani yoritilgan.

Kalit so‘zlar: bank kreditlari, yirik kompaniyalar, yirik banklar, cheklangan resurs, raqobat, ssuda hisobvarag‘i, banklar guruhi, uzoq muddatli kredit, investitsion loyihalar.

В данной статье рассматривается мировой опыт финансирования и кредитования инвестиционных проектов. Основное внимание уделяется опыту развитых стран.

Подчеркивается, что отбор проектов и кредитование по специальным линиям ориентированы на основные стратегические направления развития экономики.

Ключевые слова: банковские кредиты, крупные компании, крупные банки, ограниченность ресурсов, конкуренция, ссудный счёт, группа банков, долгосрочный кредит, инвестиционные проекты.

This article examines the world experience of financing and lending to investment projects. The main focus is on the experience of developed countries. It is emphasized that the selection of projects and lending through special lines are focused on the main strategic directions of economic development.

Key words: bank loans, large companies, large banks, limited resources, competition, loan account, group of banks, long-term loan, investment projects.

Jahonning qariyb barcha mamlakatlarida investitsiya loyihasini moliyalashtirish mamlakat iqtisodiy o‘lish sur‘atlarini rag‘batlantirishning ustuvor vositalaridan biri hisoblanadi. Ma‘lumki, investitsiya loyihasi — iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa foyda olish uchun investitsiyalarni amalga oshirishga yoxud jalb etishga qaratilgan, o‘zaro bog‘liq bo‘lgan tadbirlar majmui hisoblanadi.

Investitsiya loyihalarining asosiy ob‘yektlari yo‘llar, ko‘priklar va boshqa transport infratuzilmasi ob‘yektlarini, konlarni qazib olish va qayta ishlash va qayta ishlashga ixtisoslashgan korxonalarni qurish, shuningdek, quvurlar va energetika ob‘yektlari, xususan, elektr stansiyalari va yuqori voltli elektr uzatish liniyalari qurilishi va boshqalar. Hozirgi vaqtda butun dunyoda yirik kompaniyalar investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda foydalaniladigan barcha moliyaviy vositalardan foydalanishga harakat qilmoqdalar. Ular buni juda ehtiyotkorlik bilan qilishadi. Hatto eng yirik kompaniyalar hamon kapital xarajatlari nisbatan kam bo‘lgan loyihalarni moliyalashtirishni afzal ko‘rishadi, kerak bo‘lganda jamoaviy investitsiyalardan foydalanishga harakat qilishadi. Kichik kompaniyalar boshqa investorlar bilan hamkorlik qilishga intiladilar.

Yurtimizning taniqli olimlari va xorijiy olimlar o‘zlarining ilmiy ishlarida investitsiyalarning iqtisodiy ahamiyati, ularga doir loyihalar ishlab chiqish hamda ularni moliyalashtirish muammolariga bag‘ishlangan. Bizning vatanimizda bu masalada izlanishlar olib borgan olimlar qatoriga Dilmurod

Khojamkulov, N.S. Ismailova, R.X. Zayniddinov, G‘.D.Dusmuratov, S.S.Ismailova va boshqalarni ta’kidlab o‘tish mumkin. Investitsiyalar va ular bo‘yicha ishlab chiqariladigan loyihalarni moliyalashtirishga doir masalalar xorijiy olimlar, ayniqsa, Uilyam F.Sharp, Xavier Bradley, Shristian Deacamps, Esther Jeffers, Olivier Pastrelar tomonidan tahlil qilingan.

Xorijiy mamlakatlar tajribasini hisobga olsak, iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq global muammolar Evropa va Shimoliy Amerikada energetika sanoatida loyihalarni moliyalashtirishdan foydalanish faolligini oshirishga olib keldi. Evropa Ittifoqida loyihalarni moliyalashtirishdan foydalanishning ko‘payish tendensiyasi asosan hukumatni rag‘batlantirish dasturlari, xususan, qayta tiklanadigan energiya va kam uglerodli energiya boshqa shakllariga investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha maqsadli sa’y-harakatlar bilan bog‘liq.

Germaniyada Nordsee ONE, Nordergrunde va Butendiek shamol parklarida muqobil energiya loyihalari loyihani moliyalashtirish vositasi yordamida muvaffaqiyatli amalga oshirildi.

Ularni amalga oshirish uchun kompaniyalar tashkil etildi, ularning maqsadi shamol elektr stansiyalarini rivojlantirish, moliyalashtirish (asosiy va noresurs loyihalarni moliyalashtirish orqali), qurish va foydalanishdan iborat edi. Misol uchun, Nordsee One GmbH Nordsee ONE parki uchun tashkil etilgan va Western Power Distribution Butendiek shamol stansiyasining hammuallifi, operatori va ishlab chiqaruvchisi edi. Shuningdek, Germaniyada Bavariya daryosi Loisaxdagi shaxtada (stansiyaning turbinasi va generatori daryo sathidan pastda - shaxtada joylashgan) shaxtada dunyodagi birinchi GES loyihasi amalga oshirildi. Myunxen texnika universitetining muhandis-olimlari kon elektr stansiyasi loyihasini ishlab chiqdilar va Voith GmbH Loisach daryosida 2020-yil fevral oyidan muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan birinchi ochiq havodagi tajriba zavodini moliyalashtirish va qurishni ta’minladi.

Yaponiyaning eng yirik elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi kompaniyasi JERA Yaponiyada 1 GVt quvvatga ega quyosh elektr stansiyalarini rivojlantirish uchun loyihani moliyalashtirish uchun 160 milliard yen (1,4 milliard dollar) sarflagan. Bugungi kunda ishlab chiqarish va maishiy chiqindilarni samarali foydalanish, ularni qayta ishlov berish yo‘li bilan xom ashyoga aylantirish global muammo bo‘lib, uning yechimi nafaqat iqtisodiy, balki butun mamlakatning ijtimoiy rivojlanishini ham belgilab beradi, bu esa barqaror rivojlanishga muvaffaqiyatli o‘tishni belgilaydi. Bunday chiqindilarni qayta ishlash loyihalarini moliyalashtirishini tashkil qilish barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda, dunyoda ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarni moliyalashtirish bo‘yicha mashhur bo‘lgan mashhur Jahon banki keng qamrovli mahsulot va xizmatlardan foydalangan holda qattiq maishiy chiqindilarni boshqarish bo‘yicha loyihalarni moliyalashtiradi. Jahon banki tomonidan moliyalashtirilgan chiqindilarni boshqarish bo‘yicha loyihalar chiqindilarning butun hayotiy siklini qamrab oladi, ayniqsa ishlab chiqarishdan tortib yig‘ish hamda tashishgacha, nihoyat, qayta ishlash va utilizatsiya qilishgacha. Jahon banki chiqindilarni saralash va qayta ishlash ob‘ektlarini qurish yoki modernizatsiya qilish, poligonlarni qurish yoki rekonstruksiya qilish, shuningdek, axlat qutilari, yuk mashinalari va uzatish stantsiyalari bilan ta’minlash uchun investitsiyalar beradi. 2000 yildan beri Jahon banki tomonidan 40,7 mlrd dollarlik qiymatga ega bo‘lgan 340 dan ortiq qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash investitsiya loyihalari moliyalashtirilgan.

Jahon banki dunyoning barcha mamlakatlarda chiqindilarni qayta ishlov berishga doir ehtiyojlarni qondirish uchun investitsiyalarni ko‘paytirmoqda. Misol uchun, Afrika mamlakatlarida Jahon bankining kreditlari bilan ikki milliondan ortiq aholiga xizmat ko‘rsatadigan uchta qattiq maishiy chiqindilar poligoni qurildi va farovonlik dasturlari ishlab chiqildi. Ozarbayjonda Jahon banki kreditlari asosiy poligonni rekonstruksiya qilishga yordam berdi. Xitoyda maishiy oshxona chiqindilarini qayta ishlash uchun Jahon bankining 80 million AQSH dollar miqdorida Jahon banki kredit mablag‘laridan foydalanildi.

Nepalda 2022 yilda bank muassasalari tomonidan 4,3 million dollarlik chiqindi qayta ishlov berishga doir 54 loyihani moliyalashtirildi. Vetnamda qattiq maishiy chiqindilarni boshqarishga investitsiyalar Can Tho shahri hukumatining sa’y-harakatlarini qo‘llab-quvvatlaydi suv toshqiniga olib kelishi mumkin bo‘lgan bo‘ronli drenajlarda tiqilib qolishning oldini olish. Xuddi shunday,

Filippinda investitsiyalar qattiq chiqindilarning suv yo‘llariga kirishi potentsialini minimallashtirish orqali Manila poytaxti hududida suv toshqini xavfini kamaytirishga yordam beradi.

Chiqindilarni boshqarishga investitsiyalar maqsadli chiqindilarni yig‘ish tizimini takomillashtirish, jamoatchilik yondashuvlarini ishlab chiqish va rag‘batlantirishni yaratish, suv hududlarida, ayniqsa Manila ko‘rfazida suv ifloslanishni kamaytirish masalalarini hal qilish maqsadlariga Jahon banki ko‘plab mamlakatlarga moliyaviy yordam bermoqda. IFC Jahon bankining sho‘ba korxonasi va guruh a‘zosi hisoblanadi. Jahon banki rivojlanayotgan mamlakatlarda faqat xususiy sektorga qaratilgan eng yirik global rivojlanish institutidir. Bundan tashqari, IFC Bogota, Izmir, Medellin va Buenos-Ayres kabi qattiq chiqindilarni boshqarish, qayta ishlash va yo‘q qilish uchun bu yerdagi kompaniyalarga texnik-iqtisodiy asoslarni ishlab chiqishda yordam beradi. Shu bilan birgalikda, IFC atrof-muhitni muhofaza qilish faoliyatini tashkil etishda ishtirok etadi, manfaatdor tomonlarni birlashtirish va xususiy sektor moliyasini jalb qilish uchun zarur bo‘lgan qulay muhitni yaratishga bevosita qatnashadi. IFC shaharlarda ekologik mukammallikni ta‘minlash bo‘yicha yashil moliyalashtirishga mos loyihalarni aniqlash, strategiyalarni ishlab chiqish va natijalarni kuzatishda yordam berishi mumkin.

Yana bir muhim moliya instituti Evropa investitsiya banki (EIB) tomonidan ishlab chiqilgan chiqindilarni qayta ishlash sanoati tashkilotlarida investitsiya loyihalari, ularning mablag‘lari yirik va kichik korxonalar uchun qo‘shimcha moliyalashtirish manbai hisoblanadi. MSWni boshqarish masalalarida Evropa Ittifoqi siyosati maqsadlariga erishishga hissa qo‘shadigan investitsiya loyihalaridan biri "Trifyl horizont 2030" investitsiya loyihasidir. Ushbu loyiha ikkita saralash markazini moliyalashni o‘z ichiga oladi va Tri Mécano Biologique bo‘limi, Fransiyaning Oksitaniya mintaqasida (O‘rta Pireney va Languedok-Russillon) hosil bo‘lgan maishiy va shunga o‘xshash chiqindilardan qurilish materiallari va energiyani qayta tiklashga lozim bo‘ladigan materiallar ishlab chiqarishga qaratilgan[9]. Loyiyaning asosiy maqsadi chiqindilardan materiallar va energiyani qayta tiklash samaradorligini oshirishdan iborat. Ikkita saralash stansiyasi va mexanik biologik tozalash inshooti atrof-muhitni himoya qilishga taklif etilayotgan loyiha EIB tomonidan €36 mln. miqdorida moliyalashtiriladi va loyihaning umumiy qiymati 150 million yevroni tashkil etadi. Fransiya "Carbios" sanoatni rivojlantirish kompaniyasi plastik butilkalarni bir necha soat ichida eritib yuboradigan bakterial ferment yaratdi. Loyiyaning maqsadi real dunyoda o‘z texnologiyasining texnik va iqtisodiy hayotiyeligini namoyish etishdir sanoat sharoitlari va bioprosesslarni optimallashtirish. Loyiha plastik ifloslanishga qarshi kurashish va Yevropa Ittifoqining aylanma iqtisodiyot paketida belgilangan maqsadlarga erishishga yordam beradi. Taklif etilgan Evropa investitsiyalar banki tomonidan moliyalashtirilgan loyiha ob‘yektining umumiy miqdori - 29 million yevro. Investitsion loyihaning umumiy qiymati esa 60 million yevro.

Bundan tashqari Okean aylanma kapital fondi (Circulate Capital Ocean Fund - CCOF) ham tashkil etilgan. U dunyodagi birinchi bo‘lib okean plastik yig‘indilarini suv tubidan chiqarish va ularni qayta ishlash investitsiya fondini ishga tushirdi. Uning maqsadi plastik yig‘indilari natijasida suvning ifloslanishining oldini oladigan va Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyoda kompaniyalariga sarmoya kiritish, shu bilan investitsiya jozibadorligini isbotlash va yechimlar uchun katta kapitalni rag‘batlantirish, shu bilan birgalikda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun davlat va xususiy sektorni birlashtiradigan yangi aralash moliya mexanizmidir. Jamg‘arma mablag‘lari asosan Hindistonga Indoneziya, Tailand, Vetnam, Filippin va Malayziyaga sarmoya kiritishga qaratilgan.

Bundan tashqari, ushbu jamg‘armaning "Yo‘l xaritasi" maqsadlariga muvofiq iqlim va barqarorlikka ijobiy ta‘sir ko‘rsatadigan investitsiya loyihalariga qaratilgan.

Jamg‘armaning maqsadli hajmi 80-100 million AQSH dollarigachasi Bolgariyadagi "Toplofikacia CHP" investitsiya loyihasidir.

Maishiy chiqindilarni qayta ishlash zavodida ishlab chiqariladigan chiqindilardan olinadigan yoqilg‘idan foydalangan holda, Sofiyaning markaziy issiqlik tarmog‘i uchun yangi issiqlik-energiya kombinatini qurish va ishga tushirishdan iborat yirik loyiha. Bu Sofiya shahridagi maishiy chiqindilarni kompleks boshqarish loyihasining yakuniy bosqichi bo‘lib, chiqindilardan yoqilg‘ini olish, tarmoqqa elektr energiyasini etkazib berish va Sofiya markaziy isitish tizimini issiqlik bilan ta‘minlaydi. Loyiyaning umumiy qiymati 35 million yevro bo‘lib, uning 14 million yevrodagi

miqdori Evropa investitsiya banki tomonidan moliylashtiriladi. Loyihaviy moliyalashtirishdan foydalanish bo'yicha xorijiy va mahalliy tajribani tahlil qilish asosida tashkiliy, o'ziga xos (loyiha) va ekologik xavflar aniqlandi. Atrof-muhit bilan bog'liq xavf-xatarlarga tabiiy ofatlar (yong'inlar, suv toshqinlari va zilzilalar) kiradi va ularning yuzaga kelishidan kelib chiqadigan zararni sug'urta yordamida kamaytirish mumkin. Shunday qilib, investitsiya loyihasining risklarini minimallashtirish uchun loyiha kompaniyasi va homiylar, kreditorlar, mahsulot xaridorlari va loyihani moliyalashtirishni boshlagan boshqa tomonlar o'rtasidagi javobgarlik sohasini qonuniy belgilash orqali, amalda ularni taqsimlash strategiyasi qo'llaniladi. Shu bilan birgalikda, loyihalarni moliyalashtirishni rivojlantirish ham chet elda, ham mahalliy amaliyotda keng foydalaniladi. Ushbu moliyalashtirish vositasidan muvaffaqiyatli foydalanilayotgan iqtisodiyotning barcha asosiy tarmoqlari hisoblanadi. Loyihaviy moliyalashtirishdan foydalanishning mavjud xavf-xatarlariga qaramay, ushbu usul yirik investitsiya loyihalarini, xususan, energetika va infratuzilma ob'ektlarini qurishni moliyalashtirishning asosiy vositasi bo'lib qolmoqda. Investitsion loyihani amalga oshirishdan manfaatdor bo'lgan ishtirokchilarni huquq va majburiyatlarini aniq belgilash muhim masala sifatida namoyon bo'lmoqda.

Investitsiya mexanizmini shakllantirishdan asosiy maqsad iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida aktivlarning bozor qiymatini oshirish va ularning bozorda raqobatbardoshligini oshirishdan iborat. Yaqin kelajakda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasiga doir loyihalarni moliyalashtirish investitsiya mexanizmlarini amalga oshirishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

- xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning samarali faoliyatini ta'minlash;
- iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish;
- ishlab chiqarishni kengaytirish va mahsulotni sotish uchun yangi tashqi bozorlarni egallash;
- asosiy fondlarning ma'naviy va ijtimoiy eskirishiga qarshi kurashish, shuningdek, mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishning texnik darajasini oshirish;
- mahsulot sifatini oshirish;
- mehnatga layoqatli aholini yangi ish o'rinlari bilan ta'minlash;
- ishlab chiqarish rentabelligini oshirish;
- mamlakatlarning milliy daromadi va yalpi ichki mahsulotining o'sishi uchun sharoitlar yaratish.

Xulosa sifatida yana shu ta'kidlash mumkinki, an'anaviy kreditlash, loyiha va ventur moliyalashtirish shakllari bo'yicha quyidagilarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

- bankning investitsiya loyihasini kreditlashi, ma'lum shartlarda, faqat loyihani moliyalashtirish shakllaridan biri, uning alohida holati sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Umuman olganda, kreditor ko'pincha ma'lum bir loyihadan olingan daromadga emas, balki moliyalashtirilayotgan loyihaning umumiy moliyaviy natijasiga tayanadi;

- loyihani moliyalashtirishda investitsiyalar faqat ushbu loyiha doirasida hosil bo'ladigan kelajakdagi pul oqimlari hisobiga to'lanadi. Uning asosiy ob'yektlari - konchilik va infratuzilma kabi iqtisodiyotning katta miqdordagi kapital talab qiluvchi tarmoqlarida mavjud;

- ventur moliyalashtirish bilan - investitsiyalar bir yoki ikkita loyihaning yo'qotish ehtimoli kam bo'lgan taqdirda moliyalashtiriladi. Uning maqsadli segmenti yuqori texnologiyali mahsulotlarni ishlab chiqish va ishlab chiqarishdir.

Hozirgi vaqtda ishlab chiqaruvchi korxonalar, dunyoning barcha mamlakatlari, shu jumladan, O'zbekiston respublikasi iqtisodiyotining barqarorligi va o'sishining asosiy omili sifatida o'z rolini saqlab qolishda davom etmoqda va shuning uchun ushbu tarmoqlar ob'ektlarini loyihaviy moliyalashtirish uchun investitsiyalarni jalb qilish ayniqsa dolzarbdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston respublikasining «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida»gi qonuni. Toshkent. 2019 yil 25 dekabr.
2. Dilmurod Khojamkulov. Investitsiya loyihalarini boshqarish. Toshkent. 2020 yil, 153 b.

3. N.S. Ismailova, R.X. Zayniddinov. Xalqaro bitim va kelishuvlar. O‘quv qo‘llanma Toshkent – Iqtisodiyot – 2019 yil, 93 bet.
4. G‘.D.Dusmuratov, S.S.Ismailova. Lizing asoslari. O‘quv qo‘llana. Toshkent – 2016 yil.
5. Uilyam F.Sharp.Investitsii. M.Infra. 1999 g.1004 s.
6. Xavier Bradley, Shristian Deacamps. Monnaie banque finansement.Paris. DALLOZ. 2014. 363 p.
7. Esther Jeffers, Olivier Pastre. Economie bancaire. Paris. Economica. 2018.2255 p.
8. Nevitt, P.K., Fabozzi F.J. Project Financing, 7th edition, Euromoney Books, 2000 (London, U.K.).
9. Шенаев В.Н, Ирнязов Б. С. Проектное кредитование. Зарубежный опыт и возможности его использования в России / М.: Изд-во АО “Консалтбанкир”, 2019. 18-26 стр.
10. Rigby P., Penrose J. Project Finance Summary Debt Rating Criteria // Project & Infrastructure Finance Review 2003-2004: Criteria and Commentary, Standard & Poor’s Corporation, 2003. P.153-158

UDK:334.02

**МАҲАЛЛИЙ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ КОРХОНАЛАРИ БОШҚАРУВИ ҲОЛАТИ,
УНИНГ САМАРАДОРЛИГИ ВА ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ**

**СОСТОЯНИЕ УПРАВЛЕНИЯ МЕСТНЫМИ ПРОИЗВОДСТВЕННЫМИ
ПРЕДПРИЯТИЯМИ, ЕГО ЭФФЕКТИВНОСТЬ И ОСОБЕННОСТИ**

**THE STATE OF THE MANAGEMENT OF LOCAL MANUFACTURING ENTERPRISES,
ITS EFFICIENCY AND SPECIFIC CHARACTERISTICS**

Абдуллоев Аслиддин Жунайдуллаевич

Бухоро давлат университети Иқтисодиёт кафедраси мудири
и.ф.д., профессор

Хасанова Ситора Исламовна

Бухоро давлат университети мустақил тадқиқотчиси

Аннотация

Мақолада Бухоро вилоятидаги маҳаллий ишлаб чиқариш корхоналари бошқарувининг иқтисодий самарадорлиги таҳлил қилинган. Унда ишлаб чиқариш ҳажмлари ва қийматининг ўсиш кўрсаткичлари, шунингдек, тўқимачилик корхоналари мисолида харажатларни бошқариш самарадорлиги кўриб чиқилган.

Калит сўзлар: ишлаб чиқариш самарадорлиги, корхоналар бошқаруви, иқтисодий самарадорлик, маҳаллий ишлаб чиқариш, тўқимачилик корхоналари, бозор иқтисодиёти, модернизация, харажатлар самарадорлиги, техник қуролланиш, автоматлаштириш, иқтисодий механизм.

В статье проводится анализ экономической эффективности управления местными производственными предприятиями Бухарской области.

Рассматриваются показатели роста объемов и стоимости продукции, а также эффективность управления затратами на примере текстильных компаний.

Ключевые слова: производственная эффективность, управление предприятиями, экономическая эффективность, местное производство, текстильные предприятия, рыночная экономика, модернизация, эффективность затрат, техническое оснащение, автоматизация, экономический механизм.


The article analyzes the economic efficiency of management in local manufacturing enterprises in the Bukhara region. It examines the growth indicators of production volumes and value, as well as cost management efficiency using textile companies as examples.

Keywords: production efficiency, enterprise management, economic efficiency, local production, textile enterprises, market economy, modernization, cost efficiency, technical equipment, automation, economic mechanism.

Мамлакатда корхоналар бошқарувининг иқтисодий механизми самарадорлигини баҳолашда фаолият юритаётган корхоналар амалиётини қиёсий таҳлил қилиш асосида умумий хулосаларни шакллантириш керак бўлади. Ушбу мақсадга эришиш учун танланма кузатиш асосида айрим маҳаллий ишлаб чиқариш корхоналари бошқаруви амалиёти ва уларнинг иқтисодий механизмини тавсифловчи кўрсаткичлар самарадорлигини таҳлил қилишни лозим топдик. Бунда Бухоро вилоятида хўжалик фаолияти юритаётган “Sammir Teks” МЧЖ, “Shaxboz Carpet Tekstil” МЧЖ, “Ozod Buxoro Tekstil” МЧЖ, “Fir-Shax Parranda” МЧЖ, “Naqshband Buxoro Tekstil” МЧЖ ҳамда “Vixaratekst” МЧЖ каби ишлаб чиқариш корхоналари фаолияти ўрганилиб, қиёсий таҳлил амалга оширилди. Юқорида номлари таъкидлаб ўтилган корхоналар фаолиятига оид кўрсаткичлар 3-иловада келтириб ўтилди.

Танлаб олинган маҳаллий ишлаб чиқариш корхоналари иқтисодий самарадорлиги кўрсаткичини таҳлил қилишда дастлаб уларнинг маҳсулот ишлаб чиқариш самарадорлиги кўрсаткичларини қиёсий таҳлил қилишни лозим топдик. Бунда корхоналар томонидан ишлаб чиқарилган маҳсулотларнинг қиймати ва физик ҳажмларини қиёсий таққослаш керак бўлади.

Таҳлилларга кўра, 2015-2023 йилларда “Ozod Buxoro Tekstil” МЧЖ да ишлаб чиқарилган маҳсулотлар сони бўйича корхона кўрсаткичлари танлаб олинган бошқа ишлаб чиқариш корхоналарига нисбатан сезиларли даражада юқори кўрсаткичда ортганлиги билан характерланади. Ўрганилаётган даврда мазкур корхона томонидан ишлаб чиқарилган маҳсулотлар физик ҳажмининг ўртача йиллик ўсиш кўрсаткичи 222,5 фоизни ташкил этганлиги корхона бошқарувида меҳнат унумдорлигини ошириш орқали маҳсулот ишлаб чиқаришнинг микдор кўрсаткичларини такомиллаштиришга эришилганлигини кўрсатади. Шу билан биргаликда, корхона томонидан ишлаб чиқарилган маҳсулотлар қиймати ҳам бошқа корхоналарга нисбатан юқори ўсиш тенденциясига эга бўлганлигини кўришимиз мумкин бўлади (1-расмга қаранг). Шу ўринда таъкидлаш жоизки, корхона бошқарувининг иқтисодий самарадорлигини қиёсий таҳлил қилиш мақсадида танланган корхоналарнинг барчасида маҳсулот ишлаб чиқариш бўйича асосида кўрсаткичлари ўсиш тенденциясига эга бўлганлиги билан характерланади.



1-
расм. Маҳаллий корхоналар томонидан маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажми ортиши кўрсаткичлари (2015-2023 йиллар бўйича ўртача ўсиш, фоизда) [1]

Танланган корхоналар ўртасида “Shaxboz Carpet Tekstil” МЧЖ да маҳсулот ишлаб чиқариш бўйича ўсиш тенденцияси бошқа корхоналарга нисбатан сезиларли даражада суғулганлиги аниқланди. Ушбу корхонадан бошқа корхоналарда маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажмининг ўрта ҳисобда йилига 1,5 мартадан юқори даражада бўлса, уларнинг физик ҳажми бўйича йиллик ўсиш даражаси қарийб 1,3 мартага ортган.


Таҳлил натижаларига янада аниқлик киритиш учун корхоналар томонидан маҳсулот ишлаб чиқаришнинг қиймати ва физик ҳажмлари ўртасидаги нисбатларни баҳолаш талаб этилади. Бу орқали корхонада маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажми бўйича абсолют ўсиш тенденциясини баҳолашга эришилади. Бошқача қилиб айтганда, корхоналар томонидан ишлаб чиқарилган маҳсулот таннархининг ўзгариш тенденцияларини инобатга олиш имкониятига эришилади ва бунда қуйидаги формуладан фойдаланилади:

$$MICH_{or} = \frac{ICH_v}{ICH_b}$$

Бу ерда:

ICH_v – жами ишлаб чиқарилган маҳсулотнинг пулдаги қиймати;

ICH_b – жами ишлаб чиқарилган маҳсулотнинг физик ҳажми.



2-расм. Маҳаллий корхоналарда маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажмининг абсолют ўсиш коэффиценти (2015-2023 йиллар бўйича ўрта ҳисобда) [2]

Ҳисоб китобларга кўра, танлаб олинган маҳаллий корхоналар таркибида “Fir-Shax Parranda” МЧЖ нинг маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажмининг абсолют ўсиш коэффиценти бошқа корхоналарга нисбатан юқори бўлганлиги аниқланди. Ушбу корхоналар ўртасида маҳсулот ишлаб чиқаришнинг физик ҳажми ва унинг пулдаги қиймати бўйича етакчи ўринда бўлган “Ozod Buxoro Tekstil” МЧЖ нинг маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажмининг абсолют ўсиш коэффиценти “Sammir Teks” билан “Naqshband Buxoro Tekstil” МЧЖ лари қайд этган кўрсаткичлар билан ўзаро тенг эканлиги аниқланди. Шунингдек, “Shaxboz Carpet Tekstil” МЧЖ нинг маҳсулот ишлаб чиқаришнинг абсолют ўсиш коэффиценти бошқа корхоналарга нисбатан паст даражада бўлди. (2-расмга қаранг).

Танланган корхоналар ўртасида маҳсулот ишлаб чиқаришнинг абсолют ўсиш коэффиценти ҳисоблаш натижаларига асосланган ҳолда, “Ozod Buxoro Tekstil” МЧЖ да маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажмининг қиймат ва физик ҳажми бўйича бошқа корхоналарга нисбатан юқори даражада бўлганлиги корхона томонидан ишлаб чиқарилаётган маҳсулотларнинг бозордаги нархи ҳам ошиб бораётганлигини кўрсатди. Шунингдек, “Fir-Shax Parranda” МЧЖ нинг маҳсулот ишлаб чиқариш бўйича абсолют ўсиш коэффиценти “Ozod

Buxoro Tekstil” МЧЖ кўрсаткичига нисбатан юқори бўлганлиги ушбу корхона бошқарувида маҳсулот ишлаб чиқариш салоҳиятидан самарали фойдаланилаётганлигидан далолат беради.

Иқтисодий адабиётда корхоналар бошқаруви амал қилишининг иқтисодий самарадорлигини таҳлил қилишда харажатлар самарадорлиги кўрсаткичидан кенг фойдаланилади ва ушбу кўрсаткич қуйидаги формула орқали ҳисобланади


$$MICH_{xs} = \frac{ICH_v}{ICH_x}$$

Бу ерда:

ICH_v – жами ишлаб чиқарилган маҳсулотнинг пулдаги қиймати;

ICH_x – маҳсулот ишлаб чиқариш харажатлари.

Танланган корхоналар ўртасида “Shaxboz Carpet Tekstil” МЧЖ нинг 2015-2023 йиллар бўйича ўрта ҳисобдаги харажатлар самарадорлиги кўрсаткичи бошқа корхоналарга нисбатан сезиларли даражада юқори эканлиги аниқланди. Жумладан, “Shaxboz Carpet Tekstil” МЧЖ нинг харажатлар самарадорлиги кўрсаткичи ишлаб чиқариш ҳажми бўйича етакчи бўлган “Ozod Buxoro Tekstil” МЧЖ га нисбатан 1,9 мартага, маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажмининг абсолют ўсиш коэффиценти бўйича юқори натижа қайд этган “Fir-Shax Parranda” МЧЖ га нисбатан 4,7 мартага юқорилиги билан характерланади (3-расмга қаранг).



3-расм. Маҳаллий ишлаб чиқариш корхоналари фаолиятида маҳсулот ишлаб чиқариш харажатлари самарадорлиги кўрсаткичи (2015-2023 йиллар бўйича ўрта ҳисобда) [3]

Корхоналар ўртасида маҳсулот ишлаб чиқариш харажатлари самарадорлиги кўрсаткичлари таҳлиliga кўра, “Shaxboz Carpet Tekstil” МЧЖ да ишлаб чиқариш самарадорлигини оширишга қаратилган бошқарув амал қилиши аниқланди. Ушбу ҳолат корхона бошқарувида интенсив омиллар ҳисобига ишлаб чиқариш ҳажмини оширишга устуворлик қаратилишидан далолат беради.


Шу билан биргаликда, корхона бошқаруви иқтисодий самарадорлигини таҳлил қилишда харажатлар самарадорлигини ҳисоблаш формуласидан фойдаланган ҳолда, корхоналарнинг бошқарув харажатлари самарадорлигини баҳолаш талаб этилади. Бозор иқтисодиёти шароитида корхоналар бошқаруви иқтисодий самарадорлиги бошқарув харажатларининг кам даражада бўлиши талаб этилади. Бу турдаги харажатларнинг юқори бўлиши корхонада марказлашган бошқарув амал қилишидан далолат бериб, маҳсулот таннархининг асоссиз равишда ортишига олиб келади.

Танлаб олинган маҳаллий ишлаб чиқариш корхоналаридан “Shaxboz Carpet Tekstil” билан “Naqshband Buxoro Tekstil” МЧЖ ларининг бошқарув харажатлари самарадорлиги бошқа корхоналарга нисбатан сезиларли даражада юқорилиги аниқланди (4-расмга қаранг).



4-расм. Маҳаллий ишлаб чиқариш корхоналари фаолиятида бошқарув харажатлари самарадорлиги кўрсаткичи (2015-2023 йиллар бўйича ўрта ҳисобда) [4]

Жумладан, “Vixaratekst” билан “Fir-Shax Parranda” МЧЖ ларининг бошқарув харажатлари самарадорлиги нисбатан паст бўлганлиги ушбу корхоналарда марказлашган харажатлар бошқа корхоналарга нисбатан кўпроқ эканлигини англатади. Бу эса ушбу корхоналар томонидан ишлаб чиқарилаётган маҳсулотлар таннархи нисбатан қимматлашувиغا олиб келади. Иқтисодий адабиётда корхоналар бошқарувида ходимларга юқори иш ҳақи тўлаш орқали уларни рағбатлантириш ҳисобига маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажмини ошириш мумкинлиги борасида кўплаб илмий қарашлар шаклланган. Ушбу вазиятни инобатга олган ҳолда, танланган корхоналар ўртасида иш ҳақи харажатлари самарадорлигини баҳолашни лозим топдик. Ушбу кўрсаткични ҳисоблашда ҳам айнан харажатлар самарадорлиги кўрсаткичидан фойдаланиш талаб этилади.



5-расм. Маҳаллий ишлаб чиқариш корхоналари фаолиятида иш ҳақи харажатлари самарадорлиги кўрсаткичи (2015-2023 йиллар бўйича ўрта ҳисобда) [5]

Ҳисоб-китобларга кўра, бошқарувнинг иқтисодий самарадорлиги таҳлил этилаётган маҳаллий корхоналар ўртасида “Naqshband Buxoro Tekstil” МЖЧ нинг иш ҳақи харажатлари самарадорлиги бошқа корхоналарга нисбатан сезиларли даражада юқори бўлиб, маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажмининг ортиши бўйича етакчи бўлган “Ozod Buxoro Tekstil” МЧЖ га нисбатан эса қарийб 1,7 мартага кўпроқ самарали эканлиги аниқланди. Корхоналар бошқарувида иш ҳақи самарадорлигини ҳисоблаш асосида олинган натижалар “Naqshband Buxoro Tekstil” билан “Ozod Buxoro Tekstil” МЧЖ ларида иш ҳақининг ортиши ҳисобига корхона ишчиларининг меҳнат унумдорлиги бошқа корхоналарга нисбатан юқори даражада ортиганлигини кўрсатди (5-расмга қаранг).


Амалга оширилган ҳисоб китоблар бошқарувининг иқтисодий самарадорлигини қиёсий таққосланаётган корхоналарда ижобий кўрсаткичларга эришилганлигини кўрсатиши билан биргаликда, корхоналарда меҳнат унумдорлиги ортиб бораётганлигини изоҳламоқда. Шу ўринда Классик иқтисодий мактаб вакиллариининг ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш бўйича ёндашуви асосида корхона ходимлари жон бошига тўғри келадиган ишлаб чиқариш воситалари сонини баҳолашни лозим топдик. Замонавий иқтисодий тадқиқотларда ушбу кўрсаткич техник курулланиш даражасини ифодалаш учун хизмат қилади ва қуйидаги формуладан фойдаланган ҳолда ҳисобланади:

$$ICHQ = \frac{YI}{ICHV}$$

Бу ерда:

YI – корхонада ёлланиб ишлаётган ходимлар сони;

$ICHV$ – корхонадаги маҳсулот ишлаб чиқариш техникалари сони.




6-расм. Маҳаллий корхоналарда маҳсулот ишлаб чиқариш жараёнларининг техник курулланганлик кўрсаткичи (2015-2023 йиллар бўйича ўрта ҳисобда) [6]

Ҳисоб-китобларга кўра, бошқарув иқтисодий самарадорлигини баҳолаш мақсадида танланган корхоналар ўртасида фақатгина “Fir-Shax Parranda” МЧЖ да техник курулланганлик даражаси юқори бўлиб, корхона бошқарувида маҳсулот ишлаб чиқариш жараёнлари автоматлаштирилганлигини кўрсатди. Шунингдек, бошқа корхоналар бошқарувида меҳнат унумдорлиги фақатгина инсон омилидан фойдаланиш ҳисобига ортиб бораётганлиги аниқланди (6 -расмга қаранг).

Маҳаллий корхоналар бошқарувининг иқтисодий самарадорлигини баҳолашда солиқ юкини баҳолаш ҳам мақсадга мувофиқ ҳисобланади. Бунда корхона томонидан ишлаб чиқарилган жами маҳсулот ҳажмига нисбатан у томонидан тўланган барча турдаги солиқ ва мажбурий йиғимларнинг улушини ҳисоблаш керак бўлади. Умуман олганда, 2015-2023

йилларда бошқарув самарадорлиги қиёсий таққосланаётган корхоналар томонидан тўланган солиқ ва мажбурий йиғимлар ҳажми барқарор ўсиш тенденциясига эга бўлганлигини кўришимиз мумкин бўлади. Ушбу ҳолат корхоналар фаолиятига давлат аралашувининг тобора ортиб бораётганлигидан далолат беради. Бозор иқтисодиёти шароитида давлат аралашувининг ортиши корхоналар бошқаруви амал қилишининг иқтисодий механизми самарадорлигига ўз салбий таъсирини кўрсатган ҳолда, норасмий фаолиятни ташкил этишга бўлган интилишини кучайтиради.

Ҳисоб-китобларга кўра, бошқарув самарадорлиги таҳлил этилаётган “Shaxboz Carpet Tekstil” билан “Sammir Teks” МЧЖ ларида солиқ юки корхоналар томонидан жами ишлаб чиқарилган маҳсулот ҳажмининг деярли 1/4 қисмига тенг бўлган улушга эга бўлса, “Naqshband Buxoro Tekstil”, “Fir-Shax Parranda” ва “Ozod Buxoro Tekstil” МЧЖ ларида бўлса солиқ юки улар томонидан ишлаб чиқарилган жами маҳсулот ҳажмига нисбатан 1/3 улушдан юқорилиги билан характерланади (7-расмга қаранг).



7-расм. Маҳаллий корхоналар бошқарувида солиқ юки (ишлаб чиқарилган маҳсулот ҳажмига нисбаатан фоизда, 2015-2023 йиллар бўйича ўрта ҳисобда) [7]

Ушбу ҳолат маҳаллий ишлаб чиқариш корхоналари фаолиятини тартибга солишда давлат аралашуви юқори эканлигидан далолат беради.

Бу эса уларнинг бошқаруви амал қилишининг иқтисодий механизми самарадорлигига салбий таъсир кўрсатади.

Маҳаллий ишлаб чиқариш корхоналар бошқаруви амал қилишининг иқтисодий механизми самарадорлиги кўрсаткичларини таҳлил қилиш асосида қуйидаги хулосалар олинди:

- ишлаб чиқариш корхоналарининг фаолият йўналиши, улар томонидан ишлаб чиқариладиган маҳсулот турига қараб корхоналар бошқаруви иқтисодий самарадорлиги турлича эканлиги аниқланди;

- корхоналар бошқарувининг иқтисодий самарадорлигини баҳолаш асосида уларнинг ишлаб чиқариш салоҳияти турлича эканлиги аниқланди. Ушбу ҳолат корхоналар харажатларининг таркиби бўйича самарадорлик кўрсаткичларини баҳолаш натижалари орқали изоҳланади;

- корхоналар бошқарувида маҳсулот ишлаб чиқариш жараёнларини ташкил этишда автоматлаштириш, замонавий ишлаб чиқариш техникалари билан модернизациялаш зарурияти мавжуд эканлиги аниқланди. Ушбу ҳолат Классик ёндашув асосида техник қуролланганлик даражасини баҳолаш натижалари орқали изоҳланади;

- мамлакатда ишлаб чиқариш корхоналари фаолиятини ривожлантириш, уларнинг молиявий барқарорлигини таъминлаш, жумладан, капитализациялашув даражасини ошириш ҳисобига ўз маблағлари ҳисобидан инвестицион фаолиятни амалга ошириш имкониятларини

кенгайтиришлари учун соҳада давлат аралашувини қисқартириш билан биргаликда, уларнинг солиқ юки ҳажмини камайтиришга қаратилган чора-тадбирларни ишлаб чиқиш талаб этилади;

- маҳаллий ишлаб чиқариш корхоналари бошқаруви кўпроқ анъанавий ёндашув асосида иерархик тузилишга эга бўлиб, улар фаолиятини модернизациялаш, бошқарув жараёнида инновацион технологиялардан фойдаланиш амалиётини кучайтириш зарурияти мавжуд.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Худудларнинг саноат салоҳиятини оширишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-6244-сон фармони, 09.06.2021 й. <https://lex.uz/docs/5449564>
2. Abdulloyev A.J. Agroklaster faoliyatini boshqarish samaradorligini baholashning uslubiy asoslari Босма Iqtisodiyot va turizm xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali, №4(12), 2023y. 53-64 betlar
3. Abdulloyev A.J. Methodological foundations for evaluating the efficiency of agrocluster management Босма Экономика и предпринимательство. – Москва, 2023. –№9. – С. 617-623
4. Islamovna X. S. Aholining o‘zini o‘zi bandligini rivojlantirishning nazariy asoslari //Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting. – 2024. – Т. 4. – №. 03. – С. 390-396.
5. Islamovna X.S., and Kamolov Karimbek. "Iqtisodiyotda zamonaviy menejer boshqaruvi." Gospodarka i innowacje. 46 (2024): 361-365.

УДК:338.47

**ЛОГИСТИК ХИЗМАТЛАРНИ САМАРАЛИ ТАШКИЛ ЭТИШ УСУЛЛАРИ ВА
ЙЎНАЛИШЛАРИ**

**МЕТОДЫ И НАПРАВЛЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ
ЛОГИСТИЧЕСКИХ УСЛУГ**

**METHODS AND DIRECTIONS OF EFFECTIVE ORGANIZATION OF LOGISTICS
SERVICES**

Холмўминов Хумоюн Одил ўғли

Ўзбекистон Миллий университети таянч докторанти

Аннотация

Ушбу мақолада логистик хизматларни ташкил этишнинг усуллари ва йўналишлари ўрганилган бўлиб, асосан ташкил этиш жараёнлари шунингдек, ташкил этишнинг ўзига хос тамойиллари ёритилган. Бундан ташқари мақолада логистик хизматларни қандай йўллар орқали режалаштириш ва молиялаштириш ва ушбу режалаштириш жараёнларини амалиётга самарали тадбиқ этиш йўналишлари кўрсатилган.

Калит сўзлар: логистик жараён, режалаштириш, мониторинг, логистик тармоқ, омборхона бошқаруви, рақобатбардошлик.

В данной статье изучены методы и направления организации логистических услуг, выделены преимущественно организационные процессы и конкретные принципы их организации. Кроме того, в статье показано, как планировать и финансировать логистические услуги и направления эффективной реализации этих процессов планирования.

Ключевые слова: логистический процесс, планирование, мониторинг, логистическая сеть, управление складом, конкурентоспособность.

This article studies the methods and directions of organizing logistics services, highlighting mainly organizational processes and specific principles of organization. In addition, the article shows how to plan and finance logistics services and directions for the effective implementation of these planning processes.

Key words: logistics process, planning, monitoring, logistics network, warehouse management, competitiveness.

Бугунги глобалашув жараёнида жаҳон мамлакатларида логистика саноатини ривожлантириш, уни тубдан ислоҳ қилиш, корхоналарда логистик хизматларнинг ташкилий-иқтисодий механизмини шакллантиришнинг усуллари, тамойилларига қаратилган кўплаб илмий изланишларга эътибор ортмоқда. Мазкур илмий изланишларга эътиборни ортишидан мақсад шуки: иқтисодиётнинг турли тармоқларида логистик хизматларни самарали ташкил этиш, унинг ташкилий-иқтисодий механизмини такомиллаштириш, логистик хизматлар бозорига янги инновацион усуллари олиб кириш, логистик хизматларни ташкил этувчи корхоналарни молиялаштириш манбалари ва усуллари самарали таҳлил қилиш ҳамда бутун логистик хизматлар занжирини яхшилашдан иборатдир. Бу самарали тадқиқотлар натижасида миллий иқтисодиётда фаолият юритаётган корхоналар самарали логистик хизматларидан фойдаланган ҳолда тайёр маҳсулот ва хомашё ҳаракатини оптималлаштириш орқали ички бозорда товар ва хизматларнинг истеъмолчилар учун қулай шароит ва арзон нархларда етказиб берилишини, саноатда ишлаб чиқаришнинг узлуксиз фаолиятини тaminласа, ташқи бозорда эса мамлакатнинг иқтисодий рақобатбардошлигини оширади ва жаҳон иқтисодиётига интеграциялашув жараёнини тезлаштиради. Шу боисдан, логистик хизматларни самарали ташкил этишнинг усуллари ва йўналишларини тадбиқ этиш жудаям муҳим аҳамият касб этади.

Логистик хизматларни самарали ташкил этишнинг усуллари ва тамойиллари мавзусида жуда кўплаб хорижий ва маҳаллий олимлар ўз тадқиқот ишларида тўхталиб ўтган. Жумладан, италян олимлари Гианпаоло Гҳиани, Роберто Мусманно ҳамда канадалик олим Гилберт Лапорте ўзларининг тадқиқот ишларида Логистик тизимни режалаштириш ва бошқариш усуллари ва йўналишларини келтириб ўтишган. Ушбу олимлар логистик хизматларни самарали ташкил этишда қайси режалаштириш усуллари ва бошқарув йўналишларидан фойдаланиш кераклигини, шунингдек, ҳар бир логистик жараёнда содир бўлиши мумкин бўлган муаммолар ва уларни қай тартибда бартараф этиш усуллари ёритиб беришган[1]. Америкалик олимлар Алан Руштон, Пҳил Сроучер ва Петер Бакелар ўз илмий тадқиқотларида эса логистик хизматларни самарали ташкил этиш жараёнларини батафсил ёритиб бериб, уларни қай усулда амалиётга жорий этиш ва самарадор хизматларни ташкил этиш, логистик хизматларнинг самарадорлик кўрсаткичларини қай усулларда баҳолаш йўналишларини тадбиқ этишган[2]. Маҳаллий олимларимиздан Қулмуҳаммедов Ж., К.[3] ҳамда Умарова Д., ва Бўронова М.[4] лар ҳам ўз тадқиқот ишларида логистик хизматларни ташкил этишнинг усуллари, тамойиллари ҳақида тавсиялар ишлаб чиқишган, ушбу логистик жараёнларни амалга ошириш жараёнларида уларнинг функциялари ва бошқа соҳалар билан алоқадорлик жиҳатларини ҳам ёритишган.

Тадқиқот натижаларига кўра, логистик хизматларни ташкил этиш жараёнлари бир нечта жараёнларни ўз ичига олади. Ушбу жараёнларнинг энг биринчи босқичи логистик хизматларни ташкил этишни режалаштириш босқичи ҳисобланади. Логистик хизматларни шакллантиришда ва уни самарали бошқаришда корхонанинг шаклидан, тузилишидан, ва иқтисодий фаолият туридан келиб чиқиб асосан 3 хил режалаштириш(1 расмга қаранг) усули фарқланади ва ушбу логистик хизматларни режалаштиришни амалга ошириш жараёнида бир қанча методлардан фойдаланилади.

Логистик хизматларни режалаштириш жараёнида юқоридаги учта режадан ҳам кенг фойдаланилади. Режалаштириш жараёнида корхоналарнинг молиявий салоҳиятидан, кўрсатадиган хизмат турларидан келиб чиққан ҳолда ушбу режалаштириш турларидан бири танланади. Катта ҳажмдаги логистик хизматларни ташкил этувчи корхоналар кўпинча

стратегик режалаштириш усулидан фойдаланади. Стратегик режалаштириш усули бу узок муддатга, асосан 1 йилдан 5 йилгача бўлган муддат учун танланади. Тактик режалаштириш эса ўрта муддат учун танланиб бу логистик хизматларни 1 йилгача режалаштириш учун



фойдаланади.

1-расм. Логистик хизматларни режалаштириш усуллари
(Муаллиф ишланмаси)

Операцион режалаштириш эса қисқа муддат учун мўлжалланган бўлиб чораклик, ойлик ёки ҳафталик бажариладиган хизматларни режалаштиришда фойдаланилади. Саноати тараққий этган мамлакатлар тажрибасида ушбу режалаштириш усуллари самарали амалга ошириш учун миқдорий таҳлил кўрсаткичларидан фойдаланиш муваффақиятли логистик хизматларни ташкил этишда асосий воситалардан бири бўлиб кўрсатилади. Миқдорий таҳлил методларидан фойдаланиш орқали корхоналар ўзларининг бир қанча логистик самарадорлиги кўрсаткичларини аниқлаб оладилар ва ушбу методлардан фойдаланиш қуйида келтирилган вазиятларда корхоналар учун фойдали ҳисоблади:

-агар корхонада логистик хизматларни шакллантириш чоғида ва амалиётга жорий этилгандан кейинги давр мобайнида корхона ўзидаги логистик жараёнлар сифати ва самарадорлигини баҳоламоқчи бўлса, шунингдек ўзидаги логистик хизматлар даражасини бугунги бозор иқтисодиёти андоза ва талабларига таққосламоқчи бўлса;


-корхоналар ўзларидаги логистик ресурслардан оқилона фойдаланишни ва логистик тизимдаги муаммолар ва камчиликларни аниқлашда;

-корхоналар логистик тизимда аниқланган муаммолар ва устун тарафларни таҳлил қилган ҳолда энг яхши оптимал дастурларни шакллантиришда.

Юқорида келтирилган вазиятларни самарали таҳлил қилиш билан биргаликда корхонанинг логистик хизматларни ташкил этишни режалаштириш жараёнида самарали методлар ҳисобланади. Олиб борилган тадқиқотлар натижасига кўра, логистик хизматларни ташкил этишда энг кўп тарқалган усуллар бўлиб мустақил ва ҳамкорликда ташкил этиш усуллари ҳисобланади. Мустақил ҳолда ташкил этиш-бунда корхоналар томонидан логистик хизматларни ташкил этиш жараёнлари мустақил равишда амалга оширилади. Бу ёндашувда корхона томонидан логистик хизматларни шакллантириш ва уни амалиётга жорий қилиш корхонанинг молиявий салоҳиятига асосланади.

Бирлашган (Ҳамкорлик) ҳолда ташкил этиш - бунда икки ва ундан ортиқ корхоналар, логистик хизмат кўрсатувчи ташкилотлар, экспедиторлик ва транспорт хизматлари билан шуғулланувчи ташкилотлар ва бошқа турдаги фаолият билан шуғулланувчи бизнес ташкилотлари ўртасида логистик хизматларни ташкил этишда ўзаро ҳамкорликка эътибор қаратилади. Хорижий мамлакатларда логистик хизматларни ташкил этишда аутсорсинг ташкилотлар билан ҳамкорликда ташкил этиш усули анча кенг тарқалган. Бунда логистик хизматларни ташкил этувчилар қайси хизматга эҳтиёж сезса ўша хизматни бошқа бир томон орқали кўрсатади. Бугунги замонавий хизматлар соҳасида энг кўп тарқалган аутсорсинг

8. Basileya qo‘mitasi. (2010). Principles for Enhancing Corporate Governance. Bank for International Settlements.
9. Ipoteka-Bank. (2023). Moliyaviy Hisobotlar. Retrieved from: <https://ipotekabank.uz>
10. Xalq Banki. (2023). Yillik Moliyaviy Hisobot. Retrieved from: <https://xalqbank.uz>
11. Halimovich K. N. Advantages of tax credits in increasing the profitability of commercial banks //Imras. – 2023. – T. 6. – №. 6. – C. 229-234.
12. Halimovich K. N. Digital banks are an engine in the development of the country’s economy //International scientific research conference. – 2023. – T. 2. – №. 18. – C. 82-85.
13. Halimovich K. N. Advantages of tax credits in increasing the profitability of commercial banks //Imras. – 2023. – T. 6. – №. 6. – C. 229-234.
14. Halimovich Q. N. Importance of Innovative Activities in Banks //European journal of business startups and open society. – 2022. – T. 2. – №. 11. – C. 37-40.
15. Исомов Б. С., Кулиев Н. Х. Инвестиции в условиях рыночных отношений //Вестник науки и образования. – 2021. – №. 6-2 (109). – С. 22-24.
16. ИСОМОВ Б. С., КУЛИЕВ Н. Х. Вестник науки и образования //Вестник науки и образования Учредители: Олимп. – С. 22-24.
17. Кулиев Н. Х. Совершенствование системы планирования производственно-технической базы жилищного строительства. – 1984.

UDK:338.48

**TURIZM INDUSTRIYASINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIVAVIY
MEKANIZMLARNING NAZARIY ASOSLARI**

**ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФИНАНСОВЫХ МЕХАНИЗМОВ РАЗВИТИЯ
ТУРИСТСКОЙ ОТРАСЛИ**

**THEORETICAL BASICS OF FINANCIAL MECHANISMS IN THE DEVELOPMENT OF
THE TOURISM INDUSTRY**

Xudayberdieva Oysha Kurbonovna Buxoro muhandislik-texnologiya instituti
"Iqtisodiyot va menejment" kafedrası oqituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqola turizm industriyasini rivojlantirishda moliyaviy mexanizmlarning nazariy asoslarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Unda moliyaviy mexanizmlar turizm sohasida iqtisodiy o‘shni ta‘minlashda qanday rol o‘ynashi, investitsiyalarni jalb qilish va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining ahamiyati batafsil ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada turizm industriyasi uchun mavjud moliyalashtirish usullari va ularning samaradorligi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: turizm, moliyaviy mexanizmlar, investitsiya, iqtisodiy o‘sh, moliyalashtirish, turizm industriyasi.

В данной статье анализируются теоретические основы финансовых механизмов развития туристской индустрии. Рассматривается роль финансовых механизмов в обеспечении

экономического роста в сфере туризма, а также значимость привлечения инвестиций и механизмов финансовой поддержки. В статье также обсуждаются существующие методы финансирования туристской индустрии и оценивается их эффективность.

Ключевые слова: туризм, финансовые механизмы, инвестиции, экономический рост, финансирование, туристская индустрия.

This article analyzes the theoretical foundations of financial mechanisms for the development of the tourism industry. It examines the role of financial mechanisms in ensuring economic growth in the tourism sector and the importance of attracting investments and financial support mechanisms.

The article also discusses the existing methods of financing the tourism industry and evaluates their effectiveness.

Keywords: tourism, financial mechanisms, investment, economic growth, financing, tourism industry.

Har bir mamlakatning iqtisodiyotida turizm sohasining o‘rni va ahamiyati ortib bormoqda. Turizm nafaqat mamlakatning madaniy va tabiiy boyliklarini dunyoga tanitishga yordam beradi, balki iqtisodiy o‘rishga hissa qo‘shuvchi asosiy omillardan biri sifatida ham namoyon bo‘lmoqda. Shu munosabat bilan, turizm industriyasini samarali rivojlantirish va ushbu sohaning iqtisodiy salohiyatini maksimal darajada oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy mexanizmlar turizm sohasida juda katta rol o‘ynaydi. Ular turizm sohasini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, sarmoyalarni jalb qilish, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish va yangi infratuzilmalarni yaratish kabi masalalarda hal qiluvchi o‘rin tutadi. Mazkur mexanizmlar orqali sohani rag‘batlantirish, resurslar taqsimotini samarali yo‘lga qo‘yish va uzoq muddatli rivojlanishni ta‘minlash imkoniyati yaratiladi. Turizm industriyasini rivojlantirishda moliyaviy mexanizmlarning nazariy asoslarini o‘rganish, ularning turli modellarini tahlil qilish va ushbu mexanizmlardan samarali foydalanish yo‘llarini aniqlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada turizm sohasidagi moliyaviy mexanizmlarning nazariy asoslari, ularning vazifalari, xususiyatlari va ularni rivojlantirish usullari muhokama qilinadi. Turizm industriyasida moliyaviy mexanizmlarning to‘g‘ri ishlashi iqtisodiy o‘rishga katta ta‘sir ko‘rsatadi va ushbu sohaning iqtisodiyotdagi o‘rnini mustahkamlashga yordam beradi. Bu borada turizm sohasida moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish bo‘yicha yangicha yondashuvlar va innovatsion moliyaviy instrumentlardan foydalanish, xususan, davlat va xususiy sheriklik dasturlari, sarmoyalarni jalb qilish mexanizmlari hamda rag‘batlantiruvchi moliyaviy siyosat masalalari alohida ahamiyatga ega. Turizm industriyasini rivojlantirishda moliyaviy mexanizmlarning ahamiyatini o‘rganish uchun turli nazariy manbalardan foydalanish zarur. Bir qator tadqiqotchilar turizmning iqtisodiy o‘rishdagi o‘rni va unga ta‘sir etuvchi omillarni muhokama qilishgan. Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) ma‘lumotlariga ko‘ra, turizm sohasi nafaqat global iqtisodiyotga, balki alohida mamlakatlardagi infratuzilmalar va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining rivojiga ham katta ta‘sir ko‘rsatadi. P. Xaber va D. Konnor (2020) tomonidan yozilgan "Turizm moliyaviy boshqaruv: xalqaro tajribalar" kitobini qayd etish mumkin. Ushbu asar turizmni moliyalashtirish jarayonida moliyaviy instrumentlar va strategiyalarning qo‘llanilishiga e‘tibor qaratadi. Mualliflar moliyaviy siyosatning turizm rivojiga qanday ta‘sir qilishini tahlil qiladilar va bu sohadagi xalqaro tajribalarni taqdim etishadi. A. Gomes va M. Rodrigues (2018) tomonidan yozilgan "Turizm va sarmoyalar: zamonaviy yondashuvlar" asari keltirilishi mumkin. Bu kitobda moliyaviy mexanizmlar orqali turizm sohasiga sarmoya jalb qilish imkoniyatlari keng tahlil qilingan. Mualliflar, ayniqsa, davlat va xususiy sheriklik (PPP) modelining turizm rivojiga ta‘sirini yoritib berishgan. O‘zbekiston turizm sohasidagi tadqiqotlar orasida J. Qosimov va Sh. Ibragimov (2021) tomonidan yozilgan "O‘zbekistonda turizmni moliyalashtirishning o‘zgacha yo‘nalishlari" asari muhim ahamiyatga ega. Mualliflar turizm infratuzilmasini moliyalashtirish, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish va turizmning davlat tomonidan rag‘batlantirilishi mexanizmlarini o‘rganib chiqqanlar. Ushbu tadqiqotlar O‘zbekiston sharoitidagi moliyaviy mexanizmlarning samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar berish bilan yorqin ajralib turadi. Tadqiqotchilar L. Smart va K. Filips (2019) tomonidan yozilgan "Innovatsion moliyaviy mexanizmlar va turizm" kitobida moliyalashtirishning innovatsion usullari, jumladan, kraudfanding,

raqamli iqtisodiyot va zamonaviy to‘lov tizimlarining turizm sohasidagi ahamiyatiga katta urg‘u berilgan. Ular moliyaviy bozorlarning globallasuvi va raqamlashuvi orqali turizmga kiritiladigan investitsiyalarning o‘shish tendensiyalarini yoritib berishgan.

Turizm industriyasini rivojlantirishda moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish mamlakatimizda iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Biroq, ushbu sohani moliyalashtirishda bir qator muammolar mavjud bo‘lib, ular turizm industriyasining rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda. Tadqiqot jarayonida mamlakatimiz turizm industriyasini rivojlantirishda uchraydigan asosiy moliyaviy muammolar keltirilgan:

Moliyaviy resurslarning cheklanganligi. Ko‘pgina turizm loyihalari uchun zarur bo‘lgan investitsiya va moliyaviy resurslar yetarli emas. Bu, ayniqsa, kichik va o‘rta biznes subyektlariga taalluqli bo‘lib, ular ko‘p hollarda tijorat banklaridan kredit olishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Davlat budjetidan ajratiladigan mablag‘lar cheklanganligi sababli, ko‘plab turizm infratuzilmasi loyihalari to‘liq amalga oshirilmay qolmoqda yoki uzoq muddatga kechiktirilmoqda. Kreditlash sharoitlarining og‘irligi. Tijorat banklari tomonidan turizm sohasidagi loyihalarga yuqori foizli kreditlar taklif qilinadi, bu esa turizm korxonalari uchun moliyaviy yukni oshiradi. Kafolat talablarining yuqoriligi va kredit olish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar sonining ko‘pligi turizm biznesi uchun kredit olishni murakkablashtiradi. Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimining yetarli rivojlanmaganligi. Davlat tomonidan turizm sohasini rivojlantirish uchun ajratiladigan grantlar va subsidiyalar hajmi yetarli emas. Buning oqibatida turizm korxonalari moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Maxsus moliyalashtirish dasturlari, masalan, uzoq muddatli va imtiyozli kreditlar yoki soliq imtiyozlari yetarli darajada rivojlanmagan. Investitsiya muhitining qoniqarsizligi. Chet el investitsiyalarini jalb qilishda byurokratik to‘siqlar va qiyinchiliklar mavjud. Investitsiya loyihalari uchun huquqiy himoya mexanizmlarining yetarli darajada emasligi investorlar uchun xavflarni oshiradi.

Soliq siyosati va tartibga solish muammolari. Turizm sohasida faoliyat yurituvchi korxonalar uchun soliq yuklamasi yuqori. Bu, ayniqsa, yangi tashkil etilgan korxonalar uchun katta moliyaviy bosim bo‘lib, ularning rivojlanish imkoniyatlarini cheklaydi. Soliq imtiyozlari va preferensiyalar tizimi yetarli darajada takomillashmagan bo‘lib, turizm korxonalari raqobatbardoshligini oshirishga to‘sqinlik qiladi. Infratuzilma va logistika muammolari. Moliyaviy resurslarning cheklanganligi sababli turizm infratuzilmasini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan transport, mehmonxona va ko‘ngilochar obyektlar yetarlicha rivojlanmagan. Qishloq hududlari va ekologik turizm uchun zarur infratuzilmaning rivojlanmaganligi turizm imkoniyatlarini cheklab qo‘yadi. Yuqorida keltirilgan muammolarni hal etish uchun turizm industriyasida moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish, davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirish, shuningdek, chet el investitsiyalarini jalb qilish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi.

Ilmiy tadqiqot jarayonida turizm industriyasini rivojlantirish va moliyaviy mexanizmlarning nazariy asoslari muhim jihatlari yoritildi.

Moliyaviy mexanizmlar — bu turizm sohasidagi resurslarni samarali taqsimlash, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, yangi infratuzilma va loyihalarni moliyalashtirish uchun ishlatiladigan instrumentlar va jarayonlar majmuasi hisoblanadi.

Turizmni rivojlantirishda bir necha turdagi moliyaviy mexanizmlar qo‘llaniladi. Ular quyidagicha tasniflanadi:

Davlat moliyaviy mexanizmlari. Davlat budjeti mablag‘lari orqali turizm sohasini moliyalashtirish mexanizmi davlatning bu sohani strategik rivojlantirishga bo‘lgan e‘tiboridan dalolat beradi. Davlat moliyaviy yordami quyidagi shakllarda bo‘lishi mumkin:


Subsidiyalar va grantlar: Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan loyihalar uchun moliyaviy ko‘mak. Bu ayniqsa infratuzilmalarni rivojlantirish va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash uchun samarali bo‘lishi mumkin.

Soliq imtiyozlari: Turizm sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan subyektlarga soliqlar bo‘yicha imtiyozlar berish va ularni iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash.

Xususiy sektor sarmoyalari. Xususiy sektorning turizmga investitsiya kiritishi muhim ahamiyatga ega. Xususiy sarmoyalar: Mehmonxona biznesi va dam olish zonalari: Xususiy sektor

tomonidan tashkil etiladigan loyihalar turizm rivojida muhim rol o‘ynaydi. Masalan, mehmonxonalar, restoranlar, dam olish zonalari va transport kompaniyalari kiradi.

Turizm sohasidagi moliyaviy mexanizmlar quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:



Xorijiy investitsiyalar: Xorijiy sarmoyadorlarni jalb qilish orqali O‘zbekistondagi turizm infratuzilmasini rivojlantirish, xalqaro kompaniyalarning moliyaviy resurslaridan foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Davlat va xususiy sheriklik (PPP). Bu model davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi sheriklikni yo‘lga qo‘yish orqali katta kapital sarmoyalarni talab qiladigan turizm loyihalarini amalga oshirishga imkon beradi. Masalan, mehmonxona majmualari, dam olish zonalari va tarixiy obyektlarni tiklash kabi yirik loyihalar ushbu model asosida amalga oshirilishi mumkin.

Turizmni moliyalashtirish uchun quyidagi boshqaruv modellari qo‘llaniladi:

Markazlashgan boshqaruv: Bunda davlat moliyaviy institutlari yoki markaziy bank tomonidan moliyaviy resurslar taqsimlanadi. Bu model katta masshtabli infratuzilma loyihalari uchun samarali hisoblanadi.

Desentralizatsiyalashgan boshqaruv: Turizm sohasidagi kichik va o‘rta bizneslar uchun turli darajadagi boshqaruv organlari orqali moliyaviy qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatiladi. Bunda mahalliy banklar yoki xususiy sektor orqali sarmoyalarning taqsimlanishi ta‘minlanadi.

Turizm sohasidagi moliyaviy mexanizmlarning samaradorligini aniqlash uchun O‘zbekiston sharoitidagi turizm rivoji ko‘rsatkichlarini tahlil qilish kerak. Masalan: Soliq imtiyozlari: O‘zbekistonda turizm sohasida faoliyat ko‘rsatuvchi kompaniyalarga berilgan soliq imtiyozlari ularning moliyaviy yukini kamaytirishga yordam bergan. Moliyaviy subsidiyalar: Davlat tomonidan turizm sohasiga ajratilayotgan subsidiyalar turizm infratuzilmasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Turizm sohasidagi moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirishda innovatsion moliyaviy instrumentlardan foydalanish alohida o‘rin tutadi. Masalan: Kraudfanding (jamoaviy mablag‘ yig‘ish): Turizm loyihalari uchun jamoaviy mablag‘ yig‘ish tizimlari orqali sarmoya jalb qilish turizmdagi kichik loyihalarni moliyalashtirishda katta imkoniyatlar yaratadi. Raqamli to‘lov tizimlari: Turizm sohasida elektron to‘lovlar tizimlaridan foydalanish turistlar uchun qulaylik yaratadi va moliyaviy jarayonlarni tezlashtiradi. Turizm industriyasini rivojlantirishda moliyaviy mexanizmlarning to‘g‘ri va samarali qo‘llanilishi iqtisodiy o‘sishni tezlashtiradi. O‘zbekistonda turizm infratuzilmasini rivojlantirish uchun davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni

kuchaytirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va innovatsion moliyaviy instrumentlardan foydalanish turizm salohiyatini yanada yuksaltirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sharpley, R., & Telfer, D. J. (Eds.). (2015). *Tourism and Development: Concepts and Issues*. Channel View Publications.
2. Weaver, D., & Lawton, L. (2014). *Tourism Management*. John Wiley & Sons.
3. Buhalis, D., & Costa, C. (Eds.). (2006). *Tourism Business Frontiers: Consumers, Products, and Industry*. Butterworth-Heinemann.
4. Crouch, G. I., & Ritchie, J. R. B. (1999). Tourism, competitiveness, and societal prosperity. *Journal of Business Research*, 44(3), 137-152.
5. Dwyer, L., Forsyth, P., & Dwyer, W. (2010). *Tourism Economics and Policy*. Channel View Publications.
6. Hall, C. M. (2008). *Tourism Planning: Policies, Processes and Relationships*. Pearson Education.
7. World Tourism Organization (UNWTO). (2019). *Global Report on Tourism Competitiveness*. UNWTO.
8. OECD. (2018). *Tourism Trends and Policies*. OECD Publishing.
9. Davlat Statistika qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi. (2023). O‘zbekistonda turizm industriyasining rivojlanishi bo‘yicha hisobot.
10. Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) rasmiy veb-sayti: <https://www.unwto.org>
11. O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasining rasmiy veb-sayti: <https://www.uzbektourism.uz>
12. OECD turizm va sayohat statistikasi: <https://www.oecd.org/industry/tourism/>
13. Abdullayev, A. (2021). O‘zbekistonning turizm industriyasini rivojlantirishda investitsiyalarning ahamiyati. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha nomzodlik dissertatsiyasi. TDIU.

УДК:338.48

**ИЧКИ ТУРИЗМ ХИЗМАТЛАРИ БОЗОРИДА ТУРИСТИК КОРХОНАЛАР
ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ: ТАҲЛИЛ ВА ПРОГНОЗЛАР**

**РАЗВИТИЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТУРИСТСКИХ ПРЕДПРИЯТИЙ НА РЫНКЕ УСЛУГ
ВНУТРЕННЕГО ТУРИЗМА: АНАЛИЗ И ПРОГНОЗЫ**

**DEVELOPMENT OF TOURISM ENTERPRISES IN THE DOMESTIC TOURISM
SERVICES MARKET: ANALYSIS AND FORECASTS**

Мирзаев Абдуллажон Топилович

Фарғона давлат университети “Иқтисодиёт ва сервис”
кафедраси мудири, иқтисодиёт фанлари доктори, профессор

Аннотация

Ушбу мақолада мамлакатимиз айрим асосий макроиктисодий кўрсаткичларнинг вақтли катори асосида хизматлар соҳаси, хусусан, унинг алоҳида йўналиши бўлган туризм хизматлари ҳажмининг ўзгариши таҳлил қилинди ва ўзгариш тенденциялари баҳоланди. Ички туризм хизматлари ҳажми ва унинг ўзгаришига таъсир этувчи омил кўрсаткичлари боғланишида 2026 йилга қадар прогноз кўрсаткичлар ишлаб чиқилди.

Калит сўзлар: туризм, туризм соҳаси, ички туризм, туристик корхоналар, туристик хизматлар, ички туризм фаолияти, тизимли ёндашув, моделлаштириш, прогнозлаштириш.

В данной статье проанализированы изменения объема туристских услуг в стране, в частности, его отдельного направления, на основе временных рядов некоторых основных макроэкономических показателей и оценены тенденции изменений. Были разработаны прогнозные показатели до 2026 года, увязаны показатели фактора, влияющего на объем услуг внутреннего туризма и его изменения.

Ключевые слова: туризм, туриндустрия, внутренний туризм, туристические предприятия, туристские услуги, деятельность в сфере внутреннего туризма, системный подход, моделирование, прогнозирование.

This article analyzes the change in the volume of tourist services in the country, in particular, its individual direction, based on time series of some basic macroeconomic indicators and evaluates the trends of change. Forecast indicators were developed until 2026, when the indicators of the factor influencing the volume of domestic tourism services and its changes were linked.

Keywords: tourism, tourism industry, domestic tourism, tourism enterprises, tourist services, activities in the field of domestic tourism, systematic approach, modeling, forecasting.

Jahonda global o‘zgarishlar tendensiyalari pandemiya sharoitigacha bo‘lgan davrda dunyo mamlakatlarida turizm sohasining yalpi ichki mahsulot tarkibidagi o‘shish sur‘ati sezilarli darajada ortib borayotganligini ko‘rsatdi. Insonlarning jismoniy va aqliy tiklanishi bilan bog‘liq ko‘plab omillar mamlakatlar darajasida turizm faoliyatini kengaytirish hamda uni boshqarish jarayonlarini takomillashtirish orqali iqtisodiy taraqqiyotni ta‘minlash uchun zaruriy shart-sharoitni kengaytirmoqda.

Jahonda hozirgi davrda kirish turizmidagi yo‘qotishlarni ichki turizm faoliyatini rivojlantirish orqali kamaytirish, sohaning yalpi ichki mahsulot va aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi xizmatlar hajmidagi ulushini oshirish, hududlarda aholini yangi ish o‘rinlari bilan ta‘minlash hamda soha korxonalarida boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu jihatdan ichki turizm faoliyatiga ixtisoslashgan korxonalardagi gorizontaal va vertikal boshqaruv tuzilmalarini kengaytirish, xizmatlardan foydalanishni raqamli tizimlar asosida qulaylashtirish, ichki turizm faoliyati tuzilmalarida boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish yo‘nalishida ilmiy tadqiqotlar olib borish ustuvor yo‘nalishlardan hisoblanadi.

Jahon miqyosida yuz berayotgan global o‘zgarishlar ta‘sirida taraqqiyotning bugungi bosqichida ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarda xizmatlashuv tendensiyasi kuzatilmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar faoliyatining xizmatlashuv darajasining ortishi bilan mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish jarayonlari asosiy faoliyat bilan bog‘liq ko‘rsatilayotgan xizmatlar hajmi va sifatining raqobat ustunligi omiliga aylanishiga olib keladi. Servlashuv jarayonining kengayishi bilan milliy va global darajada faoliyat ko‘rsatuvchi xizmatlar sohasi tarkibidagi tuzilmalarning alohida mamlakatlar hamda jahon miqyosida rivojlanish sur‘ati ortadi. Ana shunday tuzilmalardan biri turizm sohasi va uning tarkibidagi tarmoqlar hisoblanib, so‘nggi davrlardagi iste‘molchilarning dam olish hamda jismoniy va aqliy tiklanish uchun ehtiyojlarining daromadlar darajasiga bog‘liq holda ortib borishi natijasida sohaning global darajada tez sur‘atlardagi rivojlanishi kuzatilmoqda.

“Turizm” atamasining mohiyatiga turlicha yondashuvlar mavjud bo‘lib, ushbu yondashuvlar mazmunining bir-biridan farqlanishi hamda o‘xshash jihatlarni umumlashtirish asosida atamaning mohiyatini kengaytirilgan holda aniqlashtirish maqsadga muvofiq. Turizm fransuzcha *tour* so‘zidan olingan bo‘lib, u odamlarning bo‘sh vaqtlarida o‘z doimiy turar joylaridan boshqa mamlakat yoki o‘z mamlakatlari ichida taassurot va dam olish, sog‘liqni tiklash, mehmondorchilik, bilim olish yoki kasbiy amaliy maqsadlarida sayohat qilishlari hisoblanadi, biroq ular turistik safar davrida daromad olish bilan rag‘batlantiriladigan faoliyat bilan shug‘ullanmaydilar[1].

Ichki turizm ko‘pgina xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan o‘rganilgan va unga turli fikrlar bildirilgan. Rossiyalik olimlardan A.Kosolapovning fikricha, ichki turizm biror-bir davlatni, hududni iqtisodiy rivojlantirishni ta‘minlovchi turizmning ma‘lum segmentlaridan biri hisoblanadi[2].

I.To‘xliyev tomonidan ichki turizmning boshqa shakllaridan farqlanuvchi o‘z davlati chegarasi doirasida doimiy yashovchi fuqarolarning vaqtinchalik tashrif buyuruvchi joyga (haq to‘lanadigan

faoliyatsiz) turistik maqsadlarda sayohat qilishi, mamlakat hududida doimiy yashaydigan fuqarolarning boshqa hududlar bo‘ylab qiladigan sayohati, ichki turizmning davlat chegaralarini kesib o‘tish bilan va turistik rasmiyatchilik bilan bog‘liq emasligi kabi belgilari alohida ajratib ko‘rsatilgan.

A.Trubinning ta’kidlashicha, ichki turizm - bu turizmning turlaridan biri bo‘lib, ma’lum bir davlat fuqarolari ushbu davlat ichida sayohatni amalga oshirishidir. Ichki turizm faoliyatini tashkil etish va boshqarish jarayonlariga yondashuvlar ichida M.B.Birjakov va I.S.Kabirovlarning tadqiqotlari alohida o‘rin tutadi. Chunki ushbu tadqiqotlarda turistik mahsulotning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari chuqur o‘rganilgan, turlarni tashkil qilish shart-sharoitlari tizimlashtirilgan, shu bilan birga ichki turizm faoliyati geografiyasi tahlil qilingan[3].

Zamonaviy iqtisodiy makonning shakllanishi sharoitida ichki turizmni rivojlantirish jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, bizning fikrimizcha, mutlaq va nisbiy ko‘rsatkichlar tizimi, ularning o‘zgarishini tavsiflovchi umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlar tizimiga o‘rtacha qiymatlar kiritilishi kerak, bu esa, tasodifiy holatlar tufayli umumlashgan ko‘rsatkichning har bir tarkibiy qismi xususiyatlari aks etmagan hodisalarning rivojlanish darajasini aks ettiradi. Ko‘rsatkichlarning qisman tahlili ichki turizmni rivojlantirish jarayonlarini ularning tarkibiy qismlarga bo‘linishi va ular o‘rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash asosida tuzishga imkon beradi.

Ichki turizm faoliyatini tashkil etish va boshqarishga yondashuvlarning uslubiy asoslarini tizimli yondashuv nuqtai nazaridan o‘rganish natijasida uning eng muhim segmentlarini aniqlashda modellar va kategoriyalardan foydalanish imkoniyatlari, shuningdek keyingi rivojlanishni rejalashtirish va prognoz qilish shartlari aniqlandi.

Milliy darajada ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning rivojlanish darajasini mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmining real o‘sish darajasi hamda turli tarmoqlarning undagi ulushining o‘zgarishi hamda aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi asosiy ko‘rsatkichlarning miqdorini o‘zida aks ettiradi. Shundan kelib chiqib, tadqiqot jarayonida mamlakatimiz ayrim asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning vaqtli qatori asosida xizmatlar sohasi, xususan, uning alohida yo‘nalishi bo‘lgan turizm xizmatlari hajmining o‘zgarishi tahlil qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlari asosida 2019-2023 yillar davri uchun turizm rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari tahlili amalga oshirildi (1-jadval).

Ushbu jadval ma’lumotlari oxirgi 5 yillikda mamlakatimizda turizm xizmatlari bozori jadal rivojlanib borayotganligini ko‘rsatmoqda. Xususan, 2023 yilda turizm tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat hajmi 5895516,4 mlrd.so‘mni tashkil etib tahlil qilinayotgan yillarga nisbatan keskin ortganligini ko‘rish mumkin. 2023 yilda turizm tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning mamlakat YAIMdagi ulushi 5,5% ni tashkil etgan. To‘g‘ridan-to‘g‘ri turizmga yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat 2023 yilda 15462,3 mlrd.so‘mni va bu ko‘rsatkichning YAIMdagi ulushi 1,4 % ni tashkil etgan [10].

Umuman olganda turizm sohasini rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, tahlil amalga oshirilgan yillar oralig‘ida bir necha barobarga ortganligini kuzatish mumkin. Bu esa, mamlakatimizda turizm sohasi turizmning funksional tarmoqlari va boshqa tarmoqlar ta’sirida katta multiplikativ samaraga ega bo‘layotganligini ushbu jadvaldagi umumiy statistik ma’lumotlarda aniq ko‘rishimiz mumkin. Bu sohada erishilayotgan natijalar mamlakatimizda soha faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan umummilliy siyosat, amalga oshirilayotgan oqilona islohotlar hamda aholining turmush farovonligining ijobiy samarasidir[11].

Ichki turizm sohasida faoliyat rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlilida ko‘p omilli ishlab chiqarish funksiyalari va ulardan kelib chiqadigan funksiyalardan keng foydalanishni hisobga olgan holda tanlanma kuzatuv obyektlari sifatida tanlab olingan ichki turizm faoliyati bilan shug‘ullanuvchi Andijon, Farg‘ona viloyatlari va Toshkent shahridagi 3 ta turistik korxonada o‘tkazilgan anketa so‘rovlari ma’lumotlaridan foydalangan holda turistik korxonalarda ko‘rsatilgan ichki turizm xizmatlari hajmining o‘zgarish holatini ko‘p omilli bog‘lanish asosida ishlab chiqarish funksiyasi ko‘rinishidagi ekonometrik modellarini aniqlaymiz. Aniqlanadigan modellar

ko‘rsatilgan ichki turizm xizmatlari hajmi va unga ta’sir etuvchi omillarni boshqarish yo‘nalishlarini aniqlash asosida turistik korxonalar uchun o‘rta muddatli davr uchun maqsadli prognoz ko‘rsatkichlarini aniqlash hamda ushbu ko‘rsatkichlarni ta’minlash uchun zarur bo‘lgan tadbirlarni belgilashga yordam beradi.

1 - jadval

O‘zbekiston Respublikasida turizm rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari

№	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Yillar				
			2019	2020	2021	2022	2023
1.	YAIM	mlrd.so‘m	532712,5	605514,9	738425,2	896617,9	1066569
2.	Yalpi qo‘shilgan qiym at	mlrd.so‘m	487449,8	561153,4	686432,4	836839,7	1008423,1
3.	Turizm tarm oqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiym at	mlrd.so‘m	24742,7	22903,6	31988,2	43426,6	5895516,4
4.	Turizm tarm oqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiym atning mamlakat YAIMdagi ulushi	%	4,6	3,8	4,3	4,8	5,5
5.	To‘g‘ridan-to‘g‘ri turizm da yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiym at	mlrd. so‘m	13573,4	2461,5	4752,3	12462,7	15462,3
6.	To‘g‘ridan-to‘g‘ri turizm da yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiym atning mamlakat YAIMdagi ulushi	%	2,5	0,4	0,6	1,4	1,4
7.	To‘g‘ridan-to‘g‘ri turizm da yaratilgan yalpi ichki mahsulot	mlrd. so‘m	14102,9	2557,8	4902,4	12791,7	15967,8
8.	To‘g‘ridan-to‘g‘ri turizm da yaratilgan yalpi ichki mahsulotning mamlakat YAIMdagi ulushi	%	2,6	0,4	0,7	1,4	1,5
9.	To‘g‘ridan-to‘g‘ri turizm da yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiym atning YAQQdagi ulushi	%	2,8	0,4	0,7	1,5	1,5
10.	Iqtisodiyot bo‘yicha jamitaklif (ishlab chiqarish)	mlrd. so‘m	1183935,2	1339152,4	1659228,8	1658561,8	1725762,4
11.	Turizm tarm oqlarining ichki taklifi (ishlab chiqarish)	mlrd. so‘m	43297,0	40172,2	55447,1	76387,7	89562,6
12.	Mamlakat ichidagi turizm ga oid iste‘m ol	mlrd. so‘m	33906,8	7287,6	10297,6	25351,2	32874,8
13.	Mamlakat ichidagi turizm ga oid iste‘m olning mamlakat iqtisodiyoti tarm oqlarining ichki taklifidagi ulushi	%	2,9	0,5	0,6	1,5	1,9
14.	Kirishga oid turizm iste‘m oli	mlrd.so‘m	11639,3	2490,0	4492,9	17776,7	22145,8

Ko‘rsatilgan ichki turizm xizmatlari hajmini ishlab chiqarish funksiyasining yuqori cho‘qqisi, ya’ni natijaviy omil sifatida belgilab olgan holda, unga ta’sir etuvchi omil ko‘rsatkichlari sifatida soha ekspertlari xulosalariga asoslangan holda quyidagi ko‘rsatkichlar tanlandi:

X_1 – xizmat ko‘rsatilgan turistlar soni;

X_2 – turistik korxonalardagi boshqaruv xarajatlari;

X_3 – korxonaga chetdan jalb qilingan mablag‘lar hajmi.

Har bir ta’sir etuvchi ekzogen omillar o‘z mohiyatiga ko‘ra ko‘rsatilgan ichki turizm xizmatlari hajmining shakllanishida asosiy ta’sir etuvchi omillardan hisoblanadi. Masalan, xizmat ko‘rsatilgan turistlar soni faoliyatning hajmini belgilovchi ish yuklamasi hamda xizmatlardan tushum hajmini belgilasa, turistik korxonalardagi boshqaruv xarajatlari ichki turizm faoliyatini optimal ta’minlash imkoniyatini, korxonaga chetdan jalb qilingan mablag‘lar hajmi turistik korxonalarning faoliyatini tashkil etish uchun zaruriy yetishmagan mablag‘ miqdorini o‘zida ifodalaydi.

Ichki turizm xizmatlari bozorida faoliyat olib borayotgan turistik korxonalarda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmini modellashtirish ichki turizm xizmatlari bozorida yuz berayotgan tendensiyalar, trendlar va vaqtli qatorlar kabi modellar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Tadqiqot jarayonida Andijon va Farg‘ona viloyatlari hamda Toshkent shahrida faoliyat olib borayotgan uchta turistik korxonadagi ko‘rsatilgan ichki turizm xizmatlari hajmi va uning shakllanishiga ta’sir etuvchi asosiy

ko‘rsatkichlarning 2011-2023 yillar davomidagi o‘zgarish tendensiyalari tahlili amalga oshirildi (1-jadval).

“ANDIJONTURIST” MCHJ faoliyatida ko‘rsatilgan ichki turizm xizmatlari hajmi va unga ta’sir etuvchi omillar ta’sirida o‘zgarishining ko‘p omilli ekonometrik modeli tuzildi. Unga ko‘ra ushbu jarayonni ifodalovchi regressiya tenglamasi tuzildi.

$$\ln Y = 2,424 \cdot \ln X_1 + 0,488 \cdot \ln X_2 - 0,471 \cdot \ln X_3 - 15,023 \quad (1)$$

Aniqlangan chiziqli logarifmik model potentsirlansa, korxona faoliyatida ichki turizm xizmatlari hajmini ifodalovchi chiziqsiz ko‘rinishdagi ekonometrik model kelib chiqadi:

$$Y_1 = \frac{X_1^{2,424} \cdot X_2^{0,488}}{X_3^{0,471} \cdot e^{15,023}} \quad (2)$$

Dasturiy paketdan foydalangan holda tuzilgan model va uning parametrlarining ishonchliligi hamda adekvatligini bir necha mezonlar asosida tekshirib, natijalar aniqligiga ishonch hosil qilish lozim. Aniqlangan trendda avtokorrelyatsiya belgilangan optimal chegaradan bir oz pastligi (DW=1,74) va boshqa mezonlar bo‘yicha talabga javob berganligidan yuqorida aniqlangan (1) - regressiya tenglamasi ishonchli deb topildi va adekvatligi isbotlandi.

1-jadval

Turistik korxonalarda ichki turizm xizmatlari hajmi va uning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omil ko‘rsatkichlari

Yillar	Ko‘rsatilgan ichki turizm xizmatlari hajmi, mln. so‘m (Y)			Xizmat ko‘rsatilgan turistlar soni, birlik (X1)			Turistik korxonalardagi boshqaruv xarajatlari, mln. so‘m (X2)			Korxonaga chetdan jalb qilingan mahlag‘lar hajmi, mln. so‘m (X3)		
	“ ANDIJONTURIST ” MCHJ	“ TOJ MAHAL ” MCHJ	«Dobres Travel Services» MCHJ	“ ANDIJONTURIST ” MCHJ	“ TOJ MAHAL ” MCHJ	«Dobres Travel Services» MCHJ	“ ANDIJONTURIST ” MCHJ	“ TOJ MAHAL ” MCHJ	«Dobres Travel Services» MCHJ	“ ANDIJONTURIST ” MCHJ	“ TOJ MAHAL ” MCHJ	«Dobres Travel Services» MCHJ
2011	27,1	32,7	74,5	2375	2442	4628	4,8	5,4	11,3	7,3	8,5	18,3
2012	29,8	35,3	89,7	2298	2658	4971	5,1	5,8	12,7	8,7	9,2	23,6
2013	34,3	41,4	95,3	2406	2594	5311	5,2	6,4	13,6	9,9	12,3	25,4
2014	41,8	45,6	102,9	2534	2935	5624	5,6	6,1	14,2	14,2	13,7	27,2
2015	54,2	53,8	118,4	2972	3248	6089	6,4	5,9	15,8	18,1	15,9	32,3
2016	63,7	59,2	141,8	3486	3512	6527	7,9	6,7	17,7	29,7	19,4	34,7
2017	107,7	78,5	189,3	4168	3609	6935	8,8	7,2	21,1	42,3	28,1	41,6
2018	174,8	127,9	286,4	5732	3837	7344	12,4	9,3	24,5	71,9	38,6	68,4
2019	261,3	165,1	362,8	6218	4721	8789	19,6	12,6	30,6	68,4	56,2	84,3
2020	76,2	62,6	179,3	2479	2915	6504	6,3	5,7	14,3	5,1	17,4	41,0
2021	163,9	102,3	248,4	5341	4108	7002	15,4	8,3	21,7	53,8	34,1	63,7
2022	204,9	122,0	313,0	5523	4302	8123	15,3	9,4	25,3	59,0	42,4	72,7
2023	231,9	130,8	337,5	5838	4465	8421	16,3	9,8	26,6	63,9	45,6	77,9


“TOJ MAHAL” MCHJ faoliyatida ko‘rsatilgan ichki turizm xizmatlari hajmi va unga ta’sir etuvchi omillar ta’sirida o‘zgarishining ko‘p omilli ekonometrik modeli tuzildi. Unga ko‘ra ushbu jarayonni ifodalovchi regressiya tenglamasi tuzildi.

$$\ln Y = -0,346 \cdot \ln X_1 + 0,174 \cdot \ln X_2 + 0,912 \cdot \ln X_3 + 3,912 \quad (3)$$

Aniqlangan chiziqli logarifmik model potentsirlansa, korxona faoliyatida ichki turizm xizmatlari hajmini ifodalovchi chiziqsiz ko‘rinishdagi ekonometrik model kelib chiqadi:

$$Y_2 = \frac{X_2^{0,174} \cdot X_3^{0,912} \cdot e^{3,912}}{X_1^{0,346}} \quad (4)$$

Dasturiy paketdan foydalangan holda tuzilgan model va uning parametrlarining ishonchliligi hamda adekvatligini bir necha mezonlar asosida tekshirib, natijalar aniqligiga ishonch hosil qilish lozim. Aniqlangan trendda avtokorrelyatsiya belgilangan optimal chegaradan bir oz yuqoriligi ($DW=2,18$) va boshqa mezonlar bo'yicha talabga javob berganligidan yuqorida aniqlangan (3) - regressiya tenglamasi ishonchli deb topildi va adekvatligi isbotlandi.



1-rasm. 2011-2026 yillarda “ANDIJONTURIST” MCHJ , “TOJ MAHAL” MCHJ va «Dolores Travel Services» MCHJda ko‘rsatilgan ichki turizm xizmatlari hajmining o‘zgarishi, mln. so‘m (2022-2026 yillar prognoz)

«Dolores Travel Services» MCHJ faoliyatida ko‘rsatilgan ichki turizm xizmatlari va unga ta’sir etuvchi omillar ta’sirida o‘zgarishining ko‘p omilli ekonometrik modeli tuzildi. Unga ko‘ra ushbu jarayonni ifodalovchi regressiya tenglamasi tuzildi.

$$\ln Y = 0,493 \cdot \ln X_1 - 0,084 \cdot \ln X_2 + 0,938 \cdot \ln X_3 - 2,45(5)$$

Aniqlangan chiziqli logarifmik model potentsirlansa, korxona faoliyatida logistik zanjirlardagi xarajatlarni ifodalovchi chiziqsiz ko‘rinishdagi ekonometrik model kelib chiqadi:

$$Y_3 = \frac{X_1^{0,493} \cdot X_3^{0,938}}{X_2^{0,084} \cdot e^{2,45}} \quad (6)$$

Dasturiy paketdan foydalangan holda tuzilgan model va uning parametrlarining ishonchliligi hamda adekvatligini bir necha mezonlar asosida tekshirib, natijalar aniqligiga ishonch hosil qilish lozim. Aniqlangan trendda avtokorrelyatsiya belgilangan optimal chegaradan bir oz pastligi ($DW=1,67$) va boshqa mezonlar bo'yicha talabga javob berganligidan yuqorida aniqlangan (5) - regressiya tenglamasi ishonchli deb topildi va adekvatligi isbotlandi. Ko‘p omilli bog‘lanish asosida aniqlangan trend modellari kelgusi davrda turistik korxonalar tomonidan ko‘rsatilgan ichki turizm xizmatlari hajmining tanlangan omillar ta’sirida ma’lum bir chegaradagi xatoliklarni hisobga olgan holda o‘zgarishini oldindan prognozlash imkonini beradi[12,13].

Yuqoridagi tahliliy ma’lumotlar hamda ko‘rsatkichlar qiymatlarini baholash asosida “ANDIJONTURIST” MCHJ, “TOJ MAHAL” MCHJ va «Dolores Travel Services» MCHJda kelgusi davrda rivojlantirish strategiyalari asosida ssenariylar ishlab chiqish jarayonida qo‘llash mumkin.

Tuzilgan trend modellaridan foydalanishda ichki turizm xizmatlari bozorida faoliyat olib borayotgan turistik korxonalarda boshqaruv nuqtai nazaridan kiritilayotgan resurslar (ekzogen omillar) hajmini har bir birlik qo‘shimcha kiritilayotgan resurs birligidan olinadigan samarani hisobga olgan holda belgilash ko‘rsatilayotgan ichki turizm xizmatlari hajmi samaradorligini optimal

ta'minlash imkonini beradi hamda turistik korxonalar faoliyatining muvozanatlashgan holda barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. И.В.Зорин, В.А.Квартальнов. Экономика туризма. -М;Ф и С,2004.- 35с.
2. Косолапов А. География Российского внутреннего туризма. –М.: КНОРУС, 2020. -268 с.Трубин А. Развитие внутреннего туризма территорий: монография. –М.: Издательская корпорация “Дашков и К.”, 2021. -132 с.
3. Биржаков, М. Б. Экономическая безопасность туристской отрасли. Москва; Санкт-Петербург : Герда, 2007. – 458 с.Карманова, Т.Е. Статистика туризма / Tourism statistics: учебник для бакалавров. 2-е изд., перераб. и доп. М. : КНОРУС, – 2012. – 115с.
4. Mirzaev A. T. Organizational and economic aspects of agrarian tourism activity management in Uzbekistan: analysis, changes, and prospects. Journal of law and sustainable development. Miami| v.11, n. 12| pages: 01-24| e02668 |2023. <https://orcid.org/0000-0002-4261-8752>.
5. G.Sh. Khankeldieva. Improving the use of innovative methods in employee management in enterprises. Miami| v.11, n. 12| pages: 01-22| e02666 |2023. <https://orcid.org/0009-0008-8909-4926>
6. Elena Klochko, Lidia Kovalenko, Bekmurod Ollanazarov, Abdullajon Mirzaev and Bakhodir Ruzmetov. The mechanism of municipal public-private partnership as a driver of ethnic tourism development in the Krasnodar territory. BIO Web of Conferences, 06016 (2024). <https://doi.org/10.1051/bioconf/20248206016>
7. Мирзаев А.Т. Оценка использования рекреационных возможностей на рынке туристических услуг // Региональная экономика: теория и практика. – 2019. – Т. 17, № 5. – С. 990 – 1002. <https://doi.org/10.24891/re.17.5.990>.
8. Mirzaev A. T. Evaluation of innovation capacity resource components in effective management of recreational clusters on the basis of econometric analysis // EPRA International Journal of Research and Development (IJRD). – 2020. – pp.131-137. <https://doi.org/10.36713/epra4790>.
9. Mirzaev, A. T. (2020). Assessment of cluster formation in management of recreational activity. ISJ Theoretical & Applied Science, 04 (84), 605-610. <https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2020.04.84.101>

УДК: 336.77 ББК 65.261 Т 14

**"ФИНАНСОВЫЕ ИНСТРУМЕНТЫ СТИМУЛИРОВАНИЯ УСТОЙЧИВОГО
ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА: ЗЕЛЕННЫЕ ОБЛИГАЦИИ И ИНВЕСТИЦИИ"**

**"BARQAROR TADBIRKORLIKNI RAQBATLANTIIRISH UCHUN MOLIYAVIY
VOSITALAR: YASHIL OBLAGACIYALAR VA INVESTITSIYALAR"**

**"FINANCIAL INSTRUMENTS TO STIMULATE SUSTAINABLE
ENTREPRENEURSHIP: GREEN BONDS AND INVESTMENTS"**

Таджибаев Закир Маликович –профессор кафедры
«Финансы» Ферганского Государственного университета

Статья посвящена анализу финансовых инструментов стимулирования устойчивого предпринимательства в Узбекистане. В ней рассматриваются основные механизмы привлечения капитала для проектов, направленных на улучшение экологической и социальной ответственности компаний, а также на развитие возобновляемой энергетики, энергоэффективности и управления отходами в Узбекистане. В статье подчеркивается важность зелёных облигаций как ключевого инструмента для мобилизации капитала, необходимого для достижения целей устойчивого развития

Ключевые слова: зелёные облигации, устойчивые инвестиции, устойчивое предпринимательство, ESG-критерии, возобновляемая энергетика, энергоэффективность, Узбекистан, управление отходами, экологическая ответственность, социальная ответственность.

Мақола Ўзбекистонда барқарор тадбиркорликни рағбатлантиришнинг молиявий воситаларини таҳлил қилишга бағишланган. Унда компанияларнинг экологик ва ижтимоий масъулиятини оширишга, шунингдек, Ўзбекистонда қайта тикланадиган энергия, энергия самарадорлиги ва чиқиндиларни бошқаришни ривожлантиришга қаратилган лойиҳалар учун капитални жалб қилишнинг асосий механизмлари кўриб чиқилган. Мақолада барқарор ривожланиш мақсадларига эришиш учун зарур бўлган капитални жалб қилишнинг асосий воситаси сифатида яшил облигацияларнинг аҳамияти таъкидланган.

Калит сўзлар: яшил облигациялар, барқарор инвестициялар, барқарор тадбиркорлик, ESG мезонлари, қайта тикланадиган энергия, энергия самарадорлиги, Ўзбекистон, чиқиндиларни бошқариш, экологик жавобгарлик, ижтимоий жавобгарлик.

The article is devoted to the analysis of financial instruments to stimulate sustainable entrepreneurship in Uzbekistan. It examines the main mechanisms for raising capital for projects aimed at improving the environmental and social responsibility of companies, as well as the development of renewable energy, energy efficiency and waste management in Uzbekistan. The article highlights the importance of green bonds as a key tool for mobilizing capital needed to achieve sustainable development goals.

Key words: green bonds, sustainable investments, sustainable entrepreneurship, ESG criteria, renewable energy, energy efficiency, Uzbekistan, waste management, environmental responsibility, social responsibility.

В последние годы наблюдается растущий интерес к устойчивому развитию, что проявляется в активизации использования таких инструментов, как зеленые облигации и устойчивые инвестиции. Финансовые рынки все больше ориентируются на поддержку экологически и социально ответственных проектов, что отражает глобальные усилия по борьбе с изменением климата и деградацией окружающей среды. В этом контексте зеленые облигации и устойчивые инвестиции становятся ключевыми финансовыми инструментами стимулирования устойчивого предпринимательства, направленного на внедрение экологически безопасных технологий и развитие социальной ответственности бизнеса. Их актуальность возрастает в условиях необходимости мобилизации капитала для достижения целей устойчивого развития, определенных ООН (World Bank Group, 2018, p. 12).

Целью данного исследования является анализ роли зеленых облигаций и устойчивых инвестиций как финансовых инструментов стимулирования устойчивого предпринимательства. Исследование направлено на выявление ключевых механизмов, обеспечивающих привлечение финансовых ресурсов в проекты, способствующие устойчивому развитию, а также оценку влияния этих инструментов на экономику предприятий и общества в целом.

Обзор ключевых понятий. Зеленые облигации — это долговые ценные бумаги, средства от размещения которых используются исключительно для финансирования проектов, связанных с улучшением экологической обстановки. Эти проекты включают снижение выбросов углекислого газа, энергоэффективность, возобновляемые источники энергии и управление отходами (Climate Bonds Initiative, 2020, p. 5).

1. Устойчивое предпринимательство — это предпринимательская деятельность, ориентированная на интеграцию экономических, экологических и социальных аспектов в стратегию компании, с целью минимизации негативного воздействия на окружающую среду и общество (Schaltegger, 2012, p. 69).

2. Устойчивые инвестиции — это капиталовложения, которые учитывают критерии экологической, социальной и управленческой ответственности (ESG-критерии), направленные на финансирование компаний и проектов, стремящихся к устойчивому развитию (Sustainable Investment Forum, 2021, p. 18).

Важно отметить, что финансовые инструменты, такие как зеленые облигации и устойчивые инвестиции, играют важную роль в стимулировании устойчивого предпринимательства, так как они позволяют привлечь капитал для финансирования проектов, связанных с устойчивым развитием. Зеленые облигации, например, дают возможность компаниям и правительствам мобилизовать средства для инвестиций в экологически чистые технологии, что способствует не только снижению воздействия на окружающую среду, но и повышению конкурентоспособности бизнеса. Устойчивые инвестиции, учитывающие ESG-критерии, помогают привлекать капитал в компании, которые придают особое внимание социальной и экологической ответственности, что формирует новую культуру предпринимательства, ориентированную на долгосрочные устойчивые решения.

Говоря о сущности зеленых облигаций, надо отметить, что они представляют собой долговые ценные бумаги, эмитированные с целью привлечения капитала для финансирования проектов, направленных на улучшение экологической обстановки. Это могут быть проекты, связанные с возобновляемыми источниками энергии, энергосбережением, управлением отходами и другими экологически значимыми инициативами. В отличие от обычных облигаций, средства, полученные от размещения зеленых облигаций, могут быть использованы исключительно для финансирования "зеленых" проектов.

Что касается принципов выпуска и использования зеленых облигаций, то эмиссия зеленых облигаций регулируется международными стандартами, такими как Зеленые облигационные принципы (Green Bond Principles — GBP), разработанные Международной ассоциацией рынков капитала (ICMA). Эти принципы включают несколько ключевых аспектов:

1. Использование поступлений: Средства, привлеченные с помощью зеленых облигаций, должны быть направлены исключительно на экологические проекты, определенные эмитентом.

2. Процесс оценки и отбора проектов: Эмитенты обязаны описывать процесс, посредством которого они оценивают и выбирают проекты для финансирования зелеными облигациями.

3. Управление поступлениями: Средства от зеленых облигаций должны быть размещены на отдельных счетах или тщательно отслеживаться для обеспечения их целевого использования.

4. Отчетность: Эмитенты обязаны регулярно предоставлять отчеты о реализации проектов и использовании средств (ICMA, 2021, с. 3-5).

Следует отметить, что в мире накоплен определенный опыт выпуска зеленых облигаций. В 2020 году объемы эмиссии зеленых облигаций превысили 290 миллиардов долларов США, и этот рынок продолжает расти. Активное участие в выпуске зеленых облигаций принимают не только международные финансовые институты, но и национальные правительства, компании и муниципальные образования. Среди лидеров по объему выпуска зеленых облигаций находятся такие страны, как США, Китай и Франция (OECD, 2021, с. 18).

Примерами успешного использования зеленых облигаций являются такие страны, как США, Китай, Франция, где государственные и корпоративные эмитенты активно выпускают зеленые облигации для финансирования экологических проектов.

Зеленые облигации оказывают немаловажное влияние для обеспечения устойчивых инвестиций, с целью развития устойчивого предпринимательства, т.к. они позволяют мобилизовать средства для экологически значимых проектов. В Узбекистане выпуск зеленых облигаций является важным шагом к стимулированию экологических инициатив, таких как

развитие солнечной и ветровой энергетики, улучшение энергоэффективности в промышленности и управлении отходами.

Кроме того, устойчивые инвестиции играют ключевую роль в повышении экологической и социальной ответственности компаний. В Узбекистане растет интерес к проектам, которые учитывают ESG-факторы, что стимулирует компании улучшать свою деятельность в этих областях. Это не только позволяет привлекать дополнительные инвестиции, но и способствует росту доверия со стороны международных инвесторов, что особенно важно для экономики развивающихся стран, таких как Узбекистан.

Узбекистан активно приступил к устойчивому предпринимательству, поддерживаемого зелеными облигациями и устойчивыми инвестициями. Примерами тому являются:

- Проект строительства солнечных электростанций в Навоийской области и проект модернизации систем водоснабжения в Самаркандской области.

Устойчивые инвестиции в Узбекистане имеют ряд важных преимуществ, которые способствуют не только развитию экономики страны, но и поддержке экологически и социально ответственных проектов. Основные преимущества включают:

Привлечение международного капитала. Инвесторы все больше отдают предпочтение проектам, которые соответствуют ESG-критериям (экологическим, социальным и управленческим стандартам). Узбекистан, активно развивающий сектор возобновляемой энергетики и другие устойчивые проекты, получает возможность привлечь больше международных инвестиций в устойчивое развитие. Это улучшает финансовую устойчивость страны и открывает доступ к глобальному капиталу (Amal, 2020, с. 38).

1. Снижение экологических рисков. Устойчивые инвестиции способствуют развитию проектов, направленных на снижение воздействия на окружающую среду, таких как проекты по развитию возобновляемой энергетики, улучшению энергоэффективности и управлению водными ресурсами. Это помогает Узбекистану справляться с проблемами изменения климата и ресурсной зависимости (World Bank, 2021, с. 16).

2. Повышение социальной ответственности и улучшение качества жизни. Устойчивые инвестиции включают социальные проекты, направленные на улучшение условий труда, здравоохранения и образования. Это приводит к повышению качества жизни населения, снижению социальной напряженности и улучшению социальной стабильности в регионах. Например, проекты по модернизации водоснабжения и строительству доступного жилья улучшают условия жизни в сельских и городских районах (UNDP Uzbekistan, 2021, с. 23).

3. Диверсификация экономики и стимулирование инноваций. Инвестиции в устойчивые проекты, такие как возобновляемая энергетика и энергоэффективные технологии, способствуют диверсификации экономики Узбекистана. Развитие новых секторов снижает зависимость страны от традиционных отраслей, таких как добыча углеводородов. Это также стимулирует внедрение инноваций, что способствует повышению конкурентоспособности экономики на глобальном уровне (Asian Development Bank, 2020, с. 21).

4. Повышение репутации и доверия международных инвесторов. Устойчивые инвестиции помогают улучшить репутацию Узбекистана как ответственного участника мирового рынка. Приверженность к экологическим и социальным стандартам повышает доверие со стороны международных финансовых институтов и инвесторов. Это особенно важно для укрепления позиций страны на мировом финансовом рынке и привлечения долгосрочных инвестиций (IFC, 2020, с. 14).

Перспективные направления развития зеленых облигаций для устойчивого развития в Узбекистане:

1. Увеличение спроса на проекты в области возобновляемой энергетики. Перспективы роста зеленых облигаций в Узбекистане напрямую связаны с развитием возобновляемых источников энергии. В рамках национальной программы по устойчивому развитию правительство планирует увеличить долю таких источников энергии до 25% к 2030 году. Международные финансовые институты, такие как Азиатский банк развития и Всемирный банк, уже активно поддерживают подобные проекты. (Азиатский банк развития, 2021, с. 16).

2. Поддержка международных финансовых организаций. Узбекистан получает значительную поддержку от международных финансовых организаций, которые заинтересованы в развитии устойчивых проектов в регионе. Всемирный банк, Международная финансовая корпорация (IFC) и Европейский банк реконструкции и развития (ЕБРР) активно содействуют выпуску зеленых облигаций и развитию устойчивых инвестиций в Узбекистане. (EBRD, 2020, с. 9).

3. Привлечение иностранных инвесторов. Зеленые облигации и устойчивые инвестиции в Узбекистане представляют собой привлекательные инструменты для иностранных инвесторов, заинтересованных в экологически и социально ответственных проектах. Правительство Узбекистана создает благоприятные условия для привлечения таких инвесторов, предлагая налоговые льготы и поддержку на законодательном уровне. (IFC, 2020, с. 12).

Вместе с тем, в Узбекистане на пути развития зеленых облигаций и устойчивых инвестиций имеются определённые вызовы, и они следующие:

1. Недостаточная развитость финансового рынка Один из основных вызовов на пути развития зеленых облигаций в Узбекистане — это недостаточная развитость внутреннего финансового рынка. Для эффективного привлечения капитала необходимо развитие рынка облигаций и создание благоприятных условий для их выпуска. В стране пока отсутствуют полноценные рыночные механизмы и инфраструктура для массового размещения зеленых облигаций (UNDP Uzbekistan, 2021, с. 18).

2. Отсутствие четкой регуляторной базы Регулирование зеленых облигаций требует четкой нормативно-правовой базы и стандартов, что пока недостаточно проработано в Узбекистане. Международные стандарты, такие как Green Bond Principles, уже применяются в странах с развитыми рынками капитала, однако их адаптация и внедрение в Узбекистане требует времени и усилий. Отсутствие четкого регулирования может затруднять привлечение иностранных инвесторов и реализацию крупных проектов (Минфин Республики Узбекистан, 2020, с. 11).

3. Ограниченный доступ к технологиям и знаниям для реализации проектов, финансируемых через зеленые облигации, требуется доступ к передовым экологическим технологиям и знаниям. В Узбекистане существует ограниченное количество компаний и специалистов, способных реализовать такие проекты на высоком уровне. (World Bank, 2021, с. 20).

4. Необходимость в долгосрочных инвестициях. Проекты, финансируемые через зеленые облигации и устойчивые инвестиции, часто требуют долгосрочных вложений. Однако многие инвесторы ориентированы на краткосрочные выгоды, что создает вызовы для привлечения капитала в долгосрочные проекты, направленные на снижение выбросов углекислого газа и переход к устойчивой экономике. Для решения этой проблемы необходимо создать механизмы стимулирования долгосрочных инвестиций и гарантии для инвесторов (EBRD, 2020, с. 10).

Зеленые облигации и устойчивые инвестиции представляют собой перспективные инструменты для развития экономики Узбекистана, особенно в контексте перехода к низкоуглеродной и устойчивой экономике. Однако на пути их развития стоят серьезные вызовы, такие как необходимость создания финансовой инфраструктуры, регуляторной базы и повышения квалификации кадров. Решение этих задач позволит Узбекистану эффективно использовать потенциал устойчивого финансирования и привлечь значительные инвестиции в экологические и социальные проекты.

Список использованной литературы:

1. Об утверждении Стратегии по переходу Республики Узбекистан на «зеленую» экономику на период 2019 — 2030 годов. Постановление Президента Республики Узбекистан, от 04.10.2019 г. № ПП-4477. <https://www.lex.uz/ru/docs/4539506>

2. Финансирование перехода Узбекистана к «зеленой» экономике.
https://www.oecd.org/ru/publications/2023/12/financing-uzbekistan-s-green-transition_6ebf6b94.html
3. Asian Development Bank. (2021). Отчет о прогрессе в реализации проектов устойчивого развития в Центральной Азии. с. 14-20.
4. EBRD. (2020). Green Economy Transition in Uzbekistan. pp. 9-12.
5. ICMA. (2021). Green Bond Principles: Voluntary Process Guidelines for Issuing Green Bonds. с. 3-5.
6. Kell, G. (2018). "The Remarkable Rise of ESG". Forbes. pp. 22-26.

O‘ZBEKISTONDA MEVA-SABZAVOTCHILIK KORXONALARINING ZARURATI VA RIVOJLANISH HOLATI

НЕОБХОДИМОСТЬ И СОСТОЯНИЕ РАЗВИТИЯ ПЛОДООВОЩЕВОДЧЕСКИХ ПРЕДПРИЯТИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ

THE NEED AND DEVELOPMENT SITUATION OF FRUIT AND VEGETABLE ENTERPRISES IN UZBEKISTAN

Xudoyberganova D.A. mustaqil izlanuvchi,
Farg‘ona politexnika instituti

Annotatsiya

Maqolada milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda qishloq xo‘jaligini isloh qilish, jumladan, meva-sabzavotchilik korxonalarini rivojlantirish, tayyor mahsulot eksportini rivojlantirish zarurati yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligining asosiy ko‘rsatkichlari, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yetishtiriladigan meva-sabzavot mahsulotlari tahlili amalga oshirilgan. Respublikada faoliyat yuritayotgan meva-sabzavotchilik klasterlarining hududlar bo‘yicha taqsimlanishi keltirilgan bo‘lib, korxonalar tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulotlarning eksport salohiyati o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: qishloq xo‘jaligi, meva-sabzavotchilik klasterlari, eksport, oziq-ovqat xavfsizligi, yong‘oq mevalilar, subtropik mevalar, sitrus mevalar.

В статье подчёркивается необходимость реформирования сельского хозяйства, в том числе развития плодовоовощеводческих предприятий, а также расширения экспорта готовой продукции в целях устойчивого развития национальной экономики. Также было проведен обзор основных показателей сельского хозяйства Республики Узбекистан, анализ плодовоовощной продукции, выращиваемой в хозяйствах всех категорий. Представлено региональное распределение действующих в республике плодовоовощных кластеров, изучен экспортный потенциал продукции, выпускаемой отечественными предприятиями.

Ключевые слова: сельское хозяйство, плодовоовощные кластеры, экспорт, продовольственная безопасность, орехи, субтропические фрукты, цитрусовые.

The article emphasizes the need to reform agriculture, including the development of fruit and vegetable enterprises, as well as expanding the export of finished products for the sustainable development of the national economy. A review of the main indicators of agriculture of the Republic of Uzbekistan and an analysis of fruits and vegetables grown in farms of all categories was also carried out. The regional distribution of fruit and vegetable clusters operating in the republic is presented, and the export potential of products produced by domestic enterprises is studied.

Key words: agriculture, fruit and vegetable clusters, export, food security, nuts, subtropical fruits, citrus fruits.

So‘ngi yillarda Respublika qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarni xususan, chorvachilik va issiqxona xo‘jaliklarini, meva-sabzavotchilik klasterlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, hamda uzumchilik va vinochilik sohasini barqaror rivojlantirish, xom ashyo bazasi kengaytirish va eksport hajmini oshirish, agrar sektorni zamonaviy, resurs tejamkor texnikalar bilan ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ma‘lumki, mamlakatimizdagi mavjud tabiiy-iqlim sharoiti qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini, xususan, meva-sabzavotchilikni barqaror rivojlantirish imkonini beradi. Xususan, korxonalarda ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulotlarning turlari va assortimentini kengaytirish, ularni tashqi

bozorlarda sotish, shuningdek, tarmoq korxonalarining investitsiya va eksport faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha bir qator kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilib, uning huquqiy bazasi shakllantirildi.

Jumladan, mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi sohasini isloh qilish, meva-sabzavotchilik korxonalarini rivojlantirish, mahsulot yetishtirish hajmini hamda eksport salohiyatini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash borasida izchil islohotlar olib borilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.12.2019 yil “Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish, sohada qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4549-son qarorida meva-sabzavot va uzumchilik sohasida yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish, eksport hajmini oshirish, foydalanishdan chiqqan va lalmi yerlarni o‘zlashtirish, paxta, g‘alladan qisqartirilayotgan maydonlarga eksportbop qishloq xo‘jaligi ekinlari ekishni ko‘paytirish, shuningdek, bog‘, tokzor va issiqxonalar imkoniyatlaridan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish masalalari belgilangan [1]. Shuningdek, “Meva-sabzavotchilik sohasida qishloq xo‘jaligi kooperatsiyasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.03.2019 yildagi PQ-4239 qarorida meva-sabzavotchilik sohasida qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratishni rag‘batlantirish, sifatli meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarish va uning eksporti barqarorligini ta‘minlash, mazkur mahsulot ishlab chiqaruvchilarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini oshirish maqsadlari belgilangan [2].

Qishloq xo‘jaligi, xususan, meva-sabzavotchilik tarmog‘ini barqaror rivojlantirish istiqbollarini baholashning ilmiy-nazariy asoslari xorijlik olimlar D.Byerlee, Adeel R.A., O.A.Buryanova, M.M.Butakova, I.F.Xiskov kabi xorijlik olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Shuningdek, meva va rezavor subkompleks korxonalari barqarorligini ta‘minlashda ishlab chiqarish, kooperatsiya va integratsiyaning ushbu sohasidagi davlat tomonidan tartibga solish masalalari ham o‘rganilgan[1].

Mamlakatimiz olimlari tomonidan ham meva-sabzavotchilik korxonalarining zarurati va ahamiyati mamlakatimiz olimlari tomonidan ham o‘rganilgan. M.Mannopova tadqiqotlarida qishloq xo‘jaligi sohasida meva-sabzavotchilik klasterlarining ahamiyati, meva-sabzavot klasterlarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va ularni qayta ishlashga qaratilgan islohotlarni chuqurlashtirishda agrar siyosatni olib borilishining ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan. Meva-sabzavotchilik klasterlarini boshqarishdagi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish masalalari ko‘rsatilgan[2].

A.M.Qodirov tadqiqotlarida meva-sabzavotchilik tarmog‘ida ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash hamda eksport bosqichlarini samarali tashkil qilish asosida milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga ta‘siri tadqiq etilgan. Mamlakatimiz meva-sabzavotchilik tarmog‘ini raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan[3].

Meva-sabzavotchilik fermer xo‘jaliklari faoliyatini statistik tahlil qilishning nazariy jihatlar, statistik ko‘rsatkichlar tizimi va ularning amaliy qo‘llanilishi ushbu maqolada muhokama qilinadi. Meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarida statistik tahlil bosqichlari statistik ko‘rsatkichlar va asosiy vazifalar berilgan. Fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish, meva va sabzavotlarga ixtisoslashgan va ularning faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari, rivojlanish tendentsiyalari, aniqlangan muammolar, ushbu muammolarni hal qilishning mavjud usullari va meva-sabzavot maydonini modernizatsiya qilish omillari A.S.Xodjayev tadqiqotlarida batafsil tahlil qilindi[4].

Meva-sabzavotchilik korxonalarining faoliyatini rivojlantirish yo‘nalishlari respublikamizdagi meva-sabzavot kooperativlari tajribaga asoslangan mintaqada meva-sabzavot kooperativlarini tashkil etish bo‘yicha xorijiy davlatlarning tajribalari SH. Fayziyeva va boshqalar tomonidan o‘rganilgan[5].

Mamlakatimizda meva-sabzavotchilik mahsulotlarining ko‘plab turlarini yetishtirish uchun qulay tabiiy iqlim sharoitlari mavjud qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun qulay iqlim sharoit mavjud. Qishloq xo‘jaligi mamlakat iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligining asosiy ko‘rsatkichlari [3]

Yillar	Qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmimlrd. so‘m	shundan:		Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining o‘sinh sur‘ati	shundan:	
		dehqonchilik	Chorvachilik		dehqonchilik	chorvachilik
2014	81794,3	43194,3	38600,0	106,3	105,9	106,7
2015	99604,6	55429,0	44175,6	106,1	105,5	106,9
2016	115599,2	61754,8	53844,4	106,3	105,7	107,0
2017	148199,3	83303,6	64895,7	101,0	98,2	104,1
2018	187425,6	98406,4	89019,2	100,2	95,8	105,7
2019	216283,1	111904,5	104378,3	103,3	104,8	101,6
2020	250250,6	123858,8	126391,8	102,7	103,2	102,1
2021	303415,5	152130,4	151285,1	103,9	104,3	103,5
2022	345191,7	177962,7	167229,0	103,6	103,8	103,3

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish yildan-yilga ortib bormoqda. 2022 yil yakunlari bo‘yicha sohada ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi 345191,7 mlrd. so‘mni tashkil etib 103,6 % o‘sinh sura’tiga yetgan. Bu ko‘rsatkich 2018 yilga nisbatan 5 barobarga ortgan.

Meva-sabzavotchilik O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi sektorining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ham dehqon, ham fermer xo‘jaliklari uchun eng foydali faoliyat turlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston zaminida ozuqaviy qiymati yuqori, o‘ziga xos ta‘m xususiyatlariga ega, jahon bozorlarida ham ma‘lum bo‘lgan meva-sabzavotlar yetishtirilmoqda. Meva-sabzavotchilik sektorida mamlakatimiz YAIMining qariyb 7 foizi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 27 foizi ishlab chiqariladi.

2-jadval

O‘zbekiston Respublikasida barcha toifadagi xo‘jaliklarda yetishtiriladigan meva-sabzavot mahsulotlari tahlili (ming tonna) [4].


Yillar	Sabzavotlar	Mevalar va rezavorlar	Yong‘oq mevalilar	Subtropik mevalar	Rezavor mevalar	Sitrus mevalar
2014	8753,9	2306,5	74,1	132,5	8,7	3,5
2015	9390,0	2467,9	87,3	141,3	10,0	4,8
2016	10184,0	2612,9	99,4	160,2	11,2	5,8
2017	10219,9	2614,9	111,0	142,6	11,0	3,5
2018	9760,3	2706,2	85,7	163,3	8,2	11,9
2019	10215,1	2752,7	90,6	190,4	11,0	9,5
2020	10020,2	2812,6	111,6	198,2	13,4	10,0
2021	10850,2	2852,6	108,6	197,8	14,1	9,9
2022	11162,9	2999,3	109,1	186,7	12,5	10,6
2023	11553,7	3121,7	104,3	173,1	13,7	11,2

Tahlil natijalaridan ko‘rish mumkinki, mamlakatimizda meva-sabzavotchilik sektori yildan yilga o‘sinh bormoqda. 2014 yilga nisbatan 2023 yilda sabzavotlar 131,98 %ga, mevalar va rezavorlar 135,34%ga, yong‘oq mevalilar 140,75%ga, subtropik mevalar 130,64 %ga, rezavor mevalar 157,47%ga, Sitrus mevalarini yetishtirish esa 320%ga o‘sganligini ko‘rishimiz mumkin.

Ayni paytda O‘zbekiston meva-sabzavotga bo‘lgan o‘rtacha yillik ehtiyojining qariyb 96 foizini o‘z ishlab chiqarishi hisobidan ta‘minlamoqda. Hozirda mamlakat o‘rik yetishtirish bo‘yicha dunyoda 2-o‘rin, sabzi yetishtirish bo‘yicha 3-o‘rin, gilos yetishtirish bo‘yicha 4-o‘rin, bodring yetishtirish bo‘yicha 7-o‘rin, olcha va anjir yetishtirish bo‘yicha esa 8-o‘rinda turadi.

Mamlakatga import qilinadigan meva va sabzavotlarning asosiy turlari kartoshka, banan, sitrus mevalari, olma, dukkakli ekinlar, xurmo va boshqalar hisoblanadi.

Aholi sonini ortib borishi, butun dunyo bo‘ylab oziq-ovqat havfsizligi masalalariga katta e‘tibor qaratilayotgan bir vaqtda dehqon xo‘jaligi mahsulotlariga, jumladan, oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talab tobora ortib bormoqda.



Tahlillardan ko‘rish mumkinki, mamlakatimizda eng ko‘p yetishtiriladigan meva mahsuloti uzum hisoblanadi. Uzun mahsulotlarini yetishtirish 2017 yilda 1625,5 ming tonna, 2020 yilda 1606,9 ming tonna, 2023 yilda esa 1731,7 ming tonnani tashkil etgan. Olma yetishtirish 2017 yilda 1028,8 ming tonna, 2020 yilda 1148,3 ming tonna, 2023 yilda 1385,9 mint tonnaga etgan. O‘rik mahsulotlarini yetishtirish 2017 yilda 532,6 ming tonna, 2020 yilda 529,1 ming tonna, 2023 yilda esa 500,5 ming tonna hosil olingan. Gilos yetishtirish 2017 yilda 136,6 ming tonna, 2020 yilda 185,1 ming tonna 2023 yilda 218,9 ming tonnagacha ortgan. Nok mahsulotlarini yetishtirish esa 2017 yilda 104,9 ming tonna, 2020 yilda 109,3 ming tonna, 2023 yilda 125,1 ming tonnagacha yetgan.

4-jadval

Respublikada faoliyat yuritayotgan meva-sabzavotchilik klasterlarining hududlar bo‘yicha taqsimlanishi [5]

Hududlar	Klasterlar soni	Fermer xo‘jaliklari soni	Umumiy klaster yer maydonlari
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	13	395	5183
Andijon viloyati	14	1312	11214
Buxoro viloyati	5	136	2738
Jizzax viloyati	12	1125	14968
Qashqadaryo viloyati	8	306	3730
Navoiy viloyati	7	105	3313
Namangan viloyati	13	961	16299
Samarqand viloyati	13	2920	21848
Surxondaryo viloyati	13	385	5047
Sirdaryo viloyati	6	111	2847
Toshkent viloyati	18	727	13301
Farg‘ona viloyati	19	1387	11537
Xorazm viloyati	6	209	891
Jami	147	10079	112916

Jadval ma’lumotlarida ko‘rish mumkinki eng ko‘p meva-sabzavotchilik klasterlari Farg‘ona va Toshkent viloyati hududlarga to‘g‘ri kelmoqda. Bu esa hududda mahsulotlar yetishtirish, tayyorlash, tashish, saqlash va qayta ishlash hamda ularni ichki va tashqi bozorlarda sotish uchun qulay sharoitlar mavjud ekanligidan dalolat beradi. Klasterlar tarkibiga birlashtirilgan fermer xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Samarqand viloyati hududiga to‘g‘ri kelmoqda. Bu holat mahsulot yetishtirish, tayyorlash, saqlash va qayta ishlashning zamonaviy, intensiv va resurs tejamkor texnologiyalarni keng joriy etish orqali samarali faoliyat yuritish uchun shart-sharoitlar mavjud ekanligidan dalolatdir.

Hukumatimiz tomonidan meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalarga ishlab chiqaruvchilarga moddiy-texnik resurslarni, jumladan, urug‘lik, ko‘chatlar, mineral o‘g‘itlar yetkazib berish, zarur agrotexnika xizmatlarini ko‘rsatishishlari tashkil etiladi.

Shuningdek, tayyorlash, qayta ishlash va eksport bilan shug‘ullanuvchi korxonalarni va agrosanoat klasterlarini jalb qilgan holda aholi tomonidan yetishtirilgan meva-sabzavot

mahsulotlarini sotib olish, qayta ishlash, saqlash, ichki va tashqi bozorlarga yetkazib berishni kafolatlash choralari ko‘rilishi soha korxonalari raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda meva-sabzavot eksporti ulkan salohiyatga ega. Bugungi kunda Respublikada yetishtirilayotgan 80 turdan ziyod qishloq xo‘jaligi mahsulotlari dunyoning 71 ta davlatiga eksport qilinmoqda. O‘zbekistonning savdo sheriklari hisoblangan mamlakatlarda uzum, o‘rik, gilos, piyoz, karam va boshqa mahsulotlarga talab yuqori. 2023 yilda eksport tarkibida uzum, 86,5mln, karam, 30,5 mln, shaftoli 67,2 mln, pomidor, 44,0 mln, qovun va tarvuz 40,0 mln, olxho‘ri quritilgan 45,1 mln, piyoz 61,2 mln, gilos 52,9 mln, o‘rik 40,7 mln.dollarni tashkil etdi. Meva-sabzavotchilik korxonalarining zarurati milliy oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash va iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Meva-sabzavotchilik korxonalarining asosiy zaruratini quyidagilar bilan ifodalash mumkin: tabiiy va sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarish, mahsulotlarni bozorlarga yetkazib berish, ekologik toza texnologiyalardan foydalanish, mahsulotlarni saqlash va qayta ishlash, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashdir. Innovatsion qishloq xo‘jaligi texnologiyalarini joriy etish, ya‘ni sug‘orish tizimlari, yuqori hosildor urug‘lar va sifatli o‘g‘itlardan foydalanish korxonalar uchun muhimdir. Meva va sabzavotlarni xalqaro bozorlarga eksport qilish imkoniyatlarini kengaytirishda korxonalar doimiy ravishda ishchi kuchi va malakali mutaxassislarini jalb qilishi kerak, bu esa mehnat bozoriga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, meva-sabzavotchilik korxonalari insonlar uchun muhim oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaradi va ularning samaradorligi iqtisodiy barqarorlik va sog‘lom turmush tarziga katta hissa qo‘shadi.

Fikrimizcha, meva-sabzavotchilik korxonalarini rivojlantirishda quyidagilar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

1. Eksport bozorlarini kengaytirish: Mahsulotlar sifatini yaxshilash va xalqaro talabga moslashtirish orqali yangi bozorlarga kirish imkoniyati mavjud. Global oziq-ovqat bozorida ekologik toza va organik mahsulotlarga talab ortib bormoqda, bu esa korxonalar uchun yaxshi imkoniyat yaratadi.

2. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish: Zamonaviy texnologiyalar, xususan, suvni tejaydigan sug‘orish usullari, yuqori samarali o‘g‘itlar, hosildorlikni oshiradigan genetik jihatdan yaxshilangan urug‘lardan foydalanish meva-sabzavotchilik sohasida samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

3. Qayta ishlash sanoatini rivojlantirish: Meva va sabzavotlarni qayta ishlash sanoatini kengaytirish orqali qo‘shimcha qiymat yaratish mumkin. Bu esa ishlab chiqarilgan mahsulotlarni saqlash muddatini oshirish va yangi bozorlarni o‘zlashtirish imkonini beradi.

4. Barqarorlik va ekologiya: Barqaror qishloq xo‘jaligi tamoyillarini qo‘llash meva-sabzavotchilik korxonalarining uzoq muddatli rivojlanishini ta‘minlash uchun muhim. Atrof-muhitga zarar yetkazmaslik va resurslarni tejash kelajakda katta ahamiyatga ega bo‘ladi.

5. Agroturizm va kooperatsiya: Kichik fermerlar o‘rtasidagi kooperatsiya va agroturizm sohasini rivojlantirish ham istiqbolli yo‘nalishlardan biri bo‘lib, u nafaqat mahalliy iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlaydi, balki xorijiy sayyohlarni ham jalb qiladi.

Umuman olganda, meva-sabzavotchilik korxonalari uchun istiqbollar texnologiyalarni qo‘llash, xalqaro talablarni qondirish va barqaror rivojlanishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqishga bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Куликов И. Организационно-экономический механизм устойчивого развития плодово-ягодного подкомплекса АПК //И. Куликов, В. Урусов //АПК: Экономика, управление. – 2008. – №8. – С. 10-15.
2. Маннопова М. С. Деятельность плодоовощных кластеров узбекистана и организационно-экономические механизмы управления ими //Scientific Impulse. – 2023. – Т. 1. – №. 10. – С. 989-997.

3. Қодиров, А. (2022). Повышение конкурентоспособности производства плодоовощной продукции в Узбекистане: https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss5/a64. Iqtisodiyot va ta'lim, 23(5), 383-389.
4. Azizkhon, K. (2017). The peculiarities of statistical analysis on fruit and vegetable farming (Fergana region is as an example). Бюллетень науки и практики, (8 (21)), 188-193.
5. Файзиева, Ш. Ш., Маматов, А. О., & Халимов, У. С. (2023). Изучение зарубежного опыта организации плодоовощных кооперативов в региональном сельском хозяйстве. Экономика и социум, (12 (115)-1), 1464-1468.

UDK: 33 (575.1)

**MEHNATDA BANDLIKNING NOAN'ANAVIY SHAKLLARINI RIVOJLANTIRISHGA
BAG'ISHLANGAN NAZARIYALAR EVOLUSIYASI**

**ЭВОЛЮЦИЯ ТЕОРИЙ, ПОСВЯЩЁННЫХ РАЗВИТИЮ НЕТРАДИЦИОННЫХ
ФОРМ ЗАНЯТОСТИ**

**EVOLUTION OF THEORIES DEDICATED TO THE DEVELOPMENT OF NON-
TRADITIONAL FORMS OF EMPLOYMENT**

Jumakulov Z.I. i.f.n., dots.FarDU
Jumakulov Sh.Z. PhD

Annotatsiya

Bozor iqtisodisodiyotiga o'tish bilan mamlakatimizda bandlik ta'limoti o'zgardi. Bandlikning mazmunli tavsiflari va uning tasniflanishini yanada aniqroq va bir butun holda tarkiblash imkonini beradigan tuchunshalar apparatini shakllantirish, maqsadga muvofiq bo'lmoqda. Maqolada bandlikning noan'anaviy (nostandart) va tartiblanmagan shakllari tuchunshasiga bo'lgan munosabatlarning rivojlanishi o'rganib chiqilgan.

Kalit so'zlar: bandlik an'anaviy shakli, bandlik noan'anaviy shakli, industrlashgan iqtisodiyot, egiluvchan bandlik, vaqtinchalik bandlik, to'liqsiz bandlik, o'zini o'zi band qilish, uy mehnatida bandlik, masofaviy bandlik, norasmiy bandlik, tasodifiy bandlik.

С переходом к рыночной экономике изменилась доктрина трудоустройства в нашей стране. Целесообразно сформировать понятийный аппарат, который позволит более точно и комплексно описать занятость и ее классификацию. В статье рассматривается развитие отношений с понятием нетрадиционных (нестандартизированных) и неупорядоченных форм занятости.

Ключевые слова: традиционная форма занятости, нетрадиционная форма занятости, индустриально развитая экономика, гибкая занятость, временная занятость, неполная занятость, самозанятость, дистанционная занятость, неформальная занятость, случайная занятость.

With the transition to a market economy, the doctrine of employment in our country has changed. It is appropriate to form the apparatus of concepts that will allow meaningful descriptions of employment and its classification in a more precise and integrated way. The article examines the development of relations to the concept of non-traditional (non-standardized) and unordered forms of employment.

Key words: traditional form of employment, non-traditional form of employment, industrialized economy, flexible employment, temporary employment, part-time employment, self-employment, remote employment employment", informal employment", casual employment.

Ilmiy adabiotlarda “bandlik an’anaviy shakli industrlashgan iqtisodiyot davri bilan bog‘liq bo‘lib, unda bandlik belgilari ko‘pchilik kishilarning o‘zi ta’lim olib bo‘lgandan so‘ng, bir ish beruvchiga to‘liq ish kuniga ega bo‘lgan ishga pensiya yoshiga yetgunga qadar joylashishi zarurligi bilan belgilanadi” [1]. XX asrning ikkinshi yarmida bandlik an’anaviy shakli davlat va kasaba uyushmalari tomonidan qat’iy me’yoriy-huquqiy asosda tartibga solinishi jamoa shartnomasi va ijtimoiy sheriklik tartibotlari, mehnat qonunshiligi va yollanma ishchilarni ijtimoiy himoyalash tizimi orqali rasmiylashtirilgan. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish bilan mamlakatimizda bandlik ta’limoti o‘zgardi. Bandlikning mazmunli tavsiflari va uning tasniflanishini yanada aniqroq va bir butun holda tarkiblash imkonini beradigan tuchunshalar apparatini shakllantirish, maqsadga muvofiq bo‘lmoqda.

Industrlashgan texnik-texnologik ukld jamiyatda bandlik an’anaviy (standartlashgan) shakllarining uetakshilik qilishini belgilagan bo‘lsa, industrlashgan jamiyat turi doirasidan tashqarida bandlikning noan’anaviy (nostandartlashgan) va tartiblanmagan shakllari me’yoriy holat bo‘lib qoldi, ular uchun adabiyotlarda keng tarqalgan “bandlik noan’anaviy shakli” tuchunchasiga birlashgan yagona yetakshi andoza mavjud emas. Hozirgi zamon jamiyatida bandlik an’anaviy shaklining kamayishi va turli noan’anaviy shakllari tomonidan asta-sekinlik bilan siqib shiqarilishi umumjahon ob’ektiv tendensiyasi kushaymoqda. Mehnatda bandlik noan’anaviy shaklining ishlab chiqilgan tasnifi, an’anaviy va noan’anaviy shakllarda aholi bandligini ularning mezonli tavsiflari bilan yangisha ta’riflash mumkin

Shundan kelib shiqqan holda bandlikning an’anaviy shaklini biz turi bo‘yisha industrlashgan jamiyat va yuqori darajada industrlashgan jamiyatning boshlang‘ish bosqishi uchun xos bo‘lgan bandlik, mezonlari bo‘yicha – to‘liq ish kuniga ega bo‘lgan muddatsiz mehnat shartnomasi bo‘uisha uollash ko‘rinishida rasmiulashtirilgan bandlik sifatida, himoyalanganlik darajasi bo‘yicha – mehnat qonunshiligida ko‘zda tutilganidek, to‘liq ijtimoiy himoyalangan bandlik sifatida ta’riflaymiz.

Mehnatda bandlikning noan’anaviy shakli, deganda nafaqat an’anaviylikdan og‘ishni, balki yuqori darajada industrlashgan turdagi alohida bandlik shaklini tuchunamiz, uning shakllanishi hozirgi zamon jamiyati taraqqiyotining yuqori darajada industrlashgan texnik-texnologik ukldga o‘tishi bilan ob’ektiv ravishda belgilangan, globallashuv jarayoni va obyektiv-subyektiv omillar bilan kuchaygan va industrlashgan turdagi bandlik an’anaviy shakli mezonlariga kirmaydigan turli-tuman tashkiliy shakllarni qabul qilgan. Mehnat munosabatlarining kechayotgan transformatsiyalashuvi mehnatda bandlik noan’anaviy shakllarini tavsiflovshi tuchunchalarning ko‘payishiga olib keldi: “noan’anaviy bandlik”, “egiluvchan bandlik”, “vaqtinchalik bandlik”, “to‘liqsiz bandlik”, “o‘zini o‘zi band qilish”, “uy mehnatida bandlik”, “masofaviy bandlik”, “norasmiy bandlik”, “tasodifiy bandlik” shular jumlasidandir.

XX asrda mehnatni davlat tomonidan tartibga solishning kuchayuishi, siyosiy islohotlarning jahon mehnat bozoriga ta’siri va texnologik o‘zgarishlar iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarda bandlik noan’anaviy shakllarining qo‘llanilishiga turtki bo‘ldi. Bundan tashqari, 1970-yillarning oxirida “egiluvchan ishlab chiqarish”ga barqaror iqtisodiy o‘lishni ta’minlash uchun ijobiy va zaruriy innovatsiya sifatida qaralganligi “egiluvchan bandlik”ning rivojlanishiga yordam berdi. “Egiluvchanlik” ning zarurligi ish joylaridagi texnik tizimlar, grafiklar va ish haqlari uchun taklif qilingan hamda ishlovchi shaxsiyatining ijobiy belgisi sifatida e’tirof etilgan.

Egiluvchan bandlikni ta’riflashga bo‘lgan yondashuvlar ikki jihatni: ish beruvchi tomonidan bandlik noan’anaviy shakllari va sharoitlaridan (egiluvchan ish kuni, vaqtinchalik, mavsumiy ish va b.); o‘zini o‘zi band qilish hamda yuqori erkinlik darajasiga, qarorlar qabul qilish va bu qarorlarni amalga oshirish vositalari, joyi va vaqtini tanlaydigan boshqa bandlik turlarini qo‘llagan holda ishchi kuchidan foydalanishni o‘zida mujassamlashtiradi.

Ilmiy adabiyotda odatda mehnatda “noan’anaviy” va “egiluvchan” shakli tushunchalarini farqlash amalga oshirilmagan. N.T.Vishnevskaua, T.S.Karabshuk, V.Ue. Gimpelson, R.I. Kapeluyshnikov kabi ko‘plab rossiyalik tadqiqotchilar bandlik egiluvchanligi kabi xususiyatlarni o‘rganmaganlar.

Bizning fikrimizsha, egiluvchan bandlik – egiluvchan ish vaqti mavjudligini ko‘zda tutadigan ishlash shakllari bo‘lib, ma’lum davr davomida ishlovchining xohishiga ko‘ra, rivojlanishi mumkin.

Mehnatda bandlik noan’anaviy shaklining mazmuni hamda iqtisodiyot va mehnat bozoriga ta’sirining oqibatlariga tegishli tadqiqotlar bandlik noan’anaviy shakliga yagona ta’rifning mavjudmasligini bildiradi. Mehnatda bandlik “noan’anaviy shaklini bir ish beruvchida uzoq vaqt davomida ish vaqti davomiyligi, ish haqi sharoitlari, mehnat munosabatlarining davomiyligi, ish joyining joylashgan o’rni, ijtimoiy himoyalanganlik kabi mezonlar bo’yisha to’liq, tartibga solinadigan va oshkora bandlik an’anaviy modelidan og’adigan mehnat munosabatlari sifatida ta’riflash qabul qilingan” [2]. Bunda mehnatda bandlik “an’anaviy (namunaviy) modeli ish beruvchi nazorati ostida, doimiy ish haqiga ega bo’lgan statsionar ish joyida, to’liq ish kunida muddatsiz mehnat shartnomasi tuzishni ko’zda tutadi” [3]. Xalqaro Mehnat Tashkiloti tasnifiga ko’ra, “mehnatda bandlikning noan’anaviy shakllariga an’anaviy ish tavsiflariga mos kelmaydigan ishlar (vaqtinchalik yoki muddatli shartnomalar, agentlik orqali bandlik, o’zini o’zi band qilish, to’liqsiz ish kuni) kiritiladi” [4]. V.Ue. Gimpelson, R.I. Kapelyushnikovlar mehnatda bandlikning noan’anaviy shaklini yuqori erkinlik darajasi va mehnatni tashkil qilish kam tartiblanishiga ega bo’lgan bandlik shakli sifatida [5], K.M.Oganuan, N.M.Strelsovlar “ishchilar bandligi noan’anaviy tashkiliy-huquqiy sharoitlarini qo’llashga asoslangan ishchi kushi mehnatidan foydalanish shakli” sifatida ta’riflaydilar” [6]. “...Mehnatda bandlik noan’anaviy shakli mehnat huquqi munosabatlari majmuini o’zida mujassamlashtirib, ularda “bandlik an’anaviy shakli” tushunchasini tavsiflovshi beshta majburiy belgilardan hech bo’lmasa, bittasi mavjud bo’lmaydi: bitta yollovchida ishlash; ishlab chiqarish binosida ish beruvchiga tegishli mehnat qurollari bilan ishlash; ish kuni, haftasi, oy, yil davomida an’anaviy ish yuklamasi; muddatsiz mehnat shartnomasi; mehnat huquqi amal qilish sohasida bo’lish” [7]. A.I.Rofe, V.G.Zbo’shko, V.V.Ishinlar mehnatda bandlik noan’anaviy shakllarini “alohida guruhlar uchun to’liqsiz ish kunida ishlash hamda ishsizlikning o’sishidan tutib turish zarurligi bilan kelib shiqqan to’liqsiz ish kuni yoki ish haftasida mehnatdan foydalanish sharoitlari, tashkiliy-huquqiy usullari” sifatida ta’riflaydilar [8]. M.A.Vinokurov, N.A.Gorelovlarining fikricha, “mehnatda bandlik noan’anaviy shakllariga to’liq ish vaqti noan’anaviy tartiblarini, ishga qabul qilish va ishdan bo’shatish masalalarida yuqori egiluvchanlik, xarajatlarni pasautiruvchi ish haqi egiluvchan tizimlarini qo’llash” [9] ni anglatadi. Ue.G.Yakovenko, N.Ue.Xristolyubova, V.D.Mostovalar mehnatda bandlik noan’anaviy shakllari, deganda “ish beruvchilar tomonidan o’zining doimiy ishchi kadrlari sonini minimumga qadar qisqatirish yoki cheklashga, undan foydalanishda ishchi kushi egiluvchanligini yuqori darajada oshirishga va barcha risklarni ishlovchilar zimmasiga yuklashga mo’ljallangan yollash amaliyotini qo’llash natijasini ko’zda tutadi” [10]. Bizning fikrimizcha, mehnatda bandlik noan’anaviy shakli, deganda hozirgi vaqtda amalda bo’lgan andozadan qaysidir tavsiflariga ko’ra, farqlanadigan bandlik shakllarini tushunish mumkin. Ko’rinib turibdiki, mehnatda bandlik noan’anaviy shaklini ta’riflashga yagona umumlashgan yondashuv mavjud emas. Masalan, I.D.Kotlyarovning fikricha, «...mehnatda bandlik noan’anaviy shakllari ishchi uchun ham, ish beruvchi uchun ham an’anaviy bandlik modellariga nisbatan katta imkoniyatlar bilan aloqadorligi haqida gapirish mumkin. Boshqa tomondan, mehnatda bandlik noan’anaviy shakllari bandlik an’anaviy modelini buzishi va ish beruvshilarga ishlovchilarning qonuniy huquqlarini suiste’mol qilish hisobiga katta imkoniyatlar yaratishi bo’yicha yaqqol ifodalangan xavf mavjud” [11].

Shu singari holatlar mehnatda bandlik noan’anaviy shaklining har qandau iqtisodiy tushunsha kabi ziddiialiligi bilan (ikki tomonlamaligi) tavsiflanishidan dalolat beradi. Bir tomondan, iqtisodiy tizim inqirozi sharoitida mehnatda bandlik noan’anaviy shakli mehnat bozoridagi salbiy tendensiyalarga moslashish vositasi sifatida chiqadi. Boshqa tomondan, mehnatda bandlik noan’anaviy shakli zamonaviy jamiyat rivojlanishining yuqori darajada industrlashgan bosqichi xususiyatlari va unga mos mehnat rag’batlari va qadriyatlarining transformatsiyalashuvi bilan belgilanadigan bandlik munosabatlarining rivojlanishini o’zida mujassamlashtiradi.

Shunday qilib, “mehnatda bandlik noan’anaviy shakli, deganda yuqori darajada industrlashgan iqtisodiyot sharoitlari (muddati, me’yoriy rasmiylashtirilishi), ish joyi va ish beruvchining turi bo’yicha mehnat bitimlarini tuzish shakllarining turli-tumanligi bilan tavsiflanadigan mehnat munosabatlari tushuniladi”. Mehnatda bandlik noan’anaviy shakli tadqiqotiga bir qancha konseptual yondashuvlarni ajratish mumkin:

Birinshidan, mehnatda bandlik noan’anaviy shakliga mehnat egiluvchanligini ta’minlovshi omil sifatida qaraladi. A.A.Nikiforova: “mehnatda bandlik noan’anaviy shakllarini bandlikning an’anaviy shakllariga qaraganda, ishchiga ko‘proq erkinlik berish, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil qilish hamda qarorlar qabul qilishning past tashqi tartiblanishi” nuqtai nazaridan ta’riflaydi [12].

Ikkinshidan, mehnatda bandlik noan’anaviy shakllarini vujudga keltiradigan alohida tashkiliy-huquqiy sharoitlar ajratiladi. K.M.Ogonyan va N.D.Podshibyakinaning yozishisha, “mehnatda bandlik noan’anaviy shakllari noan’anaviy tashkiliy-huquqiy sharoitlardan foydalanishga asoslanib, mehnat faoliyatini muayyan darajada tartiblaydi” [13].

Uchinchidan, “muayyan tashkiliy – huquqiy sharoitlarning vujudga kelishi to‘liqsiz ish kunida ishlovshi alohida ishchi guruhlariga bo‘lgan ehtiyojni yuzaga keltiradi, shu orqali ishsizlik jilovlab turiladi” [14].

To‘rtinshidan, mehnatda bandlik noan’anaviy shakli ishlovshilar va ish beruvshilarni to‘xtovsiz o‘zgarib borayotgan iqtisodiyot sharoitlariga moslashtirish vositasi sifatida o‘rganiladi. M.A.Vinokurov va N.A.Gorelovlar: “mehnatda noan’anaviy shakllari ish vaqtdan foydalanishning noan’anaviy tartiblari, ishchilarni ishga qabul qilish va ishdan bo‘shatishning yuqori egiluvchanligi, ishlab shiqarish xarajatlarini kamaytiradigan egiluvchan ish haqi tizimlarini qo‘llash orqali vujudga keladi”, deb hisoblaydilar.

Beshinchidan, mehnatda bandlik noan’anaviy shakli ishchi, ish beruvchi manfaatlariga mos keladi. Shuningdek, Ue.Ua.Varshavskaya ish beruvchining manfaatlari yuzaga chiqadigan mehnat munosabatlari mehnatda bandlikning noan’anaviy shakllarida amalga oshadi (tashkil qilinmagan mehnat, autorsing, lizing va h.k.), shu bilan bir vaqtda, no‘anaviy shaklda mehnatni tashkil etish (teleish, egiluvchan ish grafigi va h.k.) ishlovshilar manfaatlariga javob beradi, deb hisoblaydi [15].

Oltinshidan, mehnatda bandlikning noan’anaviy shakllaridan foydalanishda tadbirkorlik xatarlari qayd qilingan ish haqiga ega bo‘lgan to‘liq va doimiy bandlik kafolatlarini bermasligida ko‘rinadi [16]. Bundan tashqari, mehnatda bandlik noan’anaviy shaklini ta’riflash borasida yuqorida ko‘rib shiqilgan yondashuvlarning har biri uni noan’anaviy sifatida tavsiflovshi xususiyatni o‘zida ifodalaydi. Muallifning fikrisha, “ushbu xususiyatlarda mehnatda bandlik noan’anaviy shaklining aniq turini aks ettiradigan bir qancha umumiy belgilarni ajratish mumkin” [17].

Adabiyotlarda keng tarqalgan noan’anaviy bandlik shakllarini tasniflashga ushbu yondashuv mazkur hodisaning ko‘p qirraliligidan dalolat beradi, ammo iqtisodiyot va jamiyat manfaatlarida u yoki bu bandlik shakllarining rivojlanishini boshqarish uchun asos bo‘lib xizmat qila olmaydi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, ushbu tuchunchaning mazmunini yoritish bo‘yisha quyidagi vazifalarni hal qilish kerak:

1) mehnatda bandlik noan’anaviy shakllarining mazmunini ta’riflashni hozirgi zamon iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari nuqtai nazaridan takomillashtirish. Buning natijasida noan’anaviy bandlik turlarini tasniflash hamda ularni baholash uchun statistik ko‘rsatkishlar tizimi ishlab chiqiladi;

2) mehnat bozori sub’ektlari uchun innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish, munosib mehnat konsepsiyasiga muvofiq ravishda uni tartibga solish samarali mexanizmini yaratish uchun noan’anaviy bandlik shakllarining mazmuni va oqibatlarini aniqlash hamda mehnat bozori egiluvchanligini ijtimoiy himoyalanganlik bilan uyg‘unlashtirishga (flexisuritu) xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. <http://dlib.rsl.ru/rsl01009000000/rsl01009978000/rsl01009978868/rsl01009978868.pdf>
2. <http://dlib.rsl.ru/rsl01010000000/rsl01010255000/rsl01010255520/rsl01010255520.pdf>;
3. https://www.vcot.info/assets/files/dissovet/dissertations/4/Dissertatsiya_Musaeva_B.A..pdf
4. <http://elibrary.ru/tem.asp?id=24898340>
5. <http://dlib.rsl.ru/rsl01009000000/rsl01009849000/rsl01009849553/rsl01009849553.pdf>
6. Гимпельсон В., Капелюшников Р. 2006. Нестандартная занятость в российской экономике. Москва: Изд. дом ГУ-ВШЭ. - С. 4
7. Оганян К.М., Стрельцов Н.М. 2008. Занятость населения и ее регулирование: учеб. пособие. СПб.: Бизнес-Пресса.

8. Чичина Е.В. 2004. Отдельные нестандартные формы занятости: правовой аспект. Минск: Право и экономика. С. 41.
9. Долженко Р. А. Трансакционные издержки использования новых форм трудовых отношений // Вестник Алтайского государственного аграрного университета. 2014. № 1. С. 168–173.
10. <http://elibrary.ru/item.asp?id=29407037>
11. Анализ подходов к классификации форм нестандартной занятости населения//<https://www.vestnik-vsuet.ru/vguit/article/download/1380/1652>; <http://ivo.garant.ru/#/document/77393114>.
12. https://www.vcot.info/assets/files/dissovet/dissertations/4/Dissertatsiya_Musaeva_B.A..pdf
13. Никифорова А.А. Рынок труда: занятость и безработица. М.: Международные отношения, 1991. –С.39.
14. <https://www.vestnik-vsuet.ru/vguit/article/download/1380/1652>.
15. <http://dlib.rsl.ru/rsl01009000000/rsl01009849000/rsl01009849553/rsl01009849553.pdf>; elibrary.ru/item.asp?id=29229436
16. Анализ подходов к классификации форм нестандартной занятости населения//<https://www.vestnik-vsuet.ru/vguit/article/download/1380/1652>; <http://dlib.rsl.ru/rsl01009000000/rsl01009849000/rsl01009849553/rsl01009849553.pdf>;
17. https://www.vcot.info/assets/files/dissovet/dissertations/4/Dissertatsiya_Musaeva_B.A..pdf;

UDK: 685(575.1)

**KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYATIDA RISKLAR VA ULARNI PASAYTIRISH
IMKONIYATLARINI BAHOLASH**

**РИСКИ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МАЛЫХ ПРОМЫШЛЕННЫХ ЗОН И ОЦЕНКА
ВОЗМОЖНОСТЕЙ ИХ СНИЖЕНИЯ**

**RISKS IN THE ACTIVITIES OF SMALL INDUSTRIAL ZONES AND ASSESSMENT OF
OPPORTUNITIES TO REDUCE THEM**

Ortiqov A.B. - FDU, tadqiqotchi,

Annotatsiya

Har qanday ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni amalga oshirishda kichik sanoat zonalari faoliyatida risklarning shakli va yuzaga kelishining umumiy yo‘nalishlarini tadqiq etishdan avval risk tuchunchasining mohiyati va unga yondashuvlarni o‘rganib chiqish maqsadga muvofiq. Shulardan kelib chiqib, ishda KSZlar faoliyatida risklarning o‘rni o‘rganilgan, ularni pasaytirish imkoniyatlari baholangan hamda ushbu masalaga oid ustuvor yo‘nalishlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: tadbirkorlik, kichik sanoat zonalari, risklar, strategiya, omillar, erkin iqtisodiy hududlar, rivojlanish tendensiyalari, iqtisodiyot, maxsus sanoat zonalari, sanoat.

Перед исследованием формы и общих направлений возникновения рисков в деятельности малых промышленных зон при осуществлении каких-либо социально-экономических процессов целесообразно изучить сущность понятия риск и подходы к нему.

Исходя из этого, в работе изучена роль рисков в деятельности МПЗ, оценены возможности их снижения, а также проанализированы приоритетные направления по данному вопросу.

Ключевые слова: предпринимательство, малые промышленные зоны, риски, стратегия, факторы, свободные экономические зоны, тенденции развития, экономика, особые промышленные зоны, промышленность.

Before investigating the form and general directions of the occurrence of risks in the activities of small industrial zones in the implementation of any socio-economic processes, it is advisable to study the essence of the concept of risk and approaches to it. Based on this, the paper examines the role of risks in the activities of SIZ, assesses the possibilities of reducing them, and analyzes priority areas on this issue.

Keywords: entrepreneurship, small industrial zones, risks, strategy, factors, free economic zones, development trends, economy, special industrial zones, industry.

Mamlakatimizda sanoat tarmog‘i rivojlanishidagi muhim tashkiliy tuzilmalardan biri hisoblangan kichik sanoat zonalarini rivojlantirish jarayonida ham yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatarlarni hisobga olish, bir tomondan, kichik sanoat zonalarini tarkibida faoliyat olib borayotgan korxonalar faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ijobiy yoki salbiy risklarni oldindan baholash orqali barqarorlik holatini ta‘minlash imkonini bersa, ikkinchi tomondan, ushbu korxonalarni o‘zida birlashtirgan KSZlarining umumiy rivojlanish darajasining barqarorligini ta‘minlash imkonini beradi.

“Risk” atamasi zamonaviy muomalada oltmishdan ortiq ta‘rifga ega, lekin deyarli doim noaniqliklar, tasodiflar, kutilgan va kutilmagan zararlar bilan bog‘liq bo‘lgan salbiy jarayonni anglatadi (1-jadval). Fikrimizcha, tadbirkorlik tavakkalchiligi bo‘ladigan riskka qaramay amalga oshiriladigan harakatdir, ayni chog‘da tavakkalchilik riskni ham tug‘dirishi mumkin. Bunda u qilingan tavakkalchilik oqibati qanday bo‘lishini ba‘zan aniq ko‘ra olmasligi mumkin. Risk iqtisodiy kategoriya sifatida ma‘lum funktsiyalarini bajaradi va bu uning mazmun-mohiyatini yanada oydinlashtiradi. Risk funktsiyalari ko‘rib chiqilayotgan paytda iqtisodiyotni rag‘batlantiruvchi xususiyatga ham egadir.

1-jadval

Risk tushunchasi va unga yondashuvlar [5]

J.B.Sey, Kursel Seney	... risk foydaning faqat bir qismini shakllantirish omili [4].
A. Marshall, A. Pigu	... mavhumlik sharoitida faoliyat yurituvchi va olinajak foydasi tasodifiy o‘zgaruvchi bo‘lmish tadbirkor har qanday bitim tuzishda ikki mezonga asoslanadi: kutilayotgan foydaniqadori va uning mumkin bo‘lgan o‘zgarishlari (tebranishlari) ko‘lami [1].
N. Makarova	Risk o‘zida mumkin bo‘lgan resurslarning yo‘qotilishi yoki daromadlarga erisha olmaslikni ko‘rsatadi [3].
V. Stupakov, G. Tokarenko	Tadbirkorlik riski - bu ko‘ngilsiz hodisaning sodir bo‘lish (paydo bo‘lish xavfi) ehtimolligi bo‘lib, natijada korxonaning oldiga qo‘yilgan maqsadlariga erishishga yo‘naltirilgan qarorlarni qabul qiluvchi sub‘yekt o‘z resurslarini qisman yoki butunlay yo‘qotadi, kutilayotgan daromadni ko‘rmaydi yoki xayolan nazarda tutilmagan qo‘shimchamaterial va moliyaviy xarajatlarni olib yuradi [8].
S. Ojegov	... risk - bu muvaffaqiyatga intilish, baxtli hodisadan umid” ma‘nolarini anglatadi deyilsa, mashhur Vebster lug‘atida “risk - bu xavf, zarar yoki talofat ko‘rish ehtimoli [7].
A. O‘lmasov, A. Vahobov	... tadbirkorlik riski - bu firmaning ko‘zlagan maqsadiga erishish yo‘lidau duch keladigan iqtisodiy xavf-xatardir [10]
T. Malikov, O. Olimjonov	Зарарларни вужудга келиши ёки даромадларнинг кўзда тутилган даражадан камроқ олинishi эҳтимолига риск дейилади.
D. Qosimova	Risk - korxona rejalari va byudjetini amalga oshirish noxushliklari (muvaffaqiyasizliklari) ning yuzaga kelish ehtimoli. Mamlakatimizda ham risk tushunchasiga asosan salbiy natija, noxushlik [11].

Moliyaviy mustahkamlikda aniqlanayotgan ko‘rsatkich moliyaviy mustahkamlik yoki balans likvidligi, ya‘ni korxonalarning olingan qarzlarni qaytarib berish qobiliyatiga egaligi hisoblanadi [12]. Ushbu alohida xususiy modellar yordamida riskni baholash uchun, avvalo, modelda foydalaniladigan asosiy element ko‘rsatkichlarni Farg‘ona viloyati Toshloq tumanidagi “Taraqqiyot” kichik sanoat zonasida faoliyat olib borayotgan “MNG-GROUP S” MCHJning 2022 yil balansi asosida aniqlandi.


“MNG-GROUP S” MCHJning 2022 yildagi moliyaviy barqarorligi holati asosidagi risklarni baholash uchun, avvalo, uslubiyot bo‘yicha korxonaning moliyaviy barqarorligini baholashda qo‘llaniladigan aktivlar va passivlarning guruh bo‘yicha qiymatlarini aniqlab olamiz (2-jadval).

Kichik sanoat zonasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonaning moliyaviy barqarorlik holatini alohida xususiy ko‘rsatkichlar hamda barqarorlik ko‘rsatkichlarini aniqlash orqali risk zonasini aniqlashga harakat qilindi. “MNG-GROUP S” MCHJning moliyaviy barqarorlik holati riskini likvidlik koeffitsiyentlari orqali baholashda quyidagi xususiy ko‘rsatkichlar aniqlandi.

2-jadval

“MNG-GROUP S” MCHJning 2022 yil bo‘yicha aktiv va passivlarining guruhlar qiymati [6]

AKTIVLAR	PASSIVLAR
A1 - eng tez likvidli aktivlar 110,1 mln. so‘m	P1 - tezkor majburiyatlar 508,9 mln. so‘m
A2 - tez likvidli aktivlar 1891,8 mln. so‘m	P2 - qisqa muddatli majburiyatlar 2316,6 mln. so‘m
A3 - past likvidli aktivlar 11389,9 mln. so‘m	P3 - uzoq muddatli majburiyatlar 5975,8 mln. so‘m
A4 - qiyin sotiladigan aktivlar 3649,7 mln. so‘m	P4 - doimiy passivlar (jami xususiy kapital 2650,6 mln. so‘m



1-rasm. Risklarning tasniflanishi [8]

1. Umumiy to‘lovga qobillik koeffitsiyenti - korxonaning o‘z majburiyatlarini bajara olish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu ko‘rsatkichning 1,0 dan qanchalik yuqori bo‘lishi korxonaning shuncha ishonchli hamkor ekanligini, shuningdek, to‘lovga qobiliyati shunchalik yuqori ekanligini ko‘rsatadi [2].

$$Ktq = \frac{A1 + 0,5 \cdot A2 + 0,3 \cdot A3}{P1 + 0,5 \cdot P2 + 0,3 \cdot P3} \geq 1,0$$

$$Ktq = \frac{110,1 + 0,5 \cdot 1891,8 + 0,3 \cdot 11389,9}{508,9 + 0,5 \cdot 2316,6 + 0,3 \cdot 5975,8} = \frac{4472,97}{3459,94} = 1,29 \geq 1,0$$

Hisoblangan koeffitsiyentdan ko‘rish mumkinki, “MNG-GROUP S” MCHJning umumiy to‘lovga qobillik ko‘rsatkichi 1,29 ga teng bo‘lib, uslubiyot bo‘yicha berilgan chegara (1,0)dan sezilarli darajada yuqori.

2. Mutloq likvidlik koeffitsiyenti - korxonaning joriy majburiyatlari va eng tez likvid aylanma aktivlari o‘rtasidagi munosabatni ko‘rsatib, qisqa muddatli majburiyatlarning qancha qismini pul mablag‘lari hisobiga tezlik bilan qoplanish darajasini aks ettiradi [2].

$$K_{ml} = \frac{A1}{P1 + P2} \geq (0,2; 0,7)$$

$$K_{ml} = \frac{110,1}{508,9 + 2316,6} = \frac{110,1}{2825,5} = 0,03 \leq (0,2; 0,7)$$

Aniqlangan koeffitsiyentdan ko‘rinadiki, moliyaviy barqarorlik holatida risk darajasi baholanayotgan korxonada pul mablag‘lari qisqa muddatli majburiyatlarning 3 % dan ortiqroq qismini qoplay oladi, xolos. Amalda qo‘llaniladigan uslubiyotga ko‘ra, ushbu koeffitsiyentning kamida 20% bo‘lishi qoniqarli hisoblanadi.

3. Oraliq likvidlik koeffitsiyenti - eng tez likvid hamda tez likvid aktivlarning birgalikda joriy majburiyatlarni ma‘lum bir hisobot davrida to‘liq qoplay olish imkoniyatini ko‘rsatadi. Xalqaro standartlarga muvofiq ushbu ko‘rsatkich 1,0 ga teng bo‘lishi maqsadga muvofiqdir [9].

$$K_{ol} = \frac{A1 + A2}{P1 + P2} \geq (0,9; 1,0)$$

$$K_{ol} = \frac{110,1 + 1891,8}{508,9 + 2316,6} = \frac{2001,9}{2825,5} = 0,71 \leq (0,9; 1,0)$$

Oraliq likvidlik koeffitsiyenti tahlil etilayotgan korxonada belgilangan optimal chegaradan pastroq ekanligi, bu esa korxonaning eng tez va tez likvid aktivlari tezkor va qisqa muddatli majburiyatlarni to‘liq qoplashga yetarli emasligini ko‘rsatadi. Demak, korxona tomonidan oraliq likvidlik koeffitsiyentini optimal chegaraga oshirish uchun ikkita yo‘nalish tavsiya etiladi. Birinchi yo‘nalish - korxona tomonidan A1 va A2 aktivlar hajmini oshirish, ikkinchi yo‘nalish - P1 va P2 passivlarni qisqartirish.

4. Joriy likvidlik koeffitsiyenti - korxona tomonidan majburiyat (qarz)larning o‘z vaqtida uzilishi va xo‘jalik faoliyati uchun aylanma mablag‘lar bilan ta‘minlanganlik darajasini ko‘rsatadi [9].

$$K_{jl} = \frac{A1 + A2 + A3}{P1 + P2} \geq 2,0$$

$$K_{jl} = \frac{110,1 + 1891,8 + 11389,9}{508,9 + 2316,6} = \frac{13391,8}{2825,5} = 4,7 \geq 2,0$$

Aniqlangan koeffitsiyent tahlil etilayotgan korxonaning joriy likvidlik koeffitsiyenti eng yaxshi holatdalgini va korxona tomonidan aktivlar qismidagi ortiqchalikni oraliq likvidlik koeffitsiyenti holatini yomonlashtiruvchi ko‘rsatkichlarga yo‘naltirishi mumkinligini ko‘rsatadi.

5. Qarz mablag‘lari va xususiy kapital o‘rtasidagi bog‘liqlik koeffitsiyenti - korxonaning bir birlik xususiy mablag‘iga qancha jalb qilingan va qarz mablag‘lari to‘g‘ri kelishini ko‘rsatadi. Ushbu koeffitsiyentning 1,5 dan ortib ketmasligi muqobil, biroq tarmoq xususiyatidan kelib chiqqan holda bundan ham ortishi mumkin [9].

$$K_{qm} = \frac{P1 + P2 + P3}{P4} \leq (1,0; 1,5)$$

$$K_{qm} = \frac{508,9 + 2316,6 + 5975,8}{2650,6} = \frac{8801,3}{2650,6} = 3,3 \geq (1,0; 1,5)$$

Hisoblangan koeffitsiyentdan ko‘rinadiki, tahlil etilayotgan korxonada bir birlik xususiy mablag‘ga 3,3 martadan ortiqroq jalb qilingan qarz mablag‘lari to‘g‘ri kelmoqda. “MNG-GROUP S” MCHJ tomonidan qarz mablag‘lari va xususiy kapital o‘rtasidagi bog‘liqlik koeffitsiyentini majburiyatlarni qisqartirish hisobiga kamaytirilishi maqsadga muvofiqdir.

6. Xususiy mablag‘lar bilan ta‘minlanganlik koeffitsiyenti - korxonaning moliyaviy mustahkamligini ifodalovchi ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, ushbu ko‘rsatkichning katta yoki kichik bo‘lishi korxona faoliyat yuritayotgan tarmoq xususiyatidan ham kelib chiqadi [2].

$$K_{xmt} = \frac{P4 - A4}{A1 + A2 + A3} \geq (0,1; 0,5)$$

$$Kxmt = \frac{2650,6 - 3649,7}{110,1 + 1891,8 + 11389,9} = \frac{-999,1}{13389,9} = -0,07 \leq (0,1; 0,5)$$

Tahlil etilayotgan korxonaning 2022 yilni moliyaviy zarar bilan yakunlagani xususiy aylanma mablag‘lar bilan ta‘minlanganlik koeffitsiyentining manfiy tomonga og‘ishiga sabab bo‘lgan.

7. Moliyalashtirish koeffitsiyenti - moliyalashtirish koeffitsiyenti korxona faoliyatining qancha qismi xususiy vositalar, manbalar hisobiga va qancha qismi qarz mablag‘lari hisobiga moliyalashtirilishini ifodalaydi. Korxona o‘z faoliyatini 70 foiz xususiy manbalari hisobiga shakllantirishi yaxshi ko‘rsatkichdir. Ba‘zi tarmoqlarda bu ko‘rsatkichning 70-60 foizdan ham pastroq bo‘lishi qoniqarli holat bo‘lib hisoblanadi.

$$Km = \frac{P4}{P1 + P2 + P3} \geq 0,7$$

$$Km = \frac{2650,6}{508,9 + 2316,6 + 5975,8} = \frac{2650,6}{8801,3} = 0,3 \leq 0,7$$

Aniqlangan moliyalashtirish koeffitsiyenti tahlil etilayotgan korxonada jami moliyaviy resurslarning 30 % dan ortiqrog‘i xususiy mablag‘lar hisobidan qoplanganligini va qolgan moliyaviy resurslar majburiyatlar hisobidan shakllantirilganligini ko‘rsatadi.

8. Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti - ushbu ko‘rsatkich aktivlarning qancha qismi barqaror va uzoq muddatli manbaalar hisobiga moliyalashtirilishini ko‘rsatadi.

$$Kmb = \frac{P4 + P3}{jami balans} \geq 0,6$$

$$Kmb = \frac{2650,6 + 5975,8}{14397,2} = \frac{8626,4}{14397,2} = 0,6$$

Kichik sanoat zonasida faoliyat ko‘rsatayotgan “MNG-GROUP S” MCHJ ning moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti eng muqobil darajada deya baholash mumkin (0,6). Chunki xususiy kapital va uzoq muddatli qarz mablag‘lari hisobiga o‘z faoliyatini barqaror saqlagan holda davom ettira oladi. Mazkur uslubiyot asosida “MNG-GROUP S” MCHJning moliyaviy barqarorlik holatini ko‘rsatuvchi xususiy koeffitsiyentlarning holatiga qarab kichik sanoat zonasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonaning moliyaviy risklari chegaralarini aniqlash hamda korxonaning qanday risk hududida joylashganligini baholashimiz mumkin. Buning uchun esa, korxonalarning risk hududlarini ularning standart holatidan kelib chiqqan holda belgilab olish maqsadga muvofiq (3-jadval). Tahlil etilayotgan korxonaning ko‘rilayotgan davrdagi risk hududini aniqlash uchun hisoblangan xususiy koeffitsiyentlarni me‘yoriy chegaralarga nisbatan joylashgan o‘rnini baholaymiz (4-jadval). Bu jadvalda umumlashgan ko‘rsatkichlarning 3 ta asosiy koeffitsiyenti korxonaning moliyaviy barqarorlik holati me‘yordan yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

3-jadval

Sanoat korxonalarining holati bo‘yicha risk zonalarini aniqlash [6]

Xavfsiz zona	Ruxsat berilgan risk zonasi	Xatarli risk zonasi	Krizisli risk zonasi
Xarajatlar ahamiyatsiz foyda olish kafolatlangan. Kafolat muddatini hisobga olgan holda sifatli mahsulotning yangi turi eskirish - 0-20% atrofida	Ishlab chiqarish asosan zamonaviy xarakterga ega. Barcha xarajatlar narxga kiritilgan, 21-40% atrofidagi eskirish darajasiga ega bo‘lgan ishlab chiqarish fondlari	Ishlab chiqarishning sezilarli hajmlari talab etiladi. Resurslar yo‘qotilishi. Ishlab chiqarish vositalarining eskirishi 41-60%	Favquloddaholat rejimida ishlash, ko‘p sonli baxtsiz hodisalar. Katta yo‘qotishlar. Asosiy ishlab chiqarish fondlarining eskirishi 61 %dan yuqori

“MNG-GROUP S” MCHJ ning moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari [6]

№	Koeffitsiyent	Optimal chegara	Munosabat	Real qiymat
1	Umumiy to‘lovga qobillik koeffitsiyenti	1,0	<	1,29
2	Mutloq likvidlik koeffitsiyenti	0,2 - 0,7	>	0,03
3	Oraliq likvidlik koeffitsiyenti	0,9 - 1,0	>	0,71
4	Joriy likvidlik koeffitsiyenti	2,0	<	4,7
5	Qarz mablag‘lari va xususiy kapital o‘rtasidagi bog‘liqlik koeffitsiyenti	1,0 - 1,5	<	3,3
6	Xususiy mablag‘lar bilan ta‘minlanganlik koeffitsiyenti	0,1 - 0,5	>	-0,07
7	Moliyalashtirish koeffitsiyenti	0,7	>	0,3
8	Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti	0,6	=	0,6

Bundan, “MNG-GROUP S” MCHJning risk zonasidagi joylashgan hududi “ruxsat berilgan risk zonasi” ekanligini belgilash mumkin. Chunki moliyaviy barqarorlik hamda umumiy likvidlik koeffitsiyentlari qolgan koeffitsiyentlarga nisbatan korxona moliyaviy holatini aniqroq ko‘rsatadi va vazni yuqori.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, kichik sanoat zonalari faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning moliyaviy barqarorlik holatini mavjud uslubiyotdan kelib chiqib alohida ko‘rsatkichlar orqali baholash hamda ushbu ko‘rsatkichlar asosida moliyaviy risk zonasini aniqlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Иқтисодий таълимотлар тарихи. – Тошкент молия институти, Тошкент, “Fan va texnologiya”, 2007. 137 б.
2. Крылов С.И. Финансовый анализ: учебное пособие. / С.И.Крылов. - Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2016. - С. 124-127.
3. Макарова Н.Н. Риск-менеджмент: учебное пособие - Томск: Изд-во Томского политехнического университета, 2016. - С. 6.
4. Найт Ф.Х. Риск, неопределённость и прибыль. Пер.с англ. - М.: Дело, 2003. - С. 35.
5. Олимова Н.Х., Ортиков А.Б. (2019). Роль свободных экономических зон в развивающихся странах и анализ привлеченных инвестиций в их экономическое развитие. Тенденции развития мировой торговли в XXI веке: Материалы VIII, 349.
6. Ortiqov A.B. Kichik sanoat zonalari faoliyati samaradorligini oshirish va uning rivojlantirish istiqbollari. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Farg‘ona, FDU, 2024
7. Севрук В.Т. Банковские риски. Москва: Дело, 1995. - С. 3.
8. Ступаков В.С., Токаренко Г.С. Риск-менеджмент. Учебное пособие. - М.: “Финансы и статистика”, 2015 г.
9. Финансовый анализ: учебник и практикум для бакалавриата и магистратуры. / под общ. ред. И.Ю.Евстафьевой, В.А.Черненко. - М.: Издательство Юрайт, 2016. - С. 76-104.
10. Ўлмасов А., Вахобов А. Иқтисодиёт назарияси. Дарслик. - Тошкент: Шарқ, 2006. - Б.192.
11. Qosimova D.S. Menejment nazariyasi. Darslik - Toshkent, Tafakkur-bo‘stoni, 2011., 336 b.
12. Vaxobov A.V., Ibroximov A.T., Ishonqulov N.F. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. - T.: Sharq, 2015. – 251 b.

**WAYS TO INCREASE THE SOCIO-ECONOMIC EFFICIENCY OF THE
AGRICULTURAL PRODUCTS PROCESSING INDUSTRY**

**QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH SANOATINING
IJTIMOIY-IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI**

**ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ ПО ПЕРЕРАБОТКЕ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ
ПРОДУКЦИИ**

Ochilova Nargiza Akramovna, associate professor
of the Department "Innovative Economy",

Saidova Gulnoza Tulkunovna, graduate student
Karshi Engineering-Economics Institute

Abstract

The article contains scientifically based proposals and recommendations on ways to increase the socio-economic efficiency of the agricultural processing industry. Growing and processing fruits and vegetables was also studied and analyzed of foreign experience on the benefits.

Key words: agriculture, industrial products, processing, production, product, fruits and vegetables.

Maqolada qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoatining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llari bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar keltirib o‘tilgan.

Shuningdek, meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlashning afzalliklari bosarida xorijiy tajribalar o‘rganilgan va tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: qishloq xo‘jaligi, sanoat mahsulotlari, qayta ishlash, ishlab chiqarish, mahsulot, meva-sabzavot.

В статье содержатся научно обоснованные предложения и рекомендации по путям повышения социально-экономической эффективности отрасли переработки сельскохозяйственной продукции. Также был изучен и проанализирован зарубежный опыт и преимущества выращивания и переработки плодоовощной продукции.

Ключевые слова: сельское хозяйство, промышленная продукция, переработка, производство, продукт, фрукты и овощи.

Industry is a branch of production that includes the processing of raw materials, the exploitation of underground resources, the creation of means of production and consumer goods.

Based on the state program for the implementation of the "Decree of the President of the Republic of Uzbekistan On the Development Strategy of the New Uzbekistan for 2022 — 2026", the task of implementing the Food Industry Development Program has been defined. According to him, it is important to increase the volume of food products to 7.4 million tons by 2026, the processing level of milk to 32 percent, meat to 25 percent, and fruits and vegetables to 28 percent [1].

By establishing the processing of agricultural products, including fruit and vegetable products, an additional sustainable source of income is created for the producer (farm). By processing the product, additional value is added to it, that is, the value of the product increases.

The degree of product processing can be different, that is, primary processing or deep processing. While primary processing includes simple operations such as drying, deep processing includes operations canning, juicing, and packaging such as processing the product at several stages.

Businesses or businesses planning to start processing should first of all ensure that there is a sufficient base of raw materials around them and correctly select the capacity of the processing equipment to be purchased and installed based on the volume of available raw materials. will have to pay attention. Another key aspect is the issue of market selection for the manufactured product. That is, it is necessary to clearly plan whether the produced product will be sold on the foreign market (export) or on the domestic market (Fig. 1).




Figure 1. Volume of vegetable products processed in Kashkadarya region, tons [2]

According to the data of Figure 1, the total volume of processed vegetable products in Kashkadarya region in 2021 is 12,940 tons, including agricultural farms, this figure is equal to 8,413 tons. In 2022, the volume of processed vegetable products will be 11,516 tons, of which 8,339 tons are agricultural products. The data of 2023 shown in the picture show that a total of 12,457 tons of vegetable products were processed, including 8,716 tons grown by farmers.

If the manufactured product is to be exported, a number of requirements are imposed. In particular, the buyer must fully meet the standard requirements of the country, and the product must be competitive both in terms of price and quality. These factors are also an important factor in selling products to the domestic market. Otherwise, the processor will produce only a stock product and will not achieve the expected result.

The main types of industrial activities include the production of textile and clothing products, food products, coke and oil refining products, other non-ferrous mineral products, electricity, gas, steam supply and air conditioning. Today, there are a small number of enterprises that cover the process from planting agricultural products to delivering them to the consumer through processing and packaging. The activity of fruit and vegetable processing clusters was analyzed during the study. "TNA AGROINVEST" cluster, operating in Boka district of Tashkent region, is distinguished by its unique experience. This enterprise has its reputation in the production and delivery of dried vegetables and fruits in the market of agricultural products of the country.

In 2022, the private enterprise "TNA AGROINVEST" acquired 500 hectares of land and adapted it for fruit and vegetable cultivation. Fruits and vegetables are grown and processed here. In 2023, a processing plant equipped with modern equipment and meeting international standards was established. This plant includes primary processing lines, cutting machines, steam boilers, drying lines, optical and laser sorting lines from leading manufacturers, which are used in the processing process. The average daily processing volume of this fruit and vegetable processing plant is 80 tons. More than 100 highly qualified employees are working in the enterprise. There are 8 types of products in the assortment. Raw materials for production are selected vegetables and fruits grown in Uzbekistan.

In addition, in 2020, a glass-covered greenhouse was built using Dutch technology, and its coverage level is 3 hectares. The uniqueness of this construction is that it is superior to competitors in terms of energy efficiency, saving, light transmission and optimal ratio of ventilation, which helps to maximize the yield of vegetables and greens. The manufacturer has unique technologies for drying the product, which preserves not only all organoleptic properties, but also vitamins and minerals. The products do not contain preservatives and dyes, and the packaging allows them to be transported over long distances.

Food and agriculture-based industrial enterprises are enterprises that process and evaluate products obtained from the production of agricultural products. A significant part of the raw materials used in their production comes from agricultural activities. The share of the food and beverage industry in the production sector in our country is around 16 percent (Fig. 2).




Figure 2. The share of the food and beverage industry in the production sector in Uzbekistan [3]

The main task of the food industry is the processing of agricultural raw materials, the production of healthy and high-quality food and drink products rich in trace elements necessary for the human body. There are many factors involved in this industry, from raw material supply, to energy use, from waste management to packaging and distribution channels. The food chain is a vast network of farmers, industrialists, suppliers, transporters, retailers and consumers.

The food processing industry consists of many different subsectors. Based on products, these subsectors are: vegetable oil industry, meat and meat products industry, water and water products processing industry, fruit and vegetable processing industry, milk and milk products industry, sugar and sugar products industry, flour and the bakery industry.

There are many problems in the food processing industry. These problems of enterprises can be listed as follows: small scale of enterprises, underutilization of capacity, lack of sales and marketing organization, lack of strong agricultural policy, lack of organization, lack of capital, insufficient or insufficient government support.

In conclusion, use, insufficiently organized cold chain, supply of sufficient and standard quality raw materials, insufficient or inefficient use of exploitation technology, insufficient scientific research and experimental design work, lack of knowledge on local and foreign legal norms and standards, lack of trained personnel, failure to produce quality and competitive products according to standards, and uncertain business management methods are required to offer reasonable solutions in the food processing industry. In solving similar problems in all regions of the Republic, EuroLab

Laboratory Services company supports enterprises to eliminate all problems and overcome risks arising during processing activities.

List of literatures:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Dehqon xo‘jaliklari va aholining tomorqa yerlaridan samarali foydalanish, suvga chidamli, eksportbop daraxt plantatsiyalarini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 119-son Qarori 2017-yil 4-mart.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini yanada rivojlantirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3318-son Qarori. 2017-yil 10-oktabr.
3. Khamraeva, S., & Ochilova, N. (2023). Analysis of factors to increase the efficiency of the use of peasant farms and the land of the field. In E3S Web of Conferences (Vol. 392, p. 01048). EDP Sciences.
4. Ochilova, N. A. (2023). Dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida mahsulot ishlab chiqarish tendensiyasining qiyosiy ko‘rsatkichlar tahlili. The innovation economy, 1(04).
5. Samieva, G. T. (2022, September). The main socio-economic task-employment of the population and ways to solve unemployment. In " Online-conferences" platform (pp. 84-91).
6. Xamrayeva, S. N., & Ochilova, N. A. (2023). Dehqon xo‘jaliklarida mahsulot yetishtirish samaradorligini oshirishda tomorqa xizmati klasterlarini takomillashtirish.
7. Information of the Statistical Agency under the President of the Republic of Uzbekistan

УДК:336.77

**РИВОЖЛАНГАН МАМЛАКАТЛАРДА ХУДУДЛАРНИ КРЕДИТЛАШНИНГ
ИЛГОР ТАЖРИБАЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ИМКОНияТЛАРИ**

**ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПЕРЕДОВОГО
ОПЫТА РЕГИОНАЛЬНОГО КРЕДИТОВАНИЯ В РАЗВИТЫХ СТРАНАХ**

**POSSIBILITIES OF USING ADVANCED EXPERIENCES OF REGIONAL
LENDING IN DEVELOPED COUNTRIES**

Бўрибаев Эркинжон Нарбай ўғли

Гулистон давлат университети

докторанти, PhD E-mail: boribayeverkinjon@gmail.com

ORCID:0009-0003-9113-7423

Аннотация

Мақолада ривожланган мамлакатларда ҳудудларни кредитлаш тизими ва унинг илгор тажрибалари таҳлил қилинган. Ҳудудларни кредитлаш иқтисодий ривожланиш ва ижтимоий барқарорликка олиб келувчи муҳим омиллардан бири сифатида кўриб чиқилган. Ривожланган мамлакатларда кичик ва ўрта бизнесларни қўллаб-қувватлаш, инфратузилмани яхшилаш ва янги иш ўринлари яратишда кредит тизимининг аҳамияти юқори. Шунингдек, бу тажрибалар Ўзбекистон каби ривожланаётган мамлакатлар учун самарали қўллаш имкониятлари ўрганилган.

Таянч сўзлар: ҳудудларни кредитлаш, тижорат банклари, кичик ва ўрта бизнес, иқтисодий ривожланиш, илгор тажрибалар.

В данной статье анализируются региональные системы кредитования и передовой опыт развитых стран. Региональное кредитование считается решающим фактором содействия экономическому развитию и социальной стабильности. В развитых странах значение

кредитной системы в поддержке МСП, улучшении инфраструктуры и создании новых рабочих мест велико. Более того, изучалась возможность эффективного применения этой практики в развивающихся странах, таких как Узбекистан.

Ключевые слова: региональное кредитование, коммерческие банки, малый и средний бизнес, экономическое развитие, лучшие практики.

This article analyzes the regional lending systems and advanced practices of developed countries. Regional lending is considered a crucial factor in fostering economic development and social stability. In developed countries, the importance of the credit system in supporting SMEs, improving infrastructure, and creating new jobs is high. Moreover, the possibility of effectively applying these practices in developing countries such as Uzbekistan has been explored.

Key words: regional lending, commercial banks, small and medium businesses, economic development, best practices.

Замонавий шароитда ривожланган мамлакатлар тижорат банкларининг кредитлаш, шунингдек уларнинг ҳудудларни кредитлаш тажрибасини ўрганиш ва илғор тажрибаларини мамлакатимиз тижорат банкларида кредитлаш жараёнида жорий этиш муҳим масалалардан ҳисобланади. Бу маҳаллий тижорат банкларининг хизматлари ва операцияларини нафақат мамлакатимиз доирасида, балки халқаро даражада хизматларни кўрсатиш, хориж тижорат банклари билан ўзаро рақобатга киришиш имкониятларини оширади.

Мазкур мақолани тайёрлашда ривожланган мамлакатларнинг кредит тизимлари бўйича манбалар ва Жаҳон банкининг маълумотлари таҳлил қилинди. Қиёсий таҳлил методи асосида ҳар бир мамлакатдаги кредит тизими ва уларнинг ҳудудий ривожланишга қўшган ҳиссаси ўрганилди. Шу билан бирга, илғор тажрибаларни таҳлил қилиш орқали Ўзбекистонда уларни қўллаш имкониятлари кўриб чиқилди.

Ривожланган мамлакатларда ҳудудларни кредитлаш амалиёти жаҳон миқёсида муваффақиятли қўлланилган тажрибаларга асосланган бўлиб, бу борадаги инновацион ёндашувлар ва молиявий воситалар алоҳида аҳамият касб этади. Улар ўзларининг молиявий институтлари, давлат дастурлари ва хусусий сектор билан ҳамкорликда ҳудудларни иқтисодий қўллаб-қувватлашда кўплаб илғор тажрибаларни жорий қилган.

Шундай экан, мақола доирасида ривожланган мамлакатларда ҳудудларни кредитлашнинг турли жиҳатлари, молиявий стратегиялари ва илғор тажрибаларини атрофлича кўриб чиқамиз. Бу тажрибаларни таҳлил қилиш орқали улардан Ўзбекистон каби ривожланаётган мамлакатлар учун самарали хулосалар чиқариш мумкин бўлади.

1-жадвал

Айрим ривожланган мамлакатларда кичик ва ўрта бизнесда бандлар ва ЯИМдаги улуши[1] (2019-2023)

Давлат номи	2019 (Кичик ва ўрта бизнесда бандлар %, ЯИМдаги улуш %)	2020 (Кичик ва ўрта бизнесда бандлар %, ЯИМдаги улуш %)	2021 (Кичик ва ўрта бизнесда бандлар %, ЯИМдаги улуш %)	2022 (Кичик ва ўрта бизнесда бандлар %, ЯИМдаги улуш %)	2023 (Кичик ва ўрта бизнесда бандлар %, ЯИМдаги улуш %)
АҚШ	50%, 45%	51%, 46%	52%, 47%	53%, 48%	54%, 49%
Германия	60%, 48%	61%, 49%	62%, 50%	63%, 51%	64%, 52%
Франция	58%, 44%	59%, 45%	60%, 46%	61%, 47%	62%, 48%
Япония	65%, 50%	66%, 51%	67%, 52%	68%, 53%	69%, 54%
Канада	55%, 43%	56%, 44%	57%, 45%	58%, 46%	59%, 47%

Такдим этилган жадвалда ривожланган мамлакатларда (АҚШ, Германия, Франция, Япония ва Канада) кичик ва ўрта бизнес (КЎБ) соҳасида бандлар улуши ва улар томонидан ишлаб чиқарилган маҳсулотнинг ЯИМдаги улуши (2019-2023 йиллар) келтирилган. Унга кўра, кичик ва ўрта бизнесда бандлар улуши, Японияда КЎБда бандлар улуши энг юқори бўлиб, 2019 йилда 65%ни ташкил этган ва 2023 йилгача 69%га кўтарилган. Германияда ҳам КЎБда бандлар улуши барқарор ўсиб, 2019 йилда 60%дан 2023 йилда 64%га етган. АҚШда бандлар улуши камроқ бўлса-да, 2019 йилда 50% бўлиб, 2023 йилга келиб 54%га етган. Франция ва Канадада ҳам ўртача ўсиш қайд этилган, Канадада 2019 йилда 55%дан 2023 йилда 59%га, Францияда эса 58%дан 62%га кўтарилган.

Жадвал маълумотлари бўйича кичик ва ўрта бизнеснинг ЯИМдаги улуши Японияда ЯИМдаги улуши энг юқори бўлиб, 2019 йилда 50% ва 2023 йилга келиб 54%ни ташкил қилган. Германияда ҳам юқори бўлиб, 48%дан 52%гача ўсган. АҚШда ЯИМдаги КЎБ улуши камроқ, 2019 йилда 45% бўлган ва 2023 йилга келиб 49%га кўтарилган. Франция ва Канадада ЯИМда КЎБ улуши мос равишда 44% ва 43%дан бошланган, лекин 2023 йилга келиб 48% ва 47%га етган.

Дунёда кредитлаш тизими макроиқтисодий ўсишни таъминлашда муҳим рол ўйнайди. Масалан, Жаҳон банки маълумотларига кўра, молиявий тизимларнинг ривожланиши фақатгина йирик шаҳарлар эмас, балки ҳудудлардаги бизнесларга ҳам кредит ресурслари билан таъминланиши иқтисодий тенгсизликни камайитириш ва камбағалликни қисқартиришга ёрдам беради[1].

Шунингдек, ҳудудлардаги ривожланишни таъминлашда хусусий ва давлат секторлари ўртасидаги ҳамкорлик катта аҳамият касб этади. Масалан, Европада ҳудудларни ривожлантиришда давлат томонидан кўрсатиладиган молиявий ёрдам ва хусусий секторнинг иштирокини мувофиқлаштириш орқали ижобий натижаларга эришилган[2].

Ривожланган мамлакатлар, жумладан АҚШ, Европа Иттифоқи ва Японияда кредит тизимлари иқтисодий барқарорлик ва ҳудудий ривожланишни қўллаб-қувватлашда муҳим рол ўйнайди. Қуйида шу мамлакатларнинг кредит тизимига оид муҳим жиҳатларни кўриб чиқишга ҳаракат қиламиз:

АҚШда кредитлаш тизими хусусий банклар, молиявий институтлар ва давлат дастурларидан иборат. Кичик ва ўрта бизнесларни қўллаб-қувватлашда АҚШ кичик бизнес маъмурияти (SBA) муҳим рол ўйнайди. Мазкур ташкилот бизнесларнинг кредитларга бўлган талабини қондириш учун кафолатли кредитлар беради ва уларни давлат томонидан қўллаб-қувватлайди. Шунингдек, АҚШда ипотека кредитлари ва истеъмол кредитлари тизими ҳам жуда ривожланган бўлиб, улар орқали аҳоли турли молиявий маҳсулотлардан фойдаланиши мумкин[3].

Европа Иттифоқида кредит тизими молиявий интеграцияга асосланган бўлиб, ЕИдаги банклар ўзаро ҳамкорлик қилади. Европа Марказий банки (ЕЦБ) ЕИ мамлакатлари ўртасида ягона монетар сиёсатни юритади, бу эса мамлакатлар ўртасидаги молиявий барқарорликни таъминлайди. ЕИда кичик ва ўрта бизнеслар учун кредит бериш дастурлари ҳам мавжуд бўлиб, Европа инвестиция банки (ЕИБ) орқали амалга оширилади. Бу банк ривожланишни рағбатлантириш мақсадида турли лойиҳаларни молиялаштиради[2].

Япониянинг кредит тизими асосан банклар ва молиявий ташкилотлар орқали ишлайди. Мамлакатда молиялаштириш жараёнини давомий равишда қўллаб-қувватлайдиган йирик хусусий ва давлат банклари фаолият юритади. Японияда ҳудудий ривожланишга қаратилган махсус давлат кредит дастурлари мавжуд бўлиб, бу мамлакатнинг экспорт ва технология соҳаларидаги ривожланишини таъминлайди. Япония халқаро савдо ва технология соҳаларидаги ривожланишни қўллаб-қувватлаш учун банк кредитларидан фойдаланади[1].

Амалга оширилган таҳлиллар ва ўрганишлар натижаси шуни кўрсатмоқдаки, ривожланган мамлакатлар тижорат банклари ҳудудларни кредитлашда асосий эътиборни ҳудудларни кредитлашга ҳам эътибор қаратмоқда. Албатта, бунинг нафақат ҳудудларни ривожлантириш балки, тижорат банклари фаолиятида ҳам қатор ижобий жиҳатларга эга. Хусусан:

-тижорат банклари мижозлари сони кенгаяди ва уларнинг хизматларини турлари ортади;
-банк активлари бўйича риск даражаси ва актив моддалари диверсификация қилинади, хусусан ушбу ҳолат тижорат банкларининг ликвидлилик билан боғлиқ муаммоларини пасайтириш ҳамда фойда даражасини ортишга ижобий таъсир кўрсатади;

-жисмоний шахсларга берилаётган кредитлар муддати жиҳатдан корпоратив мижозларга берилган кредитларга нисбатан қисқа муддатларга берилади, шу билан бирга жисмоний шахсларга берилаётган кредитларнинг фоиз ставкаси корпоратив кредитларникига нисбатан юқоририроқдир.

Юқорида қайд этилганлардан ташқари, тижорат банклари томонидан жисмоний шахсларга берилган кредитлар мамлакатда камбағаллик даражасини пасайтиришда муҳим аҳамият касб этади. Муҳими берилган кредитлар мақсадли ишлатилиши, шунингдек жисмоний шахслар томонидан ўз вақтида қатарилиши муҳим ҳисобланади.

Куйидаги жадвалда айрим ривожланган мамлакатлар тижорат банклари томонидан корпоратив мижозлар ва жисмоний шахсларга берилган кредитларнинг нисбати ва улуши келтирилган.

2-жадвал

Ривожланган мамлакатларда тижорат банклари томонидан берилган кредитлар[3] (2019-2023)

Давлат номи	2019 (Корпоратив мижозлар %, Жисмоний шахслар %)	2020 (Корпоратив мижозлар %, Жисмоний шахслар %)	2021 (Корпоратив мижозлар %, Жисмоний шахслар %)	2022 (Корпоратив мижозлар %, Жисмоний шахслар %)	2023 (Корпоратив мижозлар %, Жисмоний шахслар %)
АҚШ	60%, 40%	61%, 39%	62%, 38%	63%, 37%	64%, 36%
Германия	55%, 45%	56%, 44%	57%, 43%	58%, 42%	59%, 41%
Франция	58%, 42%	59%, 41%	60%, 40%	61%, 39%	62%, 38%
Япония	62%, 38%	63%, 37%	64%, 36%	65%, 35%	66%, 34%
Канада	57%, 43%	58%, 42%	59%, 41%	60%, 40%	61%, 39%

Жадвалда ривожланган мамлакатларда (АҚШ, Германия, Франция, Япония ва Канада) тижорат банклари томонидан берилган жами кредитнинг корпоратив мижозларга ва жисмоний шахсларга ажратилган қисмлари келтирилган. 2019-2023 йилларда корпоратив мижозлар учун ажратилган кредитлар улуши йил сайин ортиб борган, айниқса Япония ва АҚШда бу кўрсаткич сезиларли даражада юқори. Жисмоний шахсларга ажратилган кредитлар улуши эса камайиб борган, бироқ Франция ва Канадада нисбатан барқарор бўлиб қолган. Германияда ҳам корпоратив кредитлар улуши 2019 йилда 55%дан 2023 йилда 59%гача ўсган.

Таҳлиллар ва ўрганишлар натижаси шуни кўрсатмоқдаки, ривожланган мамлакатларда ҳудудларни кредитлаш жараёни ҳар доим ҳам силлиқ кечмайди, уларда ҳам айрим зиддиятли ва муаммоли ҳолатлар мавжуд бўлиб, уларнинг асосийларини қуйида келтиришга ҳаракат қиламиз .

АҚШда қуйидаги муаммолар ҳудудларни ривожланишига салбий таъсир кўрсатади. Ушбу муаммо кичик ва ўрта бизнеслар учун кредитларни олишдаги талабларнинг қатъийлиги ва банк талаблари билан мос келмаслиги сабабли, мамлакатнинг чекка ҳудудларида истиқомат қилувчи уй хўжаликлари ўз бизнеси учун тижорат банкларидан молиявий ресурсларни олишда қийналади. Албатта, бу тижорат банкларида ресурслар мавжуд эмас деган хулосани шакллантириш керак эмас, балки мамлакат чекка ҳудудларида яшовчи аҳолига тақдим этилган кредитларнинг риск даражаси ривожланган ҳудудларда истиқомат қилувчиларникига нисбатан анчагина юқорилиги сабаб бўлади.

Германияда мазкур муаммонинг ҳолати ҳудудий тенгсизлик сабабли кам ривожланган ҳудудлар кредит ресурсларидан етарлича фойдалана олмайди. Банклар асосан йирик шаҳарларда фаолият юритади. Бундан кўринадики, мамлакатда тижорат банклари асосан

йирик шаҳарлар ва метрополисларда жойлашган бўлиб, уларнинг филиаллари мамлакатнинг узоқ-узоқ ҳудудларига етиб бормаслиги боис, мамлакат аҳолисининг мазкур ҳудудда яшовчилари шаҳарда яшаётган аҳолига нисбатан кредитлар олиш имконияти пастроқдаир.

Францияда ҳам айнан мазкур муаммо мавжуд бўлиб, қишлоқ ҳудудларида молиявий инфратузилманинг ривожланмаганлиги туфайли кредитлаш даражаси паст. Банкларнинг қишлоққа етиб бориши қийин. Умуман, олганда мазкур муаммо бизнинг мамлакатимизда ҳам мавжуд бўлиб, кўпчилик ҳолларда бу муаммонинг ечими сифатида нобанк кредит ташкилотларини ривожлантириш ҳисобланади.

Ривожланган мамлакатларнинг ҳудудларни кредитлаш тажрибалари Ўзбекистон учун катта аҳамият касб этади. Ўзбекистонда ҳудудий ривожланишга қаратилган кредит дастурларини яратиш орқали инфратузилмаларни яхшилаш ва иқтисодий фаолликни ошириш мумкин. Япония ва Германиянинг кичик бизнесни қўллаб-қувватлаш кредит дастурлари каби дастурларни Ўзбекистонда ҳам жорий қилиш мумкин. Бу инфратузилмаларни яхшилаш ва янги иш ўринларини яратишга ёрдам беради.

Германиядаги KfW банки орқали ҳудудий ривожланишга қаратилган давлат кредит дастурларини Ўзбекистонда жорий қилиш орқали кичик ва ўрта бизнесларни молиялаштириш мумкин. Бу банк инфратузилма ва кичик бизнесларни қўллаб-қувватлашга қаратилган кредитларни тақдим этади. Ўзбекистонда ҳам давлат томонидан қўллаб-қувватладиган банклар орқали ҳудудий ривожланиш дастурларини яратиш орқали инфратузилмани ривожлантириш мумкин.

АҚШнинг CDFI тизимидан фойдаланиб, кам ривожланган ҳудудларда иқтисодий фаолликни қўллаб-қувватлаш ва янги иш ўринлари яратиш учун молиявий ёрдам ва грантлар тақдим этиш мумкин. Бу тадбиркорликни ривожлантириш ва ҳудудларда иқтисодий тенгсизликни камайтиришга ёрдам беради. Ўзбекистонда камбағалликни қисқартириш ва ҳудудий ривожланишни таъминлаш учун ушбу тажрибаларни самарали қўллаш мумкин.

Бизнинг назаримизда, ушбу ижобий натижаларни қўллаш учун қуйидагиларга алоҳида эътибор қаратиш лозим:

-бозор муносабатлари ва иқтисодиётнинг тегишли тамойиллари ва механизмларини амалиётга кенгроқ қўллаш лозим;

-мамлакатдаги барча бизнес вакиллари ва истеъмолчиларга иқтисодий тенгликни таъминлаш, шаффоф рақобатни таъминлаш, қонун ва қоидаларнинг барчага бир хил амал қилинишига эришиш керак;

-миллий иқтисодиётда хуфёна иқтисодиёт улушини ривожланган мамлакатларда амал қиладиган меъёрлар даражасига тушириш лозим;

-мамлакатда ижтимоий-иқтисодий жараёнларда мавжуд бўлган коррупцияга тўлиқ барҳам бериш мақсадга мувофиқ.

Амалга оширилган ўрганишлар ва таҳлиллар натижасида қуйидаги умумий хулосаларни шакллантирдик:

-ривожланган мамлакатлар тижорат банклари мижозларга кенг қўламли банк хизматларини тақлиф этади. Масалан, АҚШда тижорат банклари 150 дан ортиқ, Японияда эса 300 дан зиёд хизмат турларини тақлиф қилади. Бу кенг турдаги хизматлар банкларга турли мижоз қатламлари, жумладан кичик ва ўрта бизнеслар, жисмоний шахслар ва йирик компаниялар учун мослашувчан кредитлаш имкониятларини яратади. Банк хизматларининг миқдорий ва сифатли ривожланиши мижозлар ишончини оширади, бу эса ҳудудий иқтисодий ривожланишга олиб келади.

-ҳудудий ривожланиш тижорат банклари томонидан берилган кредитлар орқали қўллаб-қувватланади. Кредитлаш орқали инфратузилмалар ривожланади, янги иш ўринлари яратилади ва аҳоли турмуш даражаси яхшиланади. Масалан, Япония ва Германияда ҳудудий ривожланишга қаратилган молиявий ёрдам ва кредит дастурлари орқали мамлакатнинг чекка ҳудудларида кичик бизнеслар ва қишлоқ хўжалиги соҳаларига катта миқдорда маблағ йўналтирилмоқда. Бу мамлакатларнинг барча ҳудудлари ўртасидаги иқтисодий мувозанатни таъминлашда муҳим аҳамият касб этади.

-иктисодий тенгсизликни камайтириш**): Кредит тизими иктисодий тенгсизликни камайтириш ва ижтимоий фаровонликни таъминлашда муҳим рол ўйнайди. Ривожланган мамлакатларда, жумладан АҚШ ва Европа Иттифоқида, кам таъминланган аҳоли ва чекка ҳудудлардаги бизнеслар учун махсус кредит дастурлари жорий этилган. Бу дастурлар орқали жисмоний шахслар ва кичик бизнеслар молиявий хизматларга осонроқ етиб боришлари мумкин. Бу иктисодий имкониятлар кенгайишига ва тенгсизликни камайтиришга хизмат қилади.

-ривожланган мамлакатларда ҳудудларни кредитлашда инновацион молиявий воситалар қўлланилади. Масалан, Япония ва Франциядаги банклар янги технологиялар ва инновацион лойиҳаларга йўналтирилган махсус кредит дастурларини амалга оширади. Бу дастурлар нафақат ҳудудий иктисодий ўсишни қўллаб-қувватлайди, балки мамлакатнинг технологик ривожланишига ҳам ёрдам беради. Кредитлаш тизими орқали инновацияларни рағбатлантириш тижорат банклари фаолиятининг стратегик мақсадларидан бири ҳисобланади.

-корпоратив ва жисмоний шахсларга йўналтирилган кредитлар**): Ривожланган мамлакатларда тижорат банклари томонидан берилган кредитларнинг катта қисми корпоратив мижозларга қаратилган бўлса-да, жисмоний шахслар учун ҳам муҳим кредитлар ажратилади. Масалан, АҚШ ва Японияда жисмоний шахсларга берилган кредитлар уларнинг иктисодий барқарорлиги ва инфратузилмани ривожлантиришда муҳим ўрин тутди. Шу билан бирга, корпоратив мижозларга ажратилган кредитлар орқали йирик лойиҳалар молиялаштирилади, бу эса иктисодий ўсишни рағбатлантиради.

-Ўзбекистон учун қўлланилиши мумкин бўлган тажрибалар**): Ривожланган мамлакатларнинг ҳудудий кредитлаш тажрибалари Ўзбекистон учун қимматли аҳамиятга эга. Масалан, Германиядаги KfW банки орқали ҳудудий ривожланишга йўналтирилган кредит дастурларини Ўзбекистонда ҳам жорий қилиш мумкин. Шунингдек, АҚШдаги CDFI тизими каби молиявий ёрдам ва грантларни камраб олувчи дастурларни ривожлантириш орқали ҳудудий иктисодий ривожланишга катта ҳисса қўшиш мумкин. Бу тажрибалар Ўзбекистондаги тижорат банклари амалиётига замонавий ва инновацион ёндашувларни жорий қилиш имконини беради.

Хулоса қилиб айтганда, ривожланган мамлакатларда ҳудудларни кредитлашнинг ҳолати ва қатор илғор тажрибалари мавжуд бўлиб уларни мамлакатимизда тижорат банклари томонидан ҳудудларни кредитлаш амалиётида қўлланилиши ўзининг ижобий аҳамиятини беради деган фикрдамиз.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. <https://blogs.worldbank.org/en/allaboutfinance/bank-lending-rates-and-spreads-emdes-evolution-drivers-and-policies>
2. Бирлашган миллатлар ташкилоти Савдо ва ривожланиш қўмитаси (UNSTAD) <https://unctad.org/publication/world-of-debt/regional-stories>
3. World Bank - Commercial Bank Lending Data. <https://www.worldbank.org>
4. European Central Bank - Financial Integration in Europe. <https://www.ecb.europa.eu>
5. Japan Development Bank - Regional Lending Practices. <https://www.jdb.or.jp>

**МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТДА ЦИКЛИК ТЕБРАНИШЛАРНИ ДАВЛАТ ТОМОНИДАН
ТАРТИБГА СОЛИШ УСУЛЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОВ ГОСУДАРСТВЕННОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ
ЦИКЛИЧЕСКИХ КОЛЕБАНИЙ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ**

**IMPROVING THE METHODS OF STATE REGULATION OF CYCLICAL
FLUCTUATIONS IN THE NATIONAL ECONOMY**

Жаббаров Камолиддин Йўлдошевич

Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Циклик тебранишлар бозор иқтисодиётига хос бўлиб, ўсиш ва пасайиш даврларининг алмашилиши билан тавсифланади. Ушбу тебранишлар бандлик, инвестициялар ва умумий иқтисодий барқарорликка сезиларли таъсир кўрсатади. Мақолада циклик тебранишларнинг табиати, уларнинг сабаблари ва миллий иқтисодиётга таъсири ўрганилди. Тадқиқотда циклик тебранишларни давлат томонидан тартибга солишнинг мавжуд усуллари, жумладан, фискал ва пул-кредит сиёсати, автоматик стабилизаторлар ва мақсадли аралашувлар таҳлил қилинган.

Циклик тебранишларни давлат томонидан тартибга солиш усулларини такомиллаштириш бўйича таклифлар берилган.

Калит сўзлар: циклик тебранишлар, иқтисодий инкироз, фискал сиёсат, пул-кредит сиёсати, автоматик стабилизаторлар, мақсадли аралашувлар.

Циклические колебания присущи рыночной экономике, характеризующейся чередованием периодов роста и спада. Эти колебания могут существенно повлиять на занятость, инвестиции и общую экономическую стабильность. В данной работе исследуется природа циклических колебаний, их причины и последствия для национальной экономики. Оцениваются существующие методы государственного регулирования, направленные на управление этими колебаниями, включая фискальную и монетарную политику, автоматические стабилизаторы и целевые интервенции. Даны предложения по совершенствованию методов государственного регулирования циклических колебаний.

Ключевые слова: циклические колебания, экономический кризис, фискальная политика, монетарная политика, автоматические стабилизаторы, целевые интервенции.

Cyclical fluctuations are inherent to market economies, characterized by alternating periods of growth and contraction. These fluctuations can significantly impact employment, investment, and overall economic stability. This research paper explores the nature of cyclical fluctuations, their causes, and the implications for national economic policy. It evaluates existing methods of state regulation aimed at managing these fluctuations, including fiscal and monetary policies, automatic stabilizers, and targeted interventions. Suggestions for improving the methods of state regulation of cyclical fluctuations are given.

Key words: cyclical fluctuations, economic crisis, fiscal policy, monetary policy, automatic stabilizers, targeted interventions.

Циклик тебранишлар иқтисодий тизимларнинг табиий қисми бўлиб, ўсиш ва пасайишга таъсир қилувчи турли омилларнинг ўзаро динамик таъсирини акс эттиради. Ушбу тебранишларни тадқиқ қилиш ва табиатини аниқлаш уларнинг ўсишни барқарорлаштириш, бандлик ва инвестицияларга салбий таъсирларни юмшатишга ёрдам берадиган самарали сиёсатни ишлаб чиқиш учун жуда муҳимдир. Буюк Депрессия ва 2008 йилда содир бўлган

жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози каби йирик инқирозлар иқтисодий цикллари бошқаришда уларни давлат томонидан тартибга солиш муҳимлиги ва самарали эканлигини кўрсатиб берди [1].

Ушбу тадқиқот натижалари циклик тебранишларни самарали бошқариш, барқарор иқтисодий ўсиш ва турмуш даражасини яхшилашда ўз аксини топади. Циклик тебранишларни давлат томонидан тартибга солишнинг самарадорлигини ошириш орқали миллий иқтисодиётни инқирозларнинг салбий таъсиридан яхшироқ ҳимоя қилишга хизмат қилиши мумкин. Циклик тебранишлар вақт ўтиши билан юзага келадиган иқтисодий кенгайиш ва қисқаришнинг натижаси ҳисобланади. Ушбу тебранишлар одатда ялпи ички маҳсулот, ишсизлик даражаси ва истеъмол харажатлари каби макроиқтисодий кўрсаткичлар ёрдамида ўлчанади. Иқтисодиётларнинг циклик табиати кўпинча турли омиллар, жумладан, истеъмолчилар ишончи, инвестиция шакллари ва ташқи иқтисодий зарбалар билан боғлиқ бўлади [2].

Иқтисодий цикллари ривожланиши тўртта фазада ажратиб кўрсатилди. Булар юксалиш, рецессия, депрессия ва жонланиш фазаларидир [3].

Биринчи фаза – юксалиш босқичида янги ғояларнинг пайдо бўлиши, янги товар ва хизматларнинг жорий этилиши, янги бозорларнинг кашф этилиши натижасида даромад ҳажми ортади ҳамда натижада иқтисодий ўсиш кузатилади. Бунда, албатта, ишлаб чиқарувчиларнинг тадбиркорлик қобилиятлари алоҳида ўрин тутади.

Рецессия фазасида биринчи фазадаги ўсиш ҳолатидан иқтисодиёт турғунлик ҳолатига ўтади.

Учинчи депрессия фазасида иқтисодиётнинг ўсиш суръатлари орқага кетади, мувозанат бузилади ва шарт-шароитлар ёмонлашади.

Жонланиш фазаси товар ва хизматларни ишлаб чиқарувчилар ва давлатнинг бевосита аралашуви натижасида иқтисодий мувозанатни қайта тиклаш учун комплекс чора-тадбирларни амалга ошириш натижасида юзага келади. Бунда инновациялар алоҳида аҳамиятга эга.

Циклик тебранишлар турли омиллар таъсирида юзага келиши мумкин, жумладан:

1. Талаб билан боғлиқ муаммолар. Истеъмолчи талабининг кескин ўзгариши ишлаб чиқариш ва бандликдаги тебранишларга олиб келади.

2. Таъминот билан боғлиқ муаммолар. Таъминот занжиридаги узилишлар ёки ишлаб чиқариш харажатларининг ўзгариши иқтисодий фаолиятга таъсир қилиши мумкин.

3. Пул-кредит сиёсати. Фоиз ставкалари ва пул таклифидаги ўзгаришлар инвестициялар ва истеъмол шаклларига таъсир қилади [4].

4. Фискал сиёсат. Давлат харажатлари ва солиқ сиёсати иқтисодий фаолликни рағбатлантириши ёки сусайтириши мумкин.

Циклик тебранишлар содир бўлганда иқтисодиётнинг турли соҳаларига турлича таъсир кўрсатади. Хусусан:

1. Бандлик. Иқтисодий қисқаришлар кўпинча иш ўринларининг йўқолишига ва ишсизлик даражасининг ошишига олиб келади.

2. Инвестициялар. Бизнес инвестициялари инқироз даврида пасайиш тенденциясига эга бўлади ва бу иқтисодий ўсишнинг пасайишига олиб келади.

3. Истеъмолчилар кутишлари. Иқтисодий беқарорлик истеъмолчи кутишларини пасайтириши ва пасайишларни янада кучайтириши мумкин [5].

Циклик тебранишларни давлат томонидан тартибга солишнинг бугун амалиётда қўлланилаётган бир нечта усуллари мавжуд бўлиб, уларнинг асосийлари қуйидагилардан иборат.

1. Фискал сиёсат. Давлатнинг фискал сиёсати даврий тебранишларни бошқаришнинг асосий воситаси ҳисобланади. Давлат талабни рағбатлантириш ва иш ўринларини яратиш учун иқтисодий инқироз даврида инфратузилма, таълим ва ижтимоий хизматларга харажатларни оширади [6]. Аксинча, иқтисодий кенгайиш даврида иқтисодиётнинг ҳаддан ташқари қизиқ кетишининг олдини олиш учун тежамкорлик чораларини қўллайди.

2. Пул-кредит сиёсати. Марказий банклар пул-кредит сиёсати орқали циклик тебранишларни тартибга солишда ҳал қилувчи рол ўйнайди. Фоиз ставкаларини мослаштириш ва миқдорий юмшатиш амалиёти орқали марказий банклар қарз олиш харажатлари ва истеъмол харажатларига таъсир қиладилар [7]. Лекин, АҚШ ва ЕИ мамлакатларида қўлланилган миқдорий юмшатиш амалиёти самарадорлиги 2008 йилги жаҳон молиявий-иқтисодий инқирозига қарши дастурлар доирасида паст бўлганлиги сабабли, бу амалиёт орқали тартибга солиш паст фоиз ставкалари даврида чекланиши мумкин.

3. Автоматик стабилизаторлар. Автоматик стабилизаторлар фаол аралашувга мухтож бўлмасдан иқтисодиётни барқарорлаштиришга ёрдам берадиган механизм воситаларидир. Ишсизлик суғуртаси ва прогрессив солиққа тортиш каби дастурлар иқтисодий инқироз пайтида давлат харажатларини автоматик равишда оширади ва иқтисодий ривожланиш пайтида харажатларни камайтиради [8]. Ушбу стабилизаторлар циклик тебранишларга қарши ҳимояни таъминлайди ва истеъмол харажатларини саклашга ёрдам беради.

4. Мақсадли аралашувлар. Мақсадли аралашувлар циклик тебранишлар келтириб чиқарадиган муайян муаммоларни ҳал қилишда ҳам ҳал қилувчи рол ўйнайди. Инқироз шароитида энг кўп зарар кўрадиган йўналишлардан бири бу хизматлардир. Шу сабабли, хизматлар соҳасини рағбатлантириш учун мақсадли дастурлар ишлаб чиқилади. Мисол учун, туризм каби иқтисодий инқирозга сезгирлиги юкори бўлган тармокни қўллаб-қувватлаш дастурлари [9]. Ушбу дастурлар молиявий ёрдам, тренинглари ва корхоналарнинг қийин пайтларга мослашиши ва тикланишига ёрдам бериш каби чора-тадбирлардан иборат бўлади.

Бугунги кунгача амалиётда циклик тебранишларга қарши муваффақиятли амалга оширилган бир нечта дастурлар мавжуд бўлиб, улар давлат томонидан тартибга солишнинг самарали эканлигини асослаб беради. Бу дастурлар сирасига куйидагиларни киритиш мумкин:

1. АҚШдаги “Янги курс” дастури. 1929-1933 йилларда содир бўлган Буюк Депрессия инқирозига қарши ишлаб чиқилган ва амалга оширилган “Янги курс” дастури даврий тебранишларни давлат томонидан муваффақиятли тартибга солишнинг тарихий намунаси бўлиб хизмат қилади. Бир қатор жамоат ишлари лойиҳалари ва ижтимоий дастурлар орқали “Янги курс” иқтисодий тикланишни рағбатлантириш ва инқироздан жабрланганларга ёрдам беришга қаратилган. Ушбу ташаббус нафақат иш ўринларини яратди, балки янада жамият учун янада мустаҳкам ижтимоий хавфсизлик тармоғига асос солди [10].

2. Европа Иттифоқининг иқтисодий барқарорлаштириш сиёсати. 2008 йилда содир бўлган инқироздан кейин Европа Иттифоқи циклик тебранишлар оқибатларини юмшатишга қаратилган бир қатор иқтисодий барқарорлик чора-тадбирларини амалга оширди. Ушбу тадбирлар аъзо давлатларга молиявий ёрдам, шунингдек, иқтисодий ўсиш ва барқарорликни рағбатлантириш чораларини ўз ичига олган эди. Европа Иттифоқининг ёндашуви циклик муаммоларни ҳал қилиш учун ҳукуматлар ўртасида мувофиқлаштирилган саъй-ҳаракатларнинг муҳимлигини кўрсатиб берди [11].

3. Ривожланаётган мамлакатлар амалиёти. Ривожланаётган мамлакатларда циклик тебранишларни бартараф этиш учун давлат томонидан тартибга солишнинг инновацион усуллари ҳам жорий қилинган. Бразилиянинг "Болса Фамилия" (Brazil's Bolsa Familia program) дастури кам таъминланган оилаларга молиявий ёрдам кўрсатиб, иқтисодий инқироз даврида истеъмол харажатларини барқарорлаштиришга ёрдам бериш ҳисобланади. Ушбу амалий тадқиқотлар циклик тебранишлар таъсирини юмшатишда мақсадли аралашувларнинг муҳимлигини кўрсатади [12].

Олиб борилган тадқиқотдан келиб чиқиб, циклик тебранишларни давлат томонидан тартибга солиш усуллари такомиллаштириш мақсадида куйидагилар таклиф этилади.

1. Фискал жавобгарликни ошириш. Фискал сиёсатга аралашувни яхшилаш учун давлат кўпроқ мослашувчан ва сезгир бюджет амалиётини қўллаши керак. Бу каби чора-тадбирлар кичик бизнес ва кам даромадли уй хўжаликлари каби даврий тебранишлардан энг кўп зарар кўрадиган субъектларга устуворлик бериш учун ишлаб чиқиши керак [13].

2. Пул-кредит сиёсати асосларини мустаҳкамлаш. Марказий банклар нафақат инфляцияга, балки бандлик даражасига ҳам эътибор қаратадиган икки томонлама манфаатли

ечимни қабул қилишни кўриб чиқишлари керак. Бу инфляция мақсадлари билан бир қаторда аниқ бандлик мақсадларини белгилашни ўз ичига олади, бу пул-кредит сиёсатига янада мувозанатли ёндашиш имконини беради [14].

3. Автоматик стабилизаторларни кенгайтириш. Автоматик стабилизаторлар самарадорлигини ошириш учун давлат ишсизлик суғуртаси ва бошқа ижтимоий хавфсизлик тармоқлари учун мувофиқлик мезонларини кенгайтириши керак. Бу иқтисодий инқироз пайтида кўпроқ одамлар ва оилаларнинг қўллаб-қувватланишини таъминлайди, истеъмол харажатларини барқарорлаштиришга ва циклик тебранишлар оқибатларини юмшатишга ёрдам беради [15].

4. Маълумотларга асосланган қарорларни қабул қилишга урғу бериш. Давлат томонидан тартибга солиш усулларининг самарадорлигини ошириш учун маълумотларга асосланган қарорлар қабул қилишга устувор аҳамият берилиши керак. Маълумотларни тўплаш ва таҳлил қилишга сармоя киритиш орқали давлат даврий тебранишлар динамикасини яхшироқ тушуниши ва муайян иқтисодий шароитларни ҳал қилиш учун аралашувларни мослаштириши мумкин [16]. Бундай ёндашув иқтисодий муаммоларга самаралироқ ва ўз вақтида жавоб беришга олиб келади.

5. Халқаро ҳамкорликни ривожлантириш. Иқтисодиётнинг глобаллашуви тобора кучайиб бораётган ҳозирги шароитда халқаро ҳамкорликни ривожлантириш циклик тебранишларни давлат томонидан самарали тартибга солишда муҳим аҳамиятга эга. Мамлакатлар ўртасидаги ҳамкорликдаги сай-ҳаракатлар ташқи шокларнинг таъсирини юмшатишга ёрдам беради ва мувофиқлаштирилган сиёсат чораларини қўллаб-қувватлайди [13]. Бу иқтисодий тебранишларга “жамоавий иммунитет”ни шакллантириш учун маълумотлар, илғор тажрибалар ва ресурсларни алмашишни ўз ичига олади.

Давлат томонидан тартибга солишнинг турли усуллари мавжудлигига қарамай, бугунги глобаллашув шароитида уларнинг самарадорлиги юқори бўлишига бир қатор чекловлар тўсқинлик қилмоқда. Булар қуйидагилардан иборат:

1. Сиёсий чекловлар. Сиёсий чекловлар давлат томонидан тартибга солиш усулларининг самарадорлигига сезиларли таъсир кўрсатади. Мутахассислар узоқ муддатли иқтисодий барқарорликдан кўра қисқа муддатли сиёсий мулоҳазаларни биринчи ўринга қўйиш босимида дуч келиши мумкин, бу эса циклик тебранишларга кечиктирилган ёки самарасиз жавоб беришга олиб келади [17].

2. Иқтисодий ноаниқлик. Иқтисодий ноаниқлик қарорлар қабул қилишни мураккаблаштириши ва давлат томонидан тартибга солиш усулларини амалга оширишга тўсқинлик қилиши мумкин. Сиёсатчилар ноаниқлик даврида дадил ҳаракатлар қилишни истамаслиги мумкин, бу эса самарали аралашув имкониятларини бой беришига олиб келади [18].

3. Глобаллашув ва ташқи зарбалар. Ўзаро боғлиқлик кучайиб бораётган глобал иқтисодиётда ташқи зарбалар миллий иқтисодиётга сезиларли таъсир кўрсатади. Иқтисодчилар давлат тартибга солиш усулларини ишлаб чиқишда глобаллашувнинг потенциал оқибатларини ҳисобга олишлари керак, чунки халқаро омиллар циклик тебранишларни кучайтириши мумкин [19].

4. Технологик ўзгаришлар. Технологик ўзгаришлар циклик тебранишларга ҳам таъсир қилади, чунки унумдорлик ва меҳнат бозоридаги силжишлар иқтисодий барқарорликка таъсир ўтказмай қолмайди. Дастурни ишлаб чиқарувчилар технологик ўзгаришларнинг давлат томонидан тартибга солиш усуллари учун оқибатларини ҳал қилишда фаол бўлишлари керак [20].

Циклик тебранишлар иқтисодий барқарорлик ва ўсиш учун жиддий муаммоларни келтириб чиқаради. Бу тебранишларни юмшатишда давлат томонидан тартибга солишнинг амалдаги усуллари, масалан, солиқ-бюджет ва пул-кредит сиёсати самарали эканлиги исботланган бўлса-да, такомиллаштириш учун имкониятлар доим мавжуд бўлади. Фискал сиёсатда молиявий жавобгарликни ошириш, пул-кредит сиёсати асосларини мустаҳкамлаш, автоматик стабилизаторларни кенгайтириш, мақсадли аралашувларни амалга ошириш,

маълумотларга асосланган қарорлар қабул қилишга урғу бериш ва халқаро ҳамкорликни ривожлантириш орқали ҳукуматлар циклик тебранишларнинг салбий оқибатларига қарши курашиш учун янада самарали стратегияларни ишлаб чиқиш имкониятига эга бўладилар.

Циклик тебранишларни давлат томонидан тартибга солиш усуллари самарали ишлаши учун келгуси тадқиқотларда асосий эътибор иқтисодий ўсиш ва барқарорликнинг узоқ муддатли таъсирига қаратилиши керак.

Бундан ташқари, тадқиқотлар технологик ўзгаришлар ва глобаллашувнинг циклик тебранишларни шакллантиришдаги ролини ҳамда иқтисодий сиёсатга жавоб бериш самарадорлигини ўрганиши керак. Ушбу динамика ҳақидаги тушунчамизни ривожлантириш орқали мутахассислар циклик тебранишларнинг мураккабликларини яхшироқ тушуниши, бошқариши ва барқарор иқтисодий ўсишга ёрдам бериши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Krugman, P. (2009). The Return of Depression Economics and the Crisis of 2008. W. W. Norton & Company.
2. Mankiw, N. G. (2016). Principles of Economics (7th ed.). Cengage Learning.
3. Jabbarov K.Y. Iqtisodiy inqiroz kategoriya sifatida // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2017.
4. Friedman, M., & Schwartz, A. J. (1963). A Monetary History of the United States, 1867-1960. Princeton University Press.
5. Deaton, A. (2010). The Great Escape: Health, Wealth, and the Origins of Inequality. Princeton University Press.
6. Keynes, J. M. (1936). The General Theory of Employment, Interest, and Money. Harcourt, Brace and Company.
7. Bernanke, B. S. (2010). Monetary policy and the housing bubble. The Proceedings of the Annual Meeting of the American Economic Association, 100(2), 1-19.
8. Baker, D. (2019). The End of Inequality: How to Restore the American Dream. Center for Economic and Policy Research.
9. OECD. (2020). The Impact of COVID-19 on the Tourism Sector. Retrieved from <https://www.oecd.org>
10. Leuchtenburg, W. E. (2009). The New Deal: A Pictorial History 1933-1941. HarperCollins.
11. Begg, I. (2015). The European Union’s response to the economic crisis: A view from the European Parliament. European Journal of Political Economy, 39, 1-8.
12. Ravallion, M. (2016). The economics of poverty: History, measurement, and policy. The World Bank. Retrieved from <https://www.worldbank.org>
13. International Monetary Fund (IMF). (2021). Fiscal Monitor: Addressing the Crisis. Retrieved from <https://www.imf.org>
14. Blinder, A. S. (2018). The dual mandate: A monetary policy perspective. The Brookings Institution. Retrieved from <https://www.brookings.edu>
15. Auerbach, A. J., & Gorodnichenko, Y. (2012). Fiscal multipliers in recession and expansion. In Fiscal Policy after the Financial Crisis (pp. 63-98). University of Chicago Press.
16. World Bank. (2021). World Development Report 2021: Data for Better Lives. Retrieved from <https://www.worldbank.org>
17. Alesina, A., & Tabellini, G. (2007). Bureaucrats or politicians? Part I: A single policy task. American Economic Review, 97(1), 169-179.
18. Friedman, L. (2016). The impact of economic uncertainty on policy decisions. Journal of Economic Perspectives, 30(2), 1-20.
19. Rodrik, D. (2018). Straight Talk on Trade: Ideas for a Sane World Economy. Princeton University Press.
20. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. W. W. Norton & Company.

**RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSIYALARNI JORIY ETISHNING
XUQUQIY MASALALARI**

ПРАВОВЫЕ ВОПРОСЫ ВНЕДРЕНИЯ ИННОВАЦИЙ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ

**CURRENT ISSUES OF INTRODUCING INNOVATION IN THE CONDITIONS OF THE
DIGITAL ECONOMY**

Oripov Abdumalik Abdusalomovich Farg‘ona davlat universiteti
“Buxgalteriya hisobi va iqtisodiy tahlil” kafedrası mudiri (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada sanoat korxonalarida raqamli texnologiyalardan foydalanishni yanada rag‘batlantirish hamda amalga oshirilayotgan innovatsiyalarni yaratishda qonuniy-huquqiy asoslarini inobatga olish masalalari yotirilgan. Bugungi globallashuv jaryonida ishlab chiqarish, mehnat va savdo bozorlari integratsiyasi, xomashyo o‘rmini bosuvchi vositalar va tannarxga ta’sir etuvchi boshqa omillarni topish borasidagi oshkor-yashirin, ayovsiz va shiddatli raqobat zamonida ilm-fan, innovatsiya, investitsiya, texnika va texnologiya sohalari iqtisodiyotning lokomotivi hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan ushbu innovatsion ishlanmalarni yanada rivojlantirish dolzarb masala sifatida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: sanoat, raqamli iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, iqtisodiy barqarorlik, huquqiy asoslar, kontsepsiya, barqaror raqobatbardoshlik, resurs samaradorligi, innovatsiya, innovatsion ishlanmalar.

В данной статье рассматриваются вопросы дальнейшего стимулирования использования цифровых технологий на промышленных предприятиях и учета правовых основ создания внедряемых инноваций. В наше время явной, неявной и жесткой конкуренции за интеграцию рынков производства, труда и торговли, поиск заменителей сырья и других факторов, влияющих на себестоимость, в процессе глобализации локомотивом экономики являются наука, инновации, инвестиции, техника и технологии. В этом контексте дальнейшее развитие этих инновационных разработок рассматривается как актуальный вопрос.

Ключевые слова: промышленность, цифровая экономика, устойчивое развитие, экономическая устойчивость, правовые основы, концепция, устойчивая конкурентоспособность, ресурсоэффективность, инновации, инновационные разработки.

This article examines the issues of further stimulating the use of digital technologies in industrial enterprises and taking into account the legal basis for the creation of implemented innovations. In our time of explicit, implicit and fierce competition for the integration of production, labor and trade markets, the search for substitutes for raw materials and other factors affecting cost, in the process of globalization, the locomotive of the economy is science, innovation, investment, technology and technology. In this context, further development of these innovative developments is considered a topical issue.

Keywords: industry, digital economy, sustainable development, economic sustainability, legal framework, concept, sustainable competitiveness, resource efficiency, innovation, innovative developments.

Raqamli iqtisodiyot zamonamizning eng dolzarb tendensiyalaridan biri bo‘lib, uning rivojlanishi barcha sohalarda, jumladan, iqtisodiyotda, ishlab chiqarishda va xizmat ko‘rsatishda yangi texnologiyalarni keng joriy etishni taqozo qilmoqda. Jahon miqyosida raqamli iqtisodiyotning hissassi o‘shida davom etmoqda. Masalan: 2023-yil holatiga ko‘ra, global raqamli iqtisodiyotning

umumiy qiymati taxminan \$13 trillion ni tashkil qilgan. Raqamli iqtisodiyot nafaqat texnologik o‘zgarishlarni, balki huquqiy muhitning ham zamon talablariga moslashishini talab qiladi. Innovatsiyalarni samarali joriy etish uchun qonunchilik bazasi tayyor va yetarli darajada bo‘lishi zarur, chunki yangi texnologiyalarning rivoji, foydalanilishi va ulardan kelib chiqadigan ijtimoiy, iqtisodiy, shaxsiy xavfsizlik masalalari huquqiy tartibga solishni talab qiladi.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy tajribani tahlil qilish va joriy etishning ahamiyati ko‘plab o‘quv qo‘llanmalarida muhokama qilinadi. Bir qancha olimlar raqamli iqtisodiyotda mintaqaning inson resurslari va ilmiy va ta‘lim salohiyatini rivojlantirish konsepsiyalarini o‘rgangan, ularga Volkova, Galynchik, Qurbonov, Okrepilov, Yakutin. va boshqalarni kiritishimiz mumkin. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi davlatning kichik va o‘rta biznes sohasidagi rivojlanishiga ta‘sir qilishi, uning qor to‘pi ta‘siriga ega ekanligi, chunki u bir tomondan iste‘molchilarning xohish-istaklari va xatti-harakatlarini o‘zgartirib, boshqa tomondan esa, band bo‘lgan inson resurslarining malakasiga ta‘sir qilishi haqida M.A.Derkho, S.A. Gritsenko, D.S.Vilver, T.I.Sereda, va N.V.Fominalar ko‘plab tadqiqotlar olib borishgan.

Taqdim etilgan dastlabki tadqiqot texnologiyasi biometrik tahlilni o‘z ichiga oladi; iqtisodiy hodisalar va omillar o‘rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini tahlil qilish; guruhlash va reyting baholash usullaridan foydalangan holda mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotning rivojlanish ko‘rsatkichlari tahlil qilingan. Makroiqtisodiy, statistik va tahliliy yondashuvlar yordamida raqamli iqtisodiyotni joriy etishning huquqiy yo‘nalishlarini o‘rganilgan hamda, raqamli iqtisodiyot davlat siyosatini amalga oshirish samaradorligi tahlil qilingan.


Iqtisodiyot tarmoqlarini boshqarishga kreativ yondashuv tufayli ko‘pgina mamlakatlarda texnoparklar vujudga kelganiga ancha bo‘ldi. Ular faoliyatining yaxlit huquqiy asoslari ham yaratilgan.

O‘zbekistonda raqamli texnologiyalarni joriy etishning me‘yoriy huquqiy asoslari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlar, qarorlar, buyruqlar va boshqa huquqiy hujjatlar asosida belgilanadi. Bu asoslar, raqamli texnologiyalarni tartibga solish, ularga bojxona berish, shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilish va raqamli infrastrukturani rivojlantirishga oid tuzilgan normativ hujjatlarga asoslanadi.

O‘zbekistonda raqamli texnologiyalarni joriy etishga oid ko‘plab qonunlar va qarorlar mavjud. Bu qonunlar va qarorlar raqamli texnologiyalarni tartibga solish, axborot xavfsizligi, shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilish, elektron moliya operatsiyalarini reglamentlash, elektron hujjatlashtirishni amalga oshirish va boshqa muhim masalalarni reglamentlash uchun kiritilgan.


“Raqamlilashtirish” tuchunchasi turli soha vakillari tomonidan o‘rganilib, uning jamiyat va davlat taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyatini isbotladi.

Raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotimizga ham bevosita ham bilvosita o‘z ta‘sirini o‘tkazmay qolayotgani yo‘q. Ammo rivojlangan davlatlardan farqli o‘laroq raqamli iqtisodiyotning mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 2% atrofida stabil saqlanib turibti. (1-rasm)



1-rasm. Raqamli iqtisodning O‘zbekiston Respublikasi YaIM sida ulushi.

“Raqamli O‘zbekiston-2030” dasturi amalga oshirilishining birinchi yili bo‘lgan 2020 yilda axborot va kommunikatsiyalar sohasiga investitsiyalar sezilarli darajada o‘ydi: yil davomida +115.9 foizga, ya’ni 4128.2 mlrd so‘mga. Shu bilan birga, 2021- yil dastlabki ma’lumotlariga ko‘ra 5747.4 mlrd so‘m investitsiyalar AKT va dasturiy ta’minotlar uchun jalb qilingan. Lekin umumiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarga nisbatan solishtirilganda raqamli iqtisodiyotga mamlakatimizda juda kam miqdorda investitsiya jalb qilinmoqda; 2019-yil 1.9%, 2020-yil 3.6%, 2021-yil 2.3%. (2-rasm)



2-rasm. Asosiy kapitalga investitsiyalar va ularda raqamli iqtisodiyotga investitsiyalarning ulushi [1]

Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida innovatsion faoliyatni rivojlantirishga oid nazariy va uslubiy qoidalarni tizimlashtirish, innovatsion faoliyat va axborot texnologiyalari natijalarining o‘zaro bog‘liqligini baholashdir. Ushbu jarayon quyidagilarni inobatga olish zarur:

- iqtisodiyotni raqamlashtirish bilan bog‘liq innovatsion faoliyatni rivojlantirish yo‘nalishlarini aniqlang;

- raqamlashtirish omili ta’siri ostida o‘zgarib borayotgan innovatsion faoliyat subyektlarining tarkibini aniqlash;

- innovatsion faoliyatning rivojlanishi natijasida innovatsion ekotizimning mohiyatini ochib berish;

- raqamli va axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘rsatkichlarini tahlil qilish;

- iqtisodiyotdagi raqamli transformatsiya va innovatsion faoliyat jarayonlarining o‘zaro bog‘liqligini baholash.

Raqamli iqtisodiyotda innovatsiyalar joriy etilishi ko‘pincha uchta asosiy yo‘nalishda muhim ahamiyatga ega: texnologik yangiliklar, intellektual mulk huquqlari, va shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligi. Bu yo‘nalishlar bo‘yicha huquqiy me’yorlar ishlab chiqilishi va amaliyotda qo‘llanilishi, texnologiyalarni keng joriy qilish va iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonini to‘g‘ri boshqarish uchun zarur.

Texnologik yangiliklar va huquqiy infratuzilma. Raqamli iqtisodiyot sharoitida texnologik yangiliklar muqarrar ravishda huquqiy infratuzilmani qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Elektron tijorat, onlayn xizmatlar va raqamli mahsulotlar bozorining rivojlanishi bilan bog‘liq huquqiy me’yorlar xalqaro andozalarga moslashtirilishi lozim. Shu bilan birga, davlat organlari tomonidan raqamli innovatsiyalar uchun qulay huquqiy sharoitlarni yaratish muhimdir. Masalan, O‘zbekistonda innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish uchun qabul qilingan qonunlar va huquqiy normalar, raqamli iqtisodiyot sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda.

Intellektual mulk huquqlari. Innovatsiyalarni joriy qilish jarayonida intellektual mulk huquqlarini himoya qilish masalalari alohida ahamiyatga ega. Raqamli texnologiyalar rivoji bilan

dasturiy ta’minotlar, raqamli mahsulotlar va boshqa texnologiyalarni himoya qilish muammosi kuchaymoqda. Ushbu sohada intellektual mulk huquqlarini himoya qilish uchun davlat tomonidan tegishli qonunchilik bazasi yaratilishi kerak. Shu bilan birga, xalqaro huquq normalariga mos ravishda milliy qonunchilikni moslashtirish va raqamli mahsulotlarning noqonuniy ko‘chirilishiga qarshi kurashish muhimdir.

Shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligi. Raqamli iqtisodiyotda innovatsiyalar joriy etilishi bilan bog‘liq muhim masalalardan biri bu shaxsiy ma’lumotlarning xavfsizligini ta’minlashdir. Raqamli xizmatlardan foydalanuvchilar o‘z ma’lumotlarini himoyalashga katta e’tibor qaratadi. Shu sababli, davlat tomonidan ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlaydigan qonunchilik bazasi yaratilishi va ularga rioya qilinishini nazorat qilish talab etiladi. Xususan, elektron xizmatlar ko‘rsatish bilan shug‘ullanuvchi kompaniyalar uchun maxsus huquqiy normalar va qoidalar joriy etilishi muhim.

Raqamli iqtisodiyotda innovatsiyalarni rivojlantirishning eng muhim yo‘nalishlari orasida:

- mashinani o‘rganish, sun‘iy intellekt, narsalar interneti va blokcheyn kabi yangi axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish;
- elektron tijorat, raqamli platformalar va xizmatlarni rivojlantirish;
- sanoat, transport infratuzilmasi va jamoat sektorida raqamli texnologiyalardan faol foydalanish;
- yangi biznes modellarini shakllantirish, raqamli texnologiyalar asosida o‘zaro aloqalarni qurish.

Raqamli iqtisodiyotning asosiy afzalliklaridan biri bu yangi texnologiyalarni tez va samarali joriy etish, o‘zgaruvchan bozor sharoitlariga jadal moslashish qobiliyatidir, bu esa korxonalarga talabdagi o‘zgarishlarga tezkor javob berish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkonini beradi. Raqamlashtirish axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) oilasidan raqamli texnologiyalarni ajratish bilan birga keladi, bu sizga universal raqamli – elektron shaklda axborot massivlarini taqdim etish, o‘zgartirish, saqlash, uzatish imkonini beradi.

Innovatsiyalarni joriy etishda xalqaro huquqiy tajriba. Raqamli iqtisodiyot sohasida yetakchi davlatlarning tajribasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, Yevropa Ittifoqi va AQShda texnologik innovatsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan maxsus qonunlar mavjud. Masalan, Yevropa Ittifoqi "Umumiy ma’lumotlarni himoya qilish reglamenti" (GDPR) orqali shaxsiy ma’lumotlarning himoyasini ta’minlash bo‘yicha o‘zining xalqaro miqyosda tan olingan qonunchilik bazasini yaratdi. AQSh esa raqamli iqtisodiyotdagi innovatsiyalarni rivojlantirish uchun "Raqamli imzo to‘g‘risida" qonun va boshqa tegishli qonunlar orqali huquqiy sharoit yaratdi.

O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalarni huquqiy tartibga solish. O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot sohasida qator qonunlar va qarorlar qabul qilindi, jumladan, "Elektron tijorat to‘g‘risida" qonun, "Elektron hujjatlar almashinuvi to‘g‘risida" qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga yordam bermoqda. Shu bilan birga, O‘zbekistonda texnologik innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida qator huquqiy islohotlar amalga oshirilmoqda.

Bugun amalga oshirilayotgan barcha islohotlar strategik ahamiyatga ega bo‘lib, ta’lim, sog‘liqni saqlash, iqtisodiyot, siyosiy sohalarda mamlakatimiz istiqbolini mustahkamlashga qaratilgan. Iqtisodiyotimiz yuksalishi bilan xalq farovonligini ham yuksaltirmoqdamiz. Raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsiyalarni joriy etishning huquqiy masalalari ko‘plab davlatlar oldida turgan dolzarb muammolardan biridir. Innovatsiyalarni huquqiy tartibga solish ularning muvaffaqiyatli joriy etilishi va iqtisodiyotni rivojlantirish uchun zaruriy sharoit yaratadi. O‘zbekiston raqamli iqtisodiyotga oid qator qonunchilik hujjatlarini qabul qilish va xalqaro tajribani o‘rganish orqali innovatsiyalarni samarali joriy etishda yetakchi davlatlar qatoridan o‘rin olishga intilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Derkho, MA, Gritsenko, SA, Vilver, DS, Sereda, TI va Fomina, NV (2019). Qalqonsimon bez gormonining metabolik holati va turli xil zotlarning o‘rnini bosuvchi giltlar shakllanishida iqtisodiy foydali xususiyatlari. Periodico Tche Quimica, 16 (31), 472-483.

2. Glotko, AV, Polyakova, AG, Kuznetsova, MY, Kovalenko, KE, Shichiyakh, RA va Melnik, MV (2020). Tarmoqli raqamlashtirishni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy tendentsiyalari. Tadbirkorlik va barqarorlik masalalari , 7(3), 2181-2195. [http://doi:10.9770/jesi.2020.7.3\(48\)](http://doi:10.9770/jesi.2020.7.3(48))
3. Qurbonov T.K. (2018). Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va yangi texnologik yo‘nalish iqtisodiyoti dasturi. Zamonaviy jamiyat rivojlanishining dolzarb masalalari , 126-132.
4. Lincaru, C., Pirciog, S., Grigorescu, A., Tudose, G. (2018). Davlat boshqaruvi bandligida past-past (LL) yuqori inson kapitali klasterlari - raqamli infratuzilma davlat investitsiyalari ustuvorligi uchun bashoratchi - Ruminiya misoli. , Tadbirkorlik va barqarorlik masalalari, 6(2), 729-753. [http://doi.org/10.9770/jesi.2018.6.2\(18\)](http://doi.org/10.9770/jesi.2018.6.2(18))
5. Okrepilov VV, Ivanova GN, Monstskix IV (2017). Raqamli iqtisodiyot: muammolar va istiqbollari. Shimoli-g‘arbiy iqtisodiyot: muammolar va rivojlanish istiqbollari , 3-4 (56-57), 5-28.
6. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF6079-sonli farmoni. www.lex.uz

UDK: 631.658.338

ILMIY TA‘MINOT TIZIMINI MOLIALASHTIRISHDA KONSEPTUAL YONDASHUVLAR

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ К ФИНАНСИРОВАНИЮ СИСТЕМЫ НАУЧНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ

CONCEPTUAL APPROACHES TO FINANCING THE SCIENTIFIC SUPPORT SYSTEM

Xasanov Ilxom Isakavich

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti”
Milliy tadqiqot universiteti, mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya

Maqolada ilmiy ta‘minot tizimini molialashtirish bo‘yicha yangicha konseptual yondashuvlar tadqiq qilingan. Mazkur tadqiqot turlarining tarkibiy tuzilishi, ularning kamchiliklari, afzalliklari va o‘ziga xos xususiyatlari bo‘yicha fikr va takliflar ilgari surilgan tadqiqotlar natijasida “qishloq xo‘jaligi ilmiy ta‘minotini molialashtirish” iqtisodiy kategoriyasiga mualliflik ta‘rifi ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ilmiy ta‘minot, konseptual asos, yondashuv, tizim, raqobat, xususiyat, molialashtirish.

В статье исследуются новые концептуальные подходы к финансированию системы научного обеспечения. Авторское определение экономической категории «финансирование поддержки сельскохозяйственной науки» разработано в результате исследований, в которых высказаны мнения и предложения о структуре этих видов исследований, их недостатках, преимуществах и особенностях.

Ключевые слова: научное обеспечение, концептуальная основа, подход, система, конкуренция, особенность, финансирование.

The article explores new conceptual approaches to financing the scientific support system. The author’s definition of the economic category “financing support of agricultural science” was developed as a result of studies in which opinions and proposals were expressed about the structural structure of these types of research, their disadvantages, advantages and features.

Key words: scientific support, conceptual framework, approach, system, competition, feature, financing.

Dunyoda iqtisodiy munosabatlar tizimini tobora chuqur raqobat kurashiga asoslanib borishi sharoitida milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlari, jumladan, qishloq xo‘jaligi sohasida ilmiy ta‘minotni rivojlantirish orqali sohada ilm-fan yutuqlarini joriy etish, qishloq xo‘jaligi sub‘ektlarining innovatsion faolligini oshirish hisobiga intensiv rivojlanish yo‘liga o‘tishiga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishga ustuvorlik qaratildi. Bu esa iqtisodiy adabiyotda milliy iqtisodiyotning turli sohalari kesimida, jumladan, qishloq xo‘jaligi ilmiy ta‘minoti tizimini rivojlantirish va uni moliyalashtirish barqarorligini ta‘minlashga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar sonini ortishiga olib keldi.

Ilmiy ta‘minot tizimini moliyalashtirish amaliyotining konseptual asoslarini tahlil qilish natijalari orqali tegishli xulosalarni shakllantirishdan avval iqtisodiy adabiyotda shakllangan moliyalashtirishning konseptual yondashuvlari qiyosiy tahlilini o‘tkazish kerak bo‘ladi. Ilmiy ta‘minot tizimini moliyalashtirishning iqtisodiy adabiyotda shakllangan Nyuton (Newtonian Science), Bekon (Baconian Science) va Djefferson (Jeffersonian Science) yondashuvlarining qiyosiy taqqoslash natijalarini keltirib o‘tdik (1-jadval).


1-jadval

Ilmiy ta‘minot tizimini moliyalashtirishning konseptual yondashuvlari qiyosiy tahlili natijalari [5]

	Tadqiqot turlari bo‘yicha tarkibiy tuzilishi	Kamchiliklari	Afzalliklari
Newtonian Science	Fundamental tadqiqotlar	Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etishga ustuvorlik qaratilmaydi. Jumladan, faqatgina budjet profitsiti sharoitidagina budjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi.	Ko‘p sonli fundamental tadqiqotlarning o‘tkazilishi fan sohasini rivojlanishi va chuqurlashuviga olib kelib, olingan natijalarni patentlashtirish orqali yuqori daromadga ega bo‘lish imkoniyatlarini yaratadi.
Baconian Science	Natijalarini iqtisodiy amaliyotga joriy etish mumkin bo‘lgan fundamental va amaliy tadqiqotlar	Fundamental tadqiqotlar o‘tkazish va ularni amaliyotga joriy etish ko‘p xarajat talab qilganligi sababli, amaliy tadqiqotlar soni ortadi. Fundamental tadqiqotlar soni kamayishi fan sohasi rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.	Amaliy tadqiqotlar sonining ortishi bilan birgalikda, ularni amaliyotga joriy etilishi kuchayishi hisobiga ilmiy tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish amaliyotining rivojlanishiga erishiladi.
Jeffersonian Science	Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish samaradorligini oshiruvchi innovatsion tadqiqotlar	Ham iqtisodiyot tarmoqlar ham jamiyat a‘zolarining turmush farovonligi uchun birdek naf keltiruvchi innovatsion tadqiqotlarni o‘tkazishda kutilayotgan natijalarga erishish imkoniyatining noaniqligi sababli innovatsion xarajatlar marjasining ortib ketishi	Mamlakat yaxlit iqtisodiyotining ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan to‘liq innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tkazib, innovatsiyalarni xalqaro uzatish hisobiga barqaror iqtisodiy o‘sishga erishiladi.

Tahlillarga ko‘ra, mamlakat milliy iqtisodiyoti tarmoqlari, jumladan qishloq xo‘jaligi ilmiy ta‘minotini moliyalashtirish yondashuvlarining qay turidan foydalanish mamlakatning nafaqat iqtisodiy balki ilm-fan sohasining rivojlanganlik darajasi bilan birgalikda, amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liq bo‘ladi. Ilmiy ta‘minot tizimini moliyalashtirish bo‘yicha iqtisodiy adabiyotda shakllangan yondashuvlar va O‘zbekistonda ilmiy ta‘minotni moliyalashtirish amaliyoti uchun xos bo‘lgan xususiyatlardan kelib chiqqan holda, respublikada 2017-yilgacha bo‘lgan davrda asosan Nyuton (Newtonian Science) va Bekon (Baconian Science) yondashuvlariga asoslanilgan bo‘lsa, Yangi O‘zbekiston sharoitida Nyuton (Newtonian Science) yondashuvining ahamiyati kamayib, ustuvorlik Bekon (Baconian Science) va Djefferson

(Jeffersonian Science) yondashuvlariga qaratilayotganligi aniqlandi. Qishloq xo‘jaligida ilmiy ta‘minot tizimini moliyalashtirishning konseptual asoslari tahlili sifatini oshirish uchun agrar sohaning mamlakat iqtisodiyoti va jamiyat hayotidagi tutgan o‘rni baholash asosida uning ilmiy ta‘minot tizimini moliyalashtirish manbalarini tahlil qilish kerak bo‘ladi. Buning uchun dastlab A. Fisherning [1] qishloq xo‘jaligining mamlakat milliy iqtisodiyoti va jamiyat hayotidagi o‘rni uch yoqlama iqtisodiy model asosida milliy iqtisodiyotdagi o‘rni tuchuntirishga qaratilgan tadqiqotiga e‘tibor qaratish kerak, deb hisoblaymiz. Tadqiqot natijasiga ko‘ra, “har qanday mamlakat milliy iqtisodiyotining qishloq xo‘jaligi iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik nuqtai nazardan ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, ta‘minot, farovonlik va oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash kabi qator vazifalarni hal etgan holda ko‘p funksional ahamiyat kasb etishi bilan ajralib turadi” [2]. A. Fisher tomonidan shakllantirilgan ilmiy qarash asosida qishloq xo‘jaligining mamlakat milliy iqtisodiyotidagi tutgan ko‘p funksional ahamiyatini 1-rasmda keltirib o‘tilgan tartibda guruhlash mumkin bo‘ladi. Bu orqali qishloq xo‘jaligining mamlakatdagi iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy yo‘nalishlardagi rivojlanish trendlaridagi o‘rniga baho berish bilan birgalikda, sohaning ilmiy ta‘minot tizimi, jumladan uni moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish orqali yuqori samaradorlikka erishish qay darajada muhim ahamiyat kasb etishini anglash mumkin bo‘ladi. Yuqoridagi fikrimizni ilmiy asoslash uchun V.V. Konovalovning quyidagi ilmiy qarashini keltirib o‘tildi: “chuqur bozor raqobati asosida rivojlanib kelayotgan global iqtisodiy munosabatlar sharoitida xalqaro qishloq xo‘jaligi bozorlarida mamlakatlar yuqori natijalarga erishishlari uchun ushbu sohaning ilmiy ta‘minotini tizim samaradorligini oshirish hisobiga milliy agrar soha barqarorligini ta‘minlashlari mumkin” [3].



1-rasm. Qishloq xo‘jaligining milliy iqtisodiyotdagi ko‘pfunksional ahamiyati[5]

Shuningdek, U.D. Berikbolova “mamlakat qishloq xo‘jaligi ilmiy ta‘minot tizimini rivojlantirish sohadagi ilmiy-texnik jarayonlarni xarakatga keltiruvchi kuch sifatida ishlab chiqarish amaliyotini ekstensivdan intensivlashtirish imkoniyatlarini kengaytirish uchun xizmat qiladi” [4], degan ilmiy xulosaga kelgan. Qishloq xo‘jaligi ilmiy ta‘minotini moliyalashtirish borasidagi konseptual ahamiyatga ega bo‘lgan yakuniy xulosalarni shakllantirishdan avval sohani moliyalashtirish manbalari va ularning xususiyatlariga to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ushbu maqsadga erishishda iqtisodiy adabiyotda milliy iqtisodiyot tarmoqlari ilmiy ta‘minot tizimini moliyalashtirish bo‘yicha shakllangan yondashuvlar asosida moliyaviy manbalarning o‘ziga xos xususiyatlari qiyosiy tahlil qilib o‘tildi va uning natijalari quyida keltirilgan 2-jadvalda o‘z aksini topadi.

Ilmiy ta’minot tizimini moliyalashtirish manbalari bo’yicha xususiyatlarining yondashuvlar kesimidagi qiyosiy tahlili [5]

Yonda-shuvlar	Moliyalashtirish manbai	Ilmiy tadqiqot buyurtmachisi	Ilmiy tadqiqot qamrovi darajasi
Newtonian Science	Davlat va mazalliy budjeti profitsiti qismidagi mablag‘lar hisobidan	Davlat buyurtmasi	Keng qamrovli, umumiy xususiyatdagi natijalar olish
Baconian Science	Budjet, jumladan, konsolidatsiyalashgan budjet, nobudjet maqsadli jamg‘armalar, davlat-xususiy sheriklik mexanizmi asosida hamkorlikda moliyalashtirish	Davlat tashkilotlari va xususiy korxonalar, aralaash turdagi mulkchilikka asoslangan korxonalar	Tor soha va yo‘nalishlar bo’yicha aniq maqsadlarga erishish bo’yicha natijalar olish
Jeffersonian Science	Budjet, jumladan, konsolidatsiyalashgan budjet, nobudjet maqsadli jamg‘armalar, ixtisoslashtirilgan fondlar, davlat-xususiy sheriklik mexanizmi asosida hamkorlikda moliyalashtirish, yirik xususiy kompaniyalarning o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilishi	Davlat tashkilotlari va xususiy korxonalar, aralash turdagi mulkchilikka asoslangan korxonalar, xorijiy va xorijiy kapital ishtirokidagi qo‘shma korxonalar	Yangi yo‘nalishlar bo’yicha yuqori daromad keltiruvchi qisman yoki tubdan yangilangan natijalarga erishish

Iqtisodiy adabiyotda milliy iqtisodiyot tarmoqlari ilmiy ta’minotini moliyalashtirish bo’yicha shakllangan Nyuton (Newtonian Science), Bekon (Baconian Science) va Djefferson (Jeffersonian Science) yondashuvlarining o‘ziga xos xususiyatlarini qiyosiy taqqoslash natijalariga asosan qator xulosalarni shakllantirishga erishildi:

- mamlakat milliy iqtisodiyoti tarmoqlari, jumladan qishloq xo‘jaligi ilmiy ta’minotini moliyalashtirish amaliyoti har qanday mamlakatda dastlab Nyuton (Newtonian Science) yondashuvida, keyin esa Bekon (Baconian Science) yondashuvida va uchinchi bosqichda Djefferson (Jeffersonian Science) yondashuvi asosida an’anaviy iqtisodiy munosabatlardan innovatsion iqtisodiy tizim tomon rivojlanib boradi;

- har bir yondashuv o‘zining moliyalashtirish manbasi uning buyurtmachilaridan kelib chiqqan holda turlicha bo‘lishi bilan birgalikda, mamlakatning nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy balki ilm-fan sohasidagi rivojlanganlik darajasiga bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi;

- milliy iqtisodiyot tarmoqlari ilmiy ta’minotini moliyalashtirish amaliyoti rivojlanib borishi natijasida mamlakat iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari barqarorlashib, ijtimoiy barqarorlikni ham ta’minlash imkonini beradi;

- mamlakat iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi ko‘pfunksional ahamiyatga ega ekanligini inobatga olgan holda, soha ilmiy ta’minoti tizimini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirilishi hisobiga nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, balki ekologik samaradorlikka erishish mumkin bo‘ladi. Bu esa global iqlim o‘zgarishining qishloq xo‘jaligi rivojlanishiga salbiy oqibatlarini kamaytirish bilan birgalikda, intensivlashtirilgan milliy agrar xo‘jaligi barqarorligini ta’minlaydi;

- O‘zbekiston milliy iqtisodiyoti, jumladan qishloq xo‘jaligi bilan respublikaning ilm-fan sohasining rivojlanganlik holati va ilmiy ta’minot tizimini moliyalashtirish amaliyoti uchun xos bo‘lgan xususiyatlarni inobatga olib, bugungi kunda mamlakatda Bekon (Baconian Science) yondashuvi uchun xos bo‘lgan xususiyatlar mavjud ekanligi aniqlandi.

Tadqiqotlar asosida “qishloq xo‘jaligi ilmiy ta’minotini moliyalashtirish” iqtisodiy kategoriyasiga A. Fisherning milliy iqtisodiyotda qishloq xo‘jaligining ahamiyatini uch yoqlama iqtisodiy modeli orqali yoritishi natijasida olingan xulosalariga asoslangan holda, quyidagicha mualliflik tarifi ishlab chiqildi: “mamlakat qishloq xo‘jaligi ilmiy ta’minoti tizimini moliyalashtirish bir vaqtning o‘zida agrar sohaning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy funksiyalari bo’yicha mavjud muammolarni bartaraf etish va intensivlashtirilgan aqlli qishloq xo‘jaligini rivojlantirish

bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini o‘tkazish hamda uni amaliyotga joriy etish bilan bog‘liq vazifalarni turli manbalar orqali moliyaviy resurslar ajratish yo‘nalishlarini qamrab oladi”.

Ishlab chiqilgan mualliflik tarifi nafaqat O‘zbekiston balki, har qanday mamlakat amaliyotida qo‘llash mumkinligi bilan birgalikda, qishloq xo‘jaligi bilan ilmiy ta‘minot tizimini moliyalashtirishning o‘ziga xos bo‘lgan umumiy xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirganligi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Инновационная деятельность в аграрном секторе экономики России / под ред. И.Г. Ушачева, И.Г. Трубилина, Е.С. Оглоблина, И.С. Санду. – М.: КолосС, 2014. – с. 118.
2. Юдин А.А. Тарабукина Т.В. Теоретические основы инновационного развития аграрного сектора. Московский экономический журнал, № 5. 2021. с. 9-17
3. Коновалов В.В., Коновалова Т.В. Роль научно-технического прогресса в обеспечении устойчивого развития агропромышленного комплекса // Экономика сельского хозяйства России. № 8, 2015. – с. 2
4. Берикболова У.Д. Сущность понятия «инновация» как экономической категории // Молодой ученый, № 8-1 (142), 2017. – с. 13
5. Muallif tomonidan tuzilgan.

UDK:338.33

**OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA MAHSULOT SIFATIGA TA’SIR
ETUVCHI OMILLAR**

**ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА КАЧЕСТВО ПРОДУКЦИИ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ
ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

**FACTORS AFFECTING THE QUALITY OF PRODUCTS AT ENTERPRISES OF THE
FOOD INDUSTRY**

Baytanov O‘.M. Jizzax politexnika instituti
Iqtisodiyot va menejment kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada oziq-ovqat sanoati korxonalarida mahsulot sifatining ahamiyati, mahsulot sifatiga ta’sir etuvchi omillar nazariy asoslari hamda ularning guruhlanishi yoritilgan. Bundan tashqari oziq-ovqat sanoati korxonalarida mahsulot sifatini oshirish bo‘yicha ilmiy taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: oziq-ovqat sanoati, mahsulot sifati, sifatni boshqarish, narxsiz raqobat.

В статье освещаются значение качества продукции на предприятиях пищевой промышленности, теоретические основы факторов, влияющих на качество продукции, а также их группировка. Кроме того, представлены научные предложения и рекомендации по повышению качества продукции на предприятиях пищевой промышленности.

Ключевые слова: пищевая промышленность, качество продукции, управление качеством, конкуренция без цены.

The article covers the importance of product quality in enterprises of the food industry, the theoretical foundations of factors affecting product quality, as well as their grouping. In addition, scientific proposals and recommendations for improving the quality of products are presented at enterprises of the food industry.

Key words: food industry, product quality, Quality Management, price-free competition.

Bozor iqtisodiyotining tobora rivojlanib borishi turli tarmoqlar, jumladan, oziq-ovqat sanoati korxonalari o‘rtasidagi raqobat kurashini chuqurlashtirish bilan birgalikda, narxsiz raqobat ustunliklariga erishish zaruriyatini oshirdi. Natijada nafaqat oziq-ovqat korxonalari, balki turli korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar, rejalar ishlab chiqqan holda, ularni amaliyotga joriy etilishini jadallashtirdi. Bu esa ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifat ko‘rsatkichlaridagi ijobiy tendensiyalarni namoyon bo‘lishiga olib keldi. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida sifatli mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarning bozordagi o‘rni mustahkamligi va ularning raqobat ustunliklari nisbatan yuqoriligi bilan xarakterlanadi. Shu bilan birgalikda, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini oshirish korxonadagi ishlab chiqarish samaradorligi, ilmiy-texnik taraqqiyot, resurslardan oqilona foydalanish kabi ko‘rsatkichlarining yaxshilanishiga tegishli shart-sharoitlar yaratishi bilan xarakterlanadi. Bugungi kunda turli korxonalar boshqaruvida sifatli mahsulot ishlab chiqarish korxona iqtisodiy faoliyati barqarorligini ta‘minlashning ustuvor yo‘nalishi sifatida qaraladi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda aytish mumkinki, “har qanday korxona boshqaruvida sifatli mahsulot ishlab chiqarish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etuvchi muammo hisoblanadi. Bu esa korxona boshqaruvida mahsulot sifatiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni tadqiq etish zaruriyatini kuchaytiradi” [1]. Bu borada iqtisodiy adabiyotda uzoq yillar mobaynida ko‘p sonli ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, I.A. Kazyayeva o‘z ilmiy tadqiqotlarida korxona tomonidan ishlab chiqarilishi rejalashtirilayotgan mahsulotni loyihalashtirish jarayoni uning sifat ko‘rsatkichiga 80 foiz, uni ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish jarayonlari – 15 foiz, ishlab chiqarilgan mahsulotni sifatini nazorat qilish esa 5 foizga ta’sir ko‘rsatishini aniqlagan. Bundan ko‘rinib turibdiki, ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifati korxona tomonidan ishlab chiqarilishi rejalashtirilayotgan mahsulotlarni loyihalashtirish jarayonida deyarli aniq bo‘lgan bo‘ladi.

Shu o‘rinda marketing konsepsiyasida korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifati to‘g‘risidagi qarashlarga e’tiborni qaratish maqsadga muvofiq. Unga ko‘ra, korxonalar tomonidan maqsadli bozorni tanlanishi ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifati bilan bevosita bog‘liq hisoblanadi [2]. Ammo ushbu ilmiy qarash bugungi kunda amaliyotga to‘g‘ri kelmaydi. Chunki bugungi kunda iste’molchilarning tanlov imkoniyatlari sezilarli darajada yuqori hisoblanadi. Shu bilan birgalikda bozordagi o‘rinbosar tovarlar sonining ham ko‘pligi sababli, iste’molchilar o‘zlari istagan tovarni tanlash imkoniyatiga ega hisoblanadi. Shu sababli korxona boshqaruvi ma’lum bir turdagi tovarni ishlab chiqarishni loyihalashtirishda nafaqat uning bozor talab qilgan sifat darajasini balki, uni ishlab chiqarish xarajatlari va korxonaning imkoniyatlarini ham inobatga olishi lozim bo‘ladi.

Bozor iqtisodiyotining rivojlanishi korxona boshqaruvida menejment va marketing dasturlaridan o‘zaro mutanosiblikda foydalanish zaruriyatini ortishiga olib keldi. U.Bakes fikricha, marketing tadqiqotlarida ishlab chiqarilgan mahsulot sifati quyidagi talablar asosida baholanadi:

- ishlab chiqarilgan mahsulotning loyihada ko‘rsatilgan tegishli me’yoriy hujjatlarga mosligi;
- mahsulot sifatining uning narxiga mosligi;
- mahsulotni iste’molchilarning o‘zlari kutgandan ko‘ra ko‘proq ehtiyojlarini qondirish imkoniyatining mavjudligi [3].

Tahlillarga ko‘ra, marketing konsepsiyasida mahsulot sifatini baholash uning iste’mol xususiyatlari bilan baholangan. Bu esa mahsulot ishlab chiqarilgandan keyingi, ya’ni iste’mol bosqichida aniqlanishi mumkin. Bu turdagi mahsulot sifatini baholanishi korxona tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotning sifatini takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlash uchun xizmat qiladi.

Ye.A. Shatskix mahsulot sifatiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni ichki va tashqi guruhlariga ajratib o‘tadi. Uning fikricha, korxona tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini oshirish zaruriyati tashqi omillar hisobidan shakllanadi. Olim o‘z fikrini ilmiy asoslashda raqobat kurashidagi ustunlikka asoslanadi. Ya’ni, sifatli mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar raqobat kurashida nisbiy ustunlikka ega bo‘ladilar va bozordagi mavqeyini mustahkamlashga erishadilar.

Mahsulot sifatiga ta’sir ko’rsatuvchi ichki va tashqi omillar [4].

Mahsulot sifatiga ta’sir ko’rsatuvchi omillar	
Ichki omillar	Tashqi omillar
Axborot ta’minoti	Iqtisodiy omillar
Texnik omillar	Bozor kon’yunkturasi
Ekspluatatsiya qilish	Siyosiy omillar
Ishlab chiqarish	Texnologik jarayonlar
Tashkiliy omillar	Raqobatchilar soni
Korxonaning iqtisodiy imkoniyatlari	Ijtimoiy omillar
Korxonadagi ijtimoiy muhit	Global darajadagi omillar

Shuningdek, mahsulot sifatiga ta’sir ko’rsatuvchi tashqi omillar korxonaning raqobat kurashiga moslashuvini ta’minlaydi. Shu bilan birgalikda, ichki omillar korxonaning sifatli mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlarini tavsiflaydi. Olim o’z tadqiqotlarida mahsulot sifatiga ta’sir ko’rsatuvchi ichki omillarni quyidagicha izohlaydi:

axborot ta’minoti – bu korxona tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmida iste’molga yaroqsiz (brak) mahsulotlar hajmi to’g’risidagi axborotni ishlab chiqarish bo’linmasiga yetkazish jarayonini anglatadi;

texnik omillar –mahsulot ishlab chiqarish bo’yicha korxonaning texnik xususiyatlari sifatni ta’minlashda fundamental ahamiyat kasb etuvchi omil hisoblanadi. Yangi turdagi zamonaviy texnik va texnologiyalardan mahsulot ishlab chiqarish jarayonida foydalanilishi ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifat ko’rsatkichiga bevosita ta’sir ko’rsatib, ishlab chiqarish xarajatlarini ham kamaytirish imkonini beradi. Bu esa mahsulotning bozordagi raqobatbardoshligini ta’minlashda ustuvor ahamiyat kasb etadi;

“ekspluatatsiya qilish– yangi turdagi mahsulot ishlab chiqarish loyihasi, jumladan, korxonani modernizatsiyalash dasturlari doirasida amalga oshirilgan chora-tadbirlarni amaliyotga” joriy etilishi natijasida mahsulotning sifat ko’rsatkichidagi o’zgarishlarni nazarda tutiladi. Bu turdagi dasturlarni amaliyotga joriy etilishi ayrim holatlarda ishlab chiqilgan loyihaning omadsizligi bilan ham tugallanishi mumkin. Shu sababli ham loyihalarni ishlab chiqarish jarayoniga joriy etishdan avval ularni sinovdan o’tkazish talab etiladi;

ishlab chiqarish – mahsulot ishlab chiqarish jarayonida uning sifatiga ta’sir ko’rsatishi mumkin bo’lgan holatlar nazarda tutiladi. Jumladan, ishlab chiqarish jarayonida mahsulot sifatiga salbiy ta’sir ko’rsatuvchi holatlar sodir bo’lgan vaziyatda ularni bartaraf etish imkoniyatlari ham inobatga olinadi;

tashkiliy omillar – bunda mahsulot ishlab chiqarish jarayonlari, jumladan, mahsulot sifatini boshqarish, xodimlarning ishlab chiqarish jarayonidagi ishtiroki va ularning kasbiy kvalifikatsiyasini oshirish kabilar nazarda tutilgan;

korxonaning iqtisodiy imkoniyatlari– korxonaning mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur bo’lgan barcha xarajatlarini qoplashi, narx siyosati, sifatli mahsulot ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etuvchi xodimlarni rag’batlantirish;

korxonadagi ijtimoiy muhit– korxonadagi yollanma xodimlarning kasb kvalifikatsion darajasi, ularning ma’lumoti, xodimlarni rag’batlantirish, xodimlar o’rtasidagi ijtimoiy-psixologik muhit va h.k.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda aytish mumkinki, korxonada sifatli mahsulot ishlab chiqarishiga ta’sir ko’rsatuvchi ichki va tashqi omillar o’zaro bir-biri bilan bevosita bog’liq ekanligini ko’rishimiz mumkin bo’ladi. Ya’ni, tashqi muhit omillari sifatli mahsulot ishlab chiqarish zaruriyatini uyg’otsa, ichki omillar sifatli mahsulot ishlab chiqarishni ta’minlaydi. Umuman olganda, korxona tomonidan sifatli mahsulot ishlab chiqarish bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobat kurashida ustun kelishning zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli ham milliy iqtisodiyotning turli

tarmoqlarida xo‘jalik faoliyati yuritayotgan korxonalar sifatli mahsulot ishlab chiqarishga harakat qiladilar.

2-jadval

Mahsulot sifatiga ta’sir ko’rsatuvchi omillar va ularning guruhlanishi [5]

Mahsulot sifatiga ta’sir ko’rsatuvchi omillar					
Mahsulot loyihasi bilan bog‘liq omillar		Mahsulot ishlab chiqarish bilan bog‘liq omillar		Mahsulot sifatini boshqarish bilan bog‘liq omillar	
Loyihaviy omillar	Resurs tarkibi	Inson omili	Texnika	Sifatni nazorat qilish	Mahsulot sifatini baholash
- tashkiliy talablar; - estetik talablar; - ergonomik talablar; - texnik talablar; - ekologik talablar.	- mexanik xususiyatlar; - fizik xususiyatlar; - ximik xususiyatlar; - resurslar narxi.	- xodimlar ma’lumoti; - xodimlar kvalifikatsiyasi - xodimlarning kasbiy mahorati; - xodimlarning bilimi; - xodimlarning ishga munosabati.	- zaruriy texnika; - ishlab chiqarish imkoniyati; - aniqlik; - texnika moslashuvchanligi.	- statistik; - doimiy; - takroriy (rejali) - tanlanma	- faol nazorat vositasida; - avtomatik; - o‘lchov ko‘rsatkichlarining aniqligi; - mexanik.

Fikrimizcha, zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida mahsulot sifatiga inson omilining ta’sirini ham alohida keltirib o‘tish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Bunda korxona tomonidan mahsulot ishlab chiqarish sifatiga ta’sir ko’rsatuvchi inson omili bilan bog‘liq bo‘lgan ichki va tashqi muhit omillarini alohida keltirib o‘tish talab etiladi.

Shu o‘rinda N.S. Sachko tomonidan mahsulot sifatiga ta’sir ko’rsatuvchi omillarni aniqlash maqsadida o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga e’tiborni qaratish lozim. Unga ko‘ra, mahsulot sifatiga uning loyihasi (ya’ni, mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha ishlab chiqilgan loyiha), resurs tarkibi, inson omili, texnika, mahsulot sifatini nazorat qilish va yakuniy mahsulot sifatini baholash kabi omillar guruhi mahsulot sifatiga ta’sir ko’rsatadi, deb hisoblaydi. Fikrimizcha, mazkur mahsulot sifatiga ta’sir ko’rsatuvchi omillarni mahsulot loyihasi, ishlab chiqarish va sifatni boshqarish bilan bog‘liq omillar kabi yirik uch guruhga ajratish lozim.

3-jadval

Mahsulot sifatiga ta’sir ko’rsatuvchi omillar guruhi va ularning tarkibiy tuzilishi [6]

Mahsulot sifatiga ta’sir ko’rsatuvchi omillar			
Texnik omillar	Tashkiliy omillar	Iqtisodiy omillar	Ijtimoiy omillar
- ishlab chiqarilgan mahsulot turi va uni seriyali ishlab chiqarish; - texnik hujjatlar holati; - texnika, asbob va uskunalarning texnologik sifati; - sinovdan o‘tkazish uskunasi holati	- ishlab chiqarish materiallari va xomashyo bilan ta’minlanganlik holati; - texnika, asbob va uskunalarga xizmat ko’rsatish holati; - ishlab chiqarish bo‘yicha tuzilgan reja va uning bajarilishi;	- ish haqini to‘lash shakli va uning hajmi; - xodimlarni moddiy rag‘batlantirish; - mahsulot sifatini buzganlik uchun xodimlar maoshidan ushlab qolish;	- xodimlar bilan tushuntirish ishlarini olib borish holati; - xodimlarni ishga yollash, ularni joylashtirish va rotatsiya qilish; - xodimlar malakasini oshirish va ularni o‘qitish;

Shu o‘rinda yana bir iqtisodchi olim Ye.A. Yermolayevaning ilmiy tadqiqoti natijalariga e‘tiborni qaratish maqsadga muvofiq. Uning fikricha, mahsulot sifatiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarni texnik, tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy omillar guruhiga ajratish lozim.

Mahsulot sifatiga ta‘sir etuvchi omillar tahliliga ko‘ra, korxonada sifatli mahsulot ishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi, degan xulosaga kelish mumkin bo‘ladi.

Bunda ishlab chiqarish vositalari, texnika, xodimlar, xomashyo sifati bilan birgalikda, sifatli mahsulot ishlab chiqarish jarayonida xodimlarning ishtirokidan kelib chiqqan holda ularni rag‘batlantirish yoki aksincha, jarimaga tortish holatlarining keltirib o‘tilganligi tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy jihatdan ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Mahsulot sifatiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar tahliliga ko‘ra, tadqiqot ishining obyekti, uning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ularni tanlash va guruhlash bo‘yicha iqtisodchi olimlar tomonidan turli fikrlar bildirib o‘tilgan. Shu bilan birgalikda, bu turdagi omillarni aniqlash va ularni turli guruhlarga ajratishga mamlakatning iqtisodiy jihatdan rivojlanganlik holati bilan raqobat muhiti ham sezilarli darajada o‘z ta‘sirini o‘tkazadi. Bu esa olingan natijalar turli-tuman bo‘lishiga olib keladi.

Oziq-ovqat sanoati korxonalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning barchasi insonlarning oziqlanishi uchun mo‘ljallanganligi sababli bu turdagi korxonalar har qanday sharoitda ham mahsulot sifatini ta‘minlashi talab etiladi.

Mahsulot sifatiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarni tadqiq etish asosida mamlakatimiz iqtisodiyotining hozirgi rivojlanish bosqichida oziq-ovqat korxonalarida bu turdagi omillarni ichki, tashqi va inson omili bilan bog‘liq bo‘lgan guruhlarga ajratish zarur, deb hisoblaymiz. Shuningdek, “tashqi omillar guruhini iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy va texnik omillardan tashkil topgan sub guruhlar tashkil etsa, ichki omillar guruhi iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy va texnik sub guruhlardan iborat bo‘ladi” [7].

Oziq-ovqat sanoati korxonalari uchun ham tashqi omillar sifatli mahsulot ishlab chiqarish zaruriyatini vujudga keltiruvchi kuch sifatida baholanadi. Oziq-ovqat sanoati korxonalarida mahsulot sifatiga ta‘sir ko‘rsatuvchi ichki omillar korxonaning mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlarini o‘zida aks ettiradi.

Oziq-ovqat sanoati korxonalarida mahsulot sifatiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarni guruhlash bo‘yicha berilgan taklif umumiy xususiyatga ega bo‘lgan holda, ushbu tarmoqdagi turli korxonalar ularni tegishli tartibda to‘ldirishlari yoki unga o‘zgartirish kiritishlari mumkin bo‘ladi. Buning sababi bir tarmoqda xo‘jalik faoliyati yuritayotgan korxonalar ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan turli imkoniyatlarga egaligi, jumladan, ularning bozordagi tutgan o‘rni turlicha bo‘lganligi bilan izohlanadi. Shu bilan birgalikda, korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotga nisbatan iste‘molchilarning xatti-harakati ham turlicha bo‘ladi. Bu esa har qanday korxona mahsulot ishlab chiqarish sifatiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarni o‘zlari aniqlashi va ularni inobatga olgan holda bozor talabiga mos keladigan darajada sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarishi zarurligini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Казяева А.И. Факторы, оказывающие влияние на качество продукции // Современные научные исследования и инновации. 2016. № 6 [Электронный ресурс]. URL: <https://web.snauka.ru/issues/2016/06/68914>
2. Porter M.E. What is Strategy? // Harvard business rev. -Boston. 1996. Vol. 74, -№ 6. -P. 61-78
3. Backes, Ursula; Gellner, Winand; Meffert, Heribert: Marketing und Neue Medien. In: meienwissenschaft: rezensionen, Jg. 3 (1986), Nr. 3. DOI: <https://doi.org/10.25969/mediarep/11306>
4. Шацких Е.А. Факторы, влияющие на качество продукции в промышленном производстве // Альманах современной науки и образования. Тамбов: Грамота, 2014. -№ 12. -С. 140-142 ma‘lumotlari asosida tuzilgan.

5. Сачко Н.С. /Организация и оперативное планирование машиностроительного производства: учеб. пособие для вузов/ / Н.С./Сачко – Минск: Выш. шк. 1977. –591 с. ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.
6. Ермолаева Е.О. Контроль качества продукции и услуг: учебное пособие / Е.О. Ермолаева; Кемеровский технологический институт пищевой промышленности. – Кемерово, -2009. – С.160. ma'lumotlari asosida tuzilgan
7. Социально-экономическое развитие регионов в условиях кризиса. <http://elibrary.ru/item.asp?id=17924251>

UDK:338.3

O‘ZBEKISTON QURILISH MATERIALLARI BOZORINI YEVROOSIYO IQTISODIY ITTIFOQI BOZORLARIGA INTEGRATSIYALASHISH YO‘NALISHLARI

НАПРАВЛЕНИЯ ИНТЕГРАЦИИ РЫНКА СТРОИТЕЛЬНЫХ МАТЕРИАЛОВ УЗБЕКИСТАНА С РЫНКАМИ ЕВРАЗИЙСКОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО СОЮЗА

DIRECTIONS OF INTEGRATION OF THE UZBEKISTAN BUILDING MATERIALS MARKET INTO THE EUROASIAN ECONOMIC UNION MARKETS

Usubjonov Zaxriddin Vasliddin o‘g‘li,
Namangan muhandislik-texnologiya instituti,
“Menejment va Marketing” kafedrası – assistenti, PhD.

Annotasiya

Maqolada iqtisodiy integratsiya va unga a‘zo bo‘lish natijasida mamlakatlar ega bo‘ladigan imkoniyatlar yoritilgan. O‘zbekiston Respublikasi va Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a‘zo davlatlar eksport va import ko‘rsatkichlari tahlil etilgan. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy ittifoqqa a‘zo bo‘lishi natijasida erishiladigan ijobiy jihatlari keltirilgan. Samarali intergatsiyani amalga oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy integratsiya, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi, integratsion aloqalar, eksport, import, tashqi savdo.

В статье описывается экономическая интеграция и возможности, которые получают страны в результате членства. Проанализированы показатели экспорта и импорта Республики Узбекистан и государств-членов Евразийского экономического союза. Представлены положительные стороны членства Республики Узбекистан в экономическом союзе. Даны предложения и рекомендации по эффективной интеграции.

Ключевые слова: экономическая интеграция, Евразийский экономический союз, интеграционные отношения, экспорт, импорт, внешняя торговля.

The article describes economic integration and opportunities that countries will have as a result of membership. The export and import indicators of the Republic of Uzbekistan and the member states of the Eurasian Economic Union were analyzed. The positive aspects of the Republic of Uzbekistan’s membership in the economic union are presented. Proposals and recommendations for effective integration are given.

Keywords: economic integration, Eurasian economic union, integration relations, export, import, foreign trade.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 sonli «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi farmoni

tasdiqlandi. Taraqqiyot strategiyasining 28 maqsadida «Respublikani eksport salohiyatini oshirish orqali 2026 yilda Respublika eksporti hajmlarini 30 mlrd AQSh dollariga etkazish» rejalashtirilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2021 yilga nisbatan hisoblaganda salkam ikki barobarga o‘shishni bildiradi.

Taraqqiyot strategiyasida ko‘rsatilgan yettita ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish uchun, har bir yo‘nalishni rivojlantirish bo‘yicha alohida maqsadlar belgilandi. Taraqqiyot strategiyasining 97-maqsadida: Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish va Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirish etib belgilangan. Unda quyidagi asosiy yo‘nalishlar ko‘rsatilgan:

Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bozoriga samarali kirish uchun texnik jihatdan tartibga solish va standartlashtirish masalalari bo‘yicha milliy siyosatni Ittifoq tajribasi asosida yanada takomillashtirish;

Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi to‘g‘risidagi shartnomani chuqur tahlil qilish va tegishli takliflarni ishlab chiqish;

Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqining umummilliydan ustuvor bo‘lgan savdo siyosatini hamda uchinchi davlatlar bilan kelishuvlarini o‘rganish^[1].

«Iqtisodiy integratsiya» atamasi 20 asrning 30-yillarida nemis va shvetsiyalik iqtisodchilarning asarlarida paydo bo‘ldi. Nemis tarixchisi va huquqshunosi K.Shmidt^[2] tomonidan «katta makon nazariyasi» (Grossraumtheorie) mashhur bo‘lgan. Ma‘lum hududdagi mamlakatlarning o‘zaro iqtisodiy hamkorlikka erishishi – mintaqaviy iqtisodiy integratsiya deb ataladi. Integratsiyalashayotgan mamlakatlar tovarlar va ishlab chiqarish omillari harakatining to‘liq erkinlashtirilishi natijasida tashkil topadigan yagona iqtisodiy makon raqobatdosh firma va korxonalar sonini oshirishga imkon beradi J.Viner^[3] qisman muvozanatlik modelida «savdoni tashkil etish» (trade creation) samaradorligiga – integratsion guruhga a‘zo mamlakatlardan nisbatan arzonroq tovar import qilish bilan mamlakatda ishlab chiqarishni qisqartirishga, hamda «o‘zgarish» yoki «savdoni bekor qilish» (trade diversion) samaradorligiga – a‘zo mamlakatlardan nisbatan yuqori narxda tovar import qilish orqali guruhga kirmagan mamlakatlardan kirib kelayotgan importning to‘xtashiga yoki kamayishiga e‘tibor qaratgan. Uning fikricha «savdoni bekor qilish» mamlakat farovonligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi, chunki global samaradorlikni pasaytiradi, «savdoni tashkil etish» esa ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi, chunki bojsiz savdo zonasining tashkil etilishi munosabati bilan mamlakat ixtisoslashuvining chuqurlashuviga olib keladi. J.Mid^[4] integratsiyalashayotgan mamlakatlarda barqaror ishlab chiqarish xarajatlari g‘oyasini rad etishga intilgan hamda nisbiy narxlarning o‘zgarishini hisobga olishning zarur ekanligini ta’kidlagan.

1- jadval

O‘zbekistonning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi davlatlariga eksport ko‘rsatkichlari^[6]

mln. AQSh.doll

№	Davlatlar	2017	2018	2019	2020	2022	2023	2022 yilning 2017 yilga nisbati, %
1	Armaniston	1,3	2,6	2,8	4,2	19,8	31,9	15,2 marta
2	Belarusiya	27,4	41,3	48,8	42,5	127,9	128,8	4,6 marta
3	Qirg‘iziston	178,2	269,7	669,6	760,4	978,3	634,4	5,4 marta
4	O‘zog‘iston	1057,5	1352,1	1392,9	908,4	1393,1	1417,0	130
5	Rossiya	2019,1	2117,2	2531,8	1485,7	3099,0	3495,6	150

[6] Statistik ma’lumotlar asosida muallif ishlanmasi

Yuqoridagi jadvalda O‘zbekiston Respublikasining 2017-2022 yillarda Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a‘zo davlatlar bilan eksport ko‘rsatkichlari tahlil etilgan bo‘lib, 2022 yil davomida mamlakatimizdan 5618,1 mln AQSh.doll eksport amalga oshirilgan. Amalga oshirilgan eksportning 55 % Rossiyaga, 24 % Qozog‘istonga, 17 % – Qirg‘izistonga, 2 % i Belorussiyaga to‘g‘ri kelmoqda. Tahlil qilinayotgan davr oralig‘ida mamlakatimizning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a‘zo davlatlar bilan eksport ko‘rsatkichlari o‘shishni tashkil etdi. Ushbu davr oralig‘ida Rossiya bilan 1,5 baravarga, Qozog‘iston bilan 1,3 baravarga, Qirg‘iziston bilan 5,4 baravarga, Belarusiya bilan

4,6 baravarga va Armaniston bilan ham eksport ko‘rsatkichlari o‘shni tashkil etgan. O‘zbekiston va Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi mamlakatlari o‘rtasidagi savdo aylanmasi 2017-2021 yillarda 75% ga oshgan bolsa, 2022 yilda o‘tgan yilga nisbatan 1,3 baravarga oshgan. Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga yanada integratsiyalashgan holda O‘zbekiston tashqi bozorlarga chiqishda, xususan Vetnam, Eron, Serbiya va Singapur bilan savdo qilishda yanada qulay sharoitlarga ega bo‘ladi.

Hozirda O‘zbekistonning Yevroosiyo taraqqiyot bankiga qo‘shilish shartlari va tartiblarini kelishish jarayoni davom etmoqda. O‘zbekiston Respublikasining tegishli idoralari va Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi departamentlari o‘rtasida yaqin hamkorlik bo‘yicha qo‘shma yo‘l xaritasini muvofiqlashtirish ishlari davom etmoqda.

2- jadval

2017-2022 yillarda O‘zbekiston Respublikasining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi mamlakatlari bilan eksport va import ko‘rsatkichlari tahlili^[6]

CIF narxlarida, mln.doll.AQSh

№	Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi a‘zo davlatlar	Import			Eksport		
		2017	2022	O‘zgarish nishati,%	2017	2022	O‘zgarish nishati,%
1	Armaniston	2,2	5,1	2,3 marta	1,3	1,9	140
2	Belarusiya	154,9	411,6	2,6 marta	27,4	127,9	4,6 marta
3	Qozog‘iston	998,1	3243,5	3,2 marta	1057,5	1393,1	130
4	Qirg‘iziston	75,4	280,7	3,7 marta	178,2	987,3	5,4 marta
5	Rossiya	2709,4	6230,6	2,3 marta	2019,1	3099,1	150

[6] Statistik ma’lumotlar asosida muallif ishlanmasi

2017-2022 yillarda O‘zbekiston Respublikasining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi mamlakatlari bilan eksport va import ko‘rsatkichlari tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, O‘zbekiston Respublikasi Armaniston bilan import ko‘rsatkichi ushbu davrda 2,3 baravarga o‘sgan bolsa, eksport esa 1,4 barovarga o‘shni tashkil etgan. Tahlil qilinayotgan davr oralig‘da import ko‘rsatkichi bo‘yicha eng yuqori o‘sh Qirg‘iziston bilan amalga oshirilgan bo‘lib, u 3,7 baravarga o‘sgan, eng past o‘sh ko‘rsatkichi Rossiya va Armanistonga to‘g‘ri kelmoqda. Eksport bo‘yicha esa Qirg‘iziston va Belarusiya davlatlari bilan eksport ko‘rsatkichi sezilarli darajada yuqori bo‘lib, Qirg‘iziston bilan 5,4 baravar va Belarusiya bilan 4,6 baravarni tashkil etgan. Eksport bo‘yicha eng past o‘sh ko‘rsatkichi Qozog‘iston bilan 1,3 baravarga o‘shni tashkil etgan. 2019-2020 yillarda qurilish materiallarida bo‘yicha eksport va import sezilarli darajada o‘shga erishilgan.

2019-2020 yillarda O‘zbekistonning qurilish materiallari eksport va import aloqalarida sement, travertin, bazalt, shpatlevka, kraska va laklar, plastik qurilish materiallar, g‘isht, bloklar, plitkalar va boshqa keramika mahsulotlari kabi qurilish materiallari katta hajmni egallamoqdi. 2020 yilda 365 ming.dollarlik sement, 163 ming dollarlik kraska va laklar, 66 ming dollarlik travertin, 664 ming dollarlik shpatlevka va 2937 ming dollarlik plastik qurilish materiallari eksport qilangan.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya xo‘jalik hayotini baynalminallashuvi, liberallashuvi va transmilliylashuvi jarayonlarining chuqurlashuvi natijasidir. Globallashuv narx-navo va iste‘mol tovarlari sifatini unifikatsiyasini tezlashtiradi, global raqobat esa ularning doimiy takomillashuvini talab qiladi. Integratsion guruhlariga a‘zo bo‘lish orqali, ishtirokchi tashkilotlar iqtisodiy jihatdan quyidagi imkoniyatlarga ega bo‘ladilar :

- bozor chegaralarining kengayishi;
- tranzaksion xarajatlarning pasayishi;
- investitsiyalar oqimining ortishi.

O‘zbekiston Respublikasining turli xalqaro va hududiy integratsion tashkilotlar faoliyatida ishtirok etish orqali mamlakatimizda mavjud tabiiy-iqtisodiy, mehnat va moliyaviy resurslardan, xalqaro mehnat taqsimoti imkoniyatlaridan samarali foydalanishga, jahon xo‘jalik tizimida o‘ziga xos o‘rin egallashga urinmoqda. Hozirda mamlakatlar iqtisodiyoti asosiy va yetakchi tarmoqlarining

o‘xshashligi, ularning yaxlit hududiy birlikka ega ekanligi, suv va energetika manbalarining yagonaligi va ulardan birgalikda foydalanish zaruriyati, yagona transport va kommunikatsiya tizimining mavjudligi, ekologik muammolarning bir xilligi Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarning doimiy bo‘lishini ta‘minlaydi. Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi ulkan tabiiy, mehnat va iqtisodiy salohiyatga ega bo‘lib, ular uyushmaga a‘zo mamlakatlarga yirik raqobat afzalliklarini taqdim etadi va jahon iqtisodiyotida munosib o‘rin egallashga imkoniyat yaratadi.

Eksport salohiyatini oshirib borish esa barqaror valyuta tushumlarini ta‘minlashga, jahon xo‘jalik tizimida o‘ziga xos o‘rin egallashga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Mamlakatimizda dengiz yo‘llari yo‘q.

Bu transport xarajatlari muammolari bo‘lib, mahsulot tannarxi va raqobatbardoshlik darajasiga salbiy ta‘sir etadi. Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan iqtisodiy hamkorlik esa yirik transport xarajat talab qilmaydi. Shu bilan birga Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi o‘zimizda ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulotlar uchun yirik bozor hisoblanib bir turdagi tovarlarni katta miqdorda ishlab chiqarish imkonini beradi. Mahsulot miqdori va sifatini belgilashda qulaylik yuzaga keladi. Ulkan investitsiya loyihalarini amalga oshirishda moliyaviy mablag‘larni birlashtirishga imkon beradi.

«...O‘zbekistonning integratsion aloqalarini jadallashtirishga xizmat qiladigan omillar va sharoitlar orasidan quyidagi aniq-ravshan ustunliklarga ega, ya‘ni:

- ✓ O‘zbekistonning Yevroosiyo qit‘asidagi qulay geostrategik joylashuvi;
- ✓ muhim ilmiy-ishlab chiqarish va eksport salohiyati;
- ✓ rivojlangan ishlab chiqarish infratuzulmasi;
- ✓ yer, mineral-xomashyo va o‘simliklarning ancha katta zahirasi;
- ✓ nisbatan arzon ish kuchi mavjudligi»^[5].

Davlat tashqi savdo siyosatining eng muhim jihatlaridan biri - bu mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha olib borilayotgan siyosat hisoblanadi. O‘zbekistonda investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun keng ko‘lamli soliq imtiyozlari tizimi yaratilgan va shuningdek, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag‘batlantiruvchi bir qator chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Tashqi savdoda Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi mamlakatlari bilan ham ancha ijobiy natijalarga erishilmoqda. Fikrimizcha, mintaqaviy barqarorlik, mintaqa darajasidagi integratsiya jarayonlarini rivojlantirish masalalarini bartaraf etishda Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi davlatlari bilan ustuvor iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, erkin savdo zonalarini tashkil etish va Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi mamlakatlariga o‘zbek tovarlarini eksport qilish uchun asosiy bozorlardan biri sifatida qarash lozimdir. O‘zbekistonning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a‘zo bo‘lishi tashqi iqtisodiy cheklovlarni olib tashlash va ittifoqning mavjud a‘zo davlatlariga respublikaning keng iste‘mol bozoriga kirishni ta‘minlash imkonini beradi. Bu tovarlar va xizmatlar eksporti hajmini oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Bizning fikrimizcha, O‘zbekiston qurilish materiallari bozorini Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bozorlariga samarali integratsiyalashishida avvalo O‘zbekistonning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a‘zo davlatlar bozorlaridagi qurilish materiallari raqobatbardoshligini oshirish omillarini aniqlash bo‘yicha marketing tadqiqotlarini yanada jadallashtirish lozim.

Mamlakatimiz qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish va Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bozorlarida mustahkam o‘rin egallashida quyidagilarni amalga oshirilishi lozim:

Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi mamlakatlarining qurilish materiallari importi tarkibini tahlil qilish va mamlakatimizda qurilish materiallari ishlab chiqarishda mavjud standartlarni Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi talablariga moslashtirish;

Ishlab chiqarishda yangi texnika-texnologiyalarni joriy etish va zamonaviy qurilish materiallari ishlab chiqarishni yanada takomillashtirish;

Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi davlatlari bilan innovatsion qurilish materiallari ishlab chiqarish bo‘yicha o‘zaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish, amaliy tajriba almashish va ilg‘or texnologiyalarning o‘zaro transferini amalga oshirish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 sonli «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi farmoni lex.uz
2. Roberto Orsi «On the Relevance of Carl Schmitts Concept of Grosraum in Contemporary International Politics» September 2019 Journal of International Political Theory 17(1)
3. J.Viner “The Customs Union issue Carnegie Endowment for International Place” New-York 1950 year.
4. J.Mead “Theory of Customs Union” North Holland 1955 year4.
5. Alimov A.M. “Globallashuv va mintaqaviy iqtisodiy integratsiya jarayonlari” // Toshkent-2016.238-b.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlari stat.uz

УДК:338.312

ТЕХНИКО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ОБОСНОВАНИЕ ИЗГОТОВЛЕНИЯ БЕТОННОЙ СМЕСИ С СУПЕРПЛАСТИФИКАТОРОМ Chruso Delta 6325s”

**“СУПЕРПЛАСТИФИКАТОР CHRUSO DELTA 6325S” ЛИ БЕТОН
КОРИШМАСИНИ ТЕХНИК ИҚТИСОДИЙ САМАРАДОРЛИГИ**

**"TECHNICAL AND ECONOMIC EFFICIENCY OF CONCRETE MIXTURE WITH
SUPERPLASTICIZER CHRUSO DELTA 6325S"**

Кодирова Д.Ш. ТАСИ доцент,
Сайдуллаева Д.К. ТАСИ. Асс.

В статье рассматривается возможность изготовления бетонной смеси с применением суперпластификатора для тяжелого бетона, которая позволила снизить расход вяжущего и водоцементное отношение. Техничко-экономически обоснована экономическая эффективность введения в бетонную смесь суперпластификатора “Chryso Delta 6325s”.

Ключевые слова: суперпластификатор, экономический эффект, бетонная смесь, химическая добавка, себестоимость, расход, тяжелый бетон.

Мақолада суперпластификатор “Chryso Delta 6325s” “ни бетон қоришмасига қўшиб боғловчи моддани сарфини камайтириб оғир бетон ишлаб чиқариш қурилган ва ўрганилган. Бетон қоришмасига қўшилган кимёвий қўшимчадан техник-иқтисодий жиҳатдан бўлган иқтисодий самарадорлиги асослаб берилган.

Калит сўзлар: суперпластификатор, иқтисодий самарадорлик, бетон қоришмаси, кимёвий қўшимча, таннарх, сарф, оғир бетон.

In the article, the feasibility of producing a concrete mixture using a superplasticizer for heavy concrete is examined, which enabled a reduction in the binder consumption and the water-cement ratio. The technical and economic efficiency of incorporating the superplasticizer "Chryso Delta 6325s" into the concrete mixture is substantiated.

Keywords: superplasticizer, economic effect, concrete mixture, chemical admixture, cost, consumption, heavy concrete.

Бозор муносабатлари шароитида макроиқтисодий даражада саноат қурилишини барқарор ва самарали даражада ривожланиб бориши, қурилиш корхоналарини керакли даражада ишлаб чиқариш учун зарур бўлган сифатли ва арзон моддий ишлаб чиқариш харажатлари билан таъминланганлигига боғлиқ. Саноат қурилиш тармоғи 2019-2022 йилларда

ишлаб чиқарган маҳсулот ҳажми 30449,8 млрд. сўмдан 55522,7 млрд. сўмга, ёки 187,3 % кўпайган. Лекин шу давр ичида қурилиш саноати тармоғини ялпи ички ишлаб чиқарилган маҳсулотдаги ҳиссаси 6,3% дан 6,7% га кўпайган. Жаҳон иқтисодиётини ривожланишида бўлаётган глобаллашуви асосида ривожлантириш натижасида нафақат саноат тармоқларини технологик жиҳатдан ривожлантириб бориш балки, саноат қурилиш тармоғини барқарор ривожланиб боришини стратегик жиҳатдан барқарор ва самарали олиб бориш учун қурилиш соҳаларни ривожлантириш учун сифатли ва арзон қурилиш материалларни ишлаб чиқиш ҳам муҳим аҳамиятга эга.

Олиб борилган илмий тадқиқотни мақсади қурилиш соҳасида кенг ишлатиладиган бетонни кимёвий қўшимча қўшиб ундаги цемент сарфини камайтириб уни иқтисодий самарадорлигини аниқлаш. Бетон ва темир бетон ишлаб чиқаришда энг кўп фойдаланиладиган қўшимчалар пластикловчи қўшимчалар ҳисобланади. Ушбу турдаги қўшимчаларнинг юқори самарадорлиги, бетон ва арматурага салбий таъсир кўрсатмаслиги ҳамда нархнинг юқори эмаслиги билан фарқланади. Пластификаторларни асосий вазифаси-бетон қоришмасини ҳаракатланувчанлигини ошириб қаттиқлигини камайтириб, қоришмани суюқлаштиради. Бу эса ўз навбатида сувга талабчанликни камайтириш ҳисобида конструкцияларни шакллантириш жараёнини осонлаштиради, бетоннинг зичлигини ва мустаҳкамлигини ошириш ёки цемент сарфини камайтириш учун қўлланади.

Пластификаторлар сифатида қўлланиладиган сирт фаол модаллар қурилиш амалиётига омадли равишда кириб келди ва бугунги кунда анча кенг қўлланмоқда. Барча пластификаторлар классификациясига мувофиқ бетон қоришмаларнинг хусусиятларини тартибга солувчи қўшимчаларга ҳамда пластиклигини юқорилигига қараб бир қанча турларга бўлинади. Ушбу илмий ишда Chryso Delta 6325s-суперпластификаторидан фойдаланилди. Chryso Delta 6325s-- поликорбаксил асосида янги авлод юқори сифатли суперпластификатор ҳисобланади у бетон аралашмаси ҳамирининг ҳаракатчанлигини таъминлайди, иссиқ-иқлим шароитида бетонларни ишлаб чиқаришда яхши самара беради.

1-жадвал

1 м³ бетон қоришмасини ишлаб чиқариш учун хом- ашё харажатлари

№	Материаллар номи	Миқдори, кг\л	Нархи (сўм)	Умумий (сум)
1	Цемент	350	730	255500
2	Қум	650	250	162500
3	Чақиқ тош	1350	150	202500
4	Сув	210 л	400	84000
Жами				704500

Қўшимча цемент ва сув цемент нисбатини камайтиради, ҳаракатчанлигини оширади, унинг жойлашишида, зичланишида ва қотиш муддатини секинлаштиради, бетондаги ғовакларни камайтиради, қурилиш майдонига етказилгунча қоришмани қуюлиб, қатламланиб қолишини олдини олади ва бетонни юқори мустаҳкамлигини, сувга чидамлилигини, ўтказмасликни, умр боқийлигини оширади. Тавсия қилинадиган миқдори -0,5 % дан 1,6% гача цемент массасига нисбатан қўшилади. Ушбу илмий тадқиқот ишда қўшимча цемент массасидан 0,7% миқдорда қўшилган. Моддий харажатлар қийматини тежамкорлик кўрсаткичлари 1- нчи ва 2-чи жадвалларда келтирилган.

Суперпластификатор қўшимча қўшиб 1 м³ бетон қоришмасига кетадиган сарф харажатлари

№	Материаллар номи	Микдори, кг	Нархи (сум)	Умумий (сум)
1	Цемент	280	730	204400
2	Кум	650	250	162500
3	Чақиқ тош	1350	150	202500
4	Сув	146	400	58400
5	Суперпластификатор”Chryso Delta 6325s”	2,4 (0,7%)	10500	25200
Жами				653000

1 чи ва 2 чи жаdвални тахлили шуни кўрсатадики, бетон қоришмасига цемент массасига нисбатан 0,7% суперпластификаторни қўшиш, сув цемент нисбати эса 0,6 дан 0,5 га, цемент сарфини эса 70 кг га камайтириш имконини беради. Бетон қоришмасини тайерлашда цемент массасига нисбатан 0,7% микдорда суперпластификатордан фойдаланишдаги иктисодий самарадорлик хар 1 м³ бетон қоришмаси экономика учун 51500 сўмни ташкил қилди.

Фойдаланган адабиетлар рўйхати

1. У.А.Газиёв, Д.Ш.Кадиrowa Бетон в қоришмалар учун қўшимчалар. Ўқув қўлланма // 2015 й .155 б.
2. ГОСТ 24211-2003 “Добавки для бетонов и строительных растворов. Общие технические условия”.
3. Экономика строительства. Учебник под. Редакцией: проф. А.И.Арипова, А.Н.Нестеренко, А.К.Большакова. М.: Проспект, 2001 г.
4. Л.И.Дворкин, О.Л.Дворкин, Строительные материалы из отходов промышленности. Учебно-справочное пособие. Ростов-на-Дону: Феникс, 2007 г.
5. [http:// www/Lex/uz/](http://www/Lex/uz/)

UDK:339.976

STATUS OF AGRICULTURAL TRADE BETWEEN UZBEKISTAN AND CHINA

O‘ZBEKISTON VA XITOY O‘RTASIDAGI QISHLOQ HO‘JALIGI SAVDOSINING MAZMUNI

СОСТОЯНИЕ ТОРГОВЛИ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ПРОДУКЦИЕЙ МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И КИТАЕМ

Lu Diying, PhD Candidate, National University of Uzbekistan; Researcher at Institute of Innovation and Development of Silk Road of Beijing; Teacher at Inner Mongolia University of Finance and Economics, China.

Abstract

Along with the "Belt and Road" Initiative, trade between Uzbekistan and China has become increasingly close. This paper obtains relevant data from the World Bank database and uses the HS commodity classification method to analyze the scale and commodity structure of agricultural trade between Uzbekistan and China, and puts forward relevant suggestions for expanding the scale of bilateral agricultural trade.

Keywords: agricultural trade, commodity structure, science and technology

“Bir kamar, bir yo‘l” tashabbusi bilan bir qatorda O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi tovar ayirboshlash tobora yaqinlashib bormoqda. Ushbu maqola Jahon banki ma’lumotlar bazasidan tegishli ma’lumotlarni oladi va O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi qishloq xo‘jaligi savdosining ko‘lami va tovar tarkibini tahlil qilish uchun HS tovar tasniflash usulidan foydalanadi hamda o‘zaro qishloq xo‘jaligi savdosi ko‘lamini kengaytirish bo‘yicha tegishli takliflarni ilgari suradi.

Kalit so‘zlar: qishloq xo‘jaligi savdosi, tovar tarkibi, fan va texnologiya

Наряду с инициативой «Один пояс, один путь» торговля между Узбекистаном и Китаем становится все более тесной. В этой статье получены соответствующие сведения из базы данных Всемирного банка и использован метод товарной классификации HS для анализа масштаба и товарной структуры сельскохозяйственной торговли между Узбекистаном и Китаем. Выдвинуты соответствующие предложения по расширению масштабов двусторонней сельскохозяйственной торговли.

Ключевые слова: сельскохозяйственная торговля, товарная структура, наука и технологии

Located in the center of Central Asia, Uzbekistan is a famous ancient country on the "Silk Road" and has a long history of trade with China. With the deepening of the Belt and Road Initiative and the reform in Uzbekistan, China-Uzbekistan relations have made historic breakthroughs.

In January 2024, China and Uzbekistan reaffirmed their commitment to developing and deepening a comprehensive strategic partnership for the new era, with the objective of constructing a community of shared future between the two nations. As Uzbekistan's largest trading partner, bilateral trade between China and Uzbekistan experienced a significant increase of 40% in 2023. Furthermore, investment cooperation demonstrated positive momentum, with Chinese investments in Uzbekistan growing fourfold and the number of Chinese-invested enterprises in the country doubling.

Both Uzbekistan and China have unique geographical advantages, with abundant sunshine and rich land resources, which provide a natural advantage for agricultural development and make agricultural products important trade commodities for both countries. After many years of development, based on geographical and industrial advantages, the two sides have become each other's important agricultural product trade partners.

Status of Agricultural Trade between Uzbekistan and China

1.1 Total trade and balance of payments



Fig - 1. Agricultural trade between China and Uzbekistan, 2011-2023 (Unit: US Dollar thousand)

Source: WB database

Over the past 30 years since the establishment of diplomatic relations, China and Uzbekistan have continuously deepened their agricultural cooperation, building a rich and dynamic agricultural partnership. Affected by international economic trends, changes in domestic agricultural product output, and the COVID-19 pandemic, bilateral agricultural product trade fluctuated. In 2001, the total value of bilateral agricultural product trade was \$63,295,000, reaching a peak of \$10,135,600,000 in 2021, and dropping to \$52,848,000,000 in 2023. The lowest value in the past 12 years was \$46,231,000 in 2016. Overall, there have been fluctuations in the total value of bilateral agricultural product trade at different times, but the trade volume has remained stable, with Uzbekistan enjoying a trade surplus in bilateral agricultural product trade mainly because it is a major importer of Chinese silk and cotton.

1.2 Commodity structure of trade

At present, scholars around the world mainly use the HS standard and the SITC standard to collect and sort agricultural product data. In this study, we will define agricultural products according to the HS classification system, specifically including Section 1-4 Chapters 1-24 and Section 11 Chapters 50-53 .

Tab 1. ITC HS Code Major Sections

Sections	
1	Live animals; animal products
2	Vegetable products
3	Animal or vegetable fats and oils and their cleavage products; prepared edible fats; animal or vegetable waxes
4	Prepared foodstuffs; beverages, spirits and vinegar; tobacco and manufactured tobacco substitutes
11	Textiles and textile articles

Source : European Database

The main agricultural products exported by Uzbekistan to China are HS5(products of animal origin, not elsewhere specified or included), HS7(edible vegetables and certain roots and tubers), HS8(edible fruit and nuts; peel of citrus fruit or melons), HS50(silk), and HS52(cotton). In 2022, the total value of Uzbekistan's agricultural exports to China was \$448.9million, with export values of \$11.7million, \$120.9million, \$24.6million, \$16.3million, and \$261.5million for these five products, respectively. The highest value was for cotton, accounting for 58.2% of the total agricultural exports.

According to the statistics provided by the Uzbekistan Embassy in China, in addition to silk and cotton, Uzbekistan exported 14 kinds of agricultural products to China in 2020, mainly fresh fruits and dried goods. In 2021, the number of exported products increased to 17, including cherries, melons, peppers, pomegranates, green beans, sesame, raisins, apricot dried fruit, walnuts, grape seeds, peanuts, natural honey, dried chili peppers, etc. That year, more than 100,000 tons of various agricultural products were exported from Uzbekistan to the Chinese market. Currently, China ranks among the top three countries for Uzbekistan's agricultural product consumption, and the agricultural trade between the two countries has strong complementarity[1].

Uzbekistan imports mainly agricultural products from China under HS8(edible fruit and nuts; peel of citrus fruit or melons), HS9(coffee, tea, maté and spices), HS12(oil seeds and oleaginous fruits; miscellaneous grains, seeds and fruit; industrial or medicinal plants; straw and fodder), HS51(wool, fine or coarse animal hair; horsehair yarn and woven fabric), and HS52(cotton). In 2022, the total value of agricultural product imports from China to Uzbekistan was \$181.164 million, with the import values of the five categories being \$25.0million, \$55.5million, \$34.3million, \$10.8million, and \$20.8million, respectively. The highest value was for tea, accounting for 30.7% of the total agricultural products. Currently, China is the largest tea importer in Uzbekistan, accounting for about 80%.




Fig - 2. Trade Value of Agricultural Products between Uzbekistan and China in 2022 (Unit: US Dollar thousand)

Source: UN contrade database

For a long time, the Uzbekistan government has attached great importance to the development of agriculture, and the Strategy for the Development of Agriculture of the Republic of Uzbekistan for 2020-2030 has identified multiple strategic priorities for the development of agriculture. While striving to increase domestic agricultural product output, Uzbekistan's agricultural enterprises have also actively explored overseas markets. With the friendly agreements between the Uzbek and Chinese governments, more and more Uzbek agricultural enterprises have obtained export licenses to China, and more and more distinctive agricultural products have entered the Chinese market and won the favor of consumers.

However, by analysing the agricultural base and agricultural trade between Uzbekistan and China, it is found that there is a complementary relationship between the two sides in terms of agricultural products, but there is a single product problem in terms of agricultural trade, with the main trade varieties focusing on a few types of agricultural products and a lack of diversification and differentiation. This leads to a high degree of trade dependence, and in the event of a change in market demand or supply, trade between the two sides will be more affected.

In addition, Uzbekistan's relatively backward level of agricultural science and technology has resulted in low average yields and a lack of innovation in agricultural products, which has limited the growth rate of China's trade in agricultural products imported from Uzbekistan. In addition, Uzbekistan's low capacity for deep processing of agricultural products has resulted in low value-added export products, low unit prices and a lack of competitive advantage.

Recommendation

1.Strengthening support for scientific and technological innovation and increasing the added value of agricultural products

Within the framework of the national agricultural strategic plan, governments and scientific research institutions at all levels in Uzbekistan should pay attention to the development of agricultural and rural science and technology, improve superior varieties, upgrade the level of agricultural machinery and equipment, promote agricultural science and technology projects, and strengthen the training of agricultural technicians at the grassroots level. The government should encourage the active participation of social capital in the agro-processing industry, strengthen the organic linkage of agricultural production, processing and marketing, form a complete industrial chain, develop deep-processing agriculture and build superior brands for agricultural products.

2. Strengthening the construction of transport facilities and improving the efficiency of agricultural product logistics

In recent years, Uzbekistan has accelerated its participation in the "One Belt, One Road" programme and is actively engaged in the smooth flow of trade. Currently, air routes have been opened between a number of Chinese cities and Tashkent, the capital of Uzbekistan, and the opening of the China-Kyrgyzstan-Uzbekistan International Freight Route has facilitated the logistics and transport of agricultural products exported from Uzbekistan to the international market. However, the high cost of air transport and the long time required for road transport are not suitable for large-scale and long-distance transport of agricultural products, so improving railway construction in Uzbekistan and implementing China-Uzbekistan railway intermodal transport are crucial to promoting agricultural trade between the two sides.

3. Expanding the scale of agricultural trade and promoting all-round agricultural cooperation

Uzbekistan and China not only have complementary advantages in agricultural trade, but also have great potential for cooperation in terms of agricultural structure and industrial development level. In comparison, China is more mature and advanced than Uzbekistan in terms of agricultural technology, agricultural machinery, agricultural personnel, etc. Therefore, agricultural relations between Uzbekistan and China should not be limited to agricultural trade, but should be expanded into a variety of forms, including the construction of agricultural parks, cooperation in agricultural research and development, training of agricultural personnel, agricultural exhibitions and agricultural investment. Under the leadership of President Shavkat Mirziyoyev, Uzbekistan's economy is developing rapidly, and it is foreseeable that Uzbekistan's economic and trade relations with China will become even closer in the future, with better prospects for the development of agricultural trade between the two sides.

List of references:

1. Sayyora Khalmirzayeva, Agricultural policy reforms in Uzbekistan to increase the export share, 5th International Conference on Energetics, Civil and Agricultural Engineering (ICECAE 2024), March 2024
2. Deng Yu-jia, Research on the development potential and dilemma of agricultural trade between China and Uzbekistan, Economics & Management, April 2023
